

N. J. Abdusamatova

NUTQ O'STIRISH METODIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

N. J. Abdusamatova

NUTQ O'STIRISH METODIKASI

60110200- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik

**TOSHKENT
"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU
2023**

UO'K: 391.7

KBK: 774.267.1

Taqrizchilar:

NamDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti, PhD., **M.X.Asranboyeva**

QDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, PhD., **G.M.Nazirova**

NamDU maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti, PhD., **Sh.Xujamberdiyeva**

N. J. Abdusamatova // Nutq o'stirish metodikasi: darslik // "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU, Toshkent – 2023, 408 bet.

Ushbu darslik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini o'stirish metodikasi bag'ishlangan. Mazkur darslik pedagogika institutlarining maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalari, magistrleri, pedagogika kollejlari o'quvchilari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog-tarbiyachilari uchun mo'ljallangan. Darslikda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning mazmuni, maqsad va vazifalari, yo'nalishlari, shakllari, vositalari va metodlari yoritilgan.

Darslik oliy pedagogika o'quv yurtlarining 60110200 – maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etiladi.

Данный учебник посвящен методике развития речи дошкольников. Учебник предназначен для студентов старших курсов дошкольного образования педагогических институтов, магистров, студентов педагогических колледжей, педагогов-воспитателей дошкольных образовательных организаций. В учебнике разъясняются содержание, цели и задачи, направления, формы, средства и методы развития речи дошкольников.

Учебник рекомендован для студентов 60110200 - дошкольного образования бакалавриата высших педагогических учебных заведений.

This textbook is devoted to the method of developing the speech of preschool children. This textbook is intended for undergraduate students of preschool education of pedagogical institutes, masters, students of pedagogical colleges, pedagogues-educators of preschool educational organizations. The content, goals and tasks, directions, forms, means and methods of speech development of preschool children are explained in the textbook.

The textbook is recommended for students of the 60110200 - pre-school education bachelor's course of higher pedagogical educational institutions.

ISBN: 978-9910-756-79-5

© N. J. Abdusamatova, 2023

© "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU, 2023

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratilib, maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev "Biz maktabgacha ta'lim sohasida har jihatdan zamonaviy tizim yaratishimiz kerak. Kelgusi 3-4 yilda 5-6 yoshdagi barcha bolalarni maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olishga erishmog'imiz shart. Bu ertangi kunimizni hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshiramiz" - degan edi. Shu sababli ham maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni tinglash, fikrlash va muloqotga o'rgatish har qachongidan ham e'tibor kuchayib, uning ahamiyati ortib bormoqda. Tinglash madaniyati har bir inson uchun kundalik zaruriy, birlamchi ehtiyojlardan sanaladi. U diqqat va idrok bilan hamohang ravishda namoyon bo'ladi. Avvalo, tinglash madaniyati, umuman faol tinglash texnikasi oila davrasida, yaqin kishilar bilan aloqada bo'lish uchun zarur hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tinglash qobiliyatining yuqoriligi o'z-o'zidan keyingi jarayon faolligini talab qiladi, ya'ni fikrlash. Fikrlash esa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Zanjir kabi bog'liqlikni tashkil qilgan bu davomiylkning keyingi bosqichi esa fikrlashni nutqqa ko'chirishni taqazo etadi. Endi fikrlagan odam uni nutqqa ko'chirish uchun muloqotga kirishishi kerak bo'ladi. Taassufki, muloqotga kirishish ham osonlik bilan sodir bo'lmaydi. Ko'rib chiqqanimizdek, avvalo tinglashni, tinglagan ma'lumotni ongda muhokama qilib fikrlashni, paydo bo'lgan fikrni yetkazib berish uchun esa muloqotga kirishishini maktabgacha bo'lgan vaqtdan boshlashimiz kerak. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

O'tgan asrning o'rtalaridanoq rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlardagi maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish siyosati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar butun dunyoda ta'lim va tarbiyani insonning bolalik chog'laridan boshlab berish muhim ekanligini ko'rsatdi. Dunyoda maktabgacha ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni tinglash, fikrlash va muloqotga o'rgatishni yanada

rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishga doir qator izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilimlarni berish shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonetik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi.

„Bola, — degan edi K. D. Ushinskiy, — ilk yoshlik chog'idayoq xalq madaniyati elementlarini o'zlashtira boshlaydi, bularni avvalo, ona tilini bilish yoii bilan o'rganadi. Shu bois, bizning fikrimizcha, oilada, bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ona tilidan o'rinni foydalanmoq zarur“.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati juda katta. Butun dunyo xalqlarining xoh siyosiy, xoh madaniy taraqqiyotini tilsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki til eng muhim aloqa vositasi, jamiyat esa aloqasiz rivojlanmaydi.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1-bob 4-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi to'g'risida gap boradi. O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avlambor farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir.» - deb alohida ta'kidlaganlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga ta'lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi «Nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari» desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, nutq o'stirish nafaqat bolaning so'z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi paytda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Shunday qilib, pedagogika ilmining hozirgi bosqichida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga nisbatan qo'yiladigan talablar bilan ushbu talablar ijrosi o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'lmoqda. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, biz mazkur kitobda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali yo'llari hamda vositalarini ishlab chiqishda tayanch bo'ladigan nazariy, metodik usullarni yoritishga qaror qildik.

1-§. NUTQNI O‘STIRISH METODIKASI FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari.

2. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari.

3. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida bolalar nutqini o‘stirishning mazmuni.

4. Bolalar nutqini rivojlantirishning tashkiliy, pedagogik va metodik ishlari.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha yoshdagi bolalar, Sharq va G‘arb mutafakkirlari, pedagogik shart-sharoit, nutq, rivojlantirish, metodika, ta‘lim-tarbiya mazmuni, shakl, vosita, pedagogik va axborot texnologiyalar, uzluksiz ta‘lim.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ta‘lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishdir.

Nutq o‘stirish metodikasi pedagogik fan bo‘lib, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o‘rganadi.

Nutq o‘stirish metodikasi fanining asosiy vazifasi— nutq o‘stirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va bolalar bog‘cha-lari tarbiyachilarini ular bilan ta‘minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o‘zlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga harakat qiladilar.

Nutq o‘stirish metodikasining maqsadi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo‘lish malakasini shakllantirishdan iborat.

Nutq o‘stirish metodikasi boshqa xususiy uslubiyotlar kabi quyidagi savollarga javob beradi:

1) nimaga o'rgatish kerak (bolalarda qaysi nutqiy malakalarni tarbiyalash kerak);

2) qanday o'rgatish kerak (bolalar nutqini shakllantirishda qanday roit, qaysi usul va uslubiyotlardan foydalanish kerak);

3) nima uchun xuddi shunday o'rgatish kerak (nutqni rivojlantirish uchun taklif etilayotgan usullar nazariy va amaliy jihatdan qanday asoslangan).

Nutq o'stirish metodikasi vazifasi o'z ichiga bir qancha maxsus xususiy vazifalarni ham qamrab olgan. Jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi maxsus, xususiy vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.

5. Hikoya qilishga o'rgatish (monologik nutqni shakllantirish).

6. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Ushbu vazifalar har bir guruhdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga ko'ra quyidagicha taqsimlangan:

Kichik guruh bolalari tarbiyachining hikoyasini eshitib, uning savollariga javob bera olishi, mavzulardagi rasm yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga, avval eshitgan ertak va hikoyani xotirasida tiklab, uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishlari lozim.

O'rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.

5. Hikoya qilishga (monolog nutq) o'rgatish.

6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Maktabga tayyorlov guruhida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
5. Hikoya qilishga o'rgatish (monolog nutqni shakllantirish).
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
7. Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash.

1. *Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish, nutqini o'zlashtirish, lug'atini boyitish.* Lug'at ustida ishlash bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni atrof-olamdagi buyumlar, hodisalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va h. k. lar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, xususiyatlarini, xarakterlarini so'zlar bilan aytamiz.

Masalan, buyumlarning nomini anglatadigan: *ko'zgu, taroq, sovun, tish va kiyim* cho'tkalari, palos, gilam, javon, karavot, xontaxta; sabzavotlarning nomini anglatadigan: *sabzi, karam, sholg'om, bodring, baqlajon*; o'simliklar: *daraxt, gul, o't va boshqalar*; mevalar: *olma, nok, olcha, gips, olxo'ri va hokazolar*; uy hayvonlari: *xo'roz, tovuq, ot, sigir, it, mushuk, qo'y, eshak*; ularning bolalarining nomini bildiruvchi: *jo'ja, toychoq, buzoq, qo'zichoq, uloqcha, xo'tik*; harakatlarni ifodalovchi: *yuvimoq, artmoq, pishirmoq, tayyorlamoq, kir yuvmoq, dazmollamoq, ekmoq va boshqalar*; sifatlarini bildiruvchi: *katta, kichik, qizil, sariq, ko'k, zangori, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq va hokazo* so'zlar bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar lug'atiga kiritiladi, buning natijasida ularning lug'ati boyitiladi, nutqi rivojlanadi.

Bolalar bog'chasida lug'at bilan ishlash dasturi mavjud bo'lib, tarbiyachi bolalarga atrof-dagilar bilan tez nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan so'zlarni tanlab, maxsus usul va uslubiyot yordamida ular nutqiga kiritib boradi. Bolalarni so'zlarning ma'nosini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni o'z nutqlarida faol ishlatishga ham odatlantirib boradi. Shuningdek, tarbiyachi bola lug'atining qo'pol so'zlardan xoli bo'lishiga, shevaga oid (mahalliy) so'zlarni adabiy tildagi so'zlar bilan almashtirishga e'tibor berishi kerak.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. Lug'at tili—ning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning o'zaro bog'lanish usullarini

belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi) belgilaydi.

Bola atrofda gilaridan grammatik tomondan shakllangan nutqni eshitadi. Eshitganining ma'nosiga tushunish bilan birga, tilning grammatik tomonini egallaydi, modelini bilib oladi. Bola ona **till**— ning barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan shunchalik tez rivojlanadi. Agarda bolalarda nutqning grammatik tomoni noto'g'ri shakllansa, aqliy rivojlanishi ke~ chikadi.

Shuning uchun tarbiyachi grammatikaning (morfologiya va sintaksis) turli shakllarini o'zlashtirishga yordam beruvchi didaktik o'yin va mashqlarni tashkil etadi. Masalan, kelishik qo'shimcha-sini o'zlashtirish uchun „Top-chi, men qayerda boidim?“ (katta guruhda); ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'zlashtirish uchun „Men boshlayman, sen esa oxiriga yetkaz!“, otning kelishiklar bilan turlanishini o'zlashtirishda „Top-chi, nima yetishmaydi?“, fe'l zamonlarini o'zlashtirish uchun „Siz nima qilishni xohlay-siz?“ va hokazolar.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Bola, eng avvalo, tilning tovush tomonini egallashi kerak, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi lozim. Nutqning tovush tomoni ustida ishlash o'zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasiga asoslanadi. Bola kattalarga taqlid qilib, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatishga o'rganib oladi, ona tilining intonatsion tomonini o'zlashtiradi hamda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga odatlanadi. Ayniqsa, bola atrofda gilar bilan nutqiy muloqotda bo'layotganda samimiy ohangda, burro va aniq gapirishga o'rgatiladi. Har bir bolada nutqning bunday sifatlarini tarbiyalash, kelgusi hayotida, ya'ni maktabda, o'quv yurtlarida ta'lim olishda, mustaqil mehnat faoliyatida jamoa, jamiyat o'rtasida o'z fikrlarini to'liq va tushunarli qilib bayon etishda muhim ahamiyatga egadir.

Agarda tarbiyachi bola nutqidagi, tovush talaffuzidagi nuq-sonlar, ohang va tempga, diksiyasiga (aniq, burro gapirish), nutqining mazmundorligi va ifodaliligiga e'tibor bermasa, bunday nuqsonlar bilan. maktabga borgan bola bilimni o'zlashtira olmaydi va bu uning kelajakdagi mustaqil hayotida ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni nutqida nuqsoni bo'lgan bolaning nutqi boshqalarga tushunarsiz bo'ladi, o'z fikrini ifodalashda qiynaladi, uyaladi, natijada gapirmaslikka

harakat qilib, indamas, jizzaki bo'lib qoladi. Bularning hammasi uning ruhiy rivojlani-shiga ham ta'sir etadi.

4. *So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.* Bolalarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so'zlashish bolalarning kundalik faoliyatlari va turli voqea-hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo'lgan tushunchalarni aniqlash va uni bir tizimga solishda eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish — bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish). Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir. Bolani so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog'liqdir. Masalan, suhbatdosh bilan so'zlashayotgan vaqtda o'zining va suhbatdoshining nutqiga doimo e'tiborli bo'lish, suhbatdoshining nutqini aslo bo'lmaslik, savollarga odob bilan qo'l ko'tarib, ruxsat berilgach, javob berish, „ha“ yoki „yo'q“ deb qisqa javob bermay, balki shoshmay, o'ylab, so'ngto'liq, to'g'ri javob qaytarishga odatlantirishlozim. So'zlashganda o'rtacha ovozda fikrni tushunarli qilib bayon etish, nutqning yoqimli bo'lishiga e'tibor berish, shuningdek, gapirayotgan vaqtda yerga, tevarak-atrofga qaramay, balki o'rtoqlariga qarab, ikki qo'ini yonga tushirib, erkin, samimiy so'zlashishga o'rgatishi va buni har mashg'ulotda bolalardan talab qilib borish zarur.

5. *Hikoya qilishga (monolog nutqqa) o'rgatish.* Bolalarni maktabga tayyorlashda monolog nutqni rivojlantirish juda muhimdir. Monolog nutq boladan o'z fikrini tushunarli va izchil bayon qilishni talab etadi, bunday nutq turini esa bola 5 — 6 yoshda egallay boshlaydi. Chunki bu yoshda mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, bolada katta so'z boyligi to'planadi, tilning grammatik qurilishini egallab oladi. Nutqning monolog shakli bolalarga ko'rgan narsalari haqida batafsil va izchil so'zlab berishga, o'z fikrlarini to'g'ri tuzilgan jumlar orqali bayon qilishga imkon beradi.

6. *Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.* "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilanganidek, badiiy adabiyot mashg'ulotlaridan ko'zda tutilgan asosiy maqsad-kichkintoylar qalbida badiiy kitobga nisbatan havas uyg'otish bilan birga, ularning kitobxonlik savodini, kitobxonlik madaniyatini oshirishdan iborat.

"Badiiy adabiyot" bo'limida barcha guruh bolalariga o'qib va hikoya qilib berish uchun o'zbek va jahon xalq ertaklari, adabiy ertaklar, hikoyalar tavsiya etilgan. Kichik guruhlarda bolalarni adabiyot markaziga turli rang-barang kitoblar, rangli jurnallar, turli hil asar (ertak, hikoya)lar tasviri aks etgan audio va video tasmalar jamlanmasi yig'ilgan adabiyot markaziga hushmuomalalik bilan taklif etib mashg'ulotni boshlaydi.

7. *Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash.* Bolalarni savodga tayyorlash bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda savodga o'rgatish ikki davrga ajratiladi.

Tayyorgarlik davri.

Asosiy davr (Savodga tayyorlash).

Savodga o'rgatishning **tayyorgarlik davri** vazifalari sentyabr, oktyabr oylarida rejalashtiriladi. Bu davrda quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish.

2. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish.

3. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish.

4. Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

a) gapni so'zlarga bo'lish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;

b) ma'lum tovushlarning o'rnini aniqlash (so'zning boshida, o'rtasida va oxirida);

v) so'zda tovushlar ketma-ketligini va sonini aniqlash;

g) tovushlardan bo'g'inlar, so'zlar tuzishga o'rgatish;

d) tovushlarni eshitishda farqlashga o'rgatish;

Tayyorlov guruhida nutq, o'qish va savodga tayyorlash yo'nalishining savodga o'rgatish bo'limi 2-bosqichi - **asosiy davrida** (oktyabr-may) quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Berilgan tovushni harf belgisi bilan tanishtirish.

2. Kesma harflar yordamida tovush-harf tahlil va sintezi bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatib borish;

3. Bo'g'in o'qish;

4. Kesma harflar yordamida bo'g'in va so'zlarni tuzish va ularni bo'g'inlab o'qishga o'rgatish.

2. Sharq va g'arb mutafakkirlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari. Ta'lim va tarbiya muammosi juda qadimdan beri mavjud. U o'rta asrlardagi sharq va g'arb mutafakkirlarining asarlarida ko'rib chiqilgan. Usha davrning buyuk mukafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruiiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Jaloliddin Devoniy, Alisher Navoiy va boshqalar feodal zulm va mutaasib ruhoniylarning qattiq qarshiligiga qaramasdan jahon fanī, madaniyati, maorifiga beqiyos hissa qo'shdilar.

O'tgan davrlarda mehnatkashlarning o'z munosabatlarini uning yoshlarga tarbiyaviy ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida yo'lga qo'yish borasidagi tajribalarini nafaqat xalq pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi ob'yektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham o'rganish lozim.

O'rta asrlar Sharqning qomusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodatga yetaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi, bu esa uning dunyoqarashlarning umuminsoniy asosga egaligadan dalolat beradi.

Aynan shunday maqsadlar Forobiyning shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol rolga nisbatan dunyoqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi.

Uning fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya oilada, o'qituvchi yordamida maktabda va yaxshilikka asoslangan jamiyatda uning rahbari yordamida amalga oshirilishi mumkin;

Forobiy fikriga ko'ra, ta'lim — bu nafaqat aqliy rivojlanish, balki umuman ma'naviy rivojlanish, shu jumladan axloqan rivojlanish poydevoridir. Ta'lim va tarbiya o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ular shaxsni ma'nan kamolotga yetkazuvchi turli yo'llar hisoblanadi.

Forobiy ijtimoiy tarbiyani tartibga solish, uni boshqarish masalalariga alohida e'tibor bergan. U mehnat faoliyati tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi, degan xulosaga keladi.

Abu Rayhon Beruniy (971-1050 yilga yaqin) qomusiy olim sifatida tarixga kirgan. U fanni dindan ajratish zarur deb hisoblagan, aks holda-ning fikriga ko'ra, ilmiy bilimlar haqiqiy bo'la olmaydi. Olimning dinga bo'lgan tanqidiy munosabati ko'p jihatdan uning tarbiya va ta'limga bo'lgan munosabatlarini ham belgilab berdi.

Beruniy o'z asarlarida ta'limning uzluksiz, ko'rgazmali, aniq maqsadga yo'naltirilishi lozimligini va uning muayyan tizim asosida o'tkazilishi zarurligini ta'kidlagan.

Beruniy shaxs tarbiya jarayonida shakllanadi, deb hisoblagan. Bunda u mehnatga alohida o'rin bergan.

Beruniyning qarashlari cheklangan tusga ega edi, zero u ham o'sha davrdagi boshqa ko'plab olimlar singari fan va bilim jamiyat taraqqiyotida mutlaq ahamiyatga ega, deb bilgan. Biroq, fan, bilim, mehnatning ahamiyati haqidagi fikrlarning o'zi to'g'ri edi. Bilim olishning o'zini Beruniy kuch, vaqt va sabr-toqat talab qiladigan mehnat, deb hisoblagan.

Ibn Sino (980-1037) pedagogika masalalariga ijodiy yondoshgan. U bola tabiatini nafaqat tabib, balki yetuk pedagog sifatida ham chuqur bilishini namoyon qilgan. Olimning bolalarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ko'plab fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilganligi va tarbiyadek murakkab muammoni to'g'ri talqin qilishi bilan kishini lol qoldiradi.

Ibn Sino taklif qilgan tarbiya va ta'lim mazmuni aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashtirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va hunar o'rgatishlarni o'z ichiga oladi. Ibn Sino bola tarbiyasining butun mashaqqati va murakkabliklarini juda chuqur tushungan. «Tibbiyot qonunlari»ning «Tarbiya haqida» nomli bo'limida qo'yilgan masalalar aniq hal etiladi, bola xarakterini tarbiyalash haqidagi qimmatli fikrlar bildiriladi.

Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik ijodiyotida oilaviy tarbiyaga alohida ehtibor qaratiladi va bunda bosh rol oila boshlig'i — yani otaga beriladi. Ibn Sino nima uchun bolani onasi emas, balki tarbiyachi tarbiyalashi lozimligini tushuntirib beradi. Uning fikrlariga qaraganda, bolaning onasi o'z farzandi tarbiyasida ko'proq hissiyotlarga beriladi va bola tarbiyasida to'g'ri yo'lni tanlay olmaydi. Ibn Sino tarbiyachi oldiga aniq vazifalarni

qo'yadi: u o'z shogirdini qachon jazolashi yoki rag'batlantirishi mumkinligini yaxshi bilmog'i lozim.

Ibn Sino bola shaxsini hurmat qilish, bolaning tabiiy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uning qiziqishlarini o'rganishga chaqiradi. U yoshga qarab davrlarga bo'lib chiqishga harakat qilgan. O'smirlik davrini u beshta davrga bo'lgan: chaqaloqlik (bola tug'ilganidan boshlab yo'lga yurib ketgunicha bo'lgan davr); bolalik davri (yo'lga yurgandan so'ng); organizm chiniqqani va qoziq tishlari chiqqanidan keyingi davr; o'smirlik va jinsiy yetilish davri; o'smirlik davri (o'sish to'xtaguncha bo'lgan davr).

Yusuf Xos Hojib (1019-1020 yillarga yaqin) o'rta asrning boshqa ko'plab olimlari singari musulmon Sharq xalqlarining madaniy rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Uning «Taqvodorlar tuhfalari» devoni (XII asr) insonni axloqan tarbiyalash muammolari qo'rib chiqilgan dastlabki didaktik asarlaridan biri hisoblanadi. Shoirning so'zlashishdagi bosiqlik va odob qoidalari haqida bildirgan fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan: «Ma'rifatli kishining so'zlarini tingla. Tarbiya qoidalaridagi asosiy narsa — bu til, unga ehtiyot bo'lmoq lozim. Yaxshi so'zli kishi hurmatga, tili zahar kishilar esa nafratlanishga loyiqdir. Kishining ustidan kulma va uning jahlini chiqarma: o'q yetkazgan zahmat bitadi, so'z bilan yetkazilgan zahmat esa hech qachon bitmaydi».

Biroq o'z tasavvurida shoir kishilarda oliy axloq sifatlarini tarbiyalash orqali umumiy farovonlikka erishish mumkin, deya hisoblagani holda o'sha davrda hukmron bo'lgan dunyoqarashlardan yuqori ko'tarilmaydi. O'zbekistonda XVI asrdan keyingi asosiy pedagogik fikr yo'nalishlari va ularning xususiyatlarini tushunish uchun o'z zamondoshlari o'rtasida juda mashhur o'tgan qomusiy olim Jaloliddin Davoniy (1427-1502) asarlari bilan tanishish zarur.

Garchi Davoniy Eron hududida yashagan va ijod qilgan bo'lsa ham uning «Axloqi Jaloli» nomli asari oktabr inqilobiga qadar Samarqand va Buxorodagi madrasalarda o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan hamda o'rta Osiyodaga ko'plab ilg'or mutafakkirlarning (Yusuf Qorabog'iy, Abu Tohir Samarqandiy, Abdulla Avloniy) pedagogik va axloqiy qarashlarini shakllantirishda katga rol o'ynagan. Ushbu fundamental asarida Davoniy o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, O'zbekistonda XVI asrdan keyingi

asosiy pedagogik fikr yo'nalishlari tarbiya va ta'lim jarayonida ijobiy sifatlarga ega bo'lish lozimligi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Ayniqsa Alisher Navoiy O'zbekiston xalqi qalbidan chuqur joy olgan. Uning asarlari besh yuz yildan buyon ko'plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat g'oyalari, insonning oliy maqsadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy o'rin tutadi.

Navoiyning pedagogik qarashlari o'ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan, Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq, deb bilgan.

Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to'g'ri tarbiya berish zarur, fanlarni o'rganishni iloji boricha barvaqt boshlash lozim, deya ta'kidlagan.

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) G'arbning buyuk olimlaridan biri hisoblanadi. Uning pedagogik tizimi o'sib kelayotgan avlodni insoniylik, tinchliksevarlik, tenglik va birodarlik ruhida tarbiyalash g'oyalari bilan yo'g'rilgan.

Yan Amos Komenskiyning pedagogik merosi ulkan va ko'p qirralidir. Olimning chop etilgan falsafiy va pedagogik asarlari uning tarixiy ahamiyatini belgilab berdi. «Onalar maktabi»da qayd etilgan bolani dastlab oilada tarbiyalash va rivojlantirish g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligani yo'qotmagan. Hajmi kichik, biroq mazmuni juda chuqur bo'lgan mazkur asarni unda qo'yilgan muammolarning dolzarbligi va ahamiyatligi, ularni amalga oshirish uchun taklif qilinayotgan yo'llar va vositalarning soddaligi hamda ishonchliligi, nihoyat oila, ayollar, bolalar va ularni tarbiyalashga bo'lgan munosabatning insoniy yo'nalishga egaligi bo'yicha mumtoz asarlar sirasiga kiritish mumkin. «Inson zotini himoyalash eng avvalo beshiqdan boshlanishi lozim». Bundan ortiq sodda va dono fikr bo'lmaydi. Uddaburon olimlar qaysi bir ijtimoiy tarbiya tizimini kashf qilmasinlar, baribir bolalar hayot kechiradigan, ular jismonan va ma'nan rivojlanadigan muhit sifatida oila eng samarali tarbiya tizimi hisoblanadi.

«Onalar maktabi»ning bosh g'oyasi — oiladagi birlamchi tarbiyaning bola uchun quvonchli bo'lishi, uning kelajagini baxtli, ota-onalar uchun yoqimli va umidbaxsh, jamiyat uchun foydali qilishdan iboratdir.

Komenskiy tabiiy idrokni eng kichik yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirish g'oyasidan kelib chiqqan holda onalar maktabi oldiga kiyin vazifalarni, yani: bolalarga bilish (bilimga ehtiyojmandlikni tarbiyalash, bilimga chanqoqlik)ni, harakat qilish (mehnatkash bo'lish, o'zini boshqara olish va yaxshi amallar qilish)ni va gapirish (nutq va fikrlashni rivojlantirish)ni o'rgatish vazifalarini qo'yadi. Shu munosabat bilan u aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiyalash, nutq va fikrlashni rivojlantirish bo'yicha aniq maslahatlar beradi.

«Onalar maktabi»daga alohida bir bob «qanday qilib bolalarga nutqni mashq qildirish» lozimligiga bagishlangan. Komenskiy «aql va nutq»ni rivojlantirish uchun bir xil harakat qilish zarur deb hisoblagan. U «aql» va «nutq»qa organik birikma sifatida qaragan. Va bu tasodifiy emas, zero bola nutq tufayli o'z fikrlarini ifodalaydi va atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishadi, nutqni egallash orqali u atrofni o'rab turgan olamni anglaydi. Bolada nutq va fikrlash rivojlanadi.

U sensor rivojlantirish va tarbiyalashga alohida e'tibor bergan, chunki u siz aql va nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirib bo'lmaydi. Va buyuk pedagogning mazkur qoidaga rioya qilishni «didaktikaning oltin qoidasi» deb atagani ham bejiz emas.

Nutqqa taalluqli bo'lgan boshqa bir g'oyani Komenskiy ona tilini o'qitish, ona tilida o'rgatishni talab qilish shaklida ifodalagan. Maktabgacha yoshda ona tilini o'rgatish, Komenskiy xulosasiga ko'ra, ~ bu eng avvalo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, narsalarning nomini to'g'ri aytish va mos fikr bildirishdan iborat. Ushbu maqsadda Komenskiy ota-onalarga bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so'zlarni buzmasdan to'g'ri aytish, bolalarga talaffuzi qiyin bo'lgan va nisbatan uzun so'zlarni aytishni mashq qildirish va buning uchun o'yin uslubidan foydalanishni maslahat beradi. Komenskiyning xizmati shundan iboratki, u pedagoglar ichida birinchilardan bo'lib bola nutqini rivojlantirishda, uning ona tilini butun go'zalligi va milliy xususiyatlari bilan birgalikda o'zlashtirib olishida she'riyat, ertaklar, maqollar va matallar, tez aytishlarning tutgan o'rniga birinchi bo'lib e'tiborni qaratdi. Gapirishni boshlayotgan bolalarning kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so'zlovchining yuzini va uniing qo'l harakatlarini ko'rishlari, uning savollarini tushunishlari va to'g'ri

javob berishlari darkor, deb yozgan edi Komenskiy. Ona tabassumi va bola tomonga cho'zilgan qo'llar, imlash, kallani qimirlatib qo'yish, qayg'uli yuz va barmoq bilan do'q urish bularning barchasi so'zlovchining kayfiyatini ifodalaydi, buni bola qabul qilib oladi va u aytilgan fikrni tushunishga yordam beradi. Bu ritorik harakatlar muloqotda juda asqotadi, nutqni va fikrlashni rivojlantiradi.

Yan Amos Komenskiyning «Onalar maktabi» asari G'arbda va Rossiyada oilaviy tarbiyaning keyingi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Pestalotstsi va Frebelg; K.D.Ushinskiy va Ye.N.Vodovozova birlamchi oilaviy tarbiyaga shaxsni shakllantirish tizimidagi eng zarur bosqich sifatida qaraganlar. Bularsiz o'sib kelayotgan avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalash borasidagi barcha harakatlarimiz zoye ketadi.

3. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolalar nutqini o'stirishning mazmuni. Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassisleri va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan davlat o'quv dasturiga (2018-yil) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ikkinchi nashrini yaratish zarurati tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq yaratildi.

Davlat o'quv dasturining birinchi nashrini qayta ko'rib chiqish uchun quyidagi omillar asos bo'ldi:

- 2019-yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va unda belgilab berilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, shuningdek, maktabgacha ta'limda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari;

- 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni;

- dasturning birinchi nashrini qo'llashda orttirilgan tajriba va uning tahlili;

- 2021-yilda respublikamizning barcha hududlarida maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari mutaxassisleri, MTTning davlat, nodavlat va muqobil shakllari pedagoglari va metodistlari o'rtasida o'tkazilgan manzilli milliy so'rov natijasida aniqlangan fikr va takliflarining inobatga olinganligi;

- maktabgacha ta'lim dasturlarini yaratish bo'yicha o'tgan yillar davomida to'plangan xalqaro tajriba. Aynan, UNESCO ta'limning xalqaro standart tasnifi TXCT UNESCO 106-bandiga muvofiq ta'lim dasturlari tasnifi <http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/isced-2011-ru.pdf>; Finlyandiya o'quv dasturining qiymat doirasi va kompetensiyalari/www.oph.fi/en/education-and-qualifications/national-core-curriculum-ecce-nutshell; Britaniya Kolumbiyasi maktabgacha ta'limi dasturi uchun kompetensiyalar; Avstraliya maktabgacha ta'lim tizimi dasturi uchun kompetensiyalar.

- Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

- Mazkur hujjat maktabgacha ta'limning muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir.

- Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir.

- Kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar davlat o'quv dasturining quyidagi jihatlari o'z aksini topdi:

- *ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari* dasturning shaxsga yo'naltirilganligi, bola shaxsini hurmat qilish va har bir bolaning farovonligini ta'minlash zaruratini ta'kidlash uchun *batafsil ochib berildi va umumlashtirildi*;

- kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda *bolaning tayanch kompetensiyalari ochib berildi va to'ldirildi*;

- bolalar va pedagogning o'zaro hamkorligi yangi formatda, ya'ni "bolaning ovozini eshitish", uning fikrini hurmat qilish, shuningdek, bolalarning o'quv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirish va ko'paytirishga; loyiha faoliyati uchun mavzularni

tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirishga; individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlashga; kun davomida bolalar bilan o'quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta'lim olishni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholashga asoslangan holda taqdim etildi;

- Dasturning I bobi 3-bandida pedagogning roli ko'rsatib berildi. Ya'ni, pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Inklyuziv muhitni rejalashtiradi va yaratadi, bolaning rivojlanishiga hissa qo'shadi, kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi va tahlil qiladi. Bola, ota-onalar va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.

- *ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik yangilangan shaklda taklif etildi*, bunda ota-onalar va pedagoglarning umumiy maqsadi bolaga ta'lim va tarbiya berishdir; pedagog, oila va mahalliy hamjamiyat o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yanada xilma-xil imkoniyatlar taklif etildi;

- *ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari* bolalarning qiziqishlariga ko'ra, mustaqil faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlashda ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan *rivojlantiruvchi muhit* to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldirildi;

- Takomillashtirilgan o'quv dasturining IV bobining "Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati" bandida o'yinning ta'lim-tarbiya jarayonidagi rolining batafsil tavsifi keltirilgan.

- dasturning inklyuziv xususiyati MTTning alohida ehtiyojli har bir bolaning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limda qo'shimcha yordam ko'rsatish majburiyatlari bilan mustahkamlandi;

- rivojlanish markazlarida tashkil etilgan bolalarning faoliyati loyiha mavzusi bilan to'ldirildi;

- *namunaviy kun tartibida* ta'lim va tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt o'zgartirildi, bu esa o'z o'rnida bolalarning erkin o'yin faoliyati, bolalarning qiziqishlariga ko'ra mustaqil faoliyatiga, shuningdek, mavzuli loyiha faoliyatiga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi;

- O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, xalqaro tajribani, shuningdek, boshlang'ich ta'lim bilan uzviylikni ta'minlash maqsadida *o'quv reja* qisman o'zgartirildi;

- bola rivojlanishini kuzatish va baholash jarayonini optimallashtirish uchun *bolaning rivojlanish xaritalari* qisman o'zgartirildi. Dasturning V bobi qayta ko'rib chiqildi va qo'shimchalar kiritildi. Pedagog bolalarni turli joylarda, turli vaqtlarda va turli sharoitlarda kuzatadi. Kuzatish natijalarini bola rivojlanishi xaritasida hujjatlashtiradi. Bolaning rivojlantirish xaritasi yilga uch marta (o'quv yilining boshi, o'rtasi va oxiri) har bir bola uchun individual ravishda to'ldiriladi.

- takomillashtirilgan davlat dasturi 10 ta ilovadan iborat bo'lib, (birinchi nashrdagi 7 ta ilova berilgan) deyarli barcha ilovalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. 9-ilovada guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi quyidagicha ko'rsatilgan:

- ✓ Rivojlanish uchun mos jismoniy faollik uchun joylar
- ✓ Bolalar faoliyatining muayyan amaliy turlari uchun imkoniyat.
- ✓ O'zgarish va xilma-xillik.
- ✓ Xavfsiz o'quv muhiti

10-ilovada guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati keltirilgan

Davlat o'quv dasturini tadbqiq etishda pedagoglarga yordam tariqasida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga uslubiy yordam sifatida o'quv-uslubiy qo'llanmalar to'plami taklif etiladi. To'plam MTV mutaxassislari tomonidan BMTning O'zbekistondagi Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNICEF) bilan birgalikda ishlab chiqilgan bo'lib, oltita qo'llanmani o'z ichiga oladi: "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish"; "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish"; "O'yin orqali ta'lim olish"; "Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi"; "Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik"; "Kuzatish va baholash".

Loyihaviy mavzuli faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish uchun "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini mavzuli rejalashtirish" qo'llanmasi taklif etiladi.


4. Bolalar nutqini rivojlantirishning tashkiliy pedagogik va metodik ishlar: Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko'tarish maktabgacha ta'lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalardandir. Shuni hisobga olgan holda tevarak-atrofni o'rganishda maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolalarning nutqini rivojlantirish muammosiga oid tadqiqotni nutqni rivojlantirishni ta'minlaydigan omillarni aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin ekan:

- tilning adabiy me'yorlari va qoidalardan xabardorlik;
- o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olish;
- muloqotga kirib biling, kattalar va tengdoshlar bilan muomala qila olish;
- suhbatdoshni tinglay biling, so'rash (savollarni to'g'ri bera olish), javob berish, e'tiroz bildirish, zarur bo'lganda esa tushuntirish, izohlash.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda nutq-dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi (1-jadval).

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar dialogik nutqni nisbatan oson o'rganadilar. Bu quyidagilar bilan ifodalanadi: bolalar uyda, bolalar bog'chasida doimo dialogik nutqni eshitadi. Bundan tashqari, bolalar o'zaro muloqotda bo'lib, asosan dialogik nutqdan foydalanadilar.



Metodik adabiyotlarda bayon qilinishicha, adabiy til negizida asosan monologik nutq yotadi. Shuning uchun ham nutqni rivojlantirish ta'lim-tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Monologik nutq, muayyan mavzuga oid mantiqiy izchil gaplar ehklida ifodalangan hamda boshqalarga ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltirilgan fikrlar (tovushlar)ning uyushgan tizimini namoyon etadi.

Bok uchun monologik nutq, shubhasiz, psixologik jihatdan murakkab hisoblanadi. Gap shundaki, maktabgacha katta yoshdagi bola monologik nutqqa tayyorgarlik jarayonida, shuni tushunadiki, tinglovchilar (boshqalar) uning aytayotgan fikr-mulohazalaridan qandaydir qiziqarli narsani bilishni istaydilar. Bola intuitiv tarzda bo'lsada, monologik nutq rejasini mantiqan tuzish, maqsadini bayon etishga oid iboralami to'g'ri tanlash, gap tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga harakat qiladi.

Noqulay psixologik sharoit maktabgacha katta yoshdagi bolaga shunday muhit yaratadiki, uning o'zi bayon qilmoqchi bo'lgan o'z, ibora, gap ma'nosini tushunib yetmaslik bilan bog'liq bo'lgan «noqulaylik»ni his etadi.

Haqiqatan ham monologik nutq tinglovchiga maroqli va tushunarli bo'lishi uchun maktabgacha katta yoshdagi bola, avvalo, xotira va mantiqiy fikrlashga tayanmog'i lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning qanday ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari mavjud?

2. Sharq va G'arb mutafakkirlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari

3. Takomillashtirilgan "ilk qadam" davlat o'quv dasturida nutq o'stirish mazmuni.

4. Bolalar nutqini rivojlantirishning tashkiliy, pedagogik va metodik ishlari.

2-§. BOLALARNI NUTQINI O`STIRISH FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Bolalar nutqini o`stirishning mazmuni.
2. Bolalarni nutqini o`stirishning fanining maqsad va vazifalari.
3. Nutqini o`stirish metodikasiga oid nazariy ishlar.
4. *Maktabgacha ta'limdagi me'yoriy hujjatlari asosida bolalarni nutqini o`stirish.*

Tayanch tushunchalar: nutq, maqsad, vazifa, metodika, me'yoriy, xujjat, nazriy ishlar

1. Bolalar nutqini o`stirishning mazmuni. Ta'lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to'g'risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o`stirish metodikasi va amaliyotida o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Bu o'zgarishlar me'yoriy o'quv-metodik adabiyotlarda muayyan darajada o'z aksini topgan. Lekin, ularga hozirgi talablar nuqtayi nazaridan tanqidiy yondoshmoq talab etiladi.

Metodist olimlarning ko'pchiligi bolalar bog'chalarida bolalarning nutqini o`stirish shartlarini to'g'ri ta'kidlaydilar. Mazkur mualliflarning fikricha, nutq madaniyatining kamchiliklari bola shaxsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bola tengdoshlari bilan muloqotda qo'rs, odamovi, quntsiz bo'lib qoladi. Bundan tashqari, bunday bola da tevarak-atrofnı o'rganishga bo'lgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa maktabda darslarnı o'zlashtira olmaslikka *sabab* bo'ladi.

E'lon qilingan tadqiqot ishlarini umumlashtirib o'rgangan holda ularning ko'pchiligida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarnı hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqladik:

- tovushlarnı to'g'ri talaffiz qilishni shakllantirish (bolada avvalo nutq eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq egallaydi);
- aniq talaffuz hosil qilish (so'z va so'z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish);
- so'zni talaffuz qilganda urg'uni to'g'ri qo'yish ustida ishlash;
- nutqning orfoepik jihatdan to'g'riligi ustida ishlash (bu namunaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami);

- nutq sur'atini rivojlantirish;
- nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya'ni nutqning ongli ifodalanishi);
- nutqiy aloqa ko'nikmalarini tarbiyalash;
- nutqiy eshitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- nutqiy nafas olishni shakllantirish;
- o'z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va ota-onalarning roli benihoya kattadir.

Bolalar nutqi ustida ishlash jarayonida:

- a) tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lishlariga;
- b) tabiiy ohangda gapirishlariga;
- d) so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga;
- e) qo'llarini bamaylixotir holatda tutib turishiga e'tibor bermoq zarur.

Bizga ma'lumki, idrok bilan tafakkur o'rtasida uzviy aloqa mavjud, ular bir-birisiz yashanaydi.

Manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning so'z boyligini rejali, tarzda izchil kengaytirib borish zarur.

Bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun:

a) nutq o'stirishga doir tevarak-atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish;

b) bolalarning eslab qolishi va to'g'ri talaffiz etishi, so'zlashganda **tez-tez** foydalanishi, ahamiyatini tushunishi, zarur bo'lgan so'zlarning taxminiy ro'yxatini tuzish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning faol lug'atini boyitishda ulami tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim vosita sanaladi, tadqiqotchi A.M.Borodich shunday deb yozadi: «Bolalarni borliq bilan tanishtirishning ikkita yo'li bor»:

1) hissiy organlar bilan tashqi olamni bevosita idrok etish - bolalar predmetlarni kuzatadilar, ushlab ko'radilar, eshitadilar, tatib ko'radilar, u bilan harakat qiladilar;

2) bolalar tevarak-atrofdagilar haqida bevosita ma'lumot oladilar; tarbiyachi mehnat kishilari to'g'risida, tabiat bilan bog'liq hayot haqida gapirib beradi, bolalar kuzatgan hodisalarni tushuntiradi, kitob o'qib beradi, rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar namoyish etadi.

Xuddi mana shu tavsiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar bilib oladigan tevarak-atrof obyektlarini tasniflash uchun asos sifatida qabul

qilinishi mumkin. Shu bilan birga, bolalarda faol va passiv lug'at boyligi asta-sekin ortib boradi, nutq rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigari, ma'nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo'llaydigan so'zlami asta-sekin tevarak-atrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o'zining uncha ko'p bo'lmagan so'z zaxirasiga tayanib bilib oladi. Bola o'sib boradi, uning ehtiyojlari ko'payadi, yangi istaklari, qiziqishlari paydo boiadi.

Biroq tarbiyaning aqliy, axloqiy, mehnat va boshqa turlari bir maromda (bolaning yoshiga muvofiq) amalga oshishi uchun maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atidagi so'zlar miqdori ustida yetarlicha o'ylab ko'rilmaydi. Afsuski, bu masalaga tadqiqotchilar tomonidan ham tegishli darajada e'tibor berilmaydi. Ta'limiy-tarbiyaviy jihatdan nihoyatda dolzarb bo'lgan bu muanmo nazariy-metodologik va metodik jihatdan tadqiq etilmagan va ishlanmagan.

Hozirgi davr tadqiqotchilari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun (shu jumladan, nutqni rivojlantirish bo'yicha ham) namunaviy faol va passiv so'zlar lug'atini (hech bo'lmaganda taxmijniy) tuzishlari ham kun tartibidagi dolzarb masaladir. Ayniqsa, 5, 6 va 7 yoshdagi bolalar uchun lug'atlar tuzish nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, nafaqat so'zlarning miqdoriy tarkibini aniqlash (1500,2000 yoki 3000 - 4000 so'z), balki ulami mavzular va hayotiy ahamiyati bo'yicha ham hi- sobga olish muhimdir.

Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat tevarak-atrofnii o'rganish, obyektلامي asosli ravishda tanlash, balki ayni paytda eng ahamiyatli so'zlami ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi (ya'ni sifat tarkibi, ma'nosi) bo'yicha o'rganishni ta'minlash ham dolzarb masaladir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tevarak-atrofnii o'rganishda nutqini rivojlantirish uchun nazarda tutish lozim bo'lgan so'zlami mavzu jihatidan guruhlarga quyidagicha bo'lish mumkin:

- ota-onalar, qarindosh-urug'lar, tengdoshlar bilan bog'liq so'zlar;
- maishiy predmetlar, o'yinchoqlarni anglatadigan so'zlar;
- bola yashab turgan joydagi predmetlar va boshqa narsalami anglatadigan so'zlar;
- hovli, ko'cha, xiyobon, bog', tomorqadagi narsa-predmetlarni

anglatadigan soʻzlar;

- hayvonot olami, qushlar, sudralib yuruvchilar, hasharotlami anglatadigan soʻzlar;
- jonsiz tabiat obyektlarini anglatadigan soʻzlar;
- inson kasb faoliyatining har xil turlari (kasbi, ixtisosi, ish turlari va hokazo)ni anglatadigan soʻzlar;
- buyumlar, moslamalar, asbob-uskunalar, mashinalar, materiallar va hokazolarni anglatuvchi soʻzlar;
- pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tarix (axloq, maʼnaviyat, qadriyat) kabilar bilan bogʻliq soʻzlar;
- ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlar.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalar ayrim soʻzlarni oʻrganish bilan bir qatorda, iboralarni (osmonda yarim oy, oyoq yalang) ham talaffuz qilishni oʻrganishlari ularning bogʻlanishli nutqini oʻstirishga samarali taʼsir koʻrsatar ekan.

Maʼlumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi:

- tabiat obyektlari bilan tanishtirish mashgʻulotlarida;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish mashgʻulotlarida;
- savod oʻrgatishda;
- oʻyin faoliyatida;
- ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida.

Tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A.Fomichevalar metodik jihatdan muhim gʻoyani ilgari suradilar: «Bolani nutqqa oʻrgatish, - deb yozadi ular, - unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) maʼnosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtiros va tuygʻ ulami mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni oʻrgatish, adabiyot meʼyorlarini eslashni osonlashtirishga koʻmak berish demakdir».

Bola tomonidan nutqni oʻzlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga eʼtiborimizni qaratdikki, qoʻllanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qoʻllaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam eʼtibor qaratadilar.

Nutq oʻstirish boʻyicha aniq maqsadga qaratilmagan mashqlar

bolalarning bog'lanishli nutqini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsata olmasligi mumkindir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o'rgatish sohasidagi psixologo-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Nutqni rivojlantirish - bu bolaning individual rivojlanishida markaziy o'rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishiga oid o'ta murakkab va ko'p omilli jarayondir.
- Bu stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir.
- Bolaning nutqiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi pedagog ushbu jarayon qonuniyatlari, mexanizmlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini ko'ra bilishi va bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi shart.

«Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o'zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari zarur, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Yetti yoshga kelib, bola odatda, nutqning barcha grammatik shakllarini, ya'ni: otlarni turlash, eng ko'p qo'llaniladigan fe'llarni tushlashni bilishi lozim. Harakat belgisini (kenglik, vaqt, harakat obrazi) tavsiflash uchun ular ravishlardan foydalanadilar, buning uchun bolalar ulami so'z birikmasi va gap qatorida qo'llaydilar: tez yurdi, sekin gapirdi, chapga burildi va boshq.

Yetti yoshli bolalar nutqida old ko'makchilar ko'pincha nafaqat o'z ma'nosida, balki chet ma'noda ham qo'llaniladi. Shunisi diqqatga sazovorki, old ko'makchilar dastlab kenglik ma'nosi ko'rsatkichi sifatida to'rt-besh yoshli bolalar nutqida paydo bo'ladi (uydan, devordan uzoqlashdi); so'ngra besh-olti yoshli bolalar ushbu old ko'makchini obyektiv ma'no ko'rsatkichi sifatida ham qo'llaydilar (onamning sovg'asi, dadamning xati) va faqat, keyinroq, yetti-sakkiz yoshlarga kelib, bola sabab ma'nosini ifodalash uchun «dan» old ko'makchisidan foydalanishi mumkin (qo'rqanidan qichqirib yubordi, og'riqning zo'ridan yig'lab yubordi).

Yetti yoshga kelib, odatda, nutqning sintaktik qatori shakllanadi: bola oddiy gaplami, bir xil a'zoli gaplami to'g'ri tuzadi, bunda u biriktiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi bog'lovchilarni qo'llaydi; u o'z nutqida qo'shma gaplardan, ko'pincha esa turli xil sintaktik munosabatlarni ifodalovchi ergashgan qo'shma gaplardan foydalanadi: qo'shimcha gaplar - «Kamol nima ko'rganligimizni so'radi»; maqsadli gaplar - «Biz oziq-ovqat xarid qilish uchun do'konga ketayapmiz»; shartli gaplar - «Agar yomg'ir yog'masa, biz sayr qilgani chiqamiz» va boshq.

O'z taassurotlari haqida hikoya qilgan ekan, olti yoshli bola ravon monologik nutq shaklidan foydalanishi lozim.

Aynan bir fikmi turli vositalar yordamida rasmiylashtirish maktabga tayyorlash guruhidagi bolalarda grammatik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga doir ishlarning asosiy turi bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar o'yin-kulgi qilayotgan syujetli suratni tahlil qilishda qator gaplarni tuzish mumkin: «Bolalar quvonchdan sakrab yuborishdi», «Xursand bo'lib, bolalar osmonga sakradilar»; «Bolalar sakrab yuborishdi, chunki ular xursand edilar». Aynan bir mavzuda turlicha gaplar tuzishga doir bunday ishlar maktabgacha yoshdagi bolalar bitta fikmi turlicha ifodalash imkonini beradi. Mashg'ulotlarda tarbiyachi ataylab bolalarga bir-birining o'rini bosishi mumkin bo'lgan gaplar tuzishni o'rgatadi.

Aynan bir mavzuga oid gaplar variantlarini yaratish uchun didaktik o'yinlar, syujetli rasmlar, badiiy matnlardan foydalanish mumkin. Bitta fikmi ifodalash uchun turlicha gaplar tuzishga oid ishlar yetti yoshli bolalarda grammatik to'g'ri nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy o'rinni egallashi lozim.

Bu yoshdagi bolalarga nutqda sifatdoshlarni qo'llashni o'rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlarning ikkinchi yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Bolalar nutqiga sifatdosh shakllarni kiritish uchun bolalar, kattalar, hayvonlar, qushlarning turli harakatlarini tasvirlovchi suratlardan foydalanish mumkin (o'qiyotgan bola, raqs tushayotgan qiz, yugurayotgan quyon va h.k.).

Bolalar surat asosida gap tuzadilar: «Bola o'qiyapti». Tarbiyachi o'qiyotgan bola so'z birikmasini tuzishga yordam beradi. Tarbiyachi so'z birikmasidagi sifatdoshni aytadi, so'ngra bolalardan so'raydi: «Qaysi bola?» - «O'qiyotgan bola».

Mashg'ulot uchun eng ko'p qo'llaniladigan fe'llarni olish va ulardan hozirgi zamondagi haqiqiy sifatdoshlarni hosil qilish darkor. Bolalarga hech qanday atamalar ma'lum qilinmasligi kerak, bunda ularning ayrim sifatdoshlarni esda saqlab qolishlari va zamr bo'lganda ularni o'z nutqiga qo'sha olishlari juda muhimdir.

Bolalarning sifatdoshlarni qo'llashlariga oid ishlar tabiatni kuzatish chog'ida, rasm chizish mashg'ulotlarida, badiiy adabiyotni o'qish jarayonida o'tkazilishi mumkin. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Predmetni, lining belgilarini ko'rsatish va nomini aytishni ularning mohiyatini ochib beradigan izohlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Masalan, tushayotgan barg so'z birikmasida - bu tushayotgan bargdir. Bolalarga tanishtiriladigan sifatdoshlarni yaxshisi, oldin alohida-alohida, keyin jo'r bo'lib aytgan ma'qul.

2. Muayyan so'zning hosil bo'lishini tushuntirib berish: «chizayotgan» so'zi chizmoq so'zidan, «raqsga tushayotgan» so'zi raqsga tushmoq so'zidan hosil bo'lganligini aytish lozim.

3. Sifatdoshga savollar qo'yish: «Dala qanday, sarg'ayaptimi?»
- «Sarg'ayapti».

4. Ot va sifatdoshdan iborat bo'lgan so'z birikmasi asosida gap tuzish: «sarg'ayayotgan barglar - olmaning sarg'ayayotgan barglari ko'rinib turibdi», «varillayotgan samolyot - varillayotgan samolyot shahar ustidan uchib o'tdi» va h.k.

Agarda o'qilayotgan asar matnida sifatdosh uchrasa, bolalarning uni hikoya qilib berishida mazkur sifatdoshni u taalluqli bo'lgan otlar bilan birgalikda qo'llashlariga, tarbiyachi savol berganida esa ushbu sifatdosh hosil bo'lgan fe'l nomini ayta olishlariga e'tibor berish juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarga mustaqil hikoya- tavsiflar (o'yinlar, narsalar bo'yicha) yoki syujetli suratlar turkumi asosida hikoyalar tuzishni o'rgatish maqsadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni o'tkazishda tarbiyachi bolalarning o'zlariga ma'lum bo'lgan barcha grammatik shakllarni qo'llashlariga erishishi lozim: Otlarning kelishik shakli va sifatlar, sifatlar to'liq va qisqa shaklda, sifatarni taqqoslash darajalari (yuqori, baland, eng baland); fe'llarning tuslanadigan shakllari; eng keng tarqalgan ravishlar (o'ngga, chapga, oldinga, orqaga, bu yerda, anavi yerda, yuqorida, pastda, yaxshi, tez),

hozirgi zamon haqiqiy sifatdoshlari; old ko'makchilar va bog'lovchilar. Bolalar nutqining sintaktik qatorini rivojlantirar ekan, tarbiyachi bolalarning oddiy gaplarni, bir xil a'zoli, oborotli gaplarni, qo'shma gaplarni to'g'ri tuzishlariga e'tibomi qaratishi lozim. Faqat yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha grammatik shakllami o'zlashtirgan taqdiridagina bola maktabda o'qishjra yaxshi tayyorlangan bo'ladi.

2. Bolalarni nutqini o'stirishning fanining maqsad va vazifalari.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishni, fikrlashi, shuningdek, MTT larda ham innovatik g'oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko'rsatishi zarur.

Bolalarni nutqini o'stirish metodikasi – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Metodikaning asosiy vazifasi–ilmiy-pedagogik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab chiqish hamda bolalarda zarur nutqiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirishlari uchun bolalar bog'chalari tarbiyachilarini ular bilan qurollantirishdan iboratdir.

Bolalarni nutqini o'stirish metodikasining asosiy mazmuni – bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti ko'nikmalarini shakllantirishdir. Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o'qitish (bolalarda qanday nutqiy ko'nikmani tarbiyalash), qanday o'qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega aynan shunday o'qitish zarur (nutqni

rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma'lumotlariga asoslanmoqda).

Bolalarni nutqini o'stirish nazariyasida bolalarga ona tilini o'rgatishning ob'ektiv xususiyatlari aks ettirilgan, nutqni rivojlantirish metodikasi sohasida O'zbekiston Respublikasida va xorijda yaratilgan va hozirda mavjud bo'lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan.

Bolalarni nutqini o'stirish nazariyasi metodik amaliyot bilan birgalikda rivojlanmoqda. Ayrim metodik qoidalarning yashovchanligi amaliyotda tekshirib ko'rilmoqda, amaliyotning o'zi fan oldiga hali o'z yechimini topmagan muhim masalalarni qo'ymoqda.

Metodik nazariyani bilmaydigan tarbiyachi faqat o'z farazlaridan kelib chiqib yoki boshqalarning tajribalaridan nusxa ko'chirgan holda bolalarni ko'r-ko'rona tarbiyalaydi. U ko'p narsani nazardan qochiradi, chunki rang-barang metodlar va usullarni bilmaydi.

Bolalarni nutqini o'stirish metodikasi maktabgacha ta'limdagi boshqa xususiy metodikalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi, chunki nutq - bola shaxsini to'la-to'kis, rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Atrofdagalar nutqini tushunish va bolaning o'z faol nutqi har qanday pedagogik jarayonda zarur. Nutq bolaning butun faoliyatida unga yo'ldosh bo'ladi.

Pedagog kadrlarning uzluksiz ta'lim olishini tashkil etish muammolari bir qator xalqaro tashkilotlarda, jumladan, Jahon ta'limini rejalashtirish instituti (Parij), YUNESKOning ta'lim bo'yicha instituti (Gamburg), Oliy ta'limning Yevropa Markazi (Buxarest), Yevropa Muallimlar ta'limi Assotsiatsiyasi (ATEE) va boshqa qator ilmiy tashkilotlarda tadqiq etilmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlarga yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi lozim. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzluksiz ta'lim bosqichlarining nechog'lik samarali ishlashi ma'lum darajada maktabgacha ta'lim sifatiga bog'liq: bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo'ladi. Unga to'g'ri mazmun va yo'nalish berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont'ev).

Ilmiy tadqiqotlar va yo'nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta'lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o'qitish zarurligi masalasini ko'tarib chiqdi. U tomonidan o'tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958-1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o'zbek bolalariga ruscha og'zaki nutqni o'rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan.

XX asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbayeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda o'qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. S.O.G'oziyeva tomonidan (E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'zbek xalq og'zaki ijodidan (xalq ertaklari, o'yinlar) foydalanish asosida atrofdegilarga adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi.

1979-yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili va o'zga tilni (rus, o'zbek) o'qitish muammosi O'zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi (F. R. Qodirova, R. M. Qodirova, G. X. Jumasheva, D. R. Babayeva, D. Abdurahimova, L. R. Mirjalilova, N. Sh. Nurmuhamedova va boshq.).

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik - o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa - ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda

nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

V. I. Loginova, Y. S. Lyaxovskaya, V. V. Gerbova, Ye. M. Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atni o'zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko'rsatilgan: atrofda olam lug'atini (so'z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lug'atni til birligi sifatida o'zlashtirish. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig'ida ham, til mantig'i borasida ham so'z ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ravon nutqi tadqiqotchilari Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Flerina, A.M.Leushina, LA.Penyevskaya va boshqalar bolalarning og'zaki nutqi va hikoya qilishni o'zlashtirishining o'ziga xos xususiyatlari, dialogik va monologik nutqning o'zaro bog'liqligini chuqur tushunish asosiga quriladigan ravon nutqni o'qitish tizimiga asos solishgan. Ular tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chiqilgan bo'lib, uning asosini fikr bildirish manbasi: predmetlarni tavsiflash, adabiy matnlarni hikoya qilib berish, suratga qarab hikoya qilish, shaxsiy va jamoa tajribasidan misol keltirish, ijodiy hikoya qilishlar tashkil etadi.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish

(F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining soʻz hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni oʻrganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga eʼtiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Bolalar tomonidan tilning tovush tizimini oʻzlashtirilishi boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlarda (G.M.Lyamina, Ye.L.Radina, GA.Tumakova, A.I.Maksakov, M.L.Gening, NA.German va boshq.) oʻrganish predmeti sifatida xizmat qildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha taʼlimning nazariyasi hamda amaliyoti uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.

Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshiradi (F.A.Soxin, YE.M.Strunina, A.M.Borodich, M.R.Lvov va boshq.).

Nutq yaxlit faoliyat va nonutqiy harakatga qoʻshilgan nutqiy harakat kabi til orqali bogʻlangan tarixan shakllangan muloqot shakli sifatida koʻrib chiqiladi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, I.A.Zimnyaya).

Modelda fahmlab yetilgan axborotni nutq yordamida uzatish, yaʼni nutqiy semantika muammosi; bunda grammatik qoidalardan foydalanish, yaʼni tilni ishga solish; akustik kanalni ishga tushirish imkoniyati; nutqdan muloqot va ijtimoiy aloqa vositasi sifatida foydalanish; ushbu barcha hodisalarni miya harakatiga muvofiq holda tavsiflash kabi hodisalar oʻz izohini topishi lozim¹.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lugʻatining va soʻzlarning assotsiatsiya asosida bogʻlanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy oʻzgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan oʻzgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bogʻlangan holda soʻzning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish

¹ Ушинский К.Д. Родное слово // Собр.соч. - М., 1949. Т. - С. 242-243

jarayonidir»².

XIX asrning o'rtalaridan boshlab, nutq ontogenezi olimlarni qiziqtirib qoldi. K.D.Ushinskiy³ bolalarni ona tilida o'qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o'qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o'zlashtirishlarining til bilan tafakkuming o'zaro munosabatlarini falsafiy jihatdan chuqur anglash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o'z fikrlarini bildirdi.

Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning⁴ madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning⁵ faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan.

Natijada bolalar nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro'y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalarning nutq namunalarini sust ravishda qabul qilib olmaydi, balki u nutqni umuminsoniy tajribaning bir qismi sifatida faol o'zlashtiradi.

A.A.Leontev¹² L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish - bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi.

Til qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomondan, nerv-psixologik mexanizmlarining yetilganligi bilan, o'zga tomondan esa, ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq.

M.I.Lisina konsepsiyasi ruhida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muloqot - bolada so'zning paydo bo'lish fakti, vujudga kelish muddatlari va bola nutqi rivojlanishining sur'atlarini belgilab beruvchi muhim omildir. Ontogenezda nutq dastlab muloqot vositasi sifatida, keyinchalik esa - fikrlash, o'z xulqini boshqarish vositasi sifatida rivojlanadi.

Nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurda bola nutqini ri-

² Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. - 1972. - № 9. С.95-108.

³ Ушинский К.Д. Родное слово. // Собр.соч. - М., 1949. Т. - С. 242-243

⁴ Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Педагогика, 1982. Т. 2.

⁵ Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. - 1972. - № 9. С.95-108.

vojlantirish, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, o'zga tomondan esa - to'satdan yuz berishlik, «o'zini-o'zi harakatga keltirish» bilan tavsiflanishi tushuniladi. Bolalarning passiv nutqni o'zlashtirib olishlari va ularning dastlabki so'zni aytishlari hal qiluvchi darajada quyidagi uch jihatga, ya'ni emotsional aloqalar, birgalikdagi harakat Chog'idagi aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo'lgan kommunika-omilga bog'liq bo'ladi.

Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini mu- loqotni ta'minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutq o'z ichiga oladi. U mazmunlilik, mantiqlilik va Izchilligi bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik O'zlashtirganligining ko'rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estetik, emotsional jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Monologik nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasining rivojlanishi bolalar ravon nutq turlari va fikr bildirishning turli xillarini o'zlashtirish xususiyatlarining chuqur tadqiq etilishi bilan tavsiflanadi. Izohlovchi nutqlar, mulohaza shaklidagi jumlar- xususiyatlari o'rganiladi va uning negizida bolalarga monologlarning turli xillarini o'rgatish metodikasi yaratiladi. F.A.Soxin, O.S.Ushakova va ularning shogirdlari tomonidan ravon nutqni shakl- lantirishning turli jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ravon nutqni baholashning shunchaki mantiqlilik, izchillikdan ko'ra yanada aniqroq mezonlarini qidirishni galdagi vazifalardan biri qilib qo'ydi. Ravonlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida so'zlar, gaplar va fikrlarning qismlari o'rtasida zarur aloqa vositalaridan foydalangan holda, matnni tarkibiy jihatdan to'g'ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan. Olimlar bolalami o'qitishni ularning yuqori darajadagi aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini ta'minlash, til qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradigan darajada optimal tashkil etish yo'larini topish borasida faol ish olib bormoqdalar. Nutqni o'qitishning nazariy va empirik muammolarini tadqiq etish quyidagi nazariy qoidalardan kelib chiquvchi umumiy boshlang'ich pozitsiyalarga ega:

- ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda, ayniqsa, zamonaviy noqulay nutqiy muhit sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega;

- nutqni o'rgatish - «...dan to ...gacha» kabi qattiq qoliplar to'g'ri kel-

maydigan hamda nutqni rivojlantirishning yosh qonuniyatlari va bolaning individual xususiyatlari bilan belgilanadigan ijodiy jarayondir;

- nutqni rivojlantirish asosida kommunikativ yondashuv bo'lishi kerak, xususan: ona tilini o'zlashtirish nutqiy muloqot faoliyatiga qo'shilishi, o'quv sharoiti tabiiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilishi lozim;

- o'qitish vaziyatida katta yoshli odamning bola bilan o'zaro hamkorligining xususiyati ushbu bola uchun yetakchi bo'lgan muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;

- til ustida nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida hamda uning barcha komponentlarini: undov-motivatsiya, yo'naltirish-tadqiqot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda ish olib borish zarur;

- nutqni o'qitish bolalarning tilni o'rganish bo'yicha mustaqil faoliyatiga asoslanishi va bolalar faolligining boshqa turlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Hozirgi paytda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish muammosini ishlab chiqish mazkur metodologik holatlardan kelib chiqqan holda olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- nutqni rivojlantirish - bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishining murakkab, ko'p omilli jarayondir;

- nutqni rivojlantirish - bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon, lekin u stixiyali jarayon emas;

- bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlari, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini taniishi lozim.

3. Bolalar nutqini o'stirishga oid nazariy ishlar. Respublikamizda maktabgacha ta'lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ta'lim tizimining ilk bo'g'iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o'quv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy

rivojlantirish, nutq va tafakkurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli masalalar qamrab olingan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasini fan sifatida shakllantirishga Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Flerina,

O.I.Solovev, A.N.Govzdev va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Yelizavetta Ivanovna Tixeyeva (1866-1944) talantli pedagog va yirik jamoat arbobi edi. Ye.I.Tixeyeva namunali insonni tarbiyalashga yordam berish va ilk yoshdan boshlab to keksalikka qadar insonni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik nazariyani yaratish ustida ishlagan.

Ye.I.Tixeyeva o'z pedagogik faoliyatining dastlabki yillaridayoq bolalarni o'qitishda ona tilining muhim ahamiyatga egaligiga e'tiborini qaratgan. K.D.Ushinskiy ta'limoti asosida inqilobgacha bo'lgan davrdayoq ishlab chiqilgan oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotida, maktabda bolalarga ona tilini o'qitish jarayonida ularning nutqini rivojlantirish metodikasi Ye.L.Tixeyevaning pedagogik nazariyasida markaziy o'rin egallaydi. 1913-yilda Ye.L.Tixeyevaning «Ona tili va uni rivojlantirish yo'llari» nomli asari bosilib chiqdi. Tixeyeva nutqni rivojlantirishning ahamiyati, yo'llari va vositalariga oid muhim masalalarni til madaniyatini umumiy rivojlantirish, bolalarda o'z xalqiga, vataniga muhabbatni tarbiyalash bilan bog'liqlikda o'rgangan. Ye.I.Tixeyeva tilni o'rgatishni ilk bolalik chog'idan boshlash zarur, deb hisoblagan, chunki to'g'ri nutq ko'nikmasi boshqa ko'nikmalar singari oilada orttiriladi. Ye.L.Tixeyevaning fikricha, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning aarcha qobiliyatlarini rivojlantirgan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim qobiliyatiga e'tibom qaratishi darkor: «Chunki nutqni muntazam o'rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i lozim»⁶.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Ye.I.Tixeyeva tomonidan olg'a surilgan asosiy vazifasi - bolalarning barcha qobiliyatlarini, shu jumladan nutqni egallash qobiliyatini jadal rivojlantirish uchun shart- sharoitlar yaratishdan iborat. Ayni paytda nutqni o'rgatish bolalar bog'chasidagi butun tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i zarur.

⁶ Тихеева Е.И.-Развитие речи детей. - М.: Просвещение, 1976.

Ikkinchi vazifa - bolalar nutqining shakli, uning kichkintoy atrofdagilardan o'zlashtirib oladigan narsalar tuzilmasi ustida ishlashidan iborat.

- Uchinchi vazifasi - bolalar nutqini rivojlantirish vazifasini tarbiyachilar zimmasiga yuklagan holda pedagog Ye.I.Tixeyeva fikriga ko'ra, bolalar nutqini rivojlantirishning eng yangi metodlarini o'zlashtirishi, nafaqat metodik usullarni bilishi, balki ularni bolalar bilan muloqot chog'ida qo'llay olishi ham darkor.

Ye.I.Tixeyeva o'z metodikasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlar mazmunini hamda nutqning rivojlanishi, og'zaki nutq rivojlanishi ro'y be'radigan faoliyat turlarini aniqlaydi.

Mashg'ulotlar jarayonida ushbu faoliyat turlarini yo'lga qo'yishda Tixeyeva asosiy e'tiborni lug'atni boyitish va ravon nutqni rivojlantirishga qaratish lozimligini ko'rsatadi. U ko'rgazmaviylik va kuzatishni bola nutqini rivojlantirish asosi deb hisoblaydi. Ye.I.Tixeyeva tomonidan ekskursiyalarni o'tkazish metodikasi ishlab chiqilgan, ekskursiyalarni bunday tashkil qilish, uning fikricha, bolalarni bevosita tabiatga oshno qiladi, ularga jonli borliqni ularning tabiiy munosabatlari bilan birgalikda tanishtiradi.

Ye.I.Tixeyeva nutqni rivojlantirish mashg'ulotlariga nisbatan qo'yadigan asosiy talablari qatorida bolalar qiziqishlari va tajribalari, ularni jonli o'tkazish, harakatlanish va sinab ko'rish imkoniyatlari bilan aloqasini olg'a suradi.

O'z davrining ilmiy yutuqlari doirasida Ye.I.Tixeyeva quyidagilarni ishlab chiqqan:

- bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlovchi uyushtirilgan dasturiy mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini, fikrlashini rivojlantirish;
- original didaktik material tizimi va undan maktabgacha ta'lim tashkilotida foydalanish metodikasi.

Sinchiklab ishlab chiqilgan nutqni rivojlantirish metodikasi maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyotiga qo'shilgan ulkan hissa bo'lib, u bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ye.I.Tixeyeva tomonidan yaratilgan «Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirish» nomli kitobi bosilib chiqdi, mazkur asar maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ona tilini o'qitishga doir ishlar tashkil qilish jarayonida ulkan

ahamiyatga ega bo'ldi.

«Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirish» kitobida bayon etilgan amaliy tavsiyalar ta'lim tashkilotlarida hozirgi kungi kunda qo'llanib kelinmoqda. Yevgeniya Aleksandrovna Flerina (1889-1952) maktabgacha tarbiya sohasidagi birinchi pedagogika fluilari doktori bo'lib, u nutqni rivojlantirish metodikasini ishlab ohlqlshga katta hissa qo'shgan.

Ye.A.Flerina umumiy estetik tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida badiiy o'qish muammolari bilan shug'ullangan.

Bolalar bilan ishlash va o'qituvchilik borasidagi o'z tajribalarini Ye.A.Flerina «Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida jonli so'z» nomli maktabgacha tarbiya yo'nalishidagi bilim yurtlari va institutlar uchun birinchi o'quv qo'llanmasida aks ettirgan. Ushbu qo'llanmaning asosiy bo'limlari og'zaki nutq, suhbat, badiiy o'qish va bolalarga hikoya qilib berish hamda bolalarning o'zlari hikoya qilib berishlariga bag'ishlangan. Ayniqsa, Ye.A.Flerinaning badiiy asarga san'at asari sifatida katta e'tibor bergani, badiiy matnni o'quvchiga yetkazishning turli usullarini, jumladan o'qilgan asar bo'yicha suhbat o'tkazish usulini ishlab chiqqanligi juda qimmatlidir⁷. Ilmiy va amaliy xodimlarning aniq maqsadni ko'zlagan holda asta-sekinlik bilan olib borgan ishlari natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ona tilini o'qitish tizimi shakllandi. Tarbiyachilar uchun ona tiliga doir qo'llanmalar, ta'lim tashkilotlaridagi eng yaxshi ish tajribalari haqida maqolalar to'plamlari muntazam ravishda chop etila boshlandi. 1956-yili maktabgacha tarbiya yo'nalishidagi pedagogika bilim yurtlari uchun birinchi marta «Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish va ona tilini o'qitish» nomli o'quv qo'llanmasi dunyo yuzini ko'rdi. Mazkur qo'llanma muallifi O.I.Soloveva edi. 50-60-yillarda nutqni rivojlantirish metodikasida yangi bo'lim - grammatika : to'g'ri nutqni shakllantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Ushburmasalani yoritishga professor A.N.Gvozdev ulkan hissa qo'shdi, u o'zining «Bolalar nutqni o'rganish masalalari» nomli kitobida (1961) bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o'zlashtirib olishlarining qonuniyat- larini ochib bergan. Ye.A.Flerina «maktabgacha yoshdagi bolalami o'qitish muammosini tor darajada hal etish»ning xavfliligi haqida ogohlantirgan,

⁷ Flerina Ye.A. Maktabgacha tarbiya muassalarida jonli so'z. - M., 1933.

maktabgacha yoshdagi bolani o'qitishning o'ziga xosligini ta'kidlagan: «Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo'li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg'ulotlar va maxsus mashg'ulotlarda tarbiyachining ko'rsatib o'tishi orqali o'qib o'rganadilar». U o'zining tarbiya tizimida san'atga va undan har xil faoliyat turlarida, shu jumladan badiiy-nutqiy faoliyatda bola imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanishga asosiy o'rinni bergan. A.P.Usova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qitishning umumiy nazariyasini ishlab chiqqani holda unda ona tilini o'qitishga alohida o'rin bergan. Uning fikricha, ta'lim jarayonining o'zi to'g'ri nutqiy rivojlanish kafolati bo'lib xizmat qiladi, chunki «bolalarning nutqiy rivojlanishiga shunday sifatlarni kiritadiki, ular odatda, oddiy sharoitlarda zaif rivojlanadilar». Ta'lim nutq rivojlanishi qonuniyatlari to'g'ri hisobga olingan taqdirda u barcha bolalar nutqining maqbul darajada rivojlantirilishini ta'minlaydi, hisoblaydi A.P.Usova. U bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari qiyin bo'lgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat bergan. A.P.Usova ona tili bo'yicha dasturiy o'zlashtirish uchun barcha bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish lozim, deb hisoblagan. Ayni paytda u mashg'ulot o'tkazish metodikasini ishlab chiqish uchun ham ko'p ishlarni amalga oshirgan.

Tadqiqotchilarning asosiy e'tibori nutqiy mashg'ulotlar mazmuni va metodikasiga qaratildi, bu asta-sekin Ye.A.Flerina ogohlantirgan «nutqni o'rgatish» tushunchasining torayishiga, amaliyotda esa

- nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar ahamiyatining oshishiga olib keldi. 60-70-yillarda bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini o'rganish ishlari faollashdi.

Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi bolalar o'quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Nazariy va amaliy tadqiqotlarda bunday o'quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etiladi.

Til mahorati muvaffaqiyatli ta'limning eng yaxshi bashoratchisi; boshlang'ich maktabning dastlabki 2 yilida tilning rivojlanishi bolaning xarakteristikasini oldindan aytib beradi. Aks holatda til o'rganishdagi qiyinchiliklar o'quv muvaffaqiyatsizligi bilan bog'liq: nutqi va tilida muammosi bor bolalar maktabga ilk qadam qo'yganda eng katta

...ulaming savod chiqarishi bilan bog'liq. Tili yaxshi rivojlanmagan bolalarda 5 yoshda 7 yoshdagiga nisbatan muvaffaqiyatsiz ta'lim ehtimoli katta bo'ladi⁹ (Edited by Mary Rafferty «A brief review of approaches to oral language development» USA 2014 y.)

4. Maktabgacha ta'lim me'yoriy hujjatlari asosida bolalarni tarbiyalash. Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi, farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar. tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlydi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini ruyobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

- bolalarni maktabga oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;

- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har xil turlari uchun turli usullardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha

⁹ Edited by Mary Rafferty "A brief review of approaches to oral language development" USA 2014 y.

masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish tashkilotlari tarmog'ini qo'llab-quvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab ohiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat, davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;

- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;

- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;

- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yasli va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar guruhlariga bir xil yoshdagi, shuningdek, turli yoshdagi bolalar qabul qilinishi mumkin.

Guruhlardagi bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

- 1 yoshdan 2 yoshgacha - 10 ta.
- 2 yoshdan 3 yoshgacha - 15 ta.
- 3 yoshdan 6—7 yoshgacha - 20 ta.
- Turli yoshdagi guruhlarda 15 ta.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududlarini demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va tugatish qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi (ham mustaqil tashkilot sifatida, ham filial sifatida);

- bog'cha maktab tashkiloti;
- tarbiyalanuvchilarning bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan (til o'rganish, badiiy estetik, sport va boshqa yo'nalishlar bo'yicha) maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- sanitariya-gigiyena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlari va muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- aralash turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish tartibi, ularni bir tashkilotdan ikkinchisiga ko'chirish, tashkilotdan chiqarish davlat tashkilotlarida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa, tashkilotning Ustavi bilan belgilanadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishida kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari yoki guruhlar tashkil etish ham maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risidagi nizomda ko'rsatib o'tilgan.

Har bir sohada bo'lganidek, maktabgacha ta'lim tizimida ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tegishli ma'lumotga, kasb tayyorgarligiga hamda yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolati davlat organlari tomonidan pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb sifatini raqobatbardoshlik darajada saqlab turish ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik kadrlarning o'quv pedagogik vazifasi maktabgacha ta'lim tashkiloti turiga davlat talablaridan kelib chiqqan holda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi. Ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi dasturlar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Pedagogik kadrlarning o'zaro munosabatlari hamkorlik,

demokratiya, hurmat, shaxsning o'z qadr-qimmatini bilishni e'tirof etish pedagogikasi asosida quriladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining birinchi-maktabgacha ta'lim rivojining zamonaviy bosqichi qator o'zgarishlar bilan tavsiflanadi: maktabgacha ta'lim ochiq turdagi ta'lim tashkiloti sifatida shakllandi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlash va boshqalar. Shuningdek, bugungi kunda Respublikamizda xilma-xil (yasli, bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasi- boshlang'ich maktab, davlatga qarashli va xususiy) turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham faoliyat yuritmoqda.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bolalarni nutqini o'stirish fani qachon tashkil topgan va rivojlanishi qanday kechgan?

2. Bolalar nutqini o'stirishga oid nazariy ishlar haqida nimalarni bilasiz?

3. Maktabgacha ta'limning qanday me'yoriy hujjatlari mavjud?

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari haqida nimalarni bilasiz?

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yo'nalishlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

6. «Maktabgacha ta'lim» atamasi qachon qabul qilingan.

3-§: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O`STIRISH METOD VA VOSITALARI

REJA:

1. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish vazifalari.
2. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirishning metodik masalalari.

3. Bolalarni nutqini o`stirishni ta`minlaydigan omillar.

Tayanch tushunchalar: nutq, nutq o`stirish, mashg`ulot, emotsional kechinmalar, o`yinlar, grammatik tizim.

1. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish vazifalari. Maktabgacha ta`lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o`z xalqining adabiy tilini o`zlashtirib olishlari natijasida ularning to`g`ri og`zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug`atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to`g`riligini takomillashtirish, og`zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so`zga qiziqishni tarbiyalash, savod o`rgatishga tayyorlash. Dasturlarda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug`at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo`lgan nutqiy malaka va qo`nikmalar belgilangan bo`lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiqlik) tarbiyalashni ko`zda tutishi lozim. Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslangan bo`lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o`quv, o`yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi. Jamoat tarbiyasi sharoitida ta`lim — bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi.

Ona tilini o`qitish — bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko`zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug`atni o`zlashtirish, nutqiy malaka va ko`nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o`qitishning asosiy shakli - mashg`ulotlardir. Didaktik maqsadlar bo`yicha quyidagi mashg`ulotlar turlarini ajratib qo`rsatish mumkin:

- yangi materialni ma`lum qilish mashg`uloti;

- bilimlar, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlashga oid mashg'ulotlar;

- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashg'ulotlar;

- yakuniy mashg'ulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) mashg'ulotlari.

Bolalarga ona tilini o'qitishga doir mashg'ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi.

Nutq va muloqot masalalarini, maktabgacha davrdagi bolalikning barcha yosh bosqichlarida ushbu yo'nalishdagi pedagogik ishlardan ko'zda tutilgan vazifalarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Go'daklik yoshi: 0-1

Bola hayoti kattalar hayoti va faoliyatiga uyg'unlashgan bo'ladi. Ayni paytda bolada unga ta'sir o'tkazish uchun biron-bir o'ziga xos insoniy vositaga mavjud bo'lmaydi. Bu mazkur rivojlanishning asosiy genetik vazifasi — kichkintoylarda katta odam bilan muloqotga kirishish qobiliyati va vositalarini shakllantirishdan iboratdir. Emotsional-erkin muloqot — ushbu yoshdagi etakchi faoliyat turi hisoblanadi.

Bolaning boshqalardan ajralib qolishi, kattalar bilan emotsional muloqotlarning etishmasligi bola hayotining dastlabki oylaridan boshlab uning etarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Bolaning kattalar bilan muloqotining dastlabki belgilari «jonlanish kompleksi», ya'ni bolaning kattalarga nisbatan emotsional-ijobiy munosabati ko'rinishida paydo bo'ladi. 2-2,5 oydan boshlab kichkintoy muloqotga kirishishni faol talab qila boshlaydi.

Muloqotning birinchi shakli — emotsional-erkin (vaziyat-shaxs) shaklidir. Bu boshqa odamga bo'lgan qiziqish, unga nisbatan emotsional munosabat bilan tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xos holatdir.

Muloqotning yanada rivojlangan ikkinchi shakli — ya'ni, emotsional-vositali (vaziyatli-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilligida ro'y beradi. Bu muloqot predmetlar orqali vositali muloqotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning qiziqishlari atrofdagi olamga

yo'naltirilgandir. Unda yangi taassurotlarga ehtiyoj yorqin paydo bo'ladi. Bu yoshdagi rivojlantirish vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bolalar tashkilotlarida, oilada bolaga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan kattalarga nisbatan emotsional bog'liqlik va ishonch hissini tarbiyalash.
- Unga nisbatan ijobiy diqqat-e'tiborga bo'lgan ehtiyojni qondirish.
- Kichkintoyning uni o'rab turgan atrof-olamga va uning o'ziga nisbatan qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashish.

Ilk yosh: 1-3

Ilk yoshdagi ijtimoiy rivojlanish vaziyati va uning genetik vazifasi. Bola hayotining birinchi yili oxiriga kelib erishgan natijalari yangi ijtimoiy rivojlanish vaziyatini qurishni talab qiladi. Bu bolaning katta odam bilan birgalikda faoliyatiga oid vaziyatdir. Ushbu birgalikdagi faoliyat mazmuni — predmetlardan foydalanishning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini o'zlashtirishdan iborat (bola qoshiq bilan ovqatlanishni, piyoladan ichishni, rasm chizishni, stulchaga o'tirish va hokazolarni o'rganadi).

Muloqot jadal rivojlanishda davom etadi, zero kattalar bilan bevosita muloqotsiz predmetli faoliyat mumkin emas. Predmetli faoliyat bilan bog'liq muloqot faqat emotsionalligicha qolmaydi, u nutqiy muloqotga aylanadi. SHunday qilib, ilk yoshdagi bosh vazifa narsalardan foydalanishning insoniy usullarini o'zlashtirish va nutqni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bola narsalar bilan harakat qilar ekan, hayotining ikkinchi yiliga kelib, ularning jismoniy (hajmi, shakli, rangi) va dinamik xususiyatlarini, masofaviy munosabatlarini (yaqin, uzoq), butun narsani qismlarga ajratish va qismlardan butun narsani yig'ishni (piramida, matreshka kabi o'yinchoqlarni qismlarga ajratadi va qayta yig'adi) o'zi uchun kashf qiladi. Biroq, bola narsalar bilan qanchalik ko'p harakat qilmasin, u baribir ularni amalda qo'llashning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini (qoshiq bilan ovqat eyiladi, bo'tqa aralashtiriladi; sochiqqa qo'llar, yuz artiladi; qalam bilan rasm chiziladi va h.k.) mustaqil ravishda kashf qila olmaydi. Narsalarning vazifasi va ularni amalda qo'llash usullarini bolaga kattalar o'rgatadilar.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o'zlashtirish bolaning o'z faol nutqini ham talab qiladi. Nutq asosida umumlashtirishlar, fikrlashning ramziy vazifasi, ya'ni real narsalarning

o'rnini almashtira olish hamda o'rin bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish qobiliyatlari rivojlanadi. Biroq nutqqacha predmetli harakatlarni (aynan bir narsa bilan turli harakatlarni yoki turli narsalar bilan aynan bir xil harakatni bajarish), juftlik o'yinlari («ku-ku», «shar yumalatish» va boshq.) rivojlantirish va umumlashtirishga oid uzoq yo'lni bosib o'tishga to'g'ri keladi.

Bola uchun katta yoshli odam — bitmas-tuganmas ijobiy emotsiyalar, qiziqarli taassurotlar va borgan sayin so'z muhim ahamiyatga ega bo'lib boradigan o'yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan muloqotga kirishish, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, bola ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanish haqidagi chaqiriqqa javob beradi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishadi, bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan iboraga aylantirish orqali uning «kamchiliklarini tuzatadi» (Temur dadasining mashinasini ko'rib qoldi: «Bi-bi, dada». Ona: «Dadasining mashinasi. Ketdik, dadaga boramiz»).

Bola tilni faol o'zlashtiradi. So'z ortida turgan tasavvur yagona o'xshashlikdan («lyalya» - katta va kichik qo'g'irchoq) ko'proq o'xshatishlargacha, keyinroq esa nisbatan aniq umumlashtirmalargacha («mol» so'zidan sigir, qo'y, echki va ot-eshaklarni ifodalashda foydalanishdan boshlab keyinchalik «mol» so'zini faqat sigir va buzoqchalarga nisbatan qo'llashgacha) rivojlanadi. Ayni bitta so'z yordamida ko'p obrazli munosabatlar ifodalanadi («nanna» so'zi bir vaqtning o'zida «bu non», «non bering», «non tushib ketdi» kabi ma'nolarni anglatishi mumkin va h.k.). Bola asta-sekin bu munosabatlarni grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki so'zli, keyinroq esa uch so'zli gaplar orqali ifodalashni o'rganadi. Ikkinchi yilning oxiriga kelib dastlabki grammatik shakllar paydo bo'ladi. Bolaning so'z zahirasi ortadi. 1 yoshda - 1 yoshu 6 oyda so'z zahirasi 30-40 ta so'zni tashkil qiladi. Fikrlar asosan bir tarkibli gaplardan iborat bo'ladi. Bunda nonutqiy muloqot vositalari (ifodali harakat, bevosita namoyish qilish, ko'zlarning to'qnashuvi, mimikalar, imo-ishoralar va boshq.) hamon hukmron bo'ladi. Bola maishiy vaziyatlar ma'nosini va ularda qo'llanilayotgan nutq mazmunini tushunib etadi.

1 yoshu 6 oy — 2 yoshga kelib bolaning so'z zahirasi 200-300 tagacha o'sadi. Uning fikrlari grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki-uch

tarkibli iboralardan iborat bo'лади. Bola bilan katta yoshli odam bevosita muloqotga kirishgan vaziyatda esa nutqiy muloqot etakchi muloqot turiga aylanadi.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib nutq rivojlanishi ko'proq keng qamrovli vazifalar doirasida, eng avvalo katta yoshli yaqin qarindoshlari va bolalar bilan munosabatga kirishish hamda ular bilan birgalikda harakat qilish (nutqning kommunikativ vazifasi), atrof-olamni bilish (nutqning intellektual vazifasi) orqali davom etadi. Bola nutqiy muloqotning asosiy shaklini — dialogik nutqni o'zlashtiradi. U tashabbus ko'rsatib fikr bildirishni, savollar berishni, javob kutishni, o'zi ham savollarga javob berishni, atrof-dagilarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilishni o'rganadi.

Bola o'z istak-xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifodalash, kutilayotgan natijalarga erishish uchun so'zlardan foydalanadi. Biroq bola tomonidan foydalanilayotgan so'zlar fonetik jihatdan ancha nomukammal bo'lib, u keng qamrovli ma'nolarni anglatadi. So'z va predmetli harakatlarni qo'llash va ular bilan mos ravishda harakat qilish orqali katta yoshli odam bola bilan o'zaro bir-birini tushunishni va uning tilini boyitishni yo'lga qo'yadi.

Bola tashabbus ko'rsatish orqali muloqot sub'ekti, teng huquqli hamkor sifatida chiqadi. O'zini tushunishlariga intilish, o'z xohish-istaklarining bajarilishiga erishish bolani to'g'ri so'zlashga majbur qiladi. Ushbu yoshda tengdoshlari bilan muloqotga kirishish emotsional aloqa o'rnatish va o'z shaxsiga e'tiborni jalb qilishga yordam beradi: bolalar bir-birlari bilan o'ynash jarayonida o'z harakatlarini nutq bilan sharxlab boradilar, ammo hozircha ular bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri yuzlanib, murojaat qilmaydilar.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib bolaning til muhitidagi faol yo'naltiruvchi faoliyati boshlanadi. Bu quvonchli kechinmalar ta'siri ostida vujudga keladigan tovushlar bilan turli o'yinlarda («shovqinli qo'shiqlar») va oddiy so'z ijodkorligida («golf-molf», «o'yin-po'yin» va boshq.) ko'rinadi.

Qulay shart-sharoitlarda muloqotning uchinchi yiliga kelib bola kattalar bilan muloqotda ko'rgazmali-taassurotli vaziyatga tayanmagan holda o'z tassurotlarini ko'rib nutqda ifodalay boshlaydi. Bolalar o'zlari ko'rib chiqqan kitoblari, tinglagan ertaklari va o'zlarining ilgari

tajribalari haqida («Mustaqillik maydoni»ga, hayvonot bog'iga uyushtirilgan sayohat, Korbobo sovg'alari va boshqalar haqidagi xotiralar) fikr bildira boshlaydilar.

Bola hayotining ikkinchi yilida nutqiy rivojlantirish vazifalari: Nutqni tushunish. Bolaga eng oddiy, uning o'ziga tanish bo'lgan maishiy vaziyatlar, jarayonlar va o'yin vaziyatlarini ochib beruvchi oson tushuniladigan so'zlar va oddiy iboralar zahirasini kengaytirish. Odamlar, xonadagi va undan tashqaridagi narsalar, hayvonlar, o'simliklar, uy-joylar va ularning vazifasini ifodalovchi so'zlar zahirasini asta-sekin kengaytirib borish.

- «Ko'makchilār» va ravishlar yordamda ifoda qilinadigan vaziyatlarni tushunishni (ikkinchi yarim yillikda), buyumlar sifati, ularning hajmi va rangini belgilovchi so'zlarni tushunishni shakllantirish.

- Kattalarning mazmuniga ko'ra bog'langan 2-3 ta harakatdan iborat bo'lgan topshiriqlarni diqqat bilan tinglash, tushunish va bajarishni o'rgatish («koptokni ol va menga ber»)

Faol nutq. Barcha rejimli vaziyat jarayonlarida ishonch bildirilgan his-hayajonli muloqotni yo'lga qo'yish.

- Bola imkoni bo'lgan har qanday nutqiy ko'rinishlar va vokallashuvlarning paydo bo'lishiga ko'maklashish.

- Imo-ishoralar va yuz ifodasi bilan bir qatorda istak-xohishlarni ifodalash va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan so'zlardan foydalanishga; turli sabablar bilan kattalar va bolalarga murojaat qilish: savol berishga; ko'rganlarini bir-nechta so'zlarda hikoya qilib berishni o'rganishga (yil oxirida) undash.

- Bolalarning kishilarni ularning yoshi va jinsiga mos holda belgilovchi so'zlardan, xonadagi va xonadon tashqaridagi buyumlardan, ayrim hayvonlardan va o'simliklardan, atrofdagi kishilar va hayvonlar harakatlaridan, ob'ektlardan, ayrim mehnat harakatlaridan foydalanishlari uchun tegishli holatni vujudga keltirish.

2. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish dasturining hamma bo'limlarini hisobga olish lozim, yangi materiallarni tanishtirish jarayonida ilgari o'tilgan, bolalarga tanish bo'lgan material, albatta, takrorlanadi. Birinchi qismda yangi material o'tiladi, ikkinchi qismda esa avval o'tilgan material mustahkamlanadi.

Mashg'ulotlar tuzilishi jihatidan aralash xususiyatga ega bo'ladi. Yangi materialni e'lon qilash mashqlar o'tkazish, mustahkamlash uchun o'yinlar tashkil etish, yakunlash. Mashg'ulotning 1 – qismi 15 – 20 daqiqa va 2 – 3 – qismlari 5 – 7 daqiqadan o'tkaziladi. Mashg'ulotning mazmuniga qarab uning 2 – yoki 1 – qismi tanlanadi. Mashg'ulotlar bolalardan aqliy zo'riqishni va diqqatni talab etadi. Shuning uchun bunday mashg'ulotlarda nutqdan gapni, gapdan so'zlarni ajratib, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish mashqlari 2 – qismda rejalashtirilmay, balki tovushga taqlid qiluvchi fonematik idrokni rivojlantirishga yordam beruvchi o'yinlar o'tkaziladi. Odatda, rasmlarga doir suhbat, narsa – buyumlarni ko'rib chiqish, rasmlarga doir hikoya tuzish ko'proq mashg'ulotlarning ikkinchi qismida bolalarning gap, so'z, bo'g'in haqidagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida rejalashtiriladi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotidan keyin o'qish va yozishga o'rgatishga doir mashq rejalashtirilmaydi.

Mashg'ulotning birinchi va ikkinchi qismi mavzusi, materiallari bir – biriga o'xshash yoki biri ikkinchisiga bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda, tarbiyachi bolalarning aqliy zo'riqishlarini hisobga olishi zarur. Agarda topshiriq katta aqliy zo'riqishni talab qilish bilan bog'liq bo'lsa, u vaqtda o'qish va yozishga o'rgatish bo'yicha mashq va o'yinlar uchun ko'rgazmali qurollar tanlanadi.

1 yoshu 1 oylik, 1 yoshu 3 oylik. O'ziga tanish bo'lgan odamlarning nomini biladi, narsalarni taniydi O'z harakatlarini guvranish orqali bajaradi. Katta va kichik narsalarni ajratadi Oldindan o'rgangan narsalar bilan harakat qiladi (qo'g'rchoqni ovqatlantiradi)

1 yoshu 4 oylik, Narsalarni umumiy belgilari bo'yicha umumlash-tiradi. Yordamchi so'zlar bilan narsa va harakatlarni nomlaydi Shakillarning uch – to'rt xilini biladi O'yinda alohida harakatlarni bajaradi

1 yoshu 7 oylik, 1 yoshu 9 oylik, Murakkab bo'lmagan voqeaband rasm orqali hikoyani tushunadi, kattalarning savollariga javob bera oladi. O'z harakatlarini 2 – 3 so'z bilan ifodalaydi. Katta - kichik narsalarni ajrata oladi. Murakkab bo'lmagan qurilmalar qura oladi

1 yoshu 10 oylik, 2 yosh Bola tajribasidan olingan kattalarning qisqa hikoyasini tushunadi Kattalar bilan muloqatda 3 ta so'zdan iborat

sifat, olmosh gaplarni ishlatadi 3 – 4 xil rangdagi narsalarni ajrata oladi
Ketma – ket harakatlarni bajara oladi

Har bir maktabgacha ta'lim muassasasi o'z vazifalaridan kelib chiqqan holda, pedagogic jarayonning yo'nalishlarining mavqeiga, moddiy – texnikaviy bazasiga, pedagogic jamoaning holatiga qarab aniqlab oladi. Ammo maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy maqsadi "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunda va maktabgacha ta'lim muassasasi Nizomida belgilab berilgan. Bu hujjatlarda ko'rsatilgan asosiy maqsad va vazifalarni quyidagicha izohlash mumkin:

bolalarning jismoniy va psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlash;

har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning jismoniy, aqliy va shaxsiy jihatdan rivojlantirish;
ota – onalarga bolalarini tarbiyalashda yordam berish.

Bu maqsadga erishish borasida rivojlantirish dasturi va maktabgacha ta'lim muassasasining yillik rejasiga tayanar ekan tarbiyachi aniq masalalarni echimini topish yo'llarini izlaydi. Guruhdagi ta'lim – tarbiyaviy ishni maqsad va vazifalarni belgilashda qo'yilayotgan maqsad va vazifalar aniq, ravshan va maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun, unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish zarur.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg'ulotlarni didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, sahna ko'rinishlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngilochar tusga, balki albatta ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg'ulotlar muayyan vazifaga ega — ya'ni, u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Mashg'ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish,

bolalar jamoasi oldida fikr yurita bilish, tengdoshining javobiga baxr bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda etti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi, dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb qilish, unga so'z, harakat va so'zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi, fikrlarini to'liq va noto'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi.

Bolalardagi ko'plab nutqiy muloqot va ko'nikmalar mashg'ulotlardan tashqarida shakllanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Mehnat jarayonida — xo'jalik-maishiy, qo'l va qishloq xo'jaligi mehnatida bolalarning lug'ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi.

Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya'ni agar pedagog, ayniqsa kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo'llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharxlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug'atdan foydalanishni o'rgatsa bolalarning lug'ati boyiydi. Agarda pedagog o'z nutqida tashbeh, qiyoslash, sinonimlar, xalq og'zaki ijodi (maqollar, matallar, sanoq she'rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosiq va ifodali bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so'zdan tashqari tasviriy san'at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmatli shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o'z navbatida tilni o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Quvonch hissi, hayajonlanganlik, ko'tarinkilik holati, g'ayrioddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Suratlar, amaliy san'at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko'p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrofdagilarga aytishga oshiqadilar.

Namunali nutqqa ega bo'lish — bu tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi darajasidir. Shuning uchun o'z nutqini takomillashtirish haqida qayg'urish — bo'lajak pedagogning axloqiy va ijtimoiy burchlaridir. U o'zida barcha nutq ko'nikmalarini mukammal shakllantirishi va uni kelgusida bolalarga berishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar, atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to'g'ri talaffuzni, so'zni qo'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o'zlariga qabul qilib oladilar.

3. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirishning metodik masalalari. Bola tilining grammatik tizimini o'z vaqt da shakllantirish - uni to'laonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlarni o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqlikda bilishni rivojlantirish asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so'zlarni rodlar, sonlar, kelishiklarga qarab o'zgartirish), so'z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so'z negizida boshqa so'zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo'shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o'z ichiga oladi.

Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o'zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim.

Bolalarda grammatik tizimni - sintaksis, morfologiya, so'z hosil qilishni shakllantirish o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lib, ularni rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo'llashi darkor. Morfologiya va so'z hosil qilishni o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi til o'yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa keng fikr bildirish, motivatsiyani yaratish muhim.

Ma'lumki, bolalar o'z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o'z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo'ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag'batlantirishga (gap so'z hosil qilish va so'z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirishga (so'z o'zgartirishda); yettinchi yilda

- hosila so'zlar o'rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy

■ qisqisiga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e'tibor berishi lozim.

Didaktik o'yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid o'yinlarini, ularning grammatika sohasidagi faolligini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini o'rgatishi zarur.

Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya'ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so'zlarning to'g'ri tartibini qo'llashni o'rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e'tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to'g'ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so'zlarni birlashtirishning turli usullarini, so'zlar o'rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog'liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o'rgatish zarur.

Shunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko'nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta'minlanadi. Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy oqimida ro'y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng avvalo dialog va monologni, so'zgacha bo'lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o'tish (undan keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o'zlashtirishni hisobga olishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nutq o'stirish mashg'ulotining turlari qanday-?
2. Mashg'ulotlarni rejalashtirish ishlari qanday tashkil qilinadi-?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan nutq o'stirish mashg'ulotlari sizningcha qanday tashkil qilinishi kerak-?

Tavsiya etiladigan dabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.

2. D.R.Babayeva. Nutq o'zlashtirish metodikasi. – T.,2019

3. Jo'rayev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'zlashtirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.

4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'zlashtirish. –T.: "O'qituvchi", 1995.

5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'zlashtirish. T.,1997.

6. Shodieva Q. Nutq o'zlashtirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

4-§. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'RTA GURUH YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISHNING VAZIFALARI, METODLARI VA VOSITALARI

REJA:

1. O'rta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari.
2. O'rta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari.
3. Mashg'ulotlarning tarbiyaviy va emotsional xususiyati.

Tayanch tushunchalar: sonor tovushlar tempi, ovoz kuchi, intonatsion ifoda, fonematik eshitish, tovush madaniyati, niartikulatsiya apparati, zamon.

1. O'rta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vazifalari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda tevarak-atrof bilan tanishtirish va nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar katta o'rin egallaydi. Bu ishlar faqat mashg' ulotlardagina amalga oshirilmasdan, balki bolalarning kundalik hayotida ham, mehnat faoliyatida va o'yin faoliyatida amalga oshiriladi bolaning o'z qarindoshlari, qo'shni tengdoshlari shaxsiga va faoliyatiga qiziqishini qo'llab-quvvatlash, birgalikdagi o'yinlarda ularning dialogik nutqini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;

- turli muloqot vositalari, ya'ni so'z, yuz ifodasi (imo-ishora) dan muayyan vaziyatni hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan holda foydalanishni o'rgatish;

- bolalaming ertak va kichik hikoyalarni so'zlab berishga qiziqishini qo'llab-quvvatlash;

- bolani «tovush», «so'z», «gap» atamalari bilan tanishtirish kabilardan iborat.

O'rta guruhda bolaning narsa (buyumlar) to'g'risidagi bilimlarini chuqurlashtirish bo'yicha mukammal ish olib borish ko'zda tutilgan. Bu guruh bolalarining faol lug'ati narsalarning nomlarini, qismlarini, ularning sifatlarini va xususiyatlarini (rangi, shakli, uzunligi, tashqi ko'rinishi va boshqalar) hamda fazo va vaqtni bildimvchi so'zlar hisobiga boyib boradi. Bolalaming o'z nutqlarida mnumlashtiruvchi so'zlami, ya'ni kiyim-kechak, oyoq kiyim, mebel, idish-tovoqlar, sabzavotlar, meva- lar, gullar, qushlar, hayvonlar va hokazolami ishlatishga o'rgatiladi; tanish

buyumlami guruhlashga va ularni tasniflashga (idish tovoqlar, choy idishlar, ovqat suzadigan idishlar, oshxonada ishlatiladigan idishlar, oyoq kiyimlar, qishki va yozgi kiyimlar) o'rgatiladi.

4-5 yoshli bolalar jamiyat hayotining ayrim hodisalari bilan tanishtiriladi, kishilar mehnati, ularning kasblari, mehnat qurollari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirilib boriladi va buning natijasida ularning lug'atlariga mehnat faoliyatining xususiyatlarini, ishchilar (mehnatkashlar) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini bildiruvchi so'zlar kiritib boriladi.

O'rta guruhda ona shahriga, qishlog'iga bo'lgan qiziqish va muhabbatni tarbiyalash davom ettiriladi. Ularning nutqida jamoat binolarining nomlarini bildiruvchi so'zlar faollashtirib boriladi: pochta, maktab, do'kon, kinoteatr va hokazolar, faollashtirib boriladi hamda shahar va qishloqlarni, obodonlashtirish bo'yicha olib boriladigan mehnat faoliyatlarini bildiruvchi so'zlar hisobiga (yangi ko'prik qurishyapti, shahar bog'i tashkil qilindi) lug'atlari boyitib boriladi. Bola tilining lug'at tarkibini egallash bilan birga uning grammatik quri-lishini ham egallay boshlaydi.

O'rta guruh yoshdagi bola nutqi uchun quyidagi xususiyatlar xosdir: Bola besh yoshga yetganda uning faol lug'ati boyib, munosabat doirasi kengayib, oddiy yoyiq gaplardan foydalana boshlaydi. So'z turkumlaridan otni tez o'zlashtiradi, vaqt, son shaxs kabi kategoriyalardan foydalanadi, sodda va murakkab jumlar tuzadi. To'rt yoshli bolalar o'z nutqlarida bog'lovchilarni ishlata boshlaydilar, otlarni ko'plik, birlik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarda va turli kelishiklarda to'g'ri ishlata oladigan bo'ladilar. Otlardan so'ng so'z turkumlaridan fe'llarni va sifatlarni o'zlashtira boshlaydilar. Lekin yangi o'zlashtirilgan so'zlarni hamma vaqt ham yangi grammatik shaklda eslab qola olmaydi, yoyiq gapdan foydalangan vaqtda uning mazmuni va shaklini tekshirib ulgira olmaydi. Fe'llarning zamonga qarab o'zgarishini (hozirgi, o'tgan va kelasi zamon) tezda to'g'ri o'zlashtirib ololmaydilar, nutqlarida fe'llarning zamon qo'shimchalarini almashtirib yuboradilar. Ayrim bolalar nutqida gaplaridagi so'zlar bir-biriga to'g'ri bog'lanmaydi, ayrim so'z turkumlarini tushirib qoldiradilar.

To'rt yoshli bolalarni so'zlashuv (dialog) nutqiga o'rgatishda bolalarga berilgan savollarga bitta-bittadan javob berishga, jamoa bo'lib

so'zlashishga, suhbatda qatnashishga, o'rtog'ining javobini qunt bilan tinglashga va savollar berishga o'rgatiladi. O'rta guruhda bog'lanishli nutqni rivojlantirishda yangi vazifa, ya'ni hikoya qilishga o'rgatish kiritiladi. 4—5 yoshli bolalarni buyumlarni tasvirlashga (o'yinchoqlarni, o'simliklarni, kiyimlarni), ularning o'ziga xos bel-gilarini aytishga, bolalarga tanish bo'lgan qisqa ertaklarni (masalan: «Echki bolalari bilan»), mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan uncha katta bo'lmagan hikoyalarni qayta hikoya qilishga o'rgatiladi.

3-5 yoshli bolalar nutqning tovush tomoni ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi: birinchi xususiyati shundan iboratki, ular boshqa kishilar nutqidagi tovushlarni tez idrok etadilar, ikkinchi xususiyati esa tovush talaffuzidagi kamchiliklarni sezish qobiliyati yetarli rivojlanmagan bo'ladi va uchinchi xususiyati hali bolalarda artikulatsiya apparati yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda nutq, tovush madaniyatini tarbiyalash asosan fonematik eshitishni va ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirishga qaratilgandir.

Nutqning mazmundorligi, intonatsion ifodaliligi, ovoz kuchi, tempi, so'zlarda urg'ularni to'g'ri ishlatish, gapirganda to'g'ri nafas olish, va chiqarishni ham tarbiyalash zarur. Ayniqsa, hushtakli (s-z), shovqinli (sh, j, ch) va sonor tovushlarni (l, r) to'g'ri talaffuz etilishiga alohida ahamiyat berish kerak.

O'rta guruhda bolalarning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishi rivojlantirib boriladi. Ularga kitob o'qib beriladi, hikoy qilinadi, kitobdagi rasmlarni ko'rib chiqish, uni to'g'ri idrok qilish o'rgatiladi. Tarbiyachi bolalarga asar mazmunini tushunib olishiga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay olishga yordam beradi, badiiy so'z jozibasini his eta olish qobiliyatini tarbiyalaydi. Bolalarni qisqa she'rlarni badiiy aytishga va xotirada saqlab qolishga (yod olishga) o'rgatadi.

2. O'rta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari. Ilk turdagi nutqiy rivojlanishda 4-5 yoshdan maxsus tayyorgarliksiz hikoya qilib berish boshlanadi. Bolalar sehrli ertaklar va bo'lgan voqealarni bir-biriga so'zlab beradilar, o'yinchoqlardan foydalangan holda o'ziga xos hikoyalar to'qiydilar. Agarda bola yetti yoshida tanish an'anaviy ertakni ("Zumrad va Qimmat", "Egri va To'g'ri" kabi) mustaqil hikoya qilib bera olsa, o'yinchoqlar, sur'atlar asosida kichik og'zaki insho to'qiy olsa bular uning nutqi yetarli darajada

rivojlanayotganini bildiradi.

Bola nutqini ma'nodosh, shakldosh va ko'p ma'ndii so'zlar, umumlashtiruvchi nomlar bilan boyitishga harakat qiling. Unga yangi so'zlarni o'zlashtirishiga yordam bering. Bolada to'g'ri gapirishga intilishni qo'llab-quvvatlang. Bolaning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga ahamiyat bering.

- tez aytish va qisqa she'rlarda tovushlarni to'g'ri ifodalashiga erishing. Uning ifoda, intonatsiya sur'ati va baland-pastligiga rioya qilishga o'rgating.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha katta yoshga yetib bola eng oddiy notiqlik sirlarini o'rgana boshlaydi, o'z fikrlarini mantiqan va ifodali bayon qiladi, u nafaqat so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va gap tuzishni, balki so'zlar qaysi tovushlardan va gaplar qaysi so'zlardan tashkil topishini anglab olishni o'rganadi. Bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun zarurdir.

Ota-onalarning vazifasi esa farzandi nutqining to'g'ri rivojlanishi uchun g'amxo'rlik qilishdan iborat.

Katta guruh bolalarining kuzatgan voqeani esda saqlashi asosida nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi hikoyasi ham samarali ekanligi namoyon bo'ldi. Ko'rganlarini esda saqlash asosida hikoya tuzish bilan bir qatorda, o'ylab, tasavvur etish, hikoya qilish ham nutq o'stirishning samarali usullaridan sanaladi. Tasavvur etish kichik va o'rta yoshdagi bolalarda o'yin, ko'rish, rasm chizish vositasida paydo bo'lsa, nutq faoliyatida katta yoshida tarkib topa boshlaydi va ijodiy xususiyat kasb etadi. Bola bunda hikoyani o'zi yaratadi, ijod qiladi, qahramonlarining harakatlarini o'ylab topadi.

Bu faoliyatda o'ylash, o'ylab topish, ijod qilish muhim sanaladi. Bunda dastlab tarbiyachi hikoyani boshlab berishi, so'ng bolalar davom ettirishi mumkin. Ana shu davom ettirish, tugallash jarayonida bola o'ylaydi, ijod qiladi. O'ylash, hikoya mazmunini «to'qish»da bolalar voqea bo'lgan joy, vaqti, mazmuni, qahramonlarning xatti- harakatlariga alohida e'tibor beradilar. Ayniqsa, mazmun bilan birga bolalarning nutq shakliga e'tibor beriladi.

To'rt yoshli bolalarni mashg'ulotlarda o'rgatish ayrim xususiyatlari bilan o'ziga xosdir. To'rt yoshli bolalarning fizologik va psixologik jihatdan

rivojlanishida ancha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Biroq bu yoshdagi bolalarning diqqati beqaror, irodasi kuchsiz bo'lib, tashqi va tasodifiy vaziyatlar ta'siri ostida tez-tez o'zgarib turadi, his-tuyg'ulari kuchli bo'lib, buning natijasida qobiliyati shunchalik tez pasayadi.

O'rta guruh yoshdagi bolalarda zarur bo'lgan nutq malakalarini shakllantirish ko'p marta takrorlashni talab etadi (masalan: aniq tovush talaffuzini tarbiyalashda, nutq ma'lum bir grammatik shakldagi so'zdan foydalanishda, surat asosida tasviriy hikoya tuzishda, she'r yod oldirishda): Har bir takrorlangan material bolalarda qiziqish uyg'otishi va diqqatini o'ziga tortishi kerak. Nutqni o'stirish mashg'ulotlarida bolaning o'zi gapiradi, tarbiyachining tushuntirishlari va o'rtoqlarining javoblarini tinglaydi. Lekin to'rt yoshli bolalarda biror mavzuda hikoya qilib berish yoki tengdoshlarining nutqini tinglash qobiliyati endigina shakllanib borayotgan bo'ladi. Bu xususiyatlarni tarbiyachi har doim mashg'ulotlarni rejalashtirishda, uni o'tkazishda hisobga olishi shart.

Mashg'ulotlarning tarbiyaviy va emotsional xususiyati. Nutqni o'stirish mashg'ulotlarida, shuningdek, mashg'ulotning boshqa turlarida bolalarga ta'lim berib boriladi. Nutq faoliyatining mazmuni, tilning tuzilishi, shuningdek, mashg'ulotni tashkil etish va uning qay tarzda o'tkazilishi bolalar tarbiyasiga ta'sir etadi. Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni materialning qiziqarli bo'lishi bilangina emas, balki mashg'ulotning ijobiy-emotsional tarzda tashkil etilishi o'stirib boriladi. O'rta guruh yoshidagi bolalar tashabbuskor bo'ladilar, tarbiyachining savollariga javob berishga juda shoshiladilar va buning natijasida xatoga yo'l qo'yadilar: agar tarbiyachi bolani maqtasa, undan juda minnatdor bo'ladilar va aksincha, agarda tarbiyachi bolaning xulqidan yoki savolga bergan javobidan xursand emasligini aytsa, qattiq xafa bo'ladilar. Bu shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi juda sabrli va haqqoniy bo'lishi kerak. Tarbiyachi bolaning yaxshi javobidan qoniqqani va xursandligini bolalarga namoyon etishi kerak. Shundagina bolada ishtiyoq istagi uyg'onadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'rta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishdagi asosiy vazifalari haqida nimalarni bilasiz?

2. 4-5 yoshli bolalar nutqning tovush tomoni qanday xususiya lari bilan farqlanadi?

3. Bolalarning badiy adabiyotga bo'lgan qiziqishi qachondan rivojlana boshlaydi?

4. O'rta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning metodik masalalari nimalardan iborat?

5. Mashg'ulotlarning tarbiyaviy va emotsional xususiyati haqida so'zlab bering.

5-§. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA KATTA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISHNING METODLARI VA VOSITALARI

REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish.

2. Muloqot vositalari.

3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot.

4. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mashg'ulotlar ishlanmasi.

Tayanch tushunchalar: grammatik tuzim, nutqiypsixologik rivojlantirish, umumiy psixologik rivojlantirish, predmetli harakat, muloqot vositalari, emotsional bog'liqlik, agrammatizmlar, bilingvizm shakllanish, monolingval vaziyat, multilingval vaziyat.

1. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish. Bola tilining grammatik tizimini o'z vaqt da shakllantirish - uni to'laqonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlarni o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqlikda bilishni rivojlantirish asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so'zlarni rodlar, sonlar, kelishiklarga qarab o'zgartirish), so'z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so'z negizida boshqa so'zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo'shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o'z ichiga oladi.

Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o'zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim.

Bolalarda grammatik tizimni - sintaksis, morfologiya, so'z hosil qilishni shakllantirish o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lib, ularni rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo'llashi darkor. Morfologiya va so'z hosil qilishni o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi til o'yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa keng fikr bildirish, motivatsiyani yaratish muhim.

Ma'lumki, bolalar o'z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o'z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega

bo'ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag'batlantirishga (gap so'z hosil qilish va so'z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirishga (so'z o'zgartirishda); yettinchi yilda hosila so'zlar o'rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e'tibor berishi lozim.

Didaktik o'yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid o'yinlarini, ularning grammatika sohasidagi faolligini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini o'rgatishi zarur.

Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya'ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so'zlarning to'g'ri tartibini qo'llashni o'rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e'tiborni qaratish zarur.

Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to'g'ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so'zlarni biriktirishning turli usullarini, so'zlar o'rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog'liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o'rgatish zarur.

Shunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko'nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta'minlanadi.

Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy oqimida ro'y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng avvalo dialog va monologni, so'zgacha bo'lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o'tish (undan keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o'zlashtirishni hisobga olishi lozim.

2. Muloqot vositalari. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-muhit bilan tanishtirish, balki upi umumiy ruhiy rivojlantirish uchun ham zarur. Oilada bola nutqini o'stirishdan maqsad og'zaki nutqni adabiy til me'yorlariga muvofiq holda egallashi, faol nutqqa kirishishini ta'minlashdan iborat. Farzand nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ota-ona o'zi oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygani ma'qul:

- farzandida so'zlashish odobini tarbiyalash;
- lug'at boyligini shakllantirish, boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;
- nutqni grammatik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish;
- ravon nutqni takomillashtirish;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish;
- savod o'rganishga tayyorlash.

Go'dak nutqini shakllantirishning asosiy genetik vazifasi - kichkintoylarda katta odam bilan muloqotga kirishish qobiliyati va vositalarini vujudga keltirishdan iboratdir. Emotsional - erkin muloqot ushbu yoshda yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Kichkintoy 2-2,5 oyligidan boshlab xatti-harakatlari bilan kattalardan o'zi bilan muloqotga kirishishni «talab qila» boshlaydi.

Muloqotning birinchi shakli - hissiy-erkin bo'lib, go'dakning atrofidadigilarga nisbatan qiziqishi uning his-tuyg'ularga boy munosabati orqali tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xosdir.

Muloqotning yanada rivojlangan ikkinchi shakli - ya'ni hissiy- Vositali (vaziyatli-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilligida ro'y beradi. Bu muloqot predmetlar orqali vositali muloqotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning qiziqishlari atrof-muhitga yo'naltiriladi. Unda yangi taassurotlarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu yoshda nutqni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- bolada kattalarga nisbatan emotsional bog'liqlik va ishonch

hissiyotini tarbiyalash;

- uning o'ziga nisbatan atrofidagilarning ijobiy diqqat-e'tibor talab qilishini qondirish;

- kichikintoyning qiziqishlarini rivojlantirishga ko'maklashish. Masalan: «Qo'ling qani? Qo'lingni ko'rsat! Kim keldi? Akang keldimi?».

Ushbu davrda bola kattalar ko'magida narsa-buyumlardan foydalanish usullarini o'rganadi (qoshiq bilan ovqatlanish, piyolfdan choy ichish, qalamda rasm chizish, stulchaga o'tirish va boshqa:ar). Narsa-buyumlardan foydalanish ehtiyoji nutqiy muloqotni talab etadi. Ilk yoshda bola oldida turgan asosiy vazifa narsalardan foydalanish usullarini o'zlashtirish asosida nutqni egallashdan iborat bo'ladi.

Hayotining ikkinchi yiliga kelib bola narsa-buyumlarning xususiyatlarini (hajmi, shakli, rangi) va masofaviy munosabatlari (yaqin, uzoq), butun narsani qismlarga ajratish va qismlardan butun narsani yig'ishni (piramida, mashina kabi o'yinchoqlarni qismlarga ajratadi va qayta yig'adi) o'zi uchun kashf qiladi. Biroq, ularni amalda qo'llashning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini (qoshiq bilan ovqat yeyiladi, sochiqqa qo'l va yuz artiladi; qalam bilan rasm chiziladi va h.k.) o'zicha mustaqil kashf qila olmaydi. Narsalarning vazifasi va ulami amalda qo'llash usullarini bolaga kattalar o'rgatishi zarur.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, narsa-buyumlardan foydalanish boladan faol nutqqa ega bo'lishni talab etadi.

To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi; dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb qilish, unga so'z, harakat va so'zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to'liq va noto'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;

- tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to'qib chiqarishga qiziqqa boshlaydilar;

- fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarini, tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo'llaydi;

- nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi, shu tufayli so'z to'qish barham topadi, agrammatizmlar son? kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri

talaffuz etadi.

Bolalardagi ko'plab nutqiy muloqot va ko'nikmalar mashg'ulotlardan tashqirida shakllanadi. Bolalar bog'chasida bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshqalar bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi.

Mehnat jarayonida — xo'jalik-maishiy, qo'l va qishloq xo'jaligi mehnatida bolalarning lug'ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi.

O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, mashg'ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo'lgan so'zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi.

Matnli, harakatchan musiqiy o'yinlar, sahnalashtirish o'yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to'g'ri sur'at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko'pgina o'yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo'llay boshlaydilar.

Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug'at mustahkamlanadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat va ko'nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so'zni o'zgartirish, hikoya to'qish va h.q.) qo'llaniladi.

Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya'ni agarda pedagog, ayniqsa, kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo'llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug'atdan foydalanishni o'rgatsa bolalarning lug'ati boyiydi. Agarda pedagog o'z nutqida tashbeh, qiyoslash, sinonimlar, xalq og'zaki ijodi

(maqollar, matallar, sanoq she'rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosiq va ifodali bo'ladi.

3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot. Katta yoshli kishi ta'sirida bolada muloqotning yangi - vaziyatdan tashqari- shaxsli shakli vujudga keladi, unda bola «odamlar olami»ga qarab ish tutadi. Bola odarani jamiyatning vakili deb biladi, ijtimoiy olamdagi o'zaro bog'liqlikni o'zlashtiradi.

Muloqotning ushbu shakli vujudga kelishi va rivojlanishi ko'p jihatdan bolalar kattalarning o'zaro munosabatlari, jamiyatda o'zining tutish qoidalari bilan qiziqadigan o'yinlarning rivojlanishi bilan uzviy darajada bog'liqdir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar faqat kattalarning xayrixoh diqqat-e'tiborlariga va ular bilan hamkorlik qilishga emas, balki kattalarning ularni hurmat qilishlariga, o'zaro bir-birini tushunish va hamdard bo'lishilariga intiladi.

Besh yosh chegarasida bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, o'zini boshqalar bilan taqqoslash, taqlid qilishga ehtiyoji keskin ortadi. Faoliyataing o'ziga va tengdosh sheriklariga bo'lgan qiziqishdan kelib chiqqan holda, biron-bir ishda (o'yinda, mahsuldor faoliyatda) ishtirok etishga intilish ancha barqaror bo'lib qoladi.

Tengdoshlar bilan muloqotda, o'yinda va faoliyatning boshqa turlarida axborot almashish, funksiyani rejalashtirish, ajratish va muvofiqlashtirish, ya'ni birgalikda faoliyat yurituvchi bolalarning umumlashuviga ko'maklashuvchi harakatlarning barchasi amalga oshiriladi. Yosh ulg'aygani sayin muloqot mustaqil ahamiyat kasb etib boradi, bu hoi bolaning tengdoshlariga hamdardlik bildirishi, ulami tushunishi, emotsional yaqinligida namoyon bo'ladi.

Yetti yoshga kelib bola tengdoshining shaxsga oid xususiyatlarini ajrata boshlaydi («qiziqarli o'yinlar o'ylab topadi», «Yaxshi yuguradi», «Juda yaxshi, kulgili» va h.k.).

Yetti yoshli bolalarda, agarda ular maktabgacha ta'lim muassasasida bir guruhda bir necha yil birga tarbiyalangan bo'lsalar, ancha uyushgan bolalar jamiyati mavjud bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarga nisbatan muloqot doirasi ancha kengayadi. O'yin guruhlarining barqarorligi ortadi, ulardagi bolalarning o'rtacha soni ikki-uch kishiga yetadi, ba'zan, ayniqsa, o'g'il bolalarda 8-9 kishidan iborat o'yin guruhlari vujudga keladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarning yuqori darajasi va ulardan o'rinli foydalanish kuzatiladi. Ular tomonidan takliflar, iltimoslarni asoslash uchun keltiriladigan dalillar, baholar o'z mazmuniga ko'ra yanada takomillashib boradi.

Bolalar hayotining yettinchi yilida tengdoshlari bilan do'stona munosabatlarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bolalar o'z tengdoshlariga nisbatan beradigan baholar umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'ladi va bu maktabgacha katta yoshdagi bolalarning MTMsidagi guruh hayotiga aloqadorligi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi («Hamma bilan do'st», «Agar bolalar urushib qolishsa, yarashtiradi», «Agarda bironta bolani xafa qilishsa, uning yonini oladi»).

Axloq normalari va qoidalarini o'zlashtirib olish natijasida bolada shakllanadigan etnik o'lchovlar uning universal insoniy qadriyatlarga munosabatini aks ettiradi, bola uni faqat o'z shaxsiga nisbatan qo'llash bilan cheklanib qolmaydi.

Bola borgan sayin kattalarga qaram bo'lmasdan mustaqil bo'lib boradi. Uning ijtimoiy tajribasi bo'yidi, atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari murakkablashadi. Bu unga o'zini, o'zining afzalliklari va kamchiliklarini to'liqroq anglab yetish imkonini beradi. O'zi haqidagi bilimlari cheklanganligi tufayli kattalarning baholarini ishonib qabul qiladigan va o'zini katta yoshli odamning fikri orqali qabul qiladigan ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalardan farqli ravishda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'zi haqidagi mustaqil tasavvurlar hamda o'zini, o'z harakatlarini va tashqi xususiyatlarini baholash elementlari paydo bo'ladi.

Bolaga odamlar - kattalar va tengdoshlari olamini yaqinroq bilib olish uchun quyidagilar zarur:

- katta yoshli odamning bola bilan hamda bolalarning bir- birlari bilan badiiy, musiqiy, teatr faoliyatining har xil turlarida (ertaklarni sahnalashtirish, tomosha ko'rsatish, barmoqli va boshqa teatr turlari) emotsional jihatdan boy mazmunli muloqoti;

- o'z yaqinlari bo'lgan kattalar va tengdoshlariga nisbatan yoqtirish, emotsional bog'liqlik hissiyotlarini, o'zaro bir-birini tushunish va hamdard bo'lish tuyg'ularini tarbiyalash uchun bolalarning kattalar va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishga undovchi sharoitlar yaratish; ularning emotsional holatlarini: quvonch, zavq- shavq, qayg'u, xotirjamlik,

g'azab, jahl, tashvishlilikni; amaliy va shaxsiy sifatlarini; turli faoliyat shakllarida, jamiyatdagi axloq qoidalariga rioya qilishdagi imkoniyatlarini anglash uchun; agarda boshqa odam charchagan, unchalik sog'lom emas, o'zini yomon his qilayotgan bo'lsa, nimagadir xafa bo'lsa, tashvishga tushgan bo'lsa unga hamdardlik bildirish va kattalar hamda bolalarning ifodali nutqiga, hazillarga emotsional munosabat bildirishni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni hosil qilish;

- kishilarning teatrda, muzeylarda, ko'rgazmalarda, transportda, pochtda, bankda, stadionda, do'konda o'zini tutishini ko'rsatuvchi hamda bolalarning axloq va nutqiy muloqot qoidalari, normalariga oid diafilmlar, shuningdek, maxsus suratga olingan maktabgacha ta'lim muassasasidagi kattalar va bolalar, ular ishtirokidagi o'yinlar, mashg'ulotlar, bayramlar haqidagi videofilmlarni namoyish qilish. Bolalarda insonlar olamiga nisbatan qiziqishni rivojlantirish vositasi sifatida muzeylar, teatrlar, ko'rgazmalar, sayrlar, ekskursiyalarga borish;

- katta yoshli odam, boshqa bolalarning iltimoslarini bajarishga intilishlarini, takliflarga javob berishini qo'llab-quvvatlash.

Kattalar mehnatiga bo'lgan qiziqishni va uning ijtimoiy ahamiyatini qadrlash, mehnat natijalarini asrab-avaylash, kattalar bilan birgalikdagi mehnat faoliyatiga qo'shilish qobiliyatini shakllantirish.

Bolaning kattalar hamda tengdoshlari bilan muloqoti va munosabatlarini rivojlantirish, shuningdek o'zining obrazi va o'ziga bo'lgan munosabat shakllanishida erishilgan yutuqlar shaxsning ijtimoiy layoqatlilik yoki yetuklik kabi kompleks bazaviy xususiyatlarida jamlanadi.

Yetti yoshga kelib bolaning ijtimoiy rivojlanishi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- bola mehribonchilik, e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatadi; yordam so'rash va uni ko'rsatishni biladi; boshqa kishilarning xohishlarini hurmat qiladi; o'zini tutib tura oladi. Hamon tarbiyachining ijtimoiy-psixologik layoqatiga, uning bolani yaxshi bilish qobiliyatiga, bolaning xulqidagi ijobiy xislatlarni topishga intilishi, o'ziga- o'zi baho berishning kamayishi yoki ortishi bilan bog'liq emotsional muammolarni «oldindan ko'ra olish» imkoniyatiga bog'liq bo'lgan kattalar (pedagog, oila a'zolari) bahosi muhim rol o'ynaydi;

- o'z xulqi va muloqot vositalarini boshqarishga qodir; u o'z xulqi

bilan boshqalarga xalaqit bermagan holda, kattalar va tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyatga qo'shilishi mumkin;

- ayrim kishilar bilan muloqot vaziyatlarida o'z qadr-qimmatini bilish, o'zini hurmat qilish, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlar tizimida o'zining munosib o'rnini egallashga intilish tuyg'usini namoyon etadi.

O'z imkoniyatlari va shaxs sifatidagi xususiyatlari haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun bola shaxsiy tajribada orttiradigan baho u tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda to'playdigan o'zi haqidagi baholar va bilimlar bilan uyg'unlashishi lozim. Agarda bu uyg'unlik muntazam ravishda buzilib tursa, bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari asta-sekin ortib yoki kamayib boradi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar bolaning ijtimoiy rivojlanishi qanchalik murakkab ekanligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha yosh shaxsni shakllantirish, uni jamiyat shaxsiga aylantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Shaxsni rivojlantirish uning ehtiyojlari oxir-oqibatda iste'mol qilish emas, balki albatta yaratish sohasida bo'lishini nazarda tutadi. Ijtimoiy munosabatlarning turli xillari (davlat-siyosiy xildan tortib to maishiy va ichki oilaviy xillargacha) ikki tilli individning shakllanish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Va bu ona tili va o'zga tilni o'qitish turini belgilash uchun muhimdir. Multilingval vaziyatda ijtimoiy hamkorlik monolingval vaziyatga nisbatan muloqotga kirishuvchi kommunikantlar tillarining konfiguratsiyasi, ularning bir-birlarining tillariga nisbatan ko'rsatmalari, o'zaro bir-birini tushunish darajasi, kommunikatsiya ro'y berishining tashqi sharoitlari xususiyatlari bilan belgilanadi:

- qanday til siyosati bola yoshida ikki tillilik shakllanishiga yordam beradi, amaliyotda tilni rejalashtirish qanday shakllarda amalga oshiriladi, qaysi toifadagi ta'limitashkilotlari bilingv shakllanishiga yordam beradi?

- maktabgacha yoshdagi bolalami ikki tilda tarbiyalashni tashkil etishda rasmiy va muayyan-amaliy darajada tillar va madaniyatlarning o'zaro bir-biriga ta'sirining qaysi jihatlariga e'tibomi qaratish lozim, ikki tilli indvidlami o'rganishda qaysi muammolar ko'tariladi, insonda tillarning o'zaro hamkorligi va nisbatiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

- ijtimoiy fikr, kattalar (ota-onalsr, pedagoglar va boshq.)

ko'rsatmasi bolalami tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish hamda MTMsining ikki tillilikni shakllantirishga oid faoliyati bilan qay tarzda hamkorlik qiladi?

- ijtimoiy-rus ikki tilliligining qaysi xillari mavjud, o'zi uchun ona tili bo'lmasa-da, rus (o'zbek) tillarida so'zlashayotganlar uchun ushbu til qaysi sifatleri bilan tavsiflanadi; rus (o'zbek) tillarining boshqa tillar bilan aloqada bo'lish xususiyatlari maktabgacha yoshdagi bolalami ikki tilli qilib tarbiyalash jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- maktabgacha yoshdagi bolalar ikki tilliligining xususiyatlari qanday?

- maktabgacha ta'lim muassasasida bilingvlaming xulqi xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

4. Maktabgacha katta yoshdgi bolalar uchun mashg'ulotlar ishlanmasi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalaming og'zaki nutqqa doir, malaka va ko'nikmalari mavjud bo'lganligini hisobga olib, ularda bog'lanishli nutqni shakllantirishda, avvalo, tevarak-atrofii kuzatishda nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini aniqlab olishimiz zarur. Bular avvalo, ona Vatan haqida dastlabki tasawurlami shakllantirishdan boshlanadi. Bunda «Bolajon» dasturida bolalarda mustaqil O'zbekiston davlati haqidagi tushunchalami kengaytirish, uning o'tmishiga oid yodgorliklar bilan tanishtirish. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon kabi tarixiy shaharlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, «Mustaqillik kuni» (1991-yil 1-sentabr), O'zbekiston ramzlari - gerbi, bayrog'i, madhiyasi bilan tanishtirish, O'zbekiston Prezidenti, Prezidentlik boshqaruvi haqida ma'lumotlar berish, bolalarning o'z mahallasi, ko'chasi, uyi, uning nomlanishi, nomlanish sababi; O'zbekistonning tabiati, yer osti va yer usti boyliklari, tog'lari, cho'l va adirlari, tog'u soylari, o'rmonu bog'lari, iqlimi, buyuk siymolari, sarkardalari, ulug' mutafakkirlari, an'anaviy bayramlari, sayllari, milliy marosimlari, o'zbek xalqining amaliy san'ati, kattalar mehnati, bolalarning ota-onalari, aka-opalarining O'zbekiston xalq xo'jaligining turli sohalaridagi ishtiroki, ishlab chiqarishning muhim sohaları, aloqa vositasi haqida bilim berish nazarda tutilgan. Ana shularning barchasi bolalarning tevarak-atrofdagi hodisalar haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish asosida bog'lanishli nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Bizga ma'lumki, juda ko'p mashqlar sayr paytida uyushtiriladi. Masalan, sayr paytida bir bola eshak minib guruh bolalari yonidan o'tib qoladi. Bolalardan biri havas bilan qaraydi va o'z hayratini quyidagicha ifodalaydi: - «Vuy, ana u bola eshakda uchyapti».

Murabbiy tuzatadi:

- eshakda uchilmavdi, eshakka miniladi, So'ne bolalardan so'raydi:
- yana nimaga miniladi?
- velosipedga miniladi;
- poyezdga miniladi;
- otga miniladi;
- samolyotga miniladi.

Boshqa bir bola tuzatadi:

- poyezdga chiqiladi, samolyotga uchiladi.

Bolalar sayr paytida baland binolar oldidan o'tishlari mumkin. Shunda quruvchilik kasbi, qurilishda ishlatiladigan g'isht, ganch, qum, ohak va boshqa qurilish materiallari, quruvchilik kasbi - ganchkorlik, g'isht teruvchi, suvoqchi, binolaming balandligi, go'zalligi va hokazolar haqida jumlar tuzadilar.

Gulzorlar, bog'larga sayohatlar davomida tarbiyachi samolyotlar, poyezdlar, gullar, favvoralar haqida suhbatlar uyushtirishi mumkin. Suhbatlarda predmetlarning rangi, tusi, soni, hajmi, turi, o'xshash va farqli tomonlari haqida ham mashq qilib boriladi.

«Nima shirin?», «Nima uchadi?», «Tushirib qoldirilgan so'zlarni toping», «Men boshlayman, siz davom ettiring» kabi mashqlar ham grammatik jihatdan jumalarni to'g'ri tuzishga yo'llaydi.

Muloqot, til va nutq tahlili va rivojanish asoslari. Tilning rivojlanishi bolalar hayotining har bir jabhasida va ta'limiy muvaffaqiyatlarida eng muhim omildir. 2-5 yoshdagi bolalaming taxminan 6 % i til rivojlanishi bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Tilning yetarlicha shakllanmaganligi bolalarning butun hayoti davomida o'z ta'sirini ko'rsatadi va ular bilish, savodxonlik, ijtimoiy munosabat, diqqat va o'qitish hamda o'rganishga tayyorgarlikda qator qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Shuning uchun ham o'z shaxsini erta anglash juda muhim hisoblanadi. Bolalaming ijtimoiy tarbiyasida til o'rganish bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi va bunda bilish darajasi ko'pincha past bo'ladi. Irlandiyada ingliz tilini qo'shimcha til sifatida o'rganayotgan

o'quvchilarda ham til va nutq tahlilida yetishmovchiliklar mavjud bo'ladi deb hisoblanadi. Bunday bolalarda tilning rivojlanishi bir-biridan farq qiladi va shuning uchun til tahlili qiyin bo'ladi. Tilning murakkabligi umumiy tahlilni qiyinlashtiradi. Bir qancha tahlil uslublari maktabgacha bo'lgan bolalarning muloqoti va tilini baholashda qulay bo'lishiga qaramay, bu metodlarning ko'pchiligi kelajakda til bilan bog'liq muammoga duch keladiganlarni bashorat qilishda yaxshi natija bermasligi mumkin.

Murakkab tahlil metodlari oddiy tahlil metodlariga qaraganda aniqroq deb hisoblanadi va ular bolalarning turli rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra oddiy tahlildan afzalroqdir. Tahlil metodlari tilda ishlatiladigan murakkab uslublarni qisman ta'minlaydi va shu sababli, ayniqsa maktabgacha bo'lgan bolalarda til tahlili bo'yicha ko'proq izlanishni talab etadi⁹. (Edited by Mary Rafferty «A brief review of approaches to oral language development» USA 2014y).

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bola nufuning grammatik tizimi qanday shakllantiriladi?
2. Muloqotning qanday vositalarini bilasiz?
3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
4. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun qanday mashg'ulotlar ishlanmasi tavsiya etilgan?
5. Muloqot, til va nutqning tahlili va rivojlanish asoslari haqida nimalarni bilasiz?

⁹ Edited by Mary Rafferty "A brief review of approaches to oral language development" USA 2014 y.

6-§: RAVON NUTQNI RIVOJLANTIRISH

REJA:

1. Ravon nutq tushunchasi.
2. Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ravon nutqqa o'rgatish.

Tayanch tushunchalar: nutq, ravon nutq, mashg'ulot, monologik nutq, dialogik nutq, nutqning shakllanishi, nutq madaniyati.

1. Ravon nutq tushunchasi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilimlarni berish shakli asosan o'yin va qiziqarli jarayonlarga boy mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonetik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi. Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish uchun, avvalo, bolalarning tinglash faoliyatini nazoratga olish zarur. Ya'ni, ularga tinglash va tushunish uchun sharoitlar yaratilganmi, tinglab tushunish uchun ularga yetkazilib berilayotgan axborot beruvchining nutqi sog'lommi bu albatta, ahamiyatli. Nutq qanchalik sof, toza, sog'lom bo'lsa yetkazilinayotgan axborot ham ishonchli, ham qabul qiluvchi tomonidan to'g'ri tushuniladi. Shuning uchun ham nutq, aynan ravon nutq borasida gap ketganda, nafaqat bolalar, balki avvalo tarbiyachilar nutqi bilan muammo bo'lmasligi lozim.

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichki individual va umuminsoniy. Ravon nutq - bu

kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi.

"Bola, — degan edi K. D. Ushinskiy, — ilk yoshlik chog'idanoq xalq madaniyati elementlarini o'zlastira boshlaydi, bularni avvalo, ona tilini bilish yoli bilan o'rganadi. Shu bois, bizning fikrimizcha, oilada, bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ona tilidan o'rinli foydalanmoq zarur". Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati juda katta. Butun dunyo xalqlarining xoh siyosiy, xoh madaniy taraqqiyotini tilsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki til eng muhim aloqa vositasi, jamiyat esa aloqasiz rivojlanmaydi.

Bog'chada ta'lim berish samaradorligini oshirish. bolalarni mustaqil ta'lim olishga (maktab ta'limiga) tayyorlash, yangi jamiyatning ongli quruhchilarini tarbiyalash kabi muhim va hayotiy vazifalarni hal qilishda ona tili asosiy o'rin egallaydi.

So'z boyligi bolaga barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini bcradi. Bu, o'z navbatida, bola kamoloti uchun ham keng y'l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin-asta hayotga tatbiq etishga ham o'rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbayi va vositasi hamdir. Eski o'zbek adabiy tili o'zbek xalqning buyuk mutafakkiri Navoiy asos solgan va keyinchalik Muqimiy, kabi demokrat shoirlar tomonidan rivojlantirilgan adabiy tildir. Bu adabiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklar o'zbek xalqi va uning tili taraqqiyot tarixini o'rganish uchun manba bo'lishi bilan birga, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili uchun ham asos bo'lgan. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining davomi, uangi sharoitda o'zbek xalqining iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishi asosida har tomonlama boyigan shaklidir.

Bolalar o'rtasidagi muloqot asosan amaliy xususiyatga ega. Dialog ko'pincha shunday shaklga olib boriladiki, bunda bola sherigining qisqa

luqmalariga harakat bilan javob beradi yoki ro'y berayotgan hodisaga nisbatan o'z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ular orqali bolalar bir-biriga e'tibor berishni, do'stlarini tovushidan bilib olishni, tashqi ko'rinish detallarini sezishni, nutqiy muloqot qilishni o'rganadigan ko'plab xalq o'yinlari mavjud.

Dialog muloqotini yo'lga qo'yish uchun stol o'yinlari va chop etilgan («loto», «domino») o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Juft bo'lib o'ynashda bolalar dialogik hamkorlik qilish usullarini: navbatga rioya qilish, bir-biriga xushmuomalalik bilan murojaat qilish, o'z nuqtai-nazarini dalil-isbotlar bilan himoya qilish, fikrlarini sherigi bilan muvofiqlashtirishni o'rganadilar. Bunday o'yinlarda biluvchanlikning asosi sifatida nutqiy topshiriqlarning har xil turlari ishtirok etishi mumkin, masalan: berilgan tovushli so'zlarni tanlab olish, akustik vaartikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni tabaqalashtirish, umumlashtiruvchi nomlarni tasniflash, rasmlar turkumi asosida birgalashib hikoya qilish va h.k. Monologik nutqni rivojlantirish Bolalarga keng yoyilgan fikr tuzishni o'qitishda tarbiyachi ularda matn tuzilmasi (boshi, o'rtasi, ohiri) haqidagi eng oddiy bilimlarni, gap bilan fikrning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar haqidagi tasavvurni shakllantirishi zarur. Aynan ushbu ko'rsatkich (gaplar o'rtasidagi aloqa vositasi) nutqiy fikrning ravonligini shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida ishtirok etadi.

Har qanday tugallangan fikrda iboralarni bog'lashning keng tarqalgan variantlari mavjud bo'ladi. Gaplarni bog'lashning eng keng tarqalgan usuli – bu zanjirli aloqadir. Olmosh, leksik takrorlash, sinonimik jihatdan o'rin almashish mazkur aloqaning asosiy vositalari hisoblanadi. Zanjirli aloqa nutqni yanada moslashuvchan va rang-barang qiladi, chunki bola bu usulni egallar ekan, bir so'zni qayta takrorlashdan qochadi. Pedagog bolalarga gaplarni parallel ravishda bog'lashni o'rgatishi zarur, bunda gaplar bir-biriga ulanmaydi, balki taqqoslanadi yoki hatto qarama-qarshi qo'yiladi (Kuchli shamol esardi. Quyon iniga yashirinib oldi).

2. Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish — maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblanadi, maktabgacha yoshining nihoyasiga" kelib bola kattalarga xos bo'lgan og'zaki nutqning asosiy

shakllarini egallashi, ya'ni ravon nutqning ikki shakli — dialogik va monologik nutqni egallab olishi shart.

Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlaridan biridir. Uni egallash har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq. Shu qobiliyat tufayli tarbiyachining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi tarbiyachining nutq madaniyatiga xos bo'lgan vositalarni pedagog-tarbiyachi unutmashligi kerak:

1. Nutq madaniyati tarbiyachining ma'naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati tarbiyachilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan, hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.

3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash.

4. Nutq madaniyati — bu avvalo, tarbiyachilarda nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun tarbiyachi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni ifodali o'qiy olishi, radio va televidenie eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, yosh tarbiyachilar o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va ta'sirchan nutq so'zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san'atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o'rganishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifasi – bolalarda ravon so'zlashuv nutqni (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berishi, suhbat mavzusi bo'yicha izchil javob berish qobiliyati shakllamadi. Nutqning ushbu ikki turlari o'rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo'ladigan (bir-biriga nisbatan) borliq faktlari haqida xabar qiladi.

Vaqtinchalik aloqa ikki tomonlama bo'lishi mumkin: faktlar haqiqatdan ham bir vaqtdalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo'lishi mumkin. Bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladigan faktlar haqidagi xabarlar tavsif deb ataladi. Faktlar ketma-ket keladigan xabar bayon qilish deyiladi. Sabab-oqibatli munosabatlarda bo'lgan faktlar haqidagi xabarlar esa mulohaza deb yuritiladi.

Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchtaasosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichkiindividual va umuminsoniy. Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1-vazifasi – individuallararo – kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq – monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbat sifatida chiqadi.

2-vazifasi – ichkiindividual – bu yerda nutq ko'plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq-tiniq ang'lash darajasiga ko'targani hamda shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va

nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

3-vazifasi – umuminsoniy – bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda – bu grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kundalik faoliyatlari bilan tanishishda va turli voqea-hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo'lgan bilimlarini aniqlashda eng zaruriy vosita, albatta ularning nutqi sanaladi. Bolalarning lug'at boyligi hamda tilning grammatik tomonini qanchalik egallaganiga qarab uning so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasini aniqlash mumkin bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bolalarga bilim hamda tarbiya berishda nutqiy savodxonlikka o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'zlashuv nutqining mavjudligi - bu o'zgalarning nutqini tinglash va tushunish, fikrlash, beriladigan savollarga javob berish va o'zi ham savollar berish imkonini beradi.

Ma'lumki, muloqotdagi odamlardan biri gapirsa, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ham shu ikki qirraning o'zaro mosligi, bir - birini to'ldirishiga bog'liqdir. Shu o'rinda savol tug'iladi, biz bolalarni nutqi ustida ishlaganimizda, ularning muloqot ko'nikmalarini shakllantirish borasida o'ylaganimizda mana shu ikki qirrani birdek olib boramizmi? Biz bolalarni muloqotga o'rgatyotganimizda, ularni faqat mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib gapirishga, nutqning ta'sirchanligiga e'tiborli bo'lishga o'rgatamiz. Muloqotning zaruriy tomonidan bo'lgan - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Aslida tinglash hayotimizning asosiy omillaridan sanaladi. O'zimiz bilmagan holda unga bog'langanmiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A.Shopengauer "Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang" deb yozgan ekan. Haqiqatdan ham, kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz tinglamasa, boshqa narsaga chalg'isa, undan ranjiysiz. Bunday holat sizda faqat ranjishni keltirib chiqaradi, xolos. Lekin bolalarda biroz boshqacha. Ularning endi o'sib kelayotgan ongi, ruhi sinib qolishi

mumkin. Bolalar bilan muloqotda ularni har qanday holatda ham tinglash zarur sanaladi.

Aniqlanishicha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan. Odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladigan kasb egalari 35-40% oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Xulosa qilinsa, muloqotning eng qiyin ko'rinishlaridan hisoblangan tinglash qobiliyati ko'proq foyda keltirishi bilan ham ahamiyatli ekan. Odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi o'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik ekan. Tan olishimiz kerakki, biz ko'pincha yaxshi so'zlovchi bo'la olamiz-u, shu o'rinda yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz. Psixologlarning fikricha, bu borada bizning xohishlarimiz, o'z fikr - o'ylarimiz og'ushida bo'lib qolishimiz bunga halaqit berar ekan. Darhaqiqat, ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz-u, lekin aslida-chi, xayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Bolalarda esa bunday holat deyarli kuzatilmaydi. Sodda qalb egalari aldashni bilishmaydi, rostmanasiga seni eshitadi yoki yo'q.

Suhbatdoshni diqqat bilan tinglash, ikki tomonda o'z-o'zlariga va bir-birlariga bo'lgan ham ishonchni, ham hurmatni oshiradi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilganidek passiv jarayon hisoblanmaydi. U muloqotning samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu jarayon bolalarda o'zining mevasini berishi aniq. Sababi tinglashayotganiga ishongan gapiruvchi bolani bu jarayon ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi. Bolalarni tinglash yangi g'oyalar, fikrlarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga o'rgatishga katta e'tibor beriladi. Psixologik savodxonlik bilan birga muloqot texnikasini egallash muloqot jarayonida ishtirok etuvchilarda gapirish va tinglashda faol bo'lishni va muloqot samarali tashkil qilinishini ta'minlaydi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ravon nutqqa o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg'ulotlarda. Dialog – bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi. Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitish, talaffuzga oid, grammatik ko'nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi. Dialog ikki yoki bir necha so'zlovchining biron-bir vaziyat

bilan bog'liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi. Dialogda, yuklamalardan foydalanilgan holda, sintaksik jihatdan sodda bo'lgan darak, undov (iltimos, talab), so'roq gaplarning barcha turlari namoyon etilgan. Til vositalari imo-ishoralar, mimika bilan kuchaytiriladi.

Bolalarga monologik nutqni muntazam o'qitish taxminan besh yoshdan boshlanadi. Lekin bunga tayyorgarlik bola hayotining ikkinchi yilida - bolalarning o'qish va sanoq she'rlarni yodlash jarayonida boshlanadi. To'rt yoshdan boshlab bolalar monologning tavsiflash va bayon qilish turlarini qo'llashga, yetti yoshdan boshlab esa – qisqa mulohaza yuritishga qodir bo'ladilar. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik muloqoti negizida nutqning yangi shakli – monolog tug'iladi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'rtoqlashish istagi oqibatida vujudga keladi. Bunda nutq qisqa hikoya shakliga ega bo'ladi. Hikoyada albatta, bolani lol qoldirgan va uni hayajonga solgan biron-bir qiziq hodisa aks etadi. Ravon nutqni rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan nutqning ikki shaklini – dialogik va monologik shakllarini ko'rib chiqish lozim. Tarbiyachi shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli xil til vositalaridan foydalangan holda dialog tuzish – so'rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish, luqma tashlash va h.k. zaruratiga duch kelsin.

Ushbu maqsadda bolaning oiladagi, maktabgacha ta'lim muassasasidagi hayoti, uning do'stlari va kattalar bilan munosabatlari, uning qiziqishlari va taassurotlari bilan bog'liq turli xil mavzularda suhbat o'tkazishdan foydalanish lozim. Aynan dialogda suhbatdoshni tinglash, savollar berish, mazmundan kelib chiqqan holda javob berish qobiliyati rivojlanadi. Qayd etilgan malaka va ko'nikmalar monologik nutqni rivojlantirish uchun ham zarurdir.

Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo'lga qo'yish uchun kooperativ tusdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyat asta-sekinlik bilan shakllanadi. Dastlab bolalar ro'y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, yaqinda turib harakat qiladilar. Ushbu vaziyatda nutq tengdosh bolaning mavjud bo'lishi va u bilan so'zlashish imkoniyati orqali rag'batlantiradi hamda u o'z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy muloqot o'rnatish funksiyasini bajaradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ravon matnlar tuzishni o'rgatishda ularda mavzuni vaaytilgan so'zning asosiy fikrini ochib berish,

matnga sarlavha qo'yish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ravon fikrni tashkil etishda intonasiya katta rol o'ynaydi, shuning uchun ayrim gaplar intonasiyasidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish umuman matnning tarkibiy birligi va mazmunan tugallanganligini qayd etishga yordam beradi.

Kattalar bilan bolalarning birgalikdagi so'z ijodkorligi monologik nutqni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Endigina besh yoshga to'lgan bolalar tanish ertaklarni hikoya qilib berish, voqealar to'qish, shaxsiy tajribasidan so'zlab berishga qiziqishni namoyon qiladilar. Katta yoshli odam yo'naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollarni berish, o'yin vaziyatlarini yaratish orqali bola tashabbusini qo'llab-quvvatlashi darkor. Pedagogning sekingina hikoya mazmunini, rejasini, voqealarning ehtimoliy rivojini, so'z shaklini aytib qo'yishi birgalikdagi so'z ijodkorligida muhim ahamiyatga egadir.

Har xil turdagi matnlar tuzishni o'qitishni ishlarning suhbat, o'zining va begonalarning matnini tahlil (baholash) qilish, reja tuzish va u bo'yicha hikoya qilish, matn sxemasidan (modelidan), turli xil mashqlardan foydalanish kabi shakllarda amalga oshirish tavsiya etiladi. Bolalarni adabiy nutqqa o'rgatishda oila, maktabgacha tarbiya tashkilotlarining roli benihoyadir. Bugungi kunda bizning asosiy vazflamiz bog'cha yoshidanoq bolaning og'zaki nutqini o'stirib borishdir.

Bolalar bog'chasi bolalarni bar tomonlama, ya'ni jismoniy aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bu maqsad esa bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog'chada og'zaki nutqni o'stirish natijasida bolalar aqlan rivojlanib, umumiy madaniy saviyasi oshadi. Ular tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradilar. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi. Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va h. k.) shunchaki bola organizmining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga (so'zlashishga) o'rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola normal holatda rivojlanadi, ya'ni

avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, havola qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar (parallel) ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vaqtda, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Avniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida bar bir bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi. „Ona tili, — deb ta'kidlagan edi K.D. Ushinskiy, — har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o'tadi va unga qaytadi“.

Ushinskiyning fikricha, bolaga ta'lim va tarbiya berishda tilning qimmatini dastlab ijtimoiy hodisaning chuqur xalqchilligi bilan, uning milliy xarakteri bilan belgilanadi. U „tilda chuqur ma'noli ko'pdan ko'p falsafiy fikrlar, chinakam nafis his-tuyg'ular, nihoyatda to'g'ri, ko'rkam did, fikrni bir yerga to'plab, zo'r diqqat bilan qilingan mehnat izlari, tabiat hodisalarini va ulardagi eng nozik rang-barangliklarni g'oyat darajada ziyorlik bilan his etish, kuzatuvchanlik, zo'r mantiqiylik bor“ – deb, ta'riflaydi.

K.D.Ushinskiy o'zining „Ona tili so'zlari“ maqolasida bolani ona tili, ona tilidagi so'zlar orqali tarbiyalash masalasini qo'ydi. Chunki xalqchilik dastlab ona tilida o'z ifodasini topadi. Bolaning shaxsiyati, bilimi, malakasi, ma'naviy qiyofasi ana shu til ta'sirida shakllanadi. Shoira Zulfiya ta'kidlaganidek: „Ona tilini mukammal o'rgangan kishi ona yurtining tarixini to'liq o'rganish baxtiga muyassar bo'ladi“.

Bolalar bog'chasida tarbiyalanayotgan bola o'rtoqlari bilan o'ynaydi, qo'lidan kelgancha mehnat qiladi. Bu jarayonda o'z harakatlariga baho berishga, fikrini boshqalarga tushunarli qilib bayon eta olishga o'rganadi

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nutq nima Ravon nutq tushunchasini izohlang?
2. Diologik va monologik nutqni farqlang. Bolalardagi diologik nutq bilan bog'liq ko'rsatgichlarni ayting.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ravon nutqni rivojlantirish bilan bog'liq fikrlaringizni ayting.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

7-§: BOLANING ILTIMOIY VA SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA DIOLOGIK NUTQNING AHAMIYATI

REJA:

1. Bolaning iltimoiy va shaxs sifatida shakllanishida diologik va monologik nutqning ahamiyati

2. Diologik nutqni shakllantirish usullari.

3. Diologik nutqni umumiy xususiyatlari.

Tayanch soʻz va iboralar: Dialog, monolog, polilog, soʻzlashuv uslubi, badiiy uslub, diolog-monolog dixotomiyasi, majoziy ifodalardan foydalanish imkoniyatlari, kirish soʻz, undov va modal soʻzlarni qoʻllash, imo-ishoralardan unumli foydalanish, gapning taʼsirchanligini oshirish imkoniyatlari.

1. Bolaning iltimoiy va shaxs sifatida shakllanishida diologik va monologik nutqning ahamiyati. Dialog nutq shakllaridan biri boʻlib, unda har bir fikr toʻgʻridan-toʻgʻri suhbatdoshga qaratilgan boʻladi. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Dialogik nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi. Dialog fikrlarning qisqaligi bilan ajralib turadi. Unda suhbatni davom ettirish uchun eng zarur narsalargina ifodalanadi. Voqealar keng izohlanmaydi. Shu jihatdan ham dialog monologga oʻxshamaydi. Dialog soʻroq, buyruq va darak gaplardan tashkil topadi. Ikki kishi oʻrtasidagi diologik nutq, savol-javob, buyruq-javob, xabar-eʼtiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq, yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Koʻp kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat boʻlmay, oʻrtaga tashlangan savol, taklif, daʼvat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi. Dialogik matn tarkibida soʻroq, olmoshlari, muomala odobiga oid soʻz va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish soʻzlar keng qoʻllanadi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibili turlari, toʻliqsiz gaplar, soʻz-gaplar faol ishlatiladi.

Ikki kishi oʻrtasidagi diologik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-eʼtiroz kabi mazmunlarda boʻlib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Koʻp kishilik dialoglarda suhbat

mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. So'zlovchining bayon etayotgan fikriga munosabatini bildiradigan so'z birikmasi **kirish so'z** deyiladi.

Kirish so'zlar vazifasida modal so'zlar, ayrim yuklamalar ba'zi tartib sonlar (birinchi, ikkinchi, to'rtinchi kabi) keladi. Kirish so'zlar ham uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Shuning uchun so'zlovchi o'zi qo'llayotgan nutq uslubiga muvofiq keladiganini tanlab qo'llaydi. Masalan, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, fikri ojizimcha, avvalambor kabi kirish so'zlar uslubiy xoslangan so'zlardir. Ulardan, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, avvalombor, fikri ojizimcha so'zlari kitobiy uslubga xos. Kitobiy uslubga xos bu so'zlar o'z ichida ichki xoslanishga ega: shaksiz, fikri ojizimcha – badiiy uslubga xos; bayon qilinishicha – publitsistik uslubga xosdir. Shuning uchun har qaysi kirish so'zini o'z o'rnida ishlatish madaniy nutq belgisi sanaladi.

Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir. Dialogik va monologik nutqlar insonning muloqot shakllari hisoblanadi. Inson nutqi ko'rinishiari sifatida dialogik nutq ham, monologik nutq ham nutqning shakllanishidagi umumiy qoidalarga hamda insonlar o'rtasida amalda bo'lgan muomala etikasi va tamoyillariga bo'ysunadi. Ayni paytda, ularning har biri shakllanishdagi til xususiyatlari va tildan tashqarida bo'lgan omillarga munosabati bilan bir-biridan farqlanadi. Ikki kishi o'rtasidagi har qanday suhbatni dialog sifatida e'tirof etish mumkin. Ammo bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari ana shu ikki kishi o'rtasida yuzaga kelgan suhbat jarayonida ochiladi. Shunday ekan, yuqorida ta'kidlanganidek, bu yerda ham suhbatning maqsad va mavzusi, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati, yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, jamiyatda egallagan o'rne va mavqei dialogik nutqning mazmunini belgilaydi.

Dialog nazariyasi tilshunoslik muammolarining keng doirasi bilan bog'liq bo'lib chiqadi va tilshunoslik doirasidan tashqariga chiqadi. Muloqotga e'tibor qiziqish bor joyda namoyon bo'ladi insoniy

munosabatlar, chunki dialog bilan biz muloqot, o'zaro ta'sir, aloqa g'oyasini bog'laymiz. IN Yaqinda psixolingvistikaning nazariy yutuqlarini hisobga olgan holda nutqni inson faoliyatining bir turi sifatidagi g'oyasiga asoslanib, muloqotga kompleks yondashuv rivojlanmoqda.

Tilning kommunikativ funksiyasi jamiyatning alohida a'zolari o'rtasidagi o'zaro ta'sir turlarining xilma-xilligiga muvofiq, odamlarning muloqot sharoitlari va maqsadlariga qarab, milliy tilda mavjud bo'lgan vositalardan har xil foydalanishni oldindan belgilab beradi.

Muloqot shartlari va maqsadlari xususiyatlari bilan ajralib turadigan til tizimining funksional va stilistik navlarida tilning kommunikativ funksiyasi turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Milliy tilning so'zlashuv funksional-stilistik xilma-xilligining asosiy shakli bo'lgan dialogik nutq tilning kommunikativ funksiyasining yorqin ifodasidir, chunki dialogik nutqda xabar til a'zolari o'rtasidagi uzluksiz o'zaro muloqotda shakllanadi. inson jamoasi. Dialogik nutq uyda ham, televizorda, radioda (intervyuda) ham, Internetda ham odamlarning kundalik hayotining bir qismidir. Og'zaki-badiiy matnning bir qismi sifatida dramada ustunlik qiladi, epik asarlarda ham mavjud. Dialog mustaqil publitsistik va falsafiy janr sifatida ham mavjud (masalan, Platon dialoglari). Dialogik nutq mahalliy va xorijiy tilshunoslikda to'liq bo'lmasa-da, keng o'rganilgan. O'rganish uchun asos turli tillar, ham og'zaki so'zlashuv nutqi, ham badiiy asarlar materialidir.

Muayyan badiiy asarda dialogik nutqdan foydalanish tahliliga bag'ishlangan aksariyat asarlarda tadqiqot uchun material sifatida dramatik asarlar tanlanadi, ular aslida alohida muallifning nutqi bilan bitta dialog (yoki ko'pincha polilog) hisoblanadi. izohlar. Bu asarning lingvistik materiali F.M. Dostoevskiy "Jinlar". M.M.ning so'zlariga ko'ra. Baxtin, Dostoevskiyning romanlari "polifonik". Shuning uchun yozuvchining asarlari dialogik nutqni o'rganish uchun ideal epik materialdir. Tahlilning maqsadi F.M. ishida dialogik nutqdan foydalanishning asosiy qonuniyatlarini aniqlash edi. Dostoevskiy, dialogning har xil turlarini (lekin polilog emas) aniqlash va epik nasrdagi spontan og'zaki nutq kabi hodisada umumiy til va individual-muallifning chegaralarini aniqlash.

Rus tilshunosligida dialog nazariyasining asoslari L.P.ning asarlarida yaratilgan. Yakubinskiy, L.V. Shcherby, V.V. Vinogradova, M.M. Baxtin.

Muloqotga katta qiziqish 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshidan uyg'ondi. O'shandan beri dialog savollari turli tillardagi materiallar bo'yicha jadal ishlab chiqildi. Katta tadqiqot materiali, dialogga bag'ishlangan, bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi, chunki dialog o'ziga xos vositalarda tilning konkret timsoli sifatida, nutq aloqasi shakli, inson nutq faoliyatining namoyon bo'lish sohasi va til mavjudligi shakli sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi holda, nutq natijasida vujudga kelgan nutq tuzilishi, dialogik nutqning amalga oshirilishi tahlil qilinadi, ikkinchi holda, tadqiqotchi ushbu nutqning paydo bo'lishi va oqimining shartlarini aniqlash bilan shug'ullanadi, uchinchi holatda, muloqot muammolari tilning ijtimoiy funksiyasini o'rganish bilan bog'liq masalalar qatoriga kiradi. Dialogga e'tiborning tomonlari chambarchas bog'liq bo'lib chiqadi; shu bilan birga, hozirgi tilshunoslik fanida u yoki bu bog'liqlikda dialog hodisasi ishtirok etmaydigan yoki ishtirok eta olmaydigan sohani nomlash qiyin.

Dialogning ta'rifi haqida gapirganda, barcha tadqiqotchilar quyidagi xususiyatlarga to'xtashadi: kamida ikkita suhbatdoshning mavjudligi, ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bayonotlar almashinuvi; nutq muhitining qulay tabiati; nutqning muqobil adreslanishi, ma'ruzachilarning majburiy o'zgarishi; nutqni bir vaqtning o'zida quloq bilan idrok etish, o'z bayonotlarini tayyorlash va amalga oshirish; ekstralingvistik aloqa vositalarining (mimika, imo-ishoralar) katta ahamiyati; til holatining doimiy o'zgarishi.

Muloqotning lingvistik muammolariga bag'ishlangan dastlabki ishlarda tadqiqotchilar nutq inson faoliyatining turlaridan biri degan pozitsiyadan kelib chiqqanlar. L.P. Yakubinskiy tilni inson xatti-harakatining bir turi, psixologik fakt, inson organizmining namoyon bo'lishi va organizmlarning o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan birgalikdagi hayotiga qarab sotsiologik deb yozgan. Og'zaki muloqot shakli sifatida dialog doimo monolog bilan taqqoslanadi. L.P. Yakubinskiy, dialogning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab, (bir-biriga bog'liq bo'lgan qisqa bayonotlar-replikalarni oldindan muhokama qilmasdan, vizual va eshitish idroki suhbatdosh) va monolog (bir kishining uzoq yozma yoki og'zaki bayonoti), jonli nutqda dialog va monolog ko'pincha o'zaro bog'liqligini va bir qator o'tish hodisalari mavjudligini ta'kidladi (masalan, bo'sh vaqtdagi

suhbat, sekinroq xarakterlanadi. sur'ati, kattaroq komponentlar, tezkor suhbatga qaraganda ko'proq munozarali nutq).

Dialog nutq aloqasi, nutq faoliyatidagi hamkorlik g'oyasiga osongina mos keladi, monolog esa dialog bilan birga mavjud bo'lgan nutq shakli sifatida alohida tushuntirishni talab qiladi. L.V.Shcherbaning "til o'zining haqiqiy borligini faqat dialogda ochib beradi" tezisini L.P. Yakubinskiy, suhbatning tabiiyligi va monologning sun'iyliigi haqida gapirdi. V. V. Vinogradov monolog tilning berilgani emas, balki individual qurilish mahsuli ekanligini yozgan. Dialog va monolog o'rtasidagi munosabatlarning tabiati haqidagi savol haligacha yagona yechim topmagan.

2. Diologik nutqni shakllantirish usullari. Dialog birligi sifatida N.Yu. Shvedova dialogik birlikni aniqladi. Bu kontsepsiya dialog nazariyasiga mustahkam kirdi. Turli tuzilmalarning dialogik birliklari, shu jumladan ikki yoki undan ortiq bayonotlar - replikalar o'rganiladi. Muloqotning chegaralari va uning ichki tuzilmaviy xususiyatlari haqidagi masala dialogning uzviy tuzilma va dialogik birlik sifatidagi tushunchalari o'rtasidagi farq bilan bog'liq. Replika dialogik birlikning va umuman dialogning tarkibiy qismi sifatida harakat va reaksiya ma'nolarini o'zida mujassam etgan ikki qirrali xususiyatga ega, buning natijasida dialog o'zaro bog'liq bo'lgan bayonotlarning murakkab zanjiri hisoblanadi. Muloqotni murakkab nutq majmuasi sifatida o'rganish, ko'pincha bir nechta shaxslarning o'zaro bog'liqligi yoki parallel nusxalari zanjirini o'z ichiga oladi, dialogning turli strukturaviy turlarini (juftlashgan dialog, parallel dialog, polilog) aniqlash bilan bog'liq. Nutqdan tashqari bir qator lahzalarni hisobga olmasdan dialogni o'rganish mumkin emas: bayonotning maqsadi va mavzusi, ma'ruzzachilarning tayyorgarlik darajasi, suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlar va ularning aytilgan narsaga munosabati, nutqning o'ziga xos holati. aloqa. Dialogik nutqning tabiati ana shu omillarning barchasining jamlanmadagi harakati bilan belgilanadi va ularning har birining o'ziga xos namoyon bo'lishi natijasida ma'lum bir tuzilish dialogi hosil bo'ladi.

Suhbat ishtirokchilarining bayonotlarga munosabati, ekstralingvistik omillardan biri sifatida, nutq so'zlovchining boshqa bironing nutqi shakliga bergan baholarida ham namoyon bo'ladi, ular muloqot jarayonini tartibga solishning o'ziga xos momentidir va o'z ifodasini topadi. dialogning tuzilishi va tabiati. Muloqotning o'ziga xosligi ko'p jihatdan

ma'ruzachining nutqqa tayyorligi darajasi kabi hodisa bilan bog'liq. L.P. Yakubinskiy qayd etdi tez sur'at replikalarning talaffuzi va ularning dialogning xususiyatlaridan biri sifatida o'zgarishi, bunda nutqqa tayyorgarlik boshqa birovning nutqini idrok etish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Bu dialogik gaplar tarkibida o'z ifodasini topib, uning sintaksisini shakllantirish omillaridan biri hisoblanadi. Muloqotning tuzilishiga suhbatdoshlarning suhbat mavzusidan xabardorlik darajasi ham ta'sir qiladi. L.P. Yakubinskiy birovning nutqini tushunish suhbatdoshlar tajribasi bilan belgilanishini, so'zlovchilarning apperseptiv massasini tashkil etishini, har bir keyingi so'z tayyor zaminga to'g'ri kelishini ta'kidlab, suhbatdoshlarning apperseptiv massasi bo'lganida taxminning katta rolini ko'rsatdi. bir xil. Suhbatdoshlarning umumiy tajribasi, uning doimiy va vaqtinchalik elementlari nutq almashinuvida dekodlash imkoniyatini aniqlaydi. L.II. Yakubinskiy nutqqa "nima bo'ldi"ni tushunadigan tinglovchi kerak, degan fikrni ham keltiradi. Ushbu holat dialog tadqiqotchilari tomonidan bir necha bor qayd etilgan va suhbatda subtekstning mavjudligiga ishora qilgan. Gapning nominativ mohiyatining zamonaviy tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan presuppozitsiya nazariyasi dialog tuzilishini o'rganishda katta imkoniyatlar ochadi.

To'g'ridan-to'g'ri muloqotda ma'lumot uzatishning qo'shimcha vositasi - bu yuz ifodalari, imo-ishoralar, turli xil tana harakatlari, ijtimoiy jihatdan shartli va mos keladigan, L.P. Yakubinskiy, ma'ruzachining intellektual va hissiy holati. Ushbu kommunikativ vosita ko'p jihatdan dialogik nutqni qurishga ta'sir qiladi va dialog, og'zaki nutq tadqiqotchilari tomonidan doimiy ravishda qayd etiladi. muhim joy axborot nazariyasi va tadqiqotida belgilar tizimlari. Biroq, bu masala dialog bilan bog'liq holda maxsus o'rganilmagan.

Dialogning muhim jihatlaridan biri - kompozitsiyadagi dialogik gaplarning birligini shakllantirishda intonatsiyaning roli. murakkab tuzilish va uning axborot vositasi sifatidagi roli. Turli tillar materiallari bo'yicha eksperimental fonetik tadqiqotlar bog'lovchi element sifatida intonatsiya funksiyalari bo'yicha muhim, ba'zan qarama-qarshi xulosalarga olib keladi. L.P. Yakubinskiy intonatsiyaning ma'ruzachi holatiga mos kelishi haqida gapirdi; E.M. Galkina-Fedoruk. Dialogdagi intonatsiyaning informatsion va majburiy roli dialogik birliklarni har xil

turdagi replikatsiyalar - takrorlashlar, pikaplar bilan tahlil qilishda qayd etilgan, tadqiqotchilarning e'tiborini dialogning boshqa yo'nalishidagi intonatsiyaning o'ziga xos xususiyati jalb qiladi. Turli funktsiyalar intonatsiyalar bir-biriga bog'langan bo'lishi mumkin, chunki replikalar bir vaqtning o'zida o'zlarining ichki intonatsiyasi va dialog elementiga ega bo'lgan jumla (yoki jumlarlar birikmasi). Shuning uchun dialogning intonatsion tomonini o'rganish gapning dialogik tuzilishini ham, funktsional xususiyatlarini ham tavsiflash uchun muhimdir.

3. Dialogik nutqni umumiy xususiyatlari. Dialog sintaksisi o'rganishning asosiy yo'nalishidir. Dialogik jumalarga xos bo'lgan so'z tartibi, dialogdagi gaplarning o'ziga xos aktual bo'linishi, shuningdek, dialog intervalgacha og'zaki nutqning timsoli sifatida davom etadigan turli xil sharoitlarning harakati bilan bog'liq. Bugungi kunga qadar adabiyotda dialogning bir qator sintaktik hodisalari yoritilgan turli tillar. Rus so'zlashuv nutqining nazariyasini va o'ziga xos tadqiqotlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Og'zaki shaklda bo'lib o'tadigan dialog ushbu masala bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilarning diqqat-e'tiboriga aylanib qolishi mumkin emas va rus so'zlashuv nutqi sintaksisini o'rganish sohasidagi yutuqlar, tabiiyki, dialog nazariyasining yutug'iga aylanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bola nutqning grammatik to'g'riligini qanday o'stiriladi?
2. Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlarning qanday ahamiyati bor?
3. Nutqda eng muhimi qaysi?
4. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir qanday maxsus mashg'ulotlarni bilasiz?
5. Dialogik nutqqa o'rgatish usullari haqida nimalarni bilasiz? Monologik nutqni shakllantirishning nazariy asoslari nimalardan iborat?

8-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MONOLOGIK NUTQGA O`RGATISH METODIKASI

REJA:

1. Monologik nutq tushunchasining mazmuni va nazariy asoslari
2. Monologik nutq turlari
3. Monologik nutqni shakllantirish usullari

1. Monologik nutq tushunchasining mazmuni va nazariy asoslari. Monologik nutq — so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning Monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan Monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma Monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruk-siyasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvo-stilistik usul bo'lib, bir qancha turlari mavjud. Mas, ta'sir qiluvchi (targ'ib qiluvchi) Monologik nutq, dramatik Monologik nutq, lirik Monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) Monologik nutq Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko'rinishlari mavjud; ochiq Monologik nutqda personaj o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi; ichki Monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o'ylari shaklida namoyon bo'ladi.

Og'zaki nutqiy muloqatga o'rgatish tinglab tushunish va gapirish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda gapiruvchi axborot berish jarayonida nutqiy muloqatni amalga oshirsa, tinglovchi esa uni tinglash va tushunib olish orqali nutqiy muloqatni amalga oshiradi. Suxbat davomida gapiruvchi bilan tinglovchi rollari almashib turiladi. Og'zaki nutqiy

muloqat bir tomonga yo'naltirilgan bo'lishi ham mumkin. Bunda birinchi shaxs faqat gapiradi, ikkinchi shaxs va qolganlari faqat tinglaydi.

Monologik nutq - so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning Monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan Monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma Monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruk-siyasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvo-stilistik usul bo'lib, bir qancha turlari mavjud. Mas, ta'sir qiluvchi (targ'ib qiluvchi) Monologik nutq, dramatik Monologik nutq, lirik Monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) Monologik nutq Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko'rinishlari mavjud; ochiq Monologik nutqda personaj o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi; ichki Monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o'ylari shaklida namoyon bo'ladi

2. Monologik nutq turlari. Monologik nutq turlari 1. Hikoya 2. Ta'riflash 3. Tasvirlash 4. Muhokama 5. ma'ruza

Monologik nutqning xususiyatlari

1. Monologik nutq faqat bir tomonga yo'naltirilgan bo'ladi.
2. U rejali bo'ladi.
3. U qisman tayyorlangan bo'ladi'
4. U uzilmay davom etadi.
5. U rejali bo'lganligi sababli mantiqiy davom etadi.
6. U bir kontekst, matn asosida olib boriladi.
7. Unga vositalar, tayanchlar, sharoit ta'sir ko'rsatadi.
8. Uslub ta'sir qiladi.

9. Monolog ta'sirchan, ma'lumotli, his-xayajonli bo'ladi, kimgadir nimagadir qaratiladi.

10. Nutq vaziyatli bo'ladi. Bir sharoitni, vaziyatni ko'zda tutadi.

Monologik nutqning quyidagi lingvistik qiyinchiliklari xususiyatlari ham muxim o'rin tutadi, ular tasirini ko'rsatadi

1. Talaffuzi qiyin so'zlarning ishlatilishi.

2. Gaplarning kitob uslubiga mansubligi.

3. Nutqni bayon qilishga bog'liqlik bo'lishi.

Demak, har bir monologik nutqiy vaziyat so'zlovchidan alohida bir munosabatni va mas'uliyatni talab qiladi. Ayni paytda, ularning barchasi uchun, avvalgi mavzularni yoritishda ta'kidlab o'tilganidek, umumiy bo'lgan qoidalar ham mavjud. Bu dastlab so'zlanadigan nutqning qolipi – rejasi bo'lishi. Qayerda va qanday vaziyatda so'zlanishidan qat'i nazar, har bir nutq ma'lum reja asosida bo'lishi, auditoriya, vaqt hisobga olinishi lozim. Boshqacha aytganda, nutq so'zlashdan ma'lum maqsad bo'lishi va bu maqsad amalga oshishi zarur. Buning uchun tinglovchilarga ta'sir o'tkazish, ta'sir o'tkazish uchun esa tildan foydalanishning ham, o'zini tutishning ham ta'sirchan vositalaridan foydalanish kerak bo'ladi. Adabiy asarda monologning ichki ko'rinishi xarakterli bo'lib, badiiyat manfaati nuqtai nazaridan ular alohida vazifa bajaradi. Shuning uchun Said Ahmad: «Yozuvchi faqat qahramonning tilidagini yozmay, uni ichidan ham gapirtira bilishi kerak. Chunki ichidan gapirtirilgandagina, qahramonning ichki olami ochiladi. Qahramonning ichki olamini, ichidagi bo'lgan ohangni, ichki dardni yozuvchi o'z tili bilan olib chiqadi» yegan edi. Prof. B. Yo'ldoshev «Badiiy nutq stilistikasi» nomli kitobida o'zining ana shu qarashlariga amal qilgan yozuvchi asarlari («Turnalar», «Alla», «O'rik domla», «Ufq»,) misolida ularning obrazni individuallashtirish va xarakter yaratishdagi vazifalari xususida mulohaza yuritib, dialogik va monologik nutq tahliliga keng to'xtalgan va ularni badiiy nutq uslubidagi bayon usullari sifatida ko'rsatib bergan.

3. Monologik nutqni shakllantirish usullari. Bolalarda grammatik tizimni - sintaksis, morfologiya, so'z hosil qilishni shakllantirish o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lib, ulami rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo'llashi darkor. Morfologiya va so'z hosil qilishni o'zlashtirish

uchun rag'batlantiruvchi til o'yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa, keng fikr bildirish uchun motivatsiyani yaratish muhim.

Ma'lumki, bolalar o'z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o'z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo'ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag'batlantirishga (gap so'z hosil qilish va so'z ijodkorligi xususida bormoqda); oltin-chi yilda - gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirishga (so'z o'zgartirishda); yettinchi yilda

- hosila so'zlar o'rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e'tibor berishi lozim.

Didaktik o'yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar - bolalarning tilga oid o'yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini o'rgatishi zarur.

Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya'ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so'zlarning to'g'ri tartibini qo'llashni o'rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e'tiborni qaratish zarur.

Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to'g'ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so'zlarni biriktirishning turli usullarini, so'zlar o'rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog'liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o'rgatish zarur.

Shunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko'nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta'minlanadi.

Bola nutqi, agarda u atrofdagilarga tushunarli bo'lsagina ishonchli muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa fikrni so'zlarda izchil, ravon va to'liq ifodalashga, aniq so'zlarni tanlashga, talaffuzning sofligi va to'g'riligiga bog'liq. Qulay shart-sharoitlarda u yoki bu darajada ushbu

xususiyatlar bolada aniq reja asosida o'qitish, turli metodik usullarni qo'llash yo'li bilan hosil qilinadi.

Tarbiyachi bolalarning tafakkurini va uning nutqining barcha jihatlarini, shu jumladan, obrazlilikni ham ularga atrof-dagi hayot, oila va maktabgacha ta'lim muassasasining maishiy hayoti, kishilar mehnati, ijtimoiy voqea va hodisalar bilan, jonli tabiat va predmetli olam bilan tanishish imkonini beradigan darajada rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar borliqni faol qabul qiladilar va atrof-muhitdagi hayotga qo'shilib ketadilar, bu esa ularda so'z zaxiralarining tez or- tishiga olib keladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Monologik nutqni shakllantirishning nazariy asoslari nimalardan iborat?
2. Monologik nutq qanday shaklda namoyon bo'ladi?
3. Gaplarni bog'lashning eng keng tarqalgan usuli qaysi?
4. Monologik nutqni rivojlantirishning asosiy shartini ayting?
5. Fikr bildirishning qanday turlari mavjud?
6. So'zning til birligi sifatidagi xususiyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Monologik nutqni shakllantirish usullarini sanab bering?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

9-§: MAKTABGACHA YOSHDA GI BOLALAR BILAN LUG'AT ISHINI OLIB BORISHNING NAZARIY ASOSLARI

REJA:

1. Lug'atning asosiy xususiyatlari
2. Lug'at ishlari mohiyati, mazmuni va vazifalari
3. Bolalarda lug'atni shakllantirishga doir mashg'ulot turlari

Tayanch tushunchalar: lug'at, lug'at ishi, yangi so'zlar, nutq, nutqqa qo'yiladigan talablar, monologik nutq, mashg'ulot.

1. Lug'atning asosiy xususiyatlari. Maktabgacha ta'lim muassasasida sog'lom, tabiiy muhit yaratish, bolalarning to'g'ri muomalaga kirishtirish, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo'ladi. Buning uchun bolalar nutqining shaklan va mazmunan mantiqiy birligiga erishishi muhim talab hisoblanadi.

Birinchi talab, dastlab bola o'z lug'at boyligiga ega bo'lishi zarur. Bu uning boshqalar bilan muomalaga kirishishida yordam beradi. Bunda tarbiyachi asosiy diqqat - e'tiborini tabiiy holatda bolalarning lug'at boyligini oshirib borishga qaratadi. Bolalarning so'z boyligini oshirishda esa ularning kundalik faoliyatida tevarak-atrof bilan tanishib borishi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchi muhim talab, bolalar nutqining grammatik tuzilishini aniq shakllantirishga e'tibor berish. Bunda bolalarni yo'naltiruvchi savollar, mashqlar vositasida nutqdagi so'zlarni to'g'ri ishlatish, gapni to'g'ri tuzishga o'rgatish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi muhim talab, bolalarda tovush madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Zero, bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish metodika ilmidagi murakkab masalalardan hisoblanadi.

To'rtinchi muhim talab, dialogik nutq, ya'ni so'zlashuv nutqini rivojlantirishdir.

Beshinchi talab, hikoya qilib berishga (monologik nutq) o'rgatishdir. Bog'lanishli nutqni rivojlantirishda monologik nutq katta yordam berishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Tafakkurning rivojlanligi lug'at boyligi, jumla tuzish malakasi, o'z fikrini erkin va ravon bayon eta olish ko'nikmasi bilan chambarchas bog'liq.

Oltinchi talab, bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'lib, bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining eng yorqin namunalari kichkintoylarni yangi bir olamga olib kirishga xizmat qiladi. Adabiy asarlar bilan tanishtirish bolalarda faqat bog'lanishli nutqni rivojlantiribgina qolmay, ularda badiiy adabiyotga mehr – muhabbat tuyg'ularini ham paydo qiladi.

Yettinchi talab, bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashdir. Bu talablar maktabgacha tarbiyaning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Lekin ularning har birida bolalarning yosh xususiyati, shaxsiy tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi. Hozirgi zamon talablariga muvofiq maktabgacha katta yoshdagi bolalar adabiy talaffuz me'yorlariga binoan o'z lug'atidagi barcha tovush va so'zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, urg'ularning to'g'riligiga rioya qilmog'i lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishlarining mohiyati — bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Bolalarni ular o'z amaliyotida qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan, to'satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz qiladigan so'zlar bilan qurollantirish ancha pedagogik sa'y-harakatlarni talab qiladi. Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga oid ma'lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so'zlar doirasini aniqlashga yordam beradi,

Bolalar lug'atini boyitish bir vaqgning o'zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so'zni ma'lum qilish va uning ma'nosini ochib berish bilan bir vaqgda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatadi. O'zbek tili lug'ati to'xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo'ladi. Undagi o'zgarishlar eng avvalo insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Yangi narsalar va hodisalarning paydo bo'lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so'zlar ham paydo bo'ladi. Bundan tashqari ilgari mavjud bo'lgan ayrim so'zlar yangilanadi, ularning ma'nosi o'zgaradi, ko'p so'zlar muomaladan chiqib ketadi.

Bolalar bilan lug'at ishlarini o'tkazishda so'zning rivojlanuvchi tusga egaligini hisobga olish zarur. O'zbek tilining lug'at tarkibini umumiy qo'llanishdagi leksika tashkil qiladi. Bu o'zbek tilida so'zlashayotgan

odamlarga qo'shimcha izohlarsiz tushunarli bo'lgan va muomala uchun zarur bo'lgan so'zlar guruhidir. U uzoq vaqg mobaynida yaratilgan. Bu leksikaga nutqning turli qismlari kiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida lug'at ishining mazmunini asosan umumiy qo'llanishdagi leksika tashkil etishi tufayli tarbiyachi bolalar nutqini nafaqat otlar bilan, balki fe'llar, sanoq so'zlar, old ko'makchilar, sifatlar va boshqa nutq qismlari bilan ham boyitishi zarur. Bolalar lug'atini folklor elementlari (qo'zim, toychog'im, ona qizim) bilan ham boyitish darkor, chunki ma'lum hollarda (qayta hikoya qilish mashg'ulotlari, ertak to'qish, sahnalashtirish, o'yinlar va boshq.) ular bolalar nutqiga kiritish uchun ataylab taklif qilinadi, so'ngra alohida emotsional jihatlar (erkalash, yupatish, iltimos qilish va h.k) bolaning maishiy nutqini bezashi mumkin.

Lug'at ishining o'ziga xosligi adabiy me'yorlardan chekinish sifatida qaraladigan oddiy so'zlashuv so'zlarini, vulgarizmni qo'llashni ta'qiqlashdan iborat. Bundan tashqari, unutmashlik lozimki, tilda ayrim so'zlarni ta'qiqlash hodisasi mavjud. Maktabgacha ta'lim muassasasida ham ushbu hodisa bilan yuzma-yuz kelishga to'g'ri keladi: masalan, odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda biz bolalarga xojatga borishni anglatuvchi so'zlarni shartli obrazlar bilan almashtirishni o'rgatamiz. O'zbek frazeologiyasining ayrim misollari bilan tanishtirish lug'at ishining mazmuniga kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga, ayniqsa ushbu katta yoshdagi bolalarga xalq-so'zlashuv frazeologiyasidan ularning imkoni etadigan, mazmunan oddiy bo'lgan ayrim so'zlarni. Shu jumladan o'zbek folklorining barqaror oborotlari, maqollar va matallarni qabul qilish, tushunish, eslab qolish va kezi kelganda foydalanishni o'rgatish zarur. Biroq ushbu ishni amalga oshirishda unutmashlik lozimki, bolalar so'zning raqobatchi mazmuniga, uning tarkibiga bog'liq bo'lmagan butun so'z birikmasining umumiy mazmunini o'zlashtirishlari qiyin kechadi (masalan, og'zi qulog'ida, ettinchi osmonda va boshq.)- Shuning uchun tarbiyachi o'z nutqiga ma'nosi bolalarga muayyan vaziyatlarda tushunarli bo'ladigan, yoki tegishli tushuntirish natijasida tushuniladigan ifodalarni kiritishi lozim. Bunday ifodalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: «o'zim, shunchaki», «yeng shimarib», «azamat paxlavon» va h.k.

Har bir so'zda quyidagilarni ajratish mumkin: uning mazmuni yoki unga yashiringan ma'nosi; so'zning tovush tarkibi, uning morfologik

tuzilmasi. Bolalar bilan lug'at ishlarini amalga oshirishda so'zning ushbu uchta xususiyatini hisobga olish zarur. Amaliyotda ko'pincha bolalarning so'z ma'nosini bilmasliklari yoki uning ma'nosini buzib talqin qilishlarini uchratish mumkin. Shuningdek, mazmuniga ko'ra bolalarga yaxshi tanish bo'lgan so'zning tovush tarkibini buzish hollariga duch kelish mumkin. Bu buzilishlarni sabr-toqat bilan tuzatish, shuningdek yangi so'zlarning bolalar talaffuzida to'g'ri jaranglashini nazorat qilish lozim. Morfologik tizimga oid murakkab holatlarni bilgani holda tarbiyachi bolalarning diqqat-e'tiborini ataylab ayrim so'zlarning grammatik jihatiga, ularning so'z bilan birikishiga qaratishi mumkin. Alohida holatlarda tarbiyachi maxsus usullar bilan ba'zan atrofdagilar nutqida buzib talaffuz qilinadigan so'zlarda to'g'ri urg'u qo'yilishini mustahkamlashi lozim (masalan, sur'at — surat). Bolalarga ayrim otlarni tanishtirishda tarbiyachi ularning turini ta'kidlashi, otni sifatlar bilan birgalikda qo'llashi, bunda sifatning yakuniga e'tiborni qaratishi zarur.

Leksikaning asosiy hajmini mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar (otlar, sifatlar, ravishlar, fe'llar) so'zlar tashkil etadi. Bular eng to'la huquqli so'zlar bo'lib, ular nomlar sifatida xizmat qiladi. Tushunchani ifodalaydi va gapning asosi bo'lib xizmat qiladi (ya'ni, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifasida chiqadi). Pirovardida, bolalar nutqini boyitish eng avvalo mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar sohasida olib borilishi lozim. Sanoq so'zlarni o'zlashtirish bolalarga ancha qiyin kechadi. Bolalar nutqini sanoq so'zlar bilan boyitish asosan, ularda matematik tasavvurlarni shakllantirishga doir mashg'ulotlarda ro'y beradi, ushbu so'zlarni faollashtirish va mustahkamlash ona tili mashg'ulotlarida lug'at ishining maxsus mavzusi bo'lmog'i lozim.

2. Lug'at ishlari mohiyati, mazmuni va vazifalari. Maktabgacha yoshda bola shunday lug'atga ega bo'lishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim pedagogikasi lug'atni rivojlantirishga nutqni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraydi. Lug'atni rivojlantirishni xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to'plangan lug'at zahirasini o'zlashtirishning uzoq davom etadigan jarayoni sifatida tushunish darkor. Ushbu jarayonning miqdoriy

va sifat jihatlarini ajratish mumkin. Eng avvalo bola lug'atidagi miqsoriy o'zgarishlarni qayd etish lozim. Chunonchi, 1 yoshda kichkintoy 10-12 ta so'zni faol biladi, 6 yoshga kelib esa uning faol lug'ati 3-3,5 mingtagacha ortadi. Lug'atning sifat xususiyatlari haqida so'z yuritganda bolalar so'zning bilish natijasini aks ettiruvchi ijtimoiy birlashtirilgan mazmunini asta-sekin egallab olishlarini nazarda tutish lozim, Ushbu bilish natijasi so'zda mustahkamlanadi, shu tufayli odamlar tomonidan anglanadi va muloqot jarayonida boshqa odamlarga uzatiladi.

Har bir so'zning mazmuni tushunchadir. Fikr, so'z umumiylikni ko'rsatadi, Psixologiyada ham so'z mazmuni umumlashtirma yoki tushuncha sifatida belgilanadi. «So'z mazmuni psixologik jihatdan aynan umumlashtirilgan tushunchaning o'zidir. Biz so'z mazmunini fikrlash fenomeni sifatida ko'rib chiqishga haqlimiz» (L.S.Bngotskiy¹). Shuning uchun lug'atni egallash jarayoni tushunchalar bilan uzviy bog'liq va shu tufayli u quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

I-xususiyati — bolalar lug'atining mazmuni. Fikrlashining ko'rgazmali-ta'sirchan va ko'rgazmali-obrazli tusga egaligi bois bola eng avvalo ko'rgazmali taqdim etilgan yoki uning faoliyati uchun mumkin bo'lgan, bolalar lug'atida ancha keng aks ettirilgan narsalar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarni o'zlashtirib oladi. Makgabgacha yoshdagi bolaning lug'atida nisbatan mavhum tushunchalarni belgilaydigan bunday so'zlarning yo'qyaigi yoki ularning ma'nosi buzilishi ham shu bilan izohlanadi.

II-xususiyati — so'zning ma'nosi, mazmun-mohiyatini asta-sekin egallash. Maktabgacha yoshdagi bolada tushunchalar asosida fikrlash hali shakllanmaganligi sababli u egallab olgan so'zlarning ma'nosi ham muayyan yosh bosqichida tushunarli bo'lmaydi. Dastlab bola so'zni muayyan narsa yoki hodisa bilan bog'laydi. Bunday so'z umumlashtiruvchi xususiyatga ega emas, u faqat bolaga muayyan narsa, hodisa haqida signal beradi va ularning obrazini chaqiradi (masalan, bola uchun soat so'zi faqat uning xonasida osilib turgan soatni anglatadi, xolos). Maktabgacha yoshdagi bolaning atrofdagi borliqni — narsalar, hodisalar (xususiyatlar, xossalar, sifatlar)ni o'zlashtirishining borishiga qarab u ularni u yoki bu belgisiga qarab umumlashtirishni boshlaydi. Ko'pincha umumlashtirishlar ahamiyatsiz, biroq bola uchun emotsional jihatdan muhim bo'lgan belgilariga qarab qilinadi. Shunday qilib,

maktabgacha bosqichdagi bolalikda soʻz mazmuni bolaning bilish imkoniyatlari rivojlanishiga qarab oʻzgarib boradi.

III-xususiyati — bola lugʻati hajmining kattalar lugʻati hajmidan ancha kamligi. Chunki bolaning bilish tajribasi va pirovardida atrof-olam haqida toʻplagan maʼlumotlari katta yoshli odamning bilimlari hajmidan ancha kam boʻladi. Lugʻatni rivojlantirishdagi mazkur xususiyatlar maktabgacha taʼlim muassasasidagi bolalar bilan olib boriladigan lugʻat ishlarining vazifalarini aniqlash imkonini beradi.

• Mazmunli muloqot uchun zarur boʻlgan miqdordagi soʻzlar toʻplanishini taʼminlash;

• soʻzlar mazmunini atrof-olamdagi obʼektlarga taqqoslash, ularning xususiyatlari va munosabatlari asosida egallab olish;

• narsalar va hodisalarning ahamiyatli belgilarini ajratish asosida soʻzning umumlashtiruvchi maʼnosini oʻzlashtirish;

• nutqning obrazli qatoriga kirish va undan foydalana olish;

• Ijtimoiy jihatdan mustahkamlab qoʻyilgan soʻzning oʻzlashtirilibishini taʼminlash.

Bolalar lugʻatining xususiyati va lugʻat ishlarining vazifasini maktabgacha taʼlim muassasasidagi lugʻat ishlari dasturi va metodikasining asosini tashkil etadigan tamoyillar belgilab beradi:

• Bolalar lugʻatini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va taʼsirchan bilishlariga tayanish;

• Lugʻat ishlari mazmunining bolaning asta-sekin atrof-olamni bilish imkoniyatlari rivojlanayotgani bilan bogʻliqligi.

Lugʻat ishlari dasturi mazmunini murakkablashtirish uchta yoʻnalishda amalga oshirilmoqda:

• Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lugʻatini kengaytirish;

• Atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi soʻzlarni kiritish;

• Lugʻat ishining ushbu yoʻnalishlari barcha yosh guruhlarida roʻy beradi va turli mazmunda kuzatiladi: obʼektlar va tabiat hodisalari, moddiy madaniyat buyumlari, ijtimoiy hayot koʻrinishlari bilan tanishtirishda va h.k.

1. Bolalarda lugʻatni shakllantirishga doir mashgʻulot turlari.

Bolalarning lug'ati ularga atrof-dagi olamni tanishtirish bilan bir vaqtda o'sib boradi. Lug'atni shakllantirish jarayonida tarbiyachi bolalarning psixologik jarayonlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini: sezgi, diqqat-e'tibor, xotira, fikrlash, (kuzatish) kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Umumiy pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish bilan birgalikda bolalarning hissiyotlari va xulq-atvori, madaniy-gigienik ko'nikmalari, axloqiy tasavvurlari va hatti-harakatlari, estetik tuyg'ulari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ushbu vazifalari lug'at ishlarini o'tkazishda nazarda tutiladi. Kelgusida lug'at ishlarining muayyan usullari va metodlarini ko'rib chiqqan holda biz bu umumpedagogik masalalarga to'xtalib o'tirmaymiz.

Lug'atni boyitish metodlari: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish; badiiy asarlarni o'qish, diafilmlar va kinofilmlar (hujjatli filmlar) ko'rsatish.

Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari: bolalarga tanish mazmundagi o'yinchoqlarni, suratlarni ko'rib chiqish, didaktik o'yinlar.

Har bir bolaning leksik zahirasini to'ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro'y beradi: so'z bolaning o'zi belgilagan (nusxa ko'chirgan) narsa yoki harakatni tasavvur qilishi bilan bir vaqtga xotiraga kiradi.

Bolaning ona tilidagi so'zni o'zlashtirish jarayoni ushbu so'zlarga mos keluvchi narsalarni «tadqiq qilishi» bilan bir vaqtda ro'y beradi: bola narsalarni ko'zdan kechiradi, qo'l tekkizadi, ushlab ko'radi, siypalaydi, uning qanday ovoz chiqarishiga quloq tutadi, ta'mini ko'rmoqchi bo'ladi, hidlab ko'radi. Bola o'z diqqat-e'tiborini jamlagan narsa uning ongiga barcha beshta sezgi - ko'rish, tinglash, hidlash, ta'm, ushlab ko'rish, sezish orqali kiradi. Dunyoni bu kabi sezgilar orqali anglash bolaning emotsional dunyosini rivojlantiradi; u nafaqat keskin holatlarni («ajoyib» -«rasvo») boshdan o'tkazishga, balki barcha oraliq his-tuyg'ularni sezishga qodir bo'ladi.

Narsani sezgi bilan qabul qilish so'z yordamida bola xotirasida ushbu narsa haqidagi tasavvur sifatida muhrlanib qolganidan so'ng uning nomini atovchi so'z bolada eng avvalo u mazkur karsa bilan bevosita to'qnash kelganida boshdan o'tkazgan his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Masalan, archa so'zi. Bola bu so'zni eshitishi bilan uning ilgari his

qilgan barcha his-tuyg'ulari darhol jonlanadi: u o'z xayolot dunyosida muayyan archani, uning yashil barglarini ko'radi, deyarli uning hidini tuyadi va h.k.

So'zni bu tarzda qabul qilish she'riy qabul qilish deyiladi. Agarda tarbiyachi bolaga ilk yoshdan boshlab ona tilidagi so'zlarni ularning butun she'riy ifodasida o'rgatib kelgan bo'lsa (ya'ni, ularni qabul qilishning his-tuyg'u negizi haqida qayg'ursa), bu holda bolada insonga nafaqat o'zi ijod qilishi uchun, bachki shoirlarning ijodini tushunish uchun ham zarur bo'lgan shoirlik qobiliyati rivojlanadi.

Bola so'zning «his-tuyg'uli asosini» o'zlashtirib olgandan so'ng u uning umumlashtiruvchi ahamiyatini tushunishga qodir bo'ladi. Aynan shuning uchun ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atini boyitish ularni atrofdagi maishiy hayot, tabiat, kishilar mehnati, ularning ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish jarayonida uyushtirilishi zarur. Ayni paytda tarbiyachi (va bola atrofidagi barcha kattalar) bola bilan grammatik jihatdan rasmiylashtirilgan ravon nutqda (ya'ni oddiy nutqda, chunki bir-biriga bog'lanmagan so'zlar to'plamini nutq deb bo'lmaydi) muloqot qilishlari lozim. Pirovardida, bola kattalar nutqidan eshitgan ayrim so'zlarini o'zi ajratadi. Bola hayotning 3-yilida bolalar «birinchi savollar davrini» boshdan kechiradilar. Bunda ularning atrofda ko'rgan barcha narsalar nomlarini bilib olishga intilishlari paydo bo'ladi: «Kim bu?», «Ismi nima?», «Bu nima?», «Nima uchun?».

Ushbu yoshda bolaning qiziquvchanligi eng avvalo «lingvistik» tusga ega bo'ladi: bunda bolani ushbu so'zlar bilan ataladigan narsalar mohiyati qanchalik qiziqтира, so'zlar ham shu darajada qiziqтиради. Bola bilan erkin muloqot chog'ida uning savollariga javob qaytarish uchun tarbiyachi bolaga uchragan va e'tiborini o'ziga jalb qilgan narsa nomini aytish orqali bola lug'atini boyitadi. Chunonchi, narsa belgilari (sifat) nomlarini; harakat va holatni; (fe'llar, sifatdoshlar, ravishdosh va ularning ravishlik belgilari) bilib oladi va esda saqlab qoladi.

Bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan narsalar nomlarini bolalar ular tasvirlangan suratlarni ko'rish orqali bilib oladilar. Insonning narsani uning tasviri (modeli) bilan oson taqqoslashga qodirligi — tug'ma qobiliyatdir.

Bola juda erta yoshdan boshlab ishtiyoq bilan ko'rib turgan narsalar rasmlarini chizishni boshlaydi, bunda u chizgan rasmlari ko'rgan

narsasiga o'xshashiga ich-ichidan ishonadi (ayni paytda uning o'zi aytgan dastlabki so'zning tovush tarkibi u kattalardan eshitgan so'zlar tovushiga o'xshashligiga ishonchi komil).

Shunday qilib bola o'z nutqini kattalar bilan jonli nutqiy muloqotda boyitadi, shu bilan birga u mazkur muloqot orqali haqiqatda kuzatayotgan yoki suratlar asosida tasavvur qilayotgan narsalari nomlarini bilib oladi. Pirovardida, lug'at ishlari real ob'ektlar yoki suratlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Ushbu metod barcha yosh guruhlarida qo'llaniladi. Narsalar bilan o'ynash chog'ida bolalar ularning joylarini o'zgartiradilar, har tomonga tashlaydilar, suradilar, ushlab ko'radilar, yurg'izadilar, narsalarni kuzatadilar va ularning sifatini, harakatlarini aytib beradilar. Ayni paytda tarbiyachi bola bilan unga yo'naltiruvchi savollar bergan holda so'zlashishi lozim. Bola javob qaytarar ekan, tarbiyachi o'z savoli orqali aytib berayotgan so'zlarni takrorlaydi. SHu tariqa bolaning leksikasi kengayadi. Ayniqsa, syujetli-rolli «rejissyorlik» o'yinlarida, sahnalashtirish jarayonida nutqni rivojlantirish uchun juda ko'plab qulay vaziyatlar yuzaga keladi.

Rolli o'yinda bola o'zi kuzatgan yoki hikoyalar orqali bilgan va esda saqnap qolgan kattalarning turli vaziyatlarini takrorlaydi. Bola kagallarining ana shunday vaziyatlardagi harakatidan va shu bilan birga ularning nutqidan ko'chirma oladi. «Rejissyorlik» o'yinida bola o'ziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni o'yinchoqpar o'rtasida taqsimlaydi; syujetlar — Maktabgacha ta'lim muassasasi, hayvonot bog'i va boshq. Tarbiyachi bolaning mavjud hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aytib, yordamlashib turadi.

Sahnalashtirish o'yinida bola o'ziga tanish ertak qahramonlaridan biri rolini o'ynaydi, o'yin jarayonida u qahramon so'zlarini takrorlaydi va shu tariqa o'z nutqini boyitadi.

Syujetli o'yinlar o'zlashtirilgan til materialini mustahkamlashda bolalarga ajoyib mashq sifatida xizmat qiladi. Bolalar ataylab o'z oldiga muayyan hayotiy vaziyatlarda kattalardan eshitgan nutqini yoki ertak qahramoni nutqini aniq berishni maqsad qilib qo'yadilar. Harakatchan o'yinlar, qoida asosidagi o'yinlar yod olingan sanoq she'rlar, qo'shiqlari bilan bolalar nutqini boyitadi. Yod olish tarbiyachi nutqiga taqlid qilish jarayonida ro'y beradi, bu o'yinlarni tarbiyachi bolalar bilan birga o'ynaydi va dastlab o'zi qiziqarli, sanoq she'rlarni aytadi, qo'shiq kuylaydi.

Bola u yoki bu narsa nomini belgilovchi soʻzni (baʼzan, bir marta eshitib) tez va mustahkam (umrbod) esda saqlab qoladi, ammo bu faqat tarbiyachi soʻzlarni talaffuz qilishning metodik qoidalariga rioya qilgan taqdirdagina roʻy beradi. Yaʼni, u: yetarli darajada baland ovozda soʻzlashi;

- aniq talaffuz qilishi, yaʼni artikulyasiya organlarini gʻayrat bilan va toʻgʻri ishlatishi;

- orfoepiya qoidalariga rioya qilishi, bunda u yoki bu soʻz komponentini boʻrttirib yuboruvchi sunʼiy talaffuzdan qochishi lozim,

- Soʻzni gapga uning grammatik shakllari imkoniyatlari koʻrinadigan darajada qoʻshish kerak.

Masalan, bizga ayiqcha mehmon boʻlib keldi. Ayiqchanning koʻzlari qora, panjalari katta. Bolalar ayiqcha bilan oʻynashni juda yoqtiradilar. Bola bu gapni eshitar ekan, «Ayiqcha» soʻzi nutqda oʻzgarayotganini sezib qoladi. Albatta, tarbiyachi kichkintoyga grammatik atamalarni maʼlum qilmaydi, ammo bir vaqtning oʻzida unda lugʻat boyishi bilan birga grammatik sezgi ham rivojlanadi.

Biroq, bolalar har doim ham atrofdagi narsalarga qiziqish bildiravermaydilar va har doim ham ularning nomlarini soʻrayvermaydilar. Tarbiyachi bolalar diqqat-eʼtiborini narsalarga, ularning sifatlariga, harakatlariga jalb qilishi zarur. Buni muntazam ravishda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Hafta davomida bolalar quyidagi miqdordagi soʻzlarni oʻzlashtirishlari mumkin:

3 yoshda - 5 ta soʻz

4 yoshda - 10 ta soʻz

5 yoshda - 15 ta soʻz

6 yoshda - 20 ta soʻz

7 yoshda - 30 ta soʻz

Hafta davomida oʻzlashtirilishi kerak boʻlgan natijaga erishish uchun avvalo, tarbiyachi ijodkor boʻlmogʻi shart. Bolalarni tinglay bilishi, ularda ham tinglay bilish qobiliyatlarini rivojlantirishi, bolalarni koʻproq fikrlashga chorlaydigan oʻyinlarni tashkil qilishi, ularning oʻzaro muloqot almashishi uchun kerak boʻlgan vaziyatni yarata olishi lozim boʻladi. Shundagina bolalar lugʻat boyligida ijobiy tomonga oʻzgarish boʻlishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Lug'atni boyitish metodlariga misollar keltiring.
2. Bolalar nutqining shaklan va mazmunan mantiqiy birligiga erishishdagi muhim talablar qaysilar-?
3. Bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib hafta davomida so'zlarni o'zlashtirishida qanday natija talab qilinadi-?
4. Bolalardagi lug'at boyligini yanada oshirishga o'zingizning qanday takliflaringizni bera olasiz.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.:“O'qituvchi”, 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: “O'qituvchi”, 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: “O'qituvchi”, 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

10-§: BOLALAR LUG'ATINI BOYITISHDA TA'LIMIY O'YINLARNING ROLI

REJA:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy o'yinlar va ularning ahamiyati.
2. Lug'atni boyitish uchun yordam beradigan ta'limiy o'yinlarning turlari.
3. Bolalar lug'atini boyitishda ta'limiy o'yinlarni tanlash, o'tkazish va tahlil qilish.

Tayanch tushunchalar: nutq, lug'at, o'yinlar, ta'limiy o'yinlar, ta'limiy o'yin turlari, milliy xalq o'yinlari, *ko'rgazmali material, didaktik o'yinlar, qoidali-harakatli o'yinlar.*

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy o'yinlar va ularning ahamiyati. Ta'limiy o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin maqsadi, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin maqsadi o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Ta'limiy o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta'limiy o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Ta'limiy o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.

5. O'yin qoidasini bajarish.

6. O'z xatosini tan olish.

Hammada ham bolalik davri bo'ladi. Bu davrning o'ziga xosligi unda o'yinning asosiy ehtiyojga aylanganligidir. Biz kattalar bolalarni hayotga tayyorlashda ularning ijtimoiy ehtiyojiga javoban o'yinlardan foydalanishimiz samarali natija beradi. Chunki o'yin bolalar faoliyatining asosini tashkil qiladi.

2. Lug'atni boyitish uchun yordam beradigan ta'limiy o'yinlarning turlari. Mukammal hikoya qilib berish bir qator murakkab grammatik vositalarni talab qiladi. Hikoya qilish ko'nikmasi va bolaning so'z boyligi bir-biriga bevosita bog'liq. Birgina hikoya qilib berish, hikoya tuzish va hatto hikoyani tinglash va tushunishda ham ahamiyatlidir. Hikoya qilib berishda bolalar so'zlarni topib ishlata olishi, hikoya tuzishda so'zlarni to'g'ri ketma-ketlikda ishlata olishi, hikoyani tinglashda esa so'zlarni ma'nosini tahlil qila olishi muhimdir. Shunday ekan, bizningcha bolalarning nutqiy o'ziga xosligining birlamchi asosi sifatida ularning so'z boyligi turadi. O'yinlarga asoslangan mashg'ulotlarning ahamiyati to'g'risida bahs-munozaralarga o'rin yo'q deb hisoblaymiz. Balki bu bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi degan xulosaga kelamiz. Sababi, o'yinlarga asoslangan mashg'ulotlarda bolalarning ko'proq suhbat qilganliklarini, muloqot qilish ko'nikmalarining shakllanganligini ko'rish mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, muloqotga o'rgatish texnologiyalaridan biri hisoblangan rolli o'rinlarni mashg'ulotlarga ko'proq kiritish, balki o'yinlarga asoslangan o'yinli o'quv dasturlarini ishlab chiqishni taklif qilamiz. Rolli-syujetli o'yinlarni har kun bir marta o'ynashlik eng asosiysi bolalarda jamoaviy birdamlikni oshiradi, o'zini jamoatchilik oldida erkin his eta olishiga yordam beradi.

Bolalar uchun tuzilgan o'yinlar nihoyatda ko'p. Ularni sanab tugatish mushkul. Maxsus tuzilgan o'yinlarni (mantiqiy-matematik) qo'llash orqali bola mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va intellektual jarayonlarni: ketma-ketlashtirish, tasniflash, raqamli qurilish, vaqt va makonda qurish va boshqalarni o'zlashtiradigan maxsus ta'lim vaziyatlarini yaratadi. Xuddi shunday, syujetli rolli o'yinlar ham ma'lum manodagi qolipga asoslangan bo'lishi shart. Rolli o'yinlarda albatta, sahna asarini ham, bolalarning imkoniyatlari o'rganilishi, bir-birini to'ldirishi talab qilinadi. Asar mazmuni, uning g'oyaviy va ma'naviy yetukligi, hayotiyligi, asar tilining

soddaligi, badiiy jihatdan mazmundorligini hisobga olinishni tarbiyachi unutmashligi lozim. Didaktik o'yinda bola nafaqat yangi bilimlarni oladi, balki uni umumlashtiradi va mustahkamlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv jarayonlar va qobiliyatlarni rivojlantiradi, ular aqliy faoliyatning ijtimoiy rivojlangan vositalari va usullarini o'zlashtiradilar. Didaktik o'yinning tuzilishi asosiy va qo'shimcha komponentlar tomonidan shakllanadi.

Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Barmoqqa-barmoq», «G'oz-g'oz», «G'oztursin», «Bup-bup», «Toy-toy», «Poezd», «Achom-achom» o'yinlari, go'dak endi bir-ikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtda gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Oto'yin», «Ko'z boylagich», «Chorichambar», «Avvalakam», «Tayoqirg'itish», «Quloqcho'zish», «Chittigul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

4-5 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Chiraylanma», «Chillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Doro'yin», «Berkinmachoq», «Jami»,

«Chertan devor gir-giraylan». *Katta yoshdagi bolalar* uchun o'yinlar «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do'ppi yashirma», «Sapalak», «Beshtosh», «Oqterakmi, ko'kterak». Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo'lishga tayyorlanib boriladi.

O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, mashg'ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo'lgan so'zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi. Matnli, harakatchan musiqiy o'yinlar, sahnalashtirish o'yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to'g'ri sur'at, nafas

olish, yaxshi diktsiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko'pgina o'yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo'llay boshlaydilar. Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug'at mustahkamlanadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat va ko'nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so'zni o'zgartirish, hikoya to'qish va h.q.) qo'llaniladi. Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya'ni agarda pedagog, ayniqsa kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo'llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug'atdan foydalanishni o'rgatsa bolalarning lug'ati boyiydi. Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o'z Vatani sevish, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo'shiqlardan zavqlanish tuyg'ulari, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

3. Bolalar lug'atini boyitishda ta'limiy o'yinlarni tanlash, o'tkazish va tahlil qilish. Xalq milliy o'yinlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- xalq milliy o'yinlarining turlari va ulami tashkil etish yo'llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;

- milliy o'yinlarni tashkil etishda ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;

- maktabgacha yoshdagi bolalami milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o'yinlaridan maqsadli foydalanish;

- xalq ertaklari, xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

- bolalarning o'ynashlari uchun shart-sharoit (o'yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oila va mahallalar o'rtasida milliy

o'yinlar bo'yicha ko'rik tanlovlari va musobaqalar o'tkazish.

Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Barmoqqa-barmoq», «G'oz-g'oz», «G'oz tursin», «Bup-bup», «Toy-toy», «Poyezd», «Achom-achom» o'yinlari, go'dak endi bir-ikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtda gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Ot o'yin», «Ko'z boylagich», «Chori chamber», «Avval akam», «Tayoq irg'itish», «Quloq cho'zish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

4-5 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Chir aylanma», «Chillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Dor o'yin», «Berkinmachoq», «Jami», «Chertan devor gir-gir aylan».

Katta yoshdagi bolalar uchun o'yinlar «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do'ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Oq terakmi, ko'k terak». Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozijjavob bo'lishga tayyorlanib boriladi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin syujeti ochiq xarakterga ega bo'ladi. Masalan, «To'pni quvla!», «To'pni ushlab ol!». Katta yoshdagi bolalar uchun o'yin maqsadi, qoidasi va o'yinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli o'yinlar avval jismoniy tarbiya mashg'ulotida o'rganiladi. So'ngra boshqa jarayonlarda takroran o'ynatilishi lozim. «Bolajon» dasturida turli yosh gumlari bo'yicha o'tkaziladigan harakatli milliy o'yinlar turkumlari kiritilgan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ta'limiy o'yinlarning bola so'z boyligini oshirishdagi hamiyati qanday?
2. Bolaning lug'at boyligini oshirishda qanday ta'limiy o'yinlarni taklif qila olasiz?
3. Bolalar lug'atini boyitishda o'yinlarni tanlashga qanday talablar qo'yiladi?

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar kesimida qanday didaktik o'yinlardan foydalaniladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalami savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

11-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YINLAR VA ULARNING MAZMUNI

REJA:

1. O'yin-maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati sifatida
2. Markazlar faoliyatida o'yinlardan foydalanish ahamiyati
3. Ko'rgazmali materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar mazmuni

1.O'yin-maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati sifatida. O'yin deganda ko'z oldimizda faqat xursandchilik baxsh etuvchi faoliyat tushuniladi.Uni yanada kenroq tushunish uchun esa O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "o'yin" tushunchasiga berilgan ta'rifga e'tibor bersak, uning mazmuni yanada kengroq ekanligiga amin bo'lamiz : "O'yin – tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri bo'lib, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi".

O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, mashg'ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo'lgan ro'zlarning (sifatni, mikdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi.

Matnli harakatchan musiqiy o'yinlar, sahnalashtirish o'yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to'g'ri sur'at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko'pgina o'yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqap qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo'llay boshlaydilar.

Ma'lumki, o'yin bolalikda inson faoliyatning asosiy turlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham pedagogikada inson shaxsini rivojlantiruvchi mashg'ulot turi ekanligi haqida ko'plab fikrlar bildirilgan. Aytish joizki, ta'limning aksariyat vazifalari didaktik o'yinlar yordamida amalga oshiriladi. Pedagogikada o'yinlar ikki katta guruhga bo'linadi: ijodiy va qoidali o'yinlar. Ijodiy o'yinning mazmuni bolalar tomonidan o'ylab topiladi va ularda borliq haqidagi tushunchalarini,

taassurotlarini hamda o'z munosabatlarini aks etgiradilar. Qoidali o'yinlar esa aksincha kattalar tomonidan yaratiladi hamda bola hayotiga kattalar tomonidan olib kiritiladi. Ikkala guruh ham o'zining xilma xil ko'rinishlariga ega. Ijodiy o'yinlar guruhini syujetli rolli o'yinlar tashkil etadi. Syujetli – rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuni uchun manba bo'lib xizmat qiladi. O'yinning syujeti — o'z harakati, munosabatlari bilan bog'langan voqea, hodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqgirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmdagi faoliyatni yaxshilaydi. Bolalar kun bo'yi — mashg'ulotlarda, o'yinlarda, xo'jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o'z pedagoglari bilan muloqotda bo'ladilar. O'z-o'zidan maktabgacha ta'lim muassasasida nutqiy muhitning rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Ta'limiy o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin maqsadi, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin maqsadi o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensormadaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi. Ta'limiy o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta'limiy o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

Ta'limiy o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatna-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.

6. O'z xatosini tan olish.

Milliy xalq o'yinlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Milliy harakatli o'yinlar.

2. Milliy xalq o'yinlari.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari bilan hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlar, an'analari jamlangandir.

Xalq milliy o'yinlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- xalq milliy o'yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo'llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;

- milliy o'yinlarni tashkil etishda ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o'yinlaridan maqsadli foydalanish;

- xalqertaklari, xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

- bolalarning o'ynashlari uchun shart-sharoit yaratish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oila va mahallalar o'rtasida milliy o'yinlar bo'yicha ko'rik tanlovlari va musobaqalar o'tkazish.

Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Barmoqqa-barmoq», «G'oz-g'oz», «G'oztursin», «Bup-bup», «Toy-toy», «Poezd», «Achom-achom» o'yinlari, go'dak endi bir-ikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtda gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Oto'yin», «Ko'z boylagich», «CHorichambar», «Avvalakam», «Tayoqirg'itish», «Quloqcho'zish», «Chittigul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

4-5 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Chiraylanma», «Chillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Doro'yin», «Berkinmachoq», «Jami»,

«Chertan devor gir-giraylan». *Katta yoshdagi bolalar* uchun o'yinlar «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do'ppi yashirma», «Sapalak», «Beshtosh», «Oqterakmi, ko'kterak». Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo'lishga tayyorlanib boriladi.

3.Ko'rgazmali materiallar bilan o'ynaladigan ta'limiy o'yinlar.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

- a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan;
- b) stol-bosma;
- d) og'zaki so'z o'yinlari.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Stol-bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga a) loto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi.

Og'zaki so'zli o'yinlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolaning eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida didaktik maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoidali-harakatli o'yinlar asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, uloqtirish, emaklash kabi harakatlar o'yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o'yinlar kelib chiqishiga ko'ra: a) xalq milliy o'yinlari; b) mualliflik o'yin turlariga bo'l nadi.

Har ikkala o'yin turida ham asosiy mezon o'yin qoidasi bo'lib hisoblanadi. Harakatli o'yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epchillik, mardlik kabi olijanob fazilatlamini tarbiyalab boradi. Ko'pchilik harakatli o'yinlar jamoa bo'lib o'ynashga mos bo'lib, bu jamoada uyushgan holatda harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Qoidali harakatli o'yinlarni o'tkazishda bolalarga rolni to'g'ri taqsimlash, o'yin jarayonini kuzatib borish, unga rahbarlik qilish, o'z vaqtida yaxshi harakatlarni rag'batlantirish o'yin nufuzini oshiradi. O'yin jarayonida quvnoq kayfiyat, ijobiy his- tuyg'ular yuzaga keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'yin faoliyatining bolalar lug'ini boyitishdagi ahamiyati?
2. O'yinning qanday turlari bor?
3. Didaktik o'yinlardan misollar keltiring?
4. Bolalar lug'ini boyitishga hizmat qiluvchi didaktik o'yinlardan misollar keltiring?

12-§: TOVUSHLARNING TO'G'RI TALAFFUZI YUZASIDAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI

REJA:

1. Bolalarni to 'g 'ri talaffuzga o 'rgatishning mazmuni va mohiyati.
2. Nutqning tovush madaniyati tushunchasi
3. Bolalami to 'g 'ri talaffuzga o 'rgatish asosiy vazifalari.
4. Bolaning har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
5. Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan turli organlarning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: to'g'ri talaffuz, tovush, tovush apparati, generator, energetik, rezonator, tembr, diapazon, tovush jarangdorligi, tovush egiluvchanligi, tovush harakatchanligi, xattaxta, pauza- temp, ritmika, diksiya.

1. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishning mazmuni va mohiyati.

Tarbiyachi u yoki bu tovush tarkibida turli nutq organlari: lablar, tishlar va til ishtirok etayotganini ko'rsatadi hamda tushuntirib beradi. Bolalarning tovushlarni ifoda etishda nutq organlari holatini ko'rib olishlari ularning to'g'ri talaffuzni o'zlashtirib olishlarida yordam beradi. Bu boradagi ish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu yo'nalishdagi mashqlar ijobiy natijalarga olib keladi. Amaliyotda bu metodik usullar ko'pincha birgalikda qo'llaniladi va ular doimo bir- birini to'ldiradilar.

«I» qattiq tovushining to'g'ri talaffuzini shakllantirish. Tarbiyachi tovush artikulyatsiyasini namoyish etadi va bolalarga tilning talaffuz chog'idagi holatini ko'rishni taklif qiladi. So'ngra u tovushni bir necha bor talaffuz qiladi, keyin esa bolalar uni takrorlaydilar. Agar bolalar so'zlardagi tovushni to'g'ri talaffuz eta olsalar, yangi gaplarga va to'rt qatorli kichik-kichik she'rlarni yod olishga o'tish mumkin. Ravon nutqni rivojlantirish asosida turli aloqa vositalaridan (so'zlar, gaplar, matn qismlari o'rtasida) foydalanish, turli toifadagi matnlar - tasvirlash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatini o'rgatish yotadi.

Tovush. Ayrim tarbiyachi pedagoglarda tovush tabiatdan beriladi (xudo bergan) deyishadi. Maxsus tovush yillar davomida o'zgarishi,

aynishi mumkin. Shuning uchun doim mashq qilib uni rivojlantirib turish lozim bo'ladi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ham til borlig'ini eng oddiy anglashni shakllantirish bilan o'zaro bog'liqdir. Maktabga-cha yoshdagi katta bolalar so'zlar, tovuchlar, qofiyalar bilan faol o'ynaydilar. Ular so'z jaranglagandagi umumiy va alohida jihatlarni payqay oladilar, artikulation va akustik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni (S-Sh, S-Z) farqlay oladilar, maqol, matal va tez aytishlardagi 4-5 ta so'zda uchragan tovushlari sezadilar.

Talaffuzga o'rgatishning asosiy bosqichlari.

Talaffuzga o'rgatish 3-bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich Ayrim tovushlar talaffuzini shakllantirish - bu qattiq va yumshoq, jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi ustida ishlashni ko'zda tutadi;

B-lab portlovchi jarangli undosh tovush. So'zning oxirida, boshida va o'rtasidakeladi. V..., ...V..., ...B, B-V kabi aytiladi, aroba-arava, kabob-kavob.

P-lab portlovchi jarangsiz undosh tovush.

P..., ...P..., ...P, V va F undosh tovushlari o'mida talaffuz qilinadi, fabrika-pabrika, kelib-kelip.

2-bosqich: Ayrim so'zlar talaffuzini shakllantirish - bu leksikani to'g'ri talaffuz qilish, urg'u berish, so'zda urg'u bo'g'inini ajratishdan iborat;

Leksik jihatdan: «Ko'klam keldi» biri fasilning nomini, ikkinchisi harakatni anglatadi.

Urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: Tikuvchi, ti-kuv-chi.

1-bosqich: Namunaviy gaplar talaffuzini shakllantirish - bu o'zgacha gap ohanglari ustida maxsus ishlashni ko'zda tutadi. Chum- chuq - kichkina qushcha.

2.Nutqning tovush madaniyati tushunchasi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Inson o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunish uchun ona tilidan foydalanadi. Nutqni egallash boiaga bevosita va bilvosita (hikoya, badiiy asar, tarbiyachining tushuntirish va boshqalar) yo'l bilan borliq haqida bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida lug'at boyligini oshirish, so'zning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog'larishli nutqni rivojlantirish vazifalari hal etiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish lozim:

1) tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo, nutqni eshitish shakllanadi, keyinroq talaffuzni egallaydi);

2) aniq talaffuzni hosil qilish (so'z va so'z birikmalarini dona- dona va aniq talaffuz qilish);

3) so'zni talaffuz qilganda urg'uni to'g'ri qo'yish ustida ishlash;

4) nutqni orfoepik jihatdan to'g'riligi ustida ishlash;

5) nutq sur'atini rivojlantirish;

6) nutqning ifodaliligini shakllantirish;

7) nutqiy aloqa ko'nikmalarini shakllantirish;

8) nutqiy eshitish ko'nikmalarini shakllantirish;

9) nutqiy nafas olishni shakllantirish;

10) o'z fikrini erkin va izchil bayon etish ko'nikmasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish xilma-xil faoliyat turlarida amalga oshadi:

1) tabiat obyektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;

2) badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;

3) savodga o'rgatishda;

4) o'yin faoliyatida;

5) ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarni bajarish asosida.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish quyidagi qonuniyatlarini hisobga olishni talab etadi:

1) ona tilida nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlarining mashqiga bog'liq;

2) nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan umumlashtirishning turli darajasining leksik va grammatik til belgilari o'zlashtirilishiga bog'liq;

3) nutq me'yorini o'zlashtirish bolada tilni his etishning rivojlanganligiga bog'liq

Shuningdek, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush madaniyati alohida o'rin tutadi. Nutqning tovush apparatining o'z mohiyatiga ko'ra nutq madaniyatining tarkibiy qismidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- 1) bolalarning fonematik eshitishi, mazkur sur'at va ohangni idrok eta olish qobiliyatini asta-sekin rivojlantirib borish;
- 2) artikulyatsion apparatni rivojlantirish;
- 3) iboralar vositasida erkin gapira olish qobiliyatini shakllantirish;
- 4) muomala sharoitiga bog'liq ravishda ovoz balandligi yoki pastligini boshqara olishni tarbiyalash;
- 5) ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish;
- 6) har bir tovush, shuningdek, so'z va iboralarni aniq va ravon talaffuz qilish;
- 7) so'zlarni adabiy til orfoepiyasi qoidalariga muvofiq talaffuz qilishga o'rgatib borish;
- 8) nutqning maromli sur'atini shakllantirish;
- 9) nutqning ohangdor va ifodali bo'lishiga erishish¹⁰.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhimdir. Bolalar ko'pincha s-z, p-f, p-b, u-o', x-h, q-g' tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olmaydilar. Nutq jarayonida ketappan - ketayapman, Hojahon - Shohjahon, Yustam - Rustam, qalga - qarg'a kabi talaffuz etishga yo'llash, ovoz balandligiga, tovush sur'atiga e'tibor berish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bolalar o'zidan kichiklarni jerkib, ovozin ko'tarib muomala qiladilar. Shunda ularni talaffuziga, nutq madaniyatiga e'tibor qilish, me'yorda so'zlab, muomala qilishga o'rgatish zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha muhurlanib qoladi. Obrazli nutqni rivojlantirish keng ma'noda nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu o'rinda nutq madaniyati deganda, adabiy til normalariga rioya qilish, o'z fikrlarini, hissiyotlarini, tasavvurlarini aytilayotgan gapning yo'nalishi va maqsadiga muvofiq holda mazmunli, grammatik to'g'ri, aniq va ifodalab bera olish tushuniladi. Nutq faqat bolada til boyligiga nisbatan qiziqish tarbiyalangan, nutqda turli xil ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi rivojlantirilgan taqdirda obrazli, bevosita va jonli boiadi.

1. Nutqning tovush madaniyatiga doir ishlar.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar tengdoshlar bilan muloqot asosiy o'rin

¹⁰ Babayeva D.R. Tevarak-atrofnin o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. - T., 2001. - B 25.

egallaydigan muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liq. Bola katta yoshdagi odamdan ko'ra o'z tengdoshini afzal ko'ra boshlaydi. Birga o'ynayotgan o'rtog'iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo'lgan nutqdagiga nisbatan mazmunliroq bo'lib boradi. Sherik bilan dialog muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy harakatlar tusiga ega bo'ladi. Bola endi qo'shnisining e'tiborini o'ziga jalb qilishni biladi, uning o'zi o'rtoqlarining ishlari va fikrlari bilan qiziqadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqining funksiyalari ko'p qirralidir. Bunda bola nutqdan atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish, o'ziga, o'z ishlari va kechinmalariga e'tibomi jalb qilish, bir-birini tushunish, sherigining xulqiga, fikr va hissiyotlariga ta'sir qilish, o'z faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zining va birga o'ynayotgan o'rtoqlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun foydalanadi. Nutq atrofdagilar haqidagi bilimlarning muhim manbai, tabiat, narsalar va kishilar olami haqidagi tasawurlarni qayd etish vositasi, bilish faoliyatining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bola uchun nutq obyektiv munosabatlarning alohida sohasi bo'lib, bola ulami so'zlar, tovushlar, qofiyalar, ma'nolar bilan o'ynash orqali anglab yetadi.

Bola o'zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'zida mavjud bo'lgan barcha vositalardan va noixtiyoriy vaziyatlarda fikr bildirishdan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralardan, mimika va harakat) va bevosita nutqning o'zidan foydalanadi. Nutqning barcha turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual portretini hosil qilgani holda o'zaro birgalikda mavjud bo'ladi.

Dialogni rivojlantirish faqatgina nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirishda iborat bo'lib qolmay, balki u bolaning ijtimoiy jihatdan rivojlani; hi va uning shaxsi shakllanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib ham hisoblanadi. Dialogik muloqot nafaqat xabar qilishga (intellektual mazmundagi xabarga) va o'z manfaatlariga yo'naltirilishni, balki sherigining mavqeini, uning manfaatlari, istak-xohishlari va kayfiyatini ham hisobga olishni nazarda tutadi. Dialogda nutqiy harakatlarni muvofiqlashtirish to'g'ridan-to'g'ri sherigini tushuna olish, uning nuqtayi nazarini qabul qilishni bilishga ham bog'liqdir. Bunday tajribani bolalar o'zaro uyushgan faoliyatda (birgalikda yasash, rasm chizish, hikoya qilish, jamoaviy o'yinlar) orttiradilar. Tengdoshlar bilan muloqotda bola nutqi mazmunlilik (muloqot vaziyatidan qat'i nazar til

vositalaridan foydalanish asosida mazmunning tushunariligi) kasb etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning dialogik muloqoti jaryonida nutqning yangi shakli - monolog vujudga keladi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, hissiyotlari, atrofdagi olam haqidagi bilimlari bilan o'rtoqlashishni istashi tufayli vujudga keladi. Bunda nutq qisqa hikoya shaklida ro'y beradi. Hikoyada bolani hayron qoldirgan va hayajonga solgan qandaydir qiziq narsa (yangi o'yinchoq sotib olish, oila a'zolarining kulgili vaziyatlarga tushib qolishi va h.k.) aks etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tanish erta klami hikoya qilish, multfilmlar mazmunini aytib berish, o'qigan narsalarini aytib berishni yaxshi ko'radilar.

Jaranglayotgan nutqqa bog'langan qiziqishning shiddat bilan rivojlanishi, til borlig'ini eng oddiy anglashning shakllanishi maktabgacha katta yoshdagi bolalar erishgan eng muhim yutuq hisoblanadi. So'zga nisbatan lingvistik munosabat tovushlar, qofiyalar, mazmunlar bilan to'satdan boshlangan o'yinlar, so'z mazmuni, ularning jaranglashi va mazmuni haqidagi masalalarda ko'rinadi. Til borlig'ini anglash uning barcha - fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oladi. Nutqqa nisbatan ongli munosabat lug'atni takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunishga), nutqning tovush madaniyatini (tovush talaffuzi, talaffuz, tinglay olish qobiliyati, ohang ifodaliligi) rivojlantirishga, nutqning grammatik to'g'riligini (morfologiya, so'z hosil qilish, sintaksisni) shakllantirishga, ravor nutqni rivojlantirishga ta'sir qiladi.

Maktabgacha katta yoshda nutqning grammatik to'g'riligina shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'lishs hamda rivojlanishi, aniq va to'g'ri so'zlashga intilish bilan bog'liq To'g'ri so'zlashga intilish grammatikning barcha sohaları - morfologiyada (aniq shakl hosil qilishda, shakllarning turli-tumanligini o'zlashtirishda: stollar, stullar, qavatlar va boshq.), so'z hosil qilishda, (non uchun - nondon, tuz uchun tuzdon va boshq.) sintaksisda (og'zaki nutq qurilmasini yengib o'tish: va bog'lovchisini ko'p marta qo'llash orqali gapni cho'zib yuborish, bitta gapda to'g'ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish va boshq.) ko'zga tashlanadi. Nutqning grammatik to'g'riligiga intilish ko'proq yetti yoshli bolalarga xosdir. Besh yoshli bolakay hali ham grammatik shakllar ustida zavq bilan mashq qiladi va aynan mana shu so'z bilan mashqlar

kelajakda grammatik jihatdan to'g'ri ifodalangan nutq uchun poydevor yaratadi.

3. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishning asosiy vazifalari. Tilni amalda o'zlatirish ona tilining barcha tovush birliklarini (tovush - bo'g'in - ibora - matn) tinglab ajratib olish va ularni to'g'ri talaffuz qilishni nazarda tutadi, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolada tovushli talaffuz qilishni shakllantirish borasidagi ishlar muntazam ravishda olib borilishi lozim.

Ohang, tembr, pauza, urg'ulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi. Bolaga intonatsiyadan to'g'ri foydalanishni, bildirilayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini, balki emotsional xususiyatlarini ham bergan holda, uning intonatsion tasvirini qurishni o'rgatish juda muhim. Shu bilan parallel ravishda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, talaffuz tempi, past-balandligini to'g'ri qo'llash, tovushlar, so'zlar, iboralar, gaplarni aniq talaffuz qilish (diksiya) qobiliyatini shakllantirish ishlari ham olib borilishi lozim.

Bolalarda nutqning intonatsion jihatiga diqqat-e'tibor qaratishni tarbiyalar ekan, katta yoshli odam (pedagog) uning nutqni tinglash qobiliyatini, tembr (har bir tovushning o'ziga xos bo'lgan sifati) va vazni his qilish, tovush kuchini sezishni rivojlantiradi, bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Nutq intonatsiyasi, tovushning ifodaliligi ustidagi ishlar bolalarning bildirilayotgan fikrga nisbatan, matndan kelib chiqqan holda,

ovozini balandlatib yoki pasaytirib, talaffuz qilinayotgan matnga mantiqiy va emotsional urg'u berish orqali o'z munosabatini bildirishni o'rganishlari uchun zarur. Buning uchun pedagog tegishli topshiriqlardan ko'proq foydalanishi lozim.

Aynan ushbu qobiliyatlar bolaga turlicha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish - hikoya qilish, tasvirlash, mulohaza yuritish uchun zarur bo'ladi. Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, bolaga fikrlarning predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o'rgatishi lozim. Nutqning past-balandligi o'rinli bo'lishi, tezligi esa atrofdagi muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to'g'ri nutqning muhim ko'rsatkichi bo'lib uning ravonligi hisoblanadi.

Artikulatsion va intonatsion qobiliyatlarining uzviy bog'liqligi keng ma'nodagi tinglash va artikulatsion-talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ish jarayonida tarbiyachi bolalarga so'zning tovush tarkibini, so'zdagi urg'u o'rnini tinglab, aniqlay olishga, qofiya va vazni his qilish tuyg'usini rivojlantirishga, aniq talaffuzni, so'zlar, iboralar, gaplarning turli intonatsion tavsiflarini bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanishi zarur.

Bu murakkab nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish fonetik mashqlarni takrorlashni, ularni muntazam ravishda o'tkazishni talab qiladi.

4. Bolaning har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni aniq aytish, ularni to'g'ri talaffuz etish, so'zlar va iboralarni aniq talaffuz qilish, to'g'ri nutqiy nafas olish, shuningdek, ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalari (nutq musiqasi, mantiqiy sukut, urg'ular, nutq sur'ati, ritmi va tembri) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Nutqni rivojlantirish metodikasi zamonaviy ona tili (o'zbek, rus tillari va boshq.) kurslariga, adabiyotshunoslik asoslarini o'zida jamlagan bolalar adabiyotiga, umumiy, bolalar va pedagogik psixologiyaga, umumiy va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasiga tayanadi.

Metodikaning mazmuni va uni amalga oshirishning yetakchi g'oyalari sifatida quyidagilar chiqadi:

- bolaning qadr-qimmatini va uning o'ziga xosligini tushunish, bola nutqini «yaqin rivojlanishi hududi»ga qarab rivojlantirishni ko'zda tutgan holda rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olish

- pedagogik muloqotning bola bilan emotsional aloqa o'rnatishga, u bilan dialogik hamkorlik qilishga yo'naltirilganligi;

- maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqni maxsus o'rgatishning asosini kommunikativ yondashuv tashkil etishi lozim bo'lgan nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida amalga oshirilayotgan ijodiy jarayon sifatidagi ahamiyatini tan olish.

Nutq madaniyatini rivojlantirishga oid ishlarga kasbiy tayyorlik shakllanganligi mezon sifatida quyidagilar chiqadi:

• nutqni rivojlantirish kursini o'rganish va bolalar bilan ishlashga mas'uliyat bilan yondashish;

• bolalar nutqini rivojlantirish mexanizmi va xususiyatlari, nutqiy faoliyatning nazariy asoslari, yakka tartibda nutqiy rivojlanishni diagnostika qilish tamoyillari va metodikasi, nutqning turli qirralarini rivojlantirish metodlari va vositalarining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarning to'liqligi va izchilligi;

• bolalarning nutqiy muloqoti natijalarini mos ravishda tahlil qilish hamda baholash, bola nutqiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul tizimini tanlash va qo'llashga qodirlik.

Nutqni shakllantirishning muhim vositasi bo'lgan badiiy adabiyot bola nutqini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Bolalarning ushbu san'at turini qabul qilishidagi o'ziga xosliklar, maktabgacha tarbiya muassasasida kitoblar yordamida amalga oshiriladigan ishlar mazmuni va metodikasi tegishli mavzuda ochib beriladi.

Xalq ertaklari, rivoyatlar va xalq o'yinlari orqali bolalar nutq madaniyatini rivojlantirish.

I. «Tulki, quyon va xo'roz» xalq ertagi:

- Bola mazkur ertak mazmunini qabul qilib tushundimi?
- Bola ko'rgazma asosida ertak mazmunini so'zlab bera oladimi?
- Bola ertak mazmunini ko'rgazmali vositasiz so'zlay oladimi?

Bolalarga ertak o'qib berilgandan keyin bir kun o'tib, har bir bola bilan ushbu ertak bo'yicha tajriba uchun suhbat o'tkazildi. Ertak yuzasidan quyidagi savollar berildi:

1. Tulkining uyi quyonning uyidan nimasi bilan farq qiladi?
2. Nimaga tulki quyonni uyidan haydab chiqardi?
3. Xo'roz quyonni qanday qilib qutqardi?

Savollardan ko'rinib turibdiki, birinchi savol ertakdagi parchani qayta hikoya qilib berishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi savolimiz ertak bo'yicha bola o'z fikrini bildirishga qaratilgan. Uchinchi savolimiz esa, nutqning ifodaviyligini talab etadi.

II. Rivoyat.

Bir kampirning o'g'li bor ekan. Uning xotini va to'rt yoshli o'g'li bor ekan. Nabira buvisini nihoyatda yaxshi ko'rarkan. Har kuni kelin ovqat pishirib qaynonasiga yog'och kosa, yog'och qoshiqda ovqat berar ekan.

Nabira buni kuzatib borar va ajablanar edi. Bir kuni kelin o'g'li yog'ochdan nimadir yasayotganini ko'rib qolibdi.

- Nima yasayapsan, bolam? deb so'rabdi onasi.

- Siz bilan otamga tovoq yasayapman. Katta bo'lganimda sizlarga shunda ovqat beraman, debdi o'g'il. Kelin o'z qilmishidan pushaymon bo'lib, qaynonasiga mehribon bo'la bosh- labdi.

Bir kundan so'ng har bir bolaga mazkur rivoyat bo'yicha quyidagi savollar berildi:

- Kelin qaynonasiga ovqatni nimada berar edi?

- Kelin o'g'li yog'ochdan nimadir yasayotganini ko'rib, nima qilayapsan bolam, deb o'raganda qanday javobni eshitdi?

- Keyinnimabo'ldi?

II. «Cho'loq jo'ja» o'yini.

Bu o'yinda bolalar yarim doira shaklida o'tiradilar. Polga beshta tayyoqcha to'rtta katakli narvon shaklida tashlab qo'yiladi. Har bir katakchaga bittadari stol qo'yiladi. Stolga o'tilgan mavzular bo'yicha o'qilgan ertak va rivoyatlardan qisman tasvirlangan rasmlar joylashtiriladi. «Cho'loq jo'ja» poldagi bola o'ynab sinfdan-sinfga sakrab yuradi. Agar u rasmda tasvirlangani bo'yicha savolga javob bersa, keyingi sinfga ikki oyoqda, agar javob bera olmasa bir oyoqda turib, ya'ni joyiga borib o'tiradi. Agar xato qilsa, bir oyoqda sakrab boradi. Bu o'yinda quyidagi savollarga javob berish talab qilinadi:

- Ertakning nomini aytib bering.
- Rasmda tasvirlangan parchani aytib bering.
- Rivoyatda tasvirlangan parchani aytib bering.

Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv tashkilotlarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Nutqning tovush madaniyati. Fonematik qabul qilishni, nutqning talaffuz va ifoda jihatlarini rivojlantirish. Artikulatsiya va akustika jihatidan yaqin tovushlami (qattiq va yumshoq, jarangli va jarangsiz, shuvulloqchi, sonor) eshitishda ajrata olish va uni to'g'ri talaffuz etish. So'zlardagi, tez aytishlardagi, qisqa she'rlardagi tovushlami to'g'ri

ifodalashni mashq qildirish. Ifoda, intonatsiya sur'ati va balandligini beixtiyor tartibga solishni o'rgatish.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nutqning tovush madaniyati tushunchasiga ta'rif bering.
2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirishga doir vazifalar nimalardan iborat?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?
4. Bolalar nutqini rivojlantirish qanday qonuniyatlarni hisobga olishni talab etadi?
5. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqining funksiyalarini bilasizmi?
6. Nutqning tovush madaniyatiga doir qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?
7. Nutqni rivojlantirishning uch bosqichi nimalardan iborat?
8. Bolaning har bir yosh bosqichida nutqining tovush madaniyatini tarbiyalashda qanday ishlar amalga oshiriladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T., 2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T., 1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. 'Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

13-§: TOVUSH HOSIL QILISHDA ISHTIROK ETADIGAN TURLI ORGANLARNING AHAMIYATI

REJA:

1. Bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatishda tovush artkulyatsiyasining vazifasi

2. Tovush apparati ustida ishlash

3. Bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatishda interfaol o`yinlardan foydalanish

Tayanch tushunchalar: nutq, tizim, grammatik tizim, grammatik ko`nikma, grammatik qurilish.

1. Bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatishda tovush artkulyatsiyasining vazifasi. Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan turli organlarning har bir nutqiy vazifa ustidagi ishlarning ustuvor yo`nalishlarini ajratar ekanmiz, ularning barchasi o`zaro bog`liqlikda va yaqin o`zaro hamkorlikda ishtirok etishini ta`kidlash lozim. Tilning asosiy harakatlarini: tilni yuqoriga ko`tarish, pastga tushurish, tilni og`iz burchaklariga yo`naltirishni mustaqil bajarishga o`rgatish. (lablar,til, til uchi, til kuragi, tilning orqa qismi, tishlar, tanglay, tovush, og`iz, lablar, tishlar va til, tanglay) haqida quyidagicha ma`lumot berish.

Tovush apparati uch bo`limdan iborat: generator, energetik, rezonator.

Tovushning hosil bo`lishi:

1. Tovush kuchi bilan bog`liq (nutq apparati organlari bilan bog`liq).

2. Tovush jarangdorligi (tovush jarangdorligi turli masofalarga yuborib baland pastligini o`zgartirish).

3. Tovushning egiluvchanligi va harakatchanligi (tovushni o`zgartira olishi, tovushning baland-pastligi).

4. Diapazon-tovushning hajmi (chegarasi eng baland va eng pastki ton bilan belgidir).

5. Tembr-tovushning yaqinligi, yumshoqligi, silliqligi, xususiyligi. Tovush apparatining charchashi, tovmhda bo`lgan nuqsonlar va buzilishlar orqali yuzaga keladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda intonatsion ifodalilik, temp, talaffuz va fikmi bayon

qilishning ravonligi ustida ishlashga ko'p xam ahamiyat berish darkor, zero, ravon nutqning shakllanishi ushbt ko'nikmalarga asoslanadi.

Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan turli organlarning ahamiyati. Har bir nutqiy vazifa ustidagi ishlaming ustuvor yo'nalishlarini ajratar ekanmiz, ulaming barchasi o'zaro bog'liqlikda va yaqin o'zaro hamkorlikda ishtirok etishini ta'kidlash lozim. Tilning asosiy harakatlarini: tilni yuqoriga ko'tarish, pastga tushurish, tilni og'iz burchaklariga yo'naltirishni mustaqil bajarishga o'rgatish. (lablar,til, til uchi; til kuragi, tilning orqa qismi, tishlar, tanglay, tovush, og'iz, lablar, tishlar va til, tanglay) haqida quyidagicha ma'lumot berish.

Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan turli a'zolarining ahamiyati:

1. Nafas apparati.
2. Bo'g'iz (hiqildoq) bo'shlig'i.
3. Og'iz bo'shlig'i (til, tanglay, kichiktil, tish, va lablar).
4. Burun bo'shlig'i (tovush ohangiga alohida tus berishda ishtirok etadi).

Diksiya - talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi. O'qituvchi uchun to'g'ri talaffuz eng kerakli qurol. Chunki eshitayotganlar tushunishi uchun - talaffuz ravon, har bir bo'g'in, so'z va tovushlami aniq aytishi kerak.

Ritmika - ovoz maromi yoki vazni. Ba'zi bir so'zlammg bo'g'inlarning talafifuzi, ulaming tezligini nutq suratini tashkil etadi.

Ovoz tezligi har bir o'qituvchining fazilati. Nutq mazmuni muomala vaziyatiga bog'liq.

Pauza - temp va nutqning yoqimli bo'lishi nutq ohangini tashkil etadi. Monotonnost (bir ohangda nutq zerikarli bo'lib qiziqish va diqqatni pasaytiradi).

2. Tovush apparati ustida ishlash. Tutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni aniq aytish, ularni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni aniq talaffuz qilish, to'g'ri nutqiy nafas olish, shuningdek ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalari (nutq musiqasi, mantiqiy sukut, urg'ular, nutq sur'ati, ritmi va tembri) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Nutqning tovush madaniyati yaxshi

rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Bolalarda to'g'ri va yaxshi jaranglaydigan nutqni rivojlantirar ekan, tarbiyachi quyidagi vazifalarni xal etishi zarur:

- bolalarda tinglash qobiliyatini tarbiyalash, uning komponentlarini, ya'ni: tinglash e'tibori (biron-bir tovushni jaranglashiga qarab qanday tovush ekanligini va uning yo'nalishini aniklay olish), fonematik tinglash, mazkur nutq sur'ati va ritmini qabul qila olish qobiliyatlarini asta-sekin rivojlantirib borish;

• artikulyatsiya apparatini rivojlantirish;

• nutqiy nafas olish ustida ishlash, ya'ni iboralar bilan erkin so'zlay olish uchun qisqa nafas olish va davomli nafas chiqarishni o'rgatish;

• muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda ovoz balandligini boshqarish qobiliyatini tarbiyalash;

• ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish;

• har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni aniq va tushunarli talaffuz qilishga, umuman yaxshi talaffuzga odatlanish;

• so'zlarni o'zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalari me'yorlariga mos holda talaffuz qilishni rivojlantirish;

• normal nutq sur'atini shakllantirish, ya'ni so'zlar va iboralarni nutqni tezlashtirmay va sekinlashtirmay sekinlik bilan hamda shu bilan birga tinglovchiga aniq tushunish imkoniyatini yaratgan holda talaffuz qilishni o'rgatish;

• nutqning ohangiy ifodaliligini tarbiyalash, ya'ni fikrlar, xissiyotlar va kayfiyatni mantiqiy pauza, urg'u, ohang, sur'at, ritm va tembr yordamida aniq ifodalash qobiliyatini shakllantirish.

Tarbiyachi nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va uni mutaxassisga yuborishdan oldin bunday nuqsonlar haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Endi har bir vazifani batafsil ko'rib chiqamiz.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish

Nutqni shakllantirishning dastlabki davrida nutqni tinglashga oid asosiy komponentlarni rivojlantirish bir tekisda bormaydi. Chunonchi, nutqni rivojlantirishning birinchi bosqichlarida tinglash e'tiboriga alohida ahamiyat beriladi. Vaxolanki, bunda asosiy mantiqiy vazifa yuqori tovush

tinglash qobiliyati zimmasiga tushadi. Bolalar tovush balandligi o'zgarishini nutqning xis-xayajonli xususiyatiga (jaxd qilinsa unga javoban yig'laydilar hamda xushmuomala va mayin munosabatga javoban jilmayadilar) va tembriga (onasi va boshqa yaqinlarini ovozlaridan taniydi) muvofiq holda qarab tanib olishni biladilar, shuningdek so'zning ritmik suratini, ya'ni uning sheva-bo'g'in tarkibini (so'zning bo'g'inlar soni va asosiy urg'uning joyiga bog'liq bo'lgan tovush tuzilishi xususiyatlari) nutq sur'ati bilan birlikda to'g'ri qabul qiladilar.

Kelgusida nutqni rivojlantirishda fonematik tinglash qobiliyatini, ya'ni bir tovushni boshqasidan aniq ajrata olish va buning natijasida ayrim so'zlarni tanish hamda tushunish qobiliyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Yaxshi rivojlangan nutqni tinglash qobiliyati ona tilining barcha tovushlarini aniq va to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi, so'z aytishda uning balandligini to'g'ri boshqara olish va uni oxista sur'atda, ohang jihatdan ifodali qilib so'zlash imkonini beradi.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish artikulyatsiya apparatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Nutqni tinglash qobiliyatini tarbiyalash bolalarda nutq jarangdorligining turli xil ko'rinishlarini, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni aniq va tushunarli aytish, ovozni pasaytirish yoki kuchaytirish, nutq balandligi, tezligi, oxistaligi, uni jadallashtirish va sekinlashtirish, tembral ishlov berish (iltimos, buyruq va boshq.) kabilarni qabul qila olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilganidir.

Artikulyatsiya apparatini rivojlantirish

Nutqiy tovushlar og'iz bo'shlig'ida shakllanadi, uning shakli va hajmi harakatchan a'zolar: lablar, til, pastki jag', og'izning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach holatiga bog'liq bo'ladi. Muayyan tovushni talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan nutq organlarining to'g'ri holati va harakati artikulyatsiya deb ataladi.

Artikulyatsiya apparati tuzilishidagi buzilishlar, masalan, qisqa tilosti tuguni, noto'g'ri tishlashish, og'iz yuqori qismining xaddan tashqari balandligi yoki pastligi va boshqa ayrim kamchiliklar tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanishga olib keluvchi dastlabki omillar hisoblanadi. Biroq, agarda bolaning artikulyatsiya apparati organlari harakatchan bo'lsa, u yaxshi tinglash qobiliyatiga ega bo'lsa, bu holda ko'pchilik

holatlarda uning o'zi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qodir.

Agarda bolaning artikulyatsiya apparati harakatida nuqsonlar mavjud bo'lsa (masalan, til kam harakatlansa), bu holda u tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, sust, noaniq va tushunarsiz nutqqa olib kelishi mumkin.

Shuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: tilning harakatchanligini rivojlantirish; lablarning yetarli darajadagi harakatchanligini rivojlantirish; pastki jag'ni tovushlarni talaffuz qilish uchun muhim bo'lgan muayyan holatda tutib turishni o'rganish.

• Nutqiy nafas olishni rivojlantirishga doir ishlar.

O'pkadan kekirdak, bo'g'iz, og'iz bo'shlig'i yoki burun orqali chiqayotgan havo oqimi tovush hosil qiluvchi manba hisoblanadi. Nutqiy nafas olish o'z-o'zidan ro'y beradigan nonutqiy nafas olishdan farqli ravishda ixtiyoriy nafas olish hisoblanadi. Nonutqiy nafas olishda nafas olish va nafas chiqarish burun orqali amalga oshiriladi, nafas olish o'zining davomiyligi bo'yicha nafas chiqarishga deyarli teng bo'ladi.

Nutqiy nafas olish og'iz orqali amalga oshiriladi, nafas olish tez, nafas chiqarish esa sekinroq ro'y beradi. Nonutqiy nafas olishda nafas olishdan keyin darhol nafas chiqariladi, so'ngra pauza saqlanadi. Nutqiy nafas olishda esa nafas olinganidan keyin pauza saqlanadi, so'ngra asta-sekinlik bilan nafas chiqariladi.

To'g'ri nutqiy nafas olish to'g'ri tovush hosil bo'lishini ta'minlaydi, nutqning tegishli balandlikda bo'lishini ta'minlash, pauzalarga aniq rioya qilish, nutqning asta-sekinligini va intonatsion ifodaliligini saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Nutqiy nafas olishdagi xatoliklar umumiy zaiflik, adenoidik o'simtalar, turli yurak-tomir kasalliklari oqibati bo'lishi mumkin. SHuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga salbiy tas'sir ko'rsatuvchi nafas chiqarishdan oqilona foydalana olmaslik, nafas olayotib so'zlash, o'pkani yetarli darajada havo bilan to'ldirmaslik kabi nutqiy nafas olishdagi nomutanosibliklar noto'g'ri tarbiya, kattalarning bolalar nutqiga yetarli darajada e'tibor bermaganliklari oqibatida ham yuz bergan bo'lishi mumkin.

Zaif nafas oladigan va nafas chiqaradigan maktabgacha yoshdagi bolalar odatda, past ovozda so'zlaydilar, uzun iboralarni talaffuz qilishda

qiynaladilar. Nafas chiqarishda havodan nooqilona foydalanilganida nutqning izchilligi buziladi, chunki bolalar iboraning o'rtasida nafas olishga majbur bo'ladilar.

Ko'pincha bunday bolalar so'zlarni oxirigacha aytmaydilar va ba'zan ibora so'nggida ularni shivirlab aytadilar. Ba'zida bolalar uzun iborani nihoyasiga yetkazish uchun nafas olib so'zlashga majbur bo'ladilar, buning natijasida nutq noaniq bo'ladi, bolalar xuddi tiqilib qolgandek so'zlaydilar. Chunki, tezlashdirilgan nafas chiqarish iboralarni mantiqiy pauzalarga rioya qilmasdan jadal sur'atda so'zlashga majbur qiladi.

Shuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: maxsus o'yinli mashqlardan foydalangan holda erkin, bir tekis va uzaytirilgan nafas chiqarishni o'rgatish; pedagog nutqiga taqdid qilgan holda undan to'g'ri, oqilona foydalanishni (kichik iboralarni uzoq nafas chiqarish bilan talaffuz qilish) tarbiyalash.

- Ovoz ustidagi ishlar

Ovoz apparati vositasida balandligi, kuchi va tembri turlicha bo'lgan tovushlar chiqariladi: ularning umumiyliги aynan inson ovozi aniq qilib aniqlaydi.

Har bir ovoz xususiyatlarini alohida ko'rib chiqamiz.

Ovoz balandligi - ohangning ko'tarilishi va pasayishi, yuqori ovozdan past ovozga o'tish va aksincha.

Ovoz kuchi - tovushlarni muayyan balandlikda talaffuz etish, shuningdek tovushni bor ovozi bilan talaffuz eta olish qobiliyati.

Ovoz tembri - ovozga sifat jihatdan ishlov berish (jarangdor, ma'nosiz, titroq, bo'g'iq va boshq.)

Ovoz ovoz tugunchalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Uning sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Yuqori nafas yo'llarining turlicha tebranishlari, surunkali shamollash, adenoid o'simtalar va xokazolar ovozdagi buzilishlarning yuz berishiga yordam beradi. Ko'pincha maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz buzilishi undan noto'g'ri foydalanish: doimiy ravishda baqirib so'zlash, ayniqsa yilning sovuq davrida ko'chalarda baland ovozda so'zlash orqali ovoz tugunchalarini zo'riqtirish, bola ovozi diapazoniga mos kelmaydigan ohangda so'zlash (masalan, bolalar anchaga yosh bolalarning chiyilloq nutqiga takdid qiladilar yoki «adasi nomidan» past ovozda so'zlashga urinadilar) oqibatida yuz beradi. Ovozdagi buzilishlar burun- tomoq yoki

yuqori nafas yo'llariga oid kasalliklarni boshdan kechirgan hamda kasallik paytida yoki sog'ayganidan so'ng darxol ovozni asrash rejimga rioya qilmagan bolalarda ham vujudga kelishi mumkin.

Ovoz imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari (juda uyatchan bola ko'pincha past ovozda so'zlaydi; tezda g'ayratga keladig'an bolalar baland ohanglarda so'zlaydilar); noto'g'ri tarbiyaga (agarda atrofdagilarning o'zlari baland ovozda so'zlasalar bolalar ham noiloj shunga o'rganadilar); agarda xonada doimiy shovqin-suron bo'lsa (radio, televizor, maktabgacha ta'lim muassasasi guruhidagi doimiy shovqin-suron va x.k.) bolalarning baland ovozda so'zlashga majbur bo'lishlariga bog'liqdir.

Tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: o'yinlarda, o'yinli mashqlarda ovozning asosiy sifati - kuchi va balandligini rivojlantirish; bolalarni zo'riqmasdan so'zlashga o'rgatish, ularni ovozdan turli vaziyatlarga mos holda foydalanishga odatlantirish (past-baland).

• Ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish

Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu ishlar maktabgacha ta'lim muassasasida nihoyasiga yetkazilmog'i lozim.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni faqatgina bolalarda artikulyatsiya apparati organlarining harakatchanligi va tez o'zgara olishi, nutqiy nafas olishi yetarli darajada rivojlangan, ular o'z ovozlarni boshqarishni uddalay olgan taqdirdagina shakllantirish mumkin. To'g'ri talaffuzni shakllantirish uchun yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyatiga ega bo'lish ham juda muhimdir, chunki u o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beradi, o'z-o'zini nazorat qilish esa doimo o'z ustida ishlashga undaydi.

Tovushni talaffuz qilishdagi kamchiliklar nutqiy apparatdagi nuqsonlar (og'izning yuqorigi qattiq va yumshoq qismlaridagi nuqsonlar), tish-jag' tizimi tuzilishdagi xatoliklar, til osti tugunchalarining qisqaligi, artikulyatsiya organlarining yetarli darajada harakatchan emasligi, fonematik tinglay olish qobiliyati (bir tovushni boshqasidan farqlay olmaslik) yetarli rivojlanmaganligi oqibatida yuz berishi mumkin. Jismoniy tinglay olish qobiliyatining susayganligi, o'z nutqiga beparvolarcha munosabatda bo'lish (o'zini ham, boshqalarni ham tinglay

olmaslik), atrofda gilarning noto'g'ri nutqlarini o'zlashtirib olish ham talaffuzda kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bolalarning tovushni noto'g'ri talaffuz qilishlari tovushlarni tashlab ketishda, bir tovushni boshqasi bilan almashtirishda va tovushni buzib talaffuz qilishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tovushlarni almashtirib yoki buzib talaffuz qilish holatlari aniqlangan bolalar bilan ishlashni o'z vaqtida boshlash juda muhimdir, chunki tovushlar o'rnini almashtirish keyinchalik yozma nutqda ham paydo bo'lishi mumkin (bir harfni boshqasi bilan almashtirish), buzib talaffuz etilayotgan hamda o'z vaqtida tuzatilmagan tovushlar keyinchalik uni bartaraf etish uchun logoped va bolaning birgalikda ko'p vaqt hamda mexnat sarflashlarini talab qiladi.

Bundan tashqari, unutmazlik zarurki, tovush talaffuzidagi kamchiliklar ko'pincha bolaning o'zi nutqda xatolikka yo'l qo'yishi emas, balki faqat maxsus davolash va ta'lim berishni talab qiluvchi nisbatan murakkab nutq buzilishlarining (alaliya, dizartriya va boshq.) bir belgisi hisoblanadi.

Tarbiyachi quyidagilarni amalga oshirishi lozim: bolalarga har qanday pozitsiyada (so'z boshida, o'rtasida va oxirida) va so'z tarkibi turlicha bo'lganida (har qanday undosh birikmalari va bo'g'inlar soni istalgancha bo'lganida) barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish; nutqda kamchilik bo'lgan bolalarni o'z vaqtida aniqlash va zarur xollarda ularni o'z vaqtida maxsus bolalar tashkilotlariga yuborish.

Diksiyaga oid ishlar

Yaxshi diksiya, ya'ni har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni alohida va aniq, tushunarli qilib talaffuz etish bolada bir vaqtning o'zida artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan birgalikda asta-sekin shakllanadi. Diksiyaga oid ishlar ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirishga doir ishlar bilan uzviy bog'liqdir.

Bola nutqining barcha tomonlari jadal rivojlanayotgan 2 yoshdan boshlab bo'lgan davrda uning so'zlar va iboralarni aniq va tushunarli talaffuz etishiga e'tiborni qaratish, bolalarda so'zlardagi barcha tovushlarni aniq aytgan, iboralardagi barcha so'zlarni tushunarli qilib talaffuz qilgan holda oxir sur'atda taqlid qilish nutqini tarbiyalash zarur. Biroq har doim ham faqat taqlid qilish orqali yaxshi diksiyaga erishib bo'lmaydi. Bunga nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada

rivojlanmaganligi, artikulyatsiya apparati organlarining yetarlicha harakatchan emasligi, o'z ovozi boshqara olmaslik va boshqa kamchiliklar to'siq bo'lishi mumkin.

Ko'pincha noaniq diksiya so'zlovchilarning nutqini diqqat-e'tibor bilan tinglay olmaydigan va o'z-o'zini nazorat qilish yetarli darajada rivojlanmagan, e'tiborini bir narsaga jamlay olmaydigan va salga jaxli chiqadigan bolalarda yuz beradi. Bunday bolalar nutqi noaniq, aralash bo'ladi, ular har doim ham so'zlar, iboralarni oxirigacha aytmaydilar.

Asta-sekin atrofdegilar va o'z nutqini diqqat bilan tinglashni o'rganishi, nutqiy nafas olish, artikulyatsiyani rivojlantirishi, ovozni boshqarishni o'rganishi natijasida bolaning diksiyasi ham yaxshilaniib boradi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga grammatik jihatdan to'g'ri nutqni, yaxshi diksiyani o'rgatishi, ularni atrofdegilar nutqini diqqat bilan tinglash va o'z talaffuzining aniqligini kuzatib borishga odatlantirishi zarur.

• *Orfoepiyaga doir ishlar* Kishilar bir-birlarini tushunishlari uchun ular og'zaki nutqining tovush qismi bir xil bo'lishi darkor. SHuning uchun tarbiyachilar nafaqat o'zlari og'zaki nutq qoidalariga rioya qilishlari lozim, balki ular bolalarni ham shunga odatlantirishlari kerak.

Biz bir necha bor bolalarning o'z nutqida maxalliy shevani, jaydari so'zlarni qo'llayotganini, urg'uni noto'g'ri qo'yayotganliklarini, so'zlarni harfiga qarab aytayotganliklariga duch kelamiz.

Tarbiyachi bolalarning adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi. Bu o'rinda tarbiyachining vazifasi quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim: ona tilining orfoepik me'yorlarini o'zlashtirib olish yo'li bilan o'z nutqining talaffuz madaniyatini oshirish, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda muntazam ravishda turli qo'llanmalar, lug'atlardan foydalanish.

• *Nutq sur'atiga doir ishlar* Nutq sur'ati deganda, nutqning vaqt bo'ylab davom etish tezligi tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar sekin so'zlashdan ko'ra ko'proq tez sur'atda so'zlaydilar. Bu nutqning tushunarligi, aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, tovush artikulyatsiyasi yomonlashadi, ba'zan alohida tovushlar, bo'g'inlar va hatto so'zlar tushib qoladi. Ayniqsa bu nuqsonlar uzun so'zlar yoki iboralarni talaffuz qilishda ko'p uchraydi.

Tarbiyachining faoliyati bolalarda soʻzlar juda aniq jaranglaydigan oxista nutq surʼatini shakllantirishga yoʻnaltirilishi zarur.

• *Intonatsion ifodalilikka oid ishlar Intonatsiya* - bu nutqdagi barcha ifoda vositalarining murakkab majmui boʻlib, u quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

musiqiylik - iborani aytishda ovozning kuchayishi va pasayishi, bu nutqqa turli buyoqlar baxsh etadi va birxillikdan qochish imkonini beradi. Musiqiylik jaranglayotgan nutqning har bir soʻzida ishtirok etadi. Balandligi va kuchiga qarab oʻzgargani holda unlilar unga ishlov berishni nihoyasiga yetkazadilar;

surʼat - nutqiy kesimlar oʻrtasidagi pauzalarni hisobga olgan holda nutqning aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda jadallashishi va sekinlashuvi;

ritm - urgʻuli va urgʻusiz boʻgʻinlarning bir tekis oʻrin almashishi (yaʼni, ularning quyidagi sifatlari: uzoqlik va qisqalik, ovozni balandlatish va pasaytirish);

iboraviy va mantiqiy urgʻular - aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda pauzalar, ovozni balandlatish, soʻzlarni talaffuz qilishdagi zoʻriqish va uzoqligi bilan ajratish;

nutq tembri - (tovush tembri va ovoz tembri bilan aralashtirib yuborilmaslik) tovushning ekspressiv-emotsional buyoqlari (qaygʻuli, quvnoq, xazin tembr).

Ifodalilikning ushbu vositalari yordamida muloqot jarayonida fikrlar va iboralarni, shuningdek emotsional-iroda munosabatlarini aniqlash-tirish amalga oshiriladi. Intonatsiya tufayli fikr tugallangan tusga ega boʻladi, aytilgan fikr asosiy maʼnoni oʻzgartirmagan holda qoʻshimcha maʼnoga ega boʻlishi mumkin. SHuningdek, aytilgan fikr mazmuni ham oʻzgarishi mumkin.

Ohang jihatidan ifodali boʻlmagan nutq odatda, tinglash qobiliyatining sustligi, nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, notoʻgʻri nutqiy tarbiyalash, nutqdagi turli nuqsonlar (dizartriya, rinolaliya va boshq.) oqibatida yuz berishi mumkin.

Bola oʻz nutqida turli his-hayajon va kechinmalarini tinglovchiga yetkazish uchun ifoda vositalarini toʻgʻri qoʻllashni bilishi lozim. Tarbiyachi nutqi his-hayajonga toʻliq boʻlishi hamda intonatsion ifodalilik namunasi boʻlib xizmat qilishi lozim.

Intonatsion ifodalilikka doir ishlar asosan taqdid yo'li bilan amalga oshiriladi. Tarbiyachi she'rlarni yod olishda, hikoya qilib berishda o'zi ham nutqning ifoda vositalaridan foydalanadi va bola nutqining ifodaliligiga e'tiborni qaratadi. Bolalar tarbiyachining to'g'ri, ifodali nutqini eshitgani sayin asta-sekin mustaqil nutqda zarur intonatsiyalarni qo'llay boshlaydilar.

Nutqning tovush madaniyatiga doir barcha ishlar bo'limlari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'ladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir o'yinlar va mashg'ulotlarni muntazam hamda izchil ravishda amalga oshirish uchun unga «jonli» ovoz ustidagi ishlar asos qilib olinishi lozim. Har bir yosh bosqichida materialni asta-sekin murakkablashtirib unga nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir bo'limlarni kiritgan holda uni murakkablashtirib borish darkor.

Bolalar nutqini rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich - bu 1 yoshu b oydan to 3 yoshgacha bo'lgan davr. Ushbu bosqichda (ayniqsa, uning boshida) faol lug'at jadal rivojlanadi. Ilgari shakllanib ulgurgan artikulyatsiya harakatlari yaxlit so'zlarni talaffuz qilishda ishtirok etgani holda unga ayrim o'zgartirishlar kiritiladi, ya'ni bunda aniqlashtirish yuz beradi, u yanada barqarorlashadi. Bolaning yaxlit so'zni aytishga ongli ravishda taqlid qilish qobiliyati rivojlanadi, shu tufayli tarbiyachi bola nutqning tovush jihatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Turli tovush taqlidlaridan foydalanish nutqning tovush madaniyatiga doir ishlarning asosini tashkil qiladi.

Ishning samaradorligi ortadi, chunki ushbu yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlar kichik guruhlarda olib boriladi.

Ikkinchi bosqich - 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr. Bu yoshda so'zning fonetik va morfologik tarkibini shakllantirish jarayoni boradi. Eng qiyin artikulyatsiya harakatlarini takomillashtirish davom ettiriladi. Bu bola uchun oraliq, affrikat va sonor tovushlarini chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ushbu bosqichdagi ishlar bolalarning so'zning tovush jihatiga nisbatan sezilarli ravishda ajralib turadigan ongli munosabatiga tayanadi va u ona tilining barcha tovushlarini izchil ravishda mashq qilish asosida quriladi.

Uchinchi bosqich - 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr. Bu bosqich go'yoki maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha yoshdagi kichikintoylar nutqining tovush tomonini shakllantirishdagi yakunlovchi davr hisoblanadi. Davr boshida eng qiyin artkulyatsiya harakatlari shakllanib bo'ladi, biroq bunda shu narsa muhimki, artikulyatsiya yoki akustik belgilari bo'yicha yaqin bo'lgan (s-sh, z-x, s-z va boshq.) tovushlar bir-biridan aniq farqlanishi (talaffuzda ham, nutqni tinglash orqali qabul qilishda ham) lozim. Bunday tovushlarni tabaqalashtirish, farqlashni takomillashtirishga oid maxsus ishlar bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini yanada rivojlantirishga, fonemalarni mazmun farqlovchi tovushlar sifatida o'zlashtirishga yordam beradi (surat - sur'at, dur-tur va boshq.).

Mazkur davrda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash asosiy tovushlar juftligini tabaqalashtirish asosida quriladi va bir vaqtning o'zida diksiya, sur'at, intonatsion ifodalilik va x.k. larni o'z ichiga oladi.

Tarbiyachi har bir bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarning asosiy mazmunini nazarda tutgani holda ayni paytda bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

3. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda interfaol o'yinlardan foydalanish. Bunda bir necha mashg'ulotlarni misol tariqasida ko'rib chiqish mumkin.

1-mashg'ulot:

Mavzu: «Quvnoq tilcha haqida ertak».

Maqsad: Bolalarga og'iz, lablar, tishlar va til, tanglay haqida tushunchalarini mustahkamlash. Tilning asosiy harakatlarini bolalar bi-, lan birgalikda bajarish: tilni yuqoriga ko'tarish, pastga tushurish, tilni og'iz burchaklariga yo'naltirish.

Vazifalar:

Mashg'ulot vaqtida har bir bolani diqqat-e'tibor bilan kuzatib, mashqni qanday bajarayotganini tekshirib turish.

Kutilayotgan natijalar:

Bolalarning gapirishimiz uchun bizga nimalar yordam berishi (lablar, til uchi, til kuragi, tilning orqa qismi, tishlar, tanglay, tovush, og'iz, lablar) haqidagi tushunchalari yanada mustahkamlanadi. Tilning asosiy

harakatlari: tilni yuqoriga ko'tarish, pastga tushurish, tilni og'iz burchaklariga yo'naltirishni mustaqil bajara oladilar.

Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan, ishtirok etishga mo'ljallangan interfaol usullar:

Aqliy hujum.

Qisqa hikoya.

Savol-javob.

Tetiklashtiruvchi mashqlar.

Kerakli jihozlar:

«Quvnoq tilcha haqida» ertagi bilan ishlashni mo'lj allash.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi: Bolalar, qani ayting-chi: «Biz nima orqali gapiramiz?» (og'zimiz bilan). To'g'ri, og'zimiz orqali. Og'zimiz uychaga o'xshaydi. Bu uychada nima yashaydi? To'g'ri, til. Til haqida ertak eshitganmisiz? Qani eslab ko'ring-chi. Til uychada yashaydi. U yashaydigan uychaning eshigi bor-a? Uning uychasida bitta eshikcha emas, balki ikkita eshikcha bor edi. Birinchi eshigi-lablar, ikkinchi eshigi-tishlar. Bu uyning shifti ham bor edi. Bu nima deb atalar edi? To'g'ri, tanglay. Biz gapirmaganimizda uychaning ikkala eshikchasi yopiq bo'ladi va tilcha ko'rinmaydi. Hammangiz og'zi:agizni yoping va bir-biringizni og'zingizga qarang. Tilcha qorong'ida o'tiraverib zerikib, ko'chaga chiqib sayr qilib kel- moqchi bo'ladi. Avval til uchini chiqarib, havo qanday ekanligini bilib olmoqchi bo'ladi. Kelinglar, hammamiz shunday qilamiz (tarbiyachi bolalarni bu harakatni qanday bajarayotganliklarini tekshirib chiqadi). Mana, qanday keng tilcha, hammangiz bir-biringizga qaranglar. Birdan qattiq shamol esdi, tilcha burishdi. Ingichka bo'lib oldi, so'ngra butunlay uychasiga yashirilib, uxlash uchun karavatchasiga cho'zildi. (bolalarni tekshirish). Uyqudan uyg'ongan tilcha mashq qilmoqchi bo'ldi, yuqoriga ko'tarila boshladi.(yuqoridagi tishlar orqasiga), so'ngra pastga tushadi (pastki tishlar orqasiga) (tarbiyachi har bir bolani tekshiradi). Tilcha avval mashqni sekin-sekin bajaradi, so'ngra tez-tez sakray boshladi. U sakraganda shiftga yetay- yetay dedi, sakrab shiftni til uchi bilan silab qo'ydi.Tilcha mashq qilib bo'lgach, yana ko'chaga chiqmoqchi bo'ldi. Ko'chaga chiqib zinapoyaga o'tirdi(tilning keng oldingi qirrasini pastki labga qo'yish, bolalar bu harakatni bajarayotganlarida pastki lablarini qiyshaytirmasinlar, pastki tishlarga tegizmasinlar). Bir o'zi o'tiraverib zerikdi, o'ynash uchun ko'chada hech kim yo'q edi. Bolalar

yo'qmikin, deb tilcha avval o'ng tomonga, so'ngra chap tomonga qaradi. Hech bir bola yo'q edi. Bolalami qidirib uyining atrofida yugura boshladi (til og'iz atrofida aylanma harakat qiladi). Birga o'ynash uchun sherik topdi, sevinganidan sakradi, va tili bilan cho'lpillatdi (tilni tanglayga yopishtirib, uchi bilan cho'lpillatadi (bolalar tekshiriladi). Tilcha mazza qilib sayr qilganidan so'ng uyiga ketdi va ikkala eshikni yopdi. Uychasining eshiklari oddiy emas, ikki qavatli. Bular - lablar. Mana yuqorigisi, mana pastkisi (ko'rsatadi). Lablar ham ko'p harakat qila oladilar. Mana ular ko'p harakat qilib jilmayishdi. Kelinglar hammamiz jilmayamiz, so'ngra ular nimagadur achchiqlandilar va oldinga naychaga o'xshab cho'zildilar (tekshirish). So'ngra lablar biroz ochilib, ikkinchi eshikni ko'rsatishdi (tarbiyachi tishlarini ko'rsatadi). Mana yuqorigi tishlar, mana bu pastki tishlar.

Hamma eshiklarni yopamiz, tilcha juda ham charchadi, uning dam olgisi kelyapti.

Jismoniy daqiqa.

Bolalar, yana bizning ovoqimiz ham bor-a! U ham uychada yashaydi. Biroq uning uychasi og'izda emas, bo'yida (ko'rsatadi).

Ba'zan ovoz uxlaydi va sekingina pishillaydi, uning pishillashi eshitilmaydi (tarbiyachi «s» tovushini talaffuz etadi So'ngra bolalar «s» tovushini talaffuz etadilar. Qo'llarining orqa tomonini bo'yinlariga qo'yib, ovoz uxlayaptimi yoki yo'qmi, tekshirib ko'radilar). Ovoz uyqudan turgandan keyin ashula aytadi. U shunday ovozda ashula aytadiki, hatto uychaning devorlari titray boshlaydi (bola «z» tovushini bo'yinga qo'l kaftining orqa tomonini qo'yib talaffuz etadi. Bu bilan ovoz uxlayaptimi yoki yo'qmi, tekshiriladi. Xuddi shu tariqa bolalar ikki - uch marta «s» va «z» tovushini navbatma-navbat talaffuz etadilar va tovush uxlayaptimi yoki ashula aytyaptimi aniqlashadi. Bolalar, bugun biz ko'p narsalarni bilib oldik. Mashg'ulot bolalarni rag'batlantirish bilan yakunlanadi.

Bolalar bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

Demak, gapirishimiz uchun bizga nimalar yordam beradi?

(lablar, til, til uchi, til kuragi, tilning orqa qismi, tishlar, tanglay, tovush)

2-mashg'ulot:

Mavzu: «O» tovushini talaffuz qilish

Maqsad: «O» tovushi bilan tanishtirish.

Vazifalar:

- «O» tovushini talaffuz qilishga o'rgatish
- «O» tovushining unli tovush ekani haqida tushuncha berish, uning so'z boshi, o'rtasi va oxirida kelishini aytish, uning to'g'ri talaffuzini o'rgatish,

- «O» tovushli so'zlar bilan bolalar nutqini boyitish.

Kutilayotgan natijalar:

- «O» tovushining unli tovush ekanligini, uning so'z boshi, o'rtasi va oxirida kelishini bilib oladilar.

- «O» tovushli so'zlar ayta oladilar.

Kerakli jihozlar:

- «O» tovushi bor suratlar, kubik: bir tomoniga labning ochiq holati rasmi yopishtirilgan, boshqa tomonlariga unli harflar yopishtirilgan.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi bolalarning tovushlar haqidagi bilimni aniqlash va mustahkamlash uchun savollar beradi.

Tovushlarni nima qilamiz?

(tovushlarni talaffuz qilamiz va eshitamiz)

Tarbiyachi bolalar javoblarini umumlashtiradi: nutq tovushlari

2 xil bo'ladi: unli tovushlar va undosh tovushlar, tovushlarni aytamiz, eshitamiz.

Bugun biz «O» unli tovushi bilan tanishamiz.

«O» tovushini talaffuz etganimizda quyidagi holat yuz beradi:

Lablar aylana shaklida (dumaloqlangan) va bir oz oldinga chiqadi, tishlar dumaloqlangan lablar bilan berkiladi, til ildizi bir oz yuqoriga ko'tariladi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi, havo oqimi og'iz bo'shlig'i orqali o'tib ketadi, tovush boylamlari bog'langan bo'lib, tebranadi va tovush hosil bo'ladi.

Unli tovushlar to'siqqa uchramaydi, cho'ziq aytiladi. Unli tovushni biz qizil rangda belgilaymiz (qizil kvadrat shaklni ko'rsatiladi). Kubiklarning (tarbiyachi kubikni ko'rsatadi) bir tomoniga labning ochiq holati rasmi yopishtirilib belgilanadi. Siz kubiklarni o'ynayotganingizda bilingki, kubikning bir tomoniga labning ochiq holati rasmi yopishtirilib, qolgan tomonlarda harflar ko'rsatilgan bo'lsa, demak, bu kubikdagi harflar unli harflar bo'ladi. Mana qarang, kubikning bir tomoniga labning ochiq holati

rasmi yopishtirilib, boshqa tomonida «O» harfi yopishtirilgan. Demak, «O» harfi unli tovush ekanligini bildiradi.

Xattaxta tagligiga uy hayvonlari rasmi terib qo'yiladi (qo'y, echki, sigir, buzoq, ot) va quyidagicha suhbat orqali ot so'zi ajratib olinadi.

- Uy hayvonlari nomini ayting.

(qo'y, echki, sigir, ot)

Ular nima uchun uy hayvonlari deyiladi?

(chunki ulami uyda odamlar boqadi, parvarishlaydi)

Shu hayvonlarning qaysi biri nomida «O» tovushi bor? Aytib ko'rib aniqlang-chi? (tarbiyachi o'zi aytib yordam beradi: o-o-o t.)

(Ot so'zida «O» tovushi bor).

- «O» tovushini talaffuz qilib, uning qanday tovush ekanini aniqlang.

(o-o-o - o unli tovush ekar.)

- Qayerdan bildingiz? !

- «O» tovushi to'siqqa uchramayapti, cho'ziq aytilyapti.

To'g'ri: «O» tovushi cho'ziq aytilyapti, unli tovush. Ot so'zida

«O» tovushi so'zning boshida kelyapti, «O» tovushi so'z o'rtasida ham, oxirida ham keladi. Mas alan: sado, non.

Jismoniy daqiqa.

Tarbiyachi bolalarga «Rasmni top» o'yinini taklif etadi. Buning uchun tarbiyachi bolalami uch guruhga bo'ladi: 1 -guruhga «O» tovushi bilan boshlanadigan predmetlar rasmlarini topish, 2-guruhga «O» tovushi bilan tugaydigan predmetlar rasmlarini, 3-guruhga «O» tovushi so'z o'rtasida kelgan predmetlar rasmlarini topish aytiladi, qaysi guruh o'ylanib, belgilangan muddatda so'z topa olmasa, o'yindan chiqadi. O'yinni oxirigacha davom ettirgan guruh g'olib sanaladi.

Bolalar uchun amaliy ish.

Tez aytish:

Oqqush ko'lda suzadi,

Oppoq bo'yin cho'zadi

Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rag'batlantiriladi.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

Bugun qaysi tovush bilan tanishdik?

U qanday tovush ekan?

Bu tovushni nima qilamiz?

Biz tovushlarni nima uchun o'rganamiz?

Qaysi tovushlar unli tovushlarga kiradi?

Nutqdagi buzilishlar - inson ahvolini baholashda til parametrlari yordam berishi mumkin bo'lgan yagona holat emas. Ayrim vaziyatlarda (ruhiy zo'riqish, siqilish paytida) yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan odamlarda fiziologik parametrlar bo'yicha ayrim nuqsonlar sezilmaydi. Ammo ulaming nutqi mutaxassis bo'lmagan odam tushunishi qiyin bo'lgan darajada o'zgaradi. Ko'pincha faqat til mezonlarigina bunday holat yuz berishidan dalolat berishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish - bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuir an muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir. Bolaning borliqning yangi tomonlariga uo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlami, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi.

Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi. Nutq madaniyatini zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofda odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalaming nutqni egallab olishlarining sababi ulaming muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir.

Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davming asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich - faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi.

Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining **ikkinchi bosqichida** uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar. Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib

chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. Nutqni rivojlantirishning **uchinchi bosqichida** - uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bolaning nutqning yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beradi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq irivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shidcat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda tovush artkulyatsiyasining vazifasi nimalardan iborat?
2. Tovush apparati ustida ishlash mashqlaridan na'munalar keltiring
3. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda nafas mashqlarining ahamiyati?
4. Disiya va tembr tushunchalarini izohlang?
5. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishga yordam beruvchi interfaol o'yinlardan misollar keltiring?
6. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishga tarbiyachilarning asosiy vazifasi nimalardan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. - T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. - T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. - T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalami savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.

8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

14-§: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA NUTQNING GRAMMATIK TO'G'RILIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tilining grammatik qurilishinn o'zlashtirishning lingvistik va psixofiziologak asoslari
 2. Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish metodikasi.
 3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni.
 4. Barcha yosh guruhlarida so'z o'zgartirishni shakllantirish metodlari va usullari
- Tayanch tushunchalar:** nutq, tizim, grammatik tizim, grammatik ko'nikma, grammatik qurilish.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tilining grammatik qurilishini o'zlashtirishning lingvistik va psixofiziologik asoslari.

Grammatika deganda, biz nutqiy faoliyat natijalarini tavsiflash va tartibga solish uchun lingvistlar tomonidan o'ylab topilgan qoidalar majmuini emas, balki fikr bildirishni vujudga keltirish va boshqalarning bildirgan fikrlarini tushunish uchuk zarur bo'lgan bilimlar umumiyiligini tushunamiz. So'nggi paytda grammatika aynan shu ma'noda psixologlarning diqqat-e'tiborini jalb qilmoqda. Grammatikani tadqiq qilish nafaqat shunchaki qiziqarli, nafaqat lingvistik maqsadlar uchun zarur, balki u umuman fikrlash va bilish jarayonlarini keng tadqiq qilish uchun ham zarur qismdir.

Bizni so'z yasovchi va sintaktik operatsiyalardan foydalangan holda son-sanoqsiz yangi fikrlarni tuzish qobiliyatining shakllanishi qiziqgiradi. Uzoq vaqt mobaynida tayyor nutqiy namunalar imititsiyalari va ularni qo'llash amaliyoti ushbu qobiliyatni rivojlantirishning zarur va yetarli sharti hisoblangan. Biroq tilni rivojlantirish faktlari, eksperimentlardan olingan ma'lumotlar asosida ushbu nazariyani qo'rqmasdan yo'qqa chiqarish mumkin. Imitatsiya nazariyasiga qarshi yana bir dalil keltirish mumkin: aniqlanishicha, eshita olmaydigan bolalar nutqni ham imitatsiya qila olmaydilar, lekin shunga qaramasdan ular tildan normal foydalanish qobiliyatini o'zlarida shakllantira oladilar.

Psixolingvistik tadqiqotlar doirasida tilni o'zlashtirish borasida qanday ahvol namoyon bo'ladi?

Bola tilga nisbatan sust munosabatda bo'lmaydi, aksincha u faol bo'lgani holda til hodisalarini o'zi anglamagan holda doimiy ravishda tahlil qiladi.

Bolaning o'z tilini tashkil etishga, unda biroq-bir qonuniyatlarni topishga va qoidaga intilishi hamda ushbu qoidaga muvofiq holda harakat qilishi ko'plab faktlar bilan tasdiqlanmoqda. Hammaga yaxshi ma'lumki, bolaning tili kattalar tilidan «grammatik noto'g'riligi» bilan farq qiladi. Ammo shunisi qiziqki, bu noto'g'rilikning o'zi tizimli, asosli bo'lib, u bolaning o'zi tomonidan yaratilgan oraliq til tizimi oqibatidir, bola ushbu tizim ichida anchayin to'g'ri harakat qiladi. Bunday tizimni yaratishda, bir tomondan, eshitilayotgan kattalar nutqiga nisbatan taxliliy harakatlar, ikkinchi tomondan — umuman olganda bilish va tahliliy harakatlari rolb o'ynaydi.

Grammatikaning eng muhim jihati — so'z o'zgartirish va so'z hosil qilish operatsiyalarini o'zlashtirishni ko'rib chiqamiz. So'zni bildirilgan fikr tarkibiga kiritish uchun u bilan muayyan harakatlarni amalga oshirish zarur, masalan, otni tavsiflayotgan narsalar soniga muvofiq holda muayyan son shakliga qo'yish, fe'l sonini otlar soni bilan moslashtirish, harakat yo'naltirilgan otni zarur kelishikka qo'yish yoki tegishli old ko'makchidan foydalanish lozim.

Bola tayyor shakllarni «qabul qilmaydi», aksincha ularni ma'lum qoidalar asosida tuzib chiqadi. Bu qoidaning mohiyati shundaki, bunda bola til belgisini birgalidagi semantik va grammatik birlik (L.S.Vngotskiy ta'riflagan «psixologik qurol bilan») sifatida o'zlashtiradi. Butun til rivojlanishining asosida bolani predmetli faoliyati yotadi. Bolaning til borlig'i elementlari bilan harakati mohiyatan, xuddi predmetli olam bilan amalga oshiriladigan harakatlar kabidir. Taniqli psixolog D.B.El'skonin ham aynan shunga e'tiborni qaratgan. U umuman olganda, o'zlashtirish bilan moddiy predmet sifatidagi harakatlarni shakllantirmasdan turib uni amalga oshirish mumkin emasligini qayd etgan¹. Ushbu harakatlar chog'ida bolada til borlig'i haqidagi tasavvur shakllanadi. Bola bu tasavvurlarni o'zining predmetli olam haqidagi bilimlariga mos ravishda shakllantiradi.

So'nggi fakg M.I.Popova¹ tomonidan o'tkazilgan maxsus sinovlarda ko'rsatilgan. U bolalarning qanday qilib so'zda so'z yasovchi elementlarni ajratib olishlarini tadqiq qilgan (lingvistikada ularni morfemalar deb atashadi). Bunda tur ko'rsatkichiga ega bo'lgan o'tgan zamon fe'l shakllari material sifatida xizmat qilgan. So'z yasash xususiyatlariga ko'ra aniqlanadigan ot turi.fe'l qo'shimchasini aniklash uchun yagona mo'ljal hisoblanadi. Tegishli morfemalar (tur belgisi)ni ajratib olmasdan turib to'g'ri kelishishni amalga oshirish mumkin emas. Bolalar esa sinov paytida tegishli shakliy ko'rsatkichlarni real predmetli munosabatlar asosida ajratib oldilar. Bolalarning grammatik hodisalarni tushinishi predmetli munosabatlarga asoslangani haqida boshqa tadqiqotchilar ham yozganlar (F.A.Soxin, F.I.Fradkina).

Bola so'z yasash toifalarining tashqi, tovushli ifodalarini o'zlashtirib olishi lozim. Bunda bola eng avvalo so'z yasovchi elementning tashqi — moddiy tomoniga yo'naladi va uni mustaqil mazmun sifatida qabul qiladi, morfemalarning jaranglashini obrazli asoslaydi. Boshqacha qilib aytganda, bola dastlab morfema jarangining o'zida real munosabatlar bilan bog'liqligini topishga harakat qiladi. Agarda bola eng avvalo morfema so'zga olib kiradigan tovush o'zgarishini aniqlasa va uni qiyoslay olsa (tovush o'zgarishlari haqiqatda yuz bergan o'zgarishlar bilan), u bu munosabatlarni topishi mumkin. Ayni paytda bola so'zga «butunlay» yo'naladi, ya'ni umumiy tovush xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Predmetli odamdagi o'zgarishlar predmetning qandaydir ahamiyatli xususiyatlariga (bola nuqqai-nazaridan) taalluqli bo'lmaydi, aks holda predmet belgilash uchun boshqa so'zni, yangi nomni talab qiladi.

Predmetli harakatlar hisobyga bo'yiydi, bu jarayonda bola o'zaro hamkorlikdagi predmetlarni kuzatadi va o'zi ham ushbu hamkorlikda faol ishtirok etadi. Hissiyotli qabul qilinayotgan belgildagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotni bola kattalar bilan muloqot chog'ida oladi. Muloqotga ehtiyojmandlik va ushbu muloqotning toboro murakkablashib borayotgan shartlari boladan atrof-borliqtsaga o'zgarishlar haqida olingan tasavvurlarni nafaqat qabul qilish va aks ettirish, balki ifodalashni ham talab qiladi.

Olingan bilimlarni ifoda qilish tegishli vositalarni talab ztadi. Umuman olganda, bolada bu vositalar mavjud, u mazkur narsa yoki harakat nima deb atalishini biladi va h.k. Predmetdagi o'zgarishlar

larni ifodalash uchun nom-soʻzni oʻzgartirish zarur. Ushbu shaklni tanlash uchun tegishli qoidani qidirish mazkur shaklni bola soʻzdan «alohida» tarzda oʻzlashtirib

larni oʻzlashtirish kamlik qiladi, chunki ushbu shakllarni bilish zarur. Kattalarda shaklni tanlash tilda shakllangan bogʻliq, bola boʻlsa uning tasavvurida predmetli namunalari bilan bogʻliq boʻlgan, asoslangan shakllarni tanlash zarur. Ayni paytda shakllarni tanlashning obrazlarga bogʻliq va predmetli munosabatlarga yoʻnalish bolalarda ancha kamroq va yoshigacha saqlanib qoladi.

Morfomaning tovushli shakliga yoʻnalganligi va uning mazmuni bilan bogʻliqligiga motivatsiyalangan mazmun sifatida qarashi zarur. Muhim xulosaga olib keladi: oʻxshash hodisalar oʻxshash tarzda yuz beradi. Bolalarning koʻp sonli yangi soʻz yasashlarining koʻp qismi yuzaga kelish sababi shunda. Bu — bola kattalardan hech narsa bilmagan, ammo u yoki bu soʻz yasovchi element «faoliyati» oʻzlashtirilgan tasavvurga toʻla muvofiq holda hosil qilingan

oʻxshashlik toʻgʻridan-toʻgʻri oddiy mexanik holatdagi hodisadir, bu — bolaning olam haqida olgan bilimlarini mos tarzda shakllarni «tekshirib koʻrish» va oʻzlashtirishga nisbatan ijodiy faoliyati yuz berishidir. Bunga bolalarning soʻz ijodkorligidan koʻplab misollar kiritish mumkin. Shunday fikr mavjudki, unda bolaning oʻz soʻz yasash maʼnosiga ega boʻlmagan, toʻgʻridan-toʻgʻri hech qaysi maʼnoga ega boʻlmagan morfema kabi mavhum element bilan qiyoslanmaydigan morfema kabi mavhum element ajratib ololmasligi qayd etiladi. Biroq, ushbu nuqgai-nazarga eʼtibor berilgan va morfemaning soʻzda «beixtiyor» ajratib olinishini nazarda tutish zarur.

Mazkur holatda bitta soʻz shakllari bola uchun turli soʻzlar yasovchi elementni soʻzning alohida ahamiyatga ega boʻlgan holatida ajratib olgunga qadar mazkur element eski soʻzga qoʻshiladi, aksincha u yangi soʻz yaratadi. Gap shundaki, ushbu shaklni bola narsalar olamidagi yangi narsalardan biri sifatida tanlaydi. Bu bolaga ushbu munosabatlarni belgilaydigan soʻz yasovchi elementni asta-sekin boyitib borish imkonini beradi. Mazkur

umumlashtirishlar asosida til tuzilmasining bir qismi sifatida u yoki bu hodisa haqidagi umumiy tasavvur (beixtiyor) hosil bo'ladi. Ko'rgazmali namoyish psixik aks ettirish sifatida sust emas, faol bo'ladi, u inson hayotini, amaliyotni o'z ichiga oladi, u «sub'ektiv-ob'ektivlar»ning muntazam ravishda bir-biriga quyulish sari harakatidir. Ijod so'zi so'z shakllarining ob'ektiv mazmuni shakllanganligidan dalolat beradi. Tasavvurlarni umumlashtirish lingvistlar e'tiborini jalb qiluvchi bolalar grammatikasi mazmuni quriladigan poydevor bo'lib xizmat qiladi.

So'z hosil qilishni (so'z o'zgartirishni) o'zlashtirishda bolaning morfemaning tovush qiyofasiga yo'nalishi shu bilan isbotlanadiki, dastlab talaffuzning aniqligi aynan qo'shimchalarda ko'rinadi. M.I.Popova ham shunday xulosaga kelgan, u grammatik shakllarni o'zlashtirish uchun bolada so'zning tovush shakliga yo'nalganlik hissi shakllangan bo'lishi lozimligini ko'rsatib bergan. Yo'nalganlik xissini shakllantirish uchun bolaning so'zlar bilan faol ish olib borishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yo'nalganlikning o'zi ham aslida aniqlovchi komponent sifatida ushbu faoliyatga kiradi. Bolaning faolligisiz shunchaki tajriba to'plash katta natija keltirmaydi.

Bola morfemani egallash jarayonida qator bosqichlardan o'tadi. Dastlab morfema ajratiladi, so'ngra u vazifasiga ko'ra qo'llanila boshlaydi, o'z jaranglashidan «ajralgani» holda belgi sifatida chiqadi.

Morfemaning tovush qiyofasini qabul qilishda bolada ko'rgazmali tasavvur asosida jaranglashning predmetli munosabatlar bilan obrazli aloqasi shakllanadi. Bola ushbu obrazli aloqa asosida o'ziga kerak bo'lgan so'zning to'g'ri talaffuz qilinishini «tekshirib ko'radi», bunda u o'zi hosil qilgan umumlashtirmalarga amal qiladi. SHuning uchun bolada so'zlarni buzib talaffuz qilish holatlari ro'y beradi.

Boladagi faol harakat morfemaning unga bevosita berilmagan xususiyatlarini ochishi zarurdir. Ayni paytda bola so'zlar bilan xuddi predmet bilan bo'lgani kabi harakat qiladi va uning natijasida aniqlangan qoida ushbu so'z yasovchi elementni nima uchun qo'llash lozimligini ko'rsatadi.

Qoidaning shakllanganligi va uning mustahkamligini sinov yo'li bilan tekshirib ko'rish mumkin. Bunda bola ushbu gipotetik qoidani avvaldan notanish til materialiga nisbatan, masalan, kvazi-so'zlarga nisbatan qo'llash zarurati oldida qoldiriladi.

Ichki, anglanmagan, biroq shak-shubhasiz, amalda bo'lgan til tizimining mavjud bo'lishi bolaning to'g'ri qurilgan so'zni noto'g'ri qurilgan so'zdan ajratib olishida iamoyon bo'ladi. Bola to'g'ri so'z hosil qilishga intilgani holda doimo o'z nutqini tuzatib borishga harakat qiladi. («Daryoda baliq ko'p edi..baliqlar... ko'p baliqlar»). Bola o'z fikr bildirishlarining sintaksisini ham aynan shu tarzda to'g'rilaydi («Timur yig'ladi, chunki unga shapaloq urishdi.. oyisi shapalog'i bilan urdi, chunki uning oyisi shapaloq tushirdi»). O'z-o'zini to'g'rilashga oid bunday ko'plab holatlar, shuningdek atrofdegilar nutqini to'g'rilash (bolalar fikriga ko'ra, noto'g'ri bo'lgan) bolalarning turli tillardagi nutqlarining magnitofon yozuvlarida kuzatilgan.

Bolalarning so'z ijodkorligi — qoidalar, umumlashtirmalarni shakllantirish, obrazli aloqalar harakati jarayonlarining eng yaqqol ko'rinishidir. Bolalarning so'z ijodkorligini bolalikda ona tilining grammatik tuzilishini o'zlashtirish jarayonining tomonlaridan biri sifatida taxlil qilgan F.A.Soxin ushbu jarayonlar negizini tilning tizimli aloqalarining bola ongida aks etishi va uning til mexanizmlari shaklida mustahkamlanishi tashkil qiladi, degan xulosaga kelgan.

Bolaning til borlig'iga nisbatan faol ijodiy munosabati uning tilning so'z hosil qilish imkoniyatlarini amalga oshirishida ko'zga tashlanadi. Bolada generallashuv natijasi sifatida borliq hodisalarining ularni ifodalashning til qobiliyati bilan umumlashtirilgan aloqalari aks etadigan so'z hosil qilish modeli haqida ayrim tasavvurlar shakllanadi.

Boladagi bu aloqalarning xususiyati shundaki, umumlashtirish jarayonining o'zi yoshga oid ayrim psixologik o'ziga xosliklarga bo'ysundirilgan. Biz tomonimizdan bola psixologik hayotida obrazli, ko'rgazmali komponentlarning hukmronlik qilishi qayd etilgan. SHuning uchun so'z hosil qiluvchi vositalar bolaning amaliy, predmetli tajribasi orqali aniqlashi lozim.

Nutqiy rivojlanishning turli bosqichlarida bola uchun leksik ahamiyat («o'zakli») predmetli ahamiyatga eng yaqini sifatida yetakchi o'rin tutadi. U ahamiyatlarni rasmiy til birliklari (tabiatan mavhum bo'lgan) yordamida takomillashtirish mexanizmini hali egallamagan.

Uch yoshgacha bolaning lug'ati «turli» so'zlar hisobiga ortib boradi. Uch yoshdan keyin so'z yasovchi daraja yetakchi darajaga aylanadi. Bolaning faoliyat ko'rsatish va muloqot sohasi jadal kengayib boradi va

uni tavsiflash uchun naqd leksik vositalar yetmaydi: bola soʻz yasashga murojaat qilishga majbur boʻladi. Agarda yangi hodisani ifodalash uchun maʼlum birlik mavjud boʻlmasa, bu holda mazkur birlik «ixtiro qilinadi», ammo aslida u yangidan emas, balki bola til . tizimining soʻz yasash darajasini tashkil qiluvchi maʼlum (anglanmagan) qoidalar asosida shakllantiriladi. Ayni paytda yangi kashfiyot tuzilmasi faoliyat tajribasi bilan determinirlanishi zarur.

Turli yoshdagi bolalar uchun soʻz hosil qilishning yetakchi darajasi oʻzgarib boradi. Ilk yoshda bolaning nutqiy faoliyatida leksik daraja yetakchi hisoblanadi: borliqning turli hodisalarini tavsiflash uchun bola oʻz ixtiyorida mavjud boʻlgan leksik birliklardan foydalanishga harakat qiladi. «Poezdni kim boshqaradi?» degan savolga kichik yoshli bola quyidagicha javob beradi: «Mashinist» (uning ixtiyorida tanish soʻz bor). «Kim hamma narsani buzadi?» — bola zarur soʻzni topa olmaydi va aniq darajaga oʻtadi: «Behzod». Nisbatan katta yoshli bola oʻzidagi mavjud soʻz yasash qoidalariga muvofiq holda buzuvchi soʻzlarni yaratadi va shu tariqa vaziyatdan chiqib ketadi. U shu bilan obʼektlarning butun sinfini nomlaydi, ayni paytda «Behzod» soʻzi oʻzining aniqligi tufayli bunga yaramaydi.

Yoʻnaltiruvchi faoliyat tasavvurga, vaziyat obraziga asoslangan. Vaziyat dastlab yalpi, boʻlaklarga ajratilmagan holatda namoyon boʻladi. Bola nutqida u ham dastlab aʼzolarga boʻlinmagan holatda ifodalanadi. Vaziyat haqidagi tasavvurni rivojlantirish hamda ushbu vaziyatni nutqiy ifodalashni rivojlantirish yalpi va boʻlaklarga ajratilmagan vaziyatdan aniq boʻlaklarga ajratilgan vaziyatga qarab rivojlanib boradi. Yoʻnaltirish mazmuni quyidagilardan iborat: — obʼektning aniq sifatlari, belgilarini tanish; — ushbu belgilar nomlarini aytish yoki ularni ifodalash shakllarini tanlash, obʼektlar haqidagi maʼlumotlarni boshqasiga uzatish -uchun ularni ajratish. SHu bilan bir vaqtda obʼektlarni ixtisoslashtirish, ulardan vaziyatlarni ajratib olish va vaziyat elementlariga nom berish (belgilar, harakatlarni nomlash) kabi boshqa jarayonlar ham davom etadi. Ushbu jarayonning ilk bosqichlarida predmet, vaziyat va ifoda shakllarini qiyoslashda koʻrgazmalilik, obrazlilik hukmron boʻladi. Masalan, bola narsalarning hajmiga koʻra bir-biridan farqlanishini bilsa, u tilda ushbu farqlarni ifodalash usullarini ham topishi lozim. Kattalar nutqida unga ushbu hodisaning turli koʻrinishlari taklif etiladi, ammo bola ushbu

misollardan mexanik tarzda nusxa ko'chirib olmaydi, balki uni ijodiy jihatdan qayta mulohaza qilib ko'rishga intiladi: chichon - «katta sichqon», nanna — «katta non» (A.N.Gvozdev). Yoki harakat obrazini ifodalash uchun tilda qabul qilingan amalga oshirish usullari (K.I.Chukovskiy). Biz bu yerda so'z mazmunini o'zgartirish uchun, yangi mazmunini ifodalash uchun uning shaklini ongli ravishda o'zgartirishni ko'rib turibmiz. SHuning " uchun grammatik shakllarni o'zlashtirishning izchilligi tasodifiy emas (A.N. Gvozdev tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgani kabi): otlar soni, otlarning kichraytirilgan shakli, buyruq mayli, kelishiklar (u bolalarga predmetlarning borliqda yo'naltirilganligi haqidagi bilimlarni ifodalashda yordam beradi), zamon kategoriyalari, fe'l shaxslari. Bu yerda nisbatan oz mavhumli, aniq shakllardan yanada mavhum shakllarga, oddiy, rasman ifodalashdan (kichraytirilganlik) murakkab va predmetli vaziyat bilan qiyin taqqoslanadigan ifodalar sari yo'nalish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qayd etilganidek, grammatik shakllarni egallab olish ko'rgazmali tasavvurni shakllantirish asosida ro'y beradi. Bu murakkab yo'l bo'lib, unda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin: so'zning tovush shakliga yo'nalish, umumiy tovush shakllarini aniqlash, ushbu shakllarni borliq hodisasining qandaydir elementi bilan birlashtirish, va nihoyat, tovush kompleksining mazkur hodisa bilan «qattiq» aloqasini o'rnatish va oqibatda, ushbu hodisani belgilash uchun mazkur tovush kompleksini barcha so'zlarga o'tkazish.

Grammatikaning gap tuzish usullari bilan bog'liq bo'lgan qismini o'zlashtirish qay tarzda ro'y berishini ko'rib chiqamiz. So'z nutqning muhim xususiyati — uning mahsuldorligini ta'minlovchi sintaksis haqida bormoqtsa.

Olimlar ko'plab tadqiqotlardan kelib chiqqan holda til tarkibini bilish tug'ma qobiliyat emas, balki til rivojlanishi jarayonida bola qoidaga o'xshash narsalarni o'zlashtirib oladi va ular yordamida o'zining cheklangan tajribasini son-sanoqsiz gaplar tuzish hamda ularni tushunish darajasiga kengaytiradi, degan fikrlarni bildirmoqdalar. Bugungi kunda lingvistikaning vazifalaridan biri - ushbu qobiliyat tabiatini va mexanizmini tushunishdan iboratdir. SHu narsa kundek ravshanki, sun'iy sharoitlarda til o'rgatilganida biz yanada cheklangan til tajribasiga va yanada kam sonli gaplarga duch kelamiz. Ayni paytda faqat ana shunday

qobiliyat, agarda u shakllantirilsa, bizning o'quvchimizga o'rganilayotgan tilda muloqot qilish, ya'ni ancha qo'p sonli gaplarni tuzish va ularni tushunish imkonini beradi.

Ona tili sintaksisini egallash, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarning qanday qilib (eng umumiy ko'rinishda) yuzaga kelayotganligini ko'rib chiqamiz. Bolaning birinchi so'zlari ko'pincha gapda kommunikativ kuchga ega bo'ladi, va mohiyatan, bir so'zli gaplar hisoblanadi. Ularda grammatik tizimning yetishmayotgan elementlari yig'ishtirib qo'yilgan, vaziyatdan kelib chiqib muloqot berilgan, va bunday gaplarning mazmuni vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. «Ona» -bu «Oyi, bering», va «Mana oyi», va «Mening qornim och» va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

Bu fakt bizga quyidagilar tufayli qiziqarlidir: birinchidan, bola so'zni shunchaki talaffuz qilmaydi, real nutqiy faoliyatda bunday bo'lmaydi. So'z (to'g'rirog'i, uni qo'llash) nutq jarayonining, kommunikatsiyaning bir qismi hisoblanadi, va so'z doimo nima uchundir (motiv) hamda nima sabablidir (maqsad) qo'llanadi. Ikkinchidan, bir so'zli gapni qo'llash bola nutqida, ayni paytda deyarli hamma bolalar nutqida tabiiy ravishda va uzoq vaqg davomida kuzatiladigan hodisadir.

2.Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish metodikasi.

Bolalar nutqi bir necha marta psixologlar va lingvistlar tomonidan tadqiq qilingan, ammo bu tadqiqotlarga ko'pincha talqin qilishdagi mazmuniy yondashuv yetishmagan: ularning barchasi shunchaki lug'at sonini va uning o'sishini sanash, bolalar so'zlarini «nutq qismlari bo'yicha» zerikarli tasniflashdan iborat bo'lib qolgan. Biroq, deya haqli ravishda yozadi D.Slobin, gap kattalar tilida qaysi nutq qismi u yoki bu so'zga kiritilishi mumkinligida emas, balki uning bolaning til tizimida qanday o'rin egallashi haqida bormoqda. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bola kattalar tilining kategoriyalar tizimiga amal qilmaydi, aksincha u o'zining «individual» til tizimining ichidagi vazifaviy xususiyatlariga asoslangan o'z so'zlar kategoriyasini yaratadi. Masalan, kattalar tilida ot kategoriyasiga taalluqli bo'lgan so'z bolalar gapida (va bolalarning til tizimida) fe'l vazifasini bajarishi mumkin. Ushbu hodisa bola bir so'zli gaplar bosqichidan ikki so'zli gaplarga o'tganida ta'sir qila boshlaydi, o'shanda grammatika shakllana boshlaydi, tilni tarmoqlantirish boshlanadi. Bola berilayotgan mazmunni ikki so'zni bir-biriga qo'shish orqali kengaytirish imkoniyati mavjudligini «sezib qolishi bilan» ikki so'zli

gaplar soni shiddat bilan o'sa boshlaydi. SHu o'rinda faqat bitta bola nutqiga oid ma'lumotlar bo'yicha ana shunday toifadagi gaplar sonining o'sishiga misol keltiramiz: 14, 24, 54, 89, 350, 1400, 2500.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bola gapda so'zlarni shunchaki tasodifiy tarzda bog'lamaydi va bu o'rinda gap ko'proq so'zning ikki vazifaviy sinflari mavjudligi haqida bormokda. Bu unchalik katta bo'lmagan va nisbatan yopiq bo'lgan «tayanch so'zlar» toifasi hamda ko'pchiligi bir so'zli gaplardan iborat bo'lgan keng, «ochiq» so'zlar toifalaridir. Ikki so'zli gap tuzish uchun «tayanch» sinfidan so'z tanlab olinadi (u xuddi gapning semantik asosi hisoblanadi), mazmun esa «ochiq» sinfdagi ikkinchi so'z hisobiga o'zgarib boradi. Masalan: «Yana kitoblar», «Yana sut», «Yana o'ynash».

Mazkur hodisa turli til toifalarida so'zlashayotgan bolalar nutqi rivojida kuzatilgan va u tilni tizimlashtirish, uni tarmoqlantirish boshlanganligidan dalolat beradi. Bolalarning fikr bildirishlari ham o'zgaradi, ularda ham turli tilli bolalar uchun umumiy bo'lgan toifalarni aniqlash mumkin. Mazkur masala ta'lim maqsadlari uchun qiziqarlidir: bolalar eng kam til vositalaridan foydalanganlari holda nimalar haqida so'zlamodalar? Lekin afsuski, bu borada juda kam narsalar ma'lum. Xususan, ma'lumki, bolalar asosan ob'ektlar nomlarini aytadilar hamda juda erta paydo bo'ladigan va universal hisoblangan «ega-kesim» kombinatsiyasidan foydalangan holda harakatlarni tavsiflaydilar. Bola juda yoshligidan qandaydir inkor shaklini qidira boshlaydi -shundan kelib chiqqan holda insonlarning kommunikatsiyasi uchun inkor kategoriyasining naqadar muhimligini bilish mumkin.

Bolalar nutqini tadqiq qilish jarayonida fikr bildirish semantikasining quyidagi turlari (ko'plab tillarda) ajratiladi: nom, joylashgan joyini aniqlash, iltimos-buyruq, voqea, vaziyatni tavsiflash, narsaning nimaga oidligini ko'rsatish, predmet sifatini aniqlash, predmet sifatini ifodalash, savol, inkor (ushbu barcha fikr bildirishlar bilan birgalikda), birlashtirish («Piyola bilan choynakni ko'rayapman»).

Bola ikki so'zli gap doirasidan chiqishi bilan uch va undan ortiq so'zlarni bir-biriga bog'lay boshlaydi, unga gaplar so'zlarni pala-partish ravishda terib tashlash yoki tasodifiy ravishda bir-biriga bog'lash orqali emas, balki muayyan tuzilmalarni birlashtirish orqali tuzilishi yanada tushunarli bo'lib boradi. Xuddi bolaning farqlanmaydigan tovushlarni

tashlab yuborgani holda tilning tovush tizimi borasida umumlashtirmalarni amalga oshirayotgani, yoki o'z ixtiyorida faqat mazmunga ta'sir qiladigan so'z o'zgartirish usullarini qoldirgani holda so'z o'zgartirishning morfologik tizimimni o'zlashtirib olishi kabi sintaksisni egallash jarayonida ham bola muayyan semantik munosabatlarni uzatuvchi sintaktik tuzilmalarni «aniqlaydi». Bolalar nutqini kuzatish, faqat gapning tuzilmaviy tarkibi o'rtasida qayd etiladigan fikr bildirishlardagi pauzani tahlil qilish, intonatsiya turlarini tahlil qilish va h.k. ana shu jarayondan dalolat bermokda.

Muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqadigan savol va inkorni ifodalash zarurati bolani tegishli til vositalarini qidirish zarurati oldida qoldiradi. Bu jarayon o'ta qiziqarli bo'lib, u bola keyinchalik voz kechadigan ko'p sonli oraliq grammatikalarni, tizimlarni yaratish orqali tilni o'rganishdagi faollikni yaqqol namoyish qiladi. O'zbek tilida savol gaplarning paydo bo'lishi o'zbek tilida so'zlashadigan bolalarning intonatsiyani o'zlashtirishlarida birdagina sur'atni oshirib yuboradi. Intonatsiya aniq qayd etilgan «savol signali»ga aylanadi.

Yuqorida bayon etilganlar til egalari bo'lmish kattalar ko'p sonli yangi fikr bildirishlar talqinini yaratishda foydalanadigan ayrim qoidalar tizimi mavjudligi haqida hamda bola aynan shunday tizimni egallashi to'g'risidagi taxminlarni juda asosli ekanini ko'rsatadi. Tilni rivojlantirish (parallel ravishda lug'at to'plash) mohiyati ham ana shunda.

A.R. Luriyaning haqli ravishda qayd etishicha, til qobiliyati ham, til faolligi ham birdaniga paydo bo'lmaganlar va ular ikki mustaqil hodisa hisoblanmaydilar. O'ylash mumkinki, tildagi «layoqatlilik»ning o'zi uni qo'llashni rivojlantirish natijasi hisoblanadi hamda borliqni faol aks ettirish va faol muloqotga kirishish jarayonida bolada tilni tushunish paydo bo'ladi.

«Tilning nasliy ildizlarini aniq insoniy hatti-harakatlarning tashqi borliqni aks ettirish va olamning sub'ektiv obrazini, bolaning atrofdagilar bilan asosiy muloqot usullarini shakllantirish amalga oshiriladigan shakllaridan qidirish lozim, deyish uchun asos bor»¹.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni. Bolalarning grammatikani o'zlashtirishlari masalasini ko'rib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

• Bola tayyor soʻz shakllari va ularning tayyor kombinatsiyalari bilan amallar bajarmaydi, balki ularni oʻzi tomonidan ochiladigan qoidalar tizimi asosida yaratadi.

• Qoidalarining mohiyati til tizimining elementini ongsiz ravishda ajratish va uning vazifalarini borliqni belgilashdan iborat qilib qoʻyishdadir.

• Qoidani shakllantirish asosida mazkur til hodisasining semantik, mazmun jihatdan ahamiyatlarini baholash jarayoni yotadi: bola diqqat-eʼtiborini faqat soʻz yoki gaplar mazmuniga qaratadi.

Semantik jihatdan ahamiyatlilik haqidagi axborot predmetli, oʻyin va til faoliyati chegaralaʼridan «topiladi».

Grammatik qurilishni shakllantirishga doir ishlar mazmuni va vazifalari

Maktabgacha taʼlim muassasasi, oila oldida - bolalarga toʻgʻri soʻzlashni oʻrgatish, yaʼni soʻzlardagi barcha tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, toʻgʻri grammatik shakllarni qoʻllashni oʻrgatish vazifasi turadi. SHundan kelib chiqadiki, oʻrgatuvchining (ota-onaning, tarbiyachining, oʻqituvchining) muhim vazifasi bolalar ona tilining barcha grammatik shakllarini iloji boricha oldinroq eshitishlari va asta-sekin ularning maʼnosiga tushunib borishlari haqida qaygʻurishdan iborat boʻlmogʻi darkor. Ona tilining grammatik ahamiyatlari maʼnosini tushunish - oʻsib borayotgan insonning aqli shakllanayotgani va rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Ushbu jarayon ongsiz ravishda amalga oshadi. Biroq, u sifatsiz oʻrgatish tufayli toʻxtab qolsa, bolaning aqlan rivojlanishi ham kechikadi. Ona tilining grammatik tuzilishini maktabgacha yoshda oʻzlashtirmagan bola keyinchalik yomon oʻqiydi, chunki u maktabda oʻrganilayotgan borliq hodisasining aloqa va munosabatlarini tushunishga ojizlik qiladi. Bu boradagi vazifalar quyidagilardan iborat:

«Fikr bildirishni grammatik rasmiylashtirishni oʻzlashtirishga yordamlashish: soʻzlarni oʻzgartirish (son, kelishik, zamon va h.k. boʻyicha), ularni turli tarkibdagi gaplarda kelishish, kichraytiruvchi-erkalovchi nomlarni, tugallangan va tugallanmagan koʻrinishdagi feʼllarni hosil qilish;

• Yangi soʻzlarni grammatik jihatdan oʻzgartirish va ularni gapda oʻxshashliyutari asosida kelishtirishga undash.

So'zlarni va ularning shakllarini mustaqil ravishda tuzish, so'z ijodkorligidan nomlar o'rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni tadqiq qilishning faqat bolalarga xos bo'lgan usuli sifatida foydalanish. Narsalar va hodisalar o'rtasidagi munosabatlar borasidagi o'z tushunchalarini gapning murakkablashtirilgan tuzilmasi orqali aks ettirish (oddiy yoyilmagan va yoyiq, bog'langan qo'shma gaplar va ergashgan qo'shma gaplar).

• So'z o'zgartirishning qiyin ko'rinishlarini o'zlashtirishga ko'maklashish (Bosh kelishik va qaratqich kelishikdagi ko'pliqdagi otlar, o'zgarmaydigan otlar, fe'dlarning buyruq mayli shakllari, fe'llarning tugallangan va tugallanmagan shakllarini hosil qilish).

• Fe'llar, otlar, sifatlardan so'z hosil qilish usullarini shakllantirish. Gaplar tuzilmasini takomillashtirish, gaplarning har xil turlarini -oddiy, murakkab, begonalar nutqi ishtirokidagi gaplarni faol o'zlashtirishda ko'maklashish.

• Grammatik vositalarni o'zlashtirish jarayonida nutqqa nisbatan tanqidiy munosabatni, to'g'ri so'zlashga intilishni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu vazifalar qanday dasturiy tarkibda hal etilishi mumkin, ya'ni ushbu bo'lim bo'yicha ishlarni tashkil etish uchun tarbiyachi qaysi so'zlar va grammatik shakllardan foydalanishi zarur.

Tarbiyachi grammatik, to'g'ri nutqni shakllantirishga doir ishlar mazmunini yaxshi bilishi, ayniqsa maxsus metodlar orqali beriladiganini yaxshi bilishi lozim.

Grammatik qatorni bola turli nutqiy faoliyat jarayonida mustaqil ravishda o'zlashtiradi. Uch yoshli bola tur, son, zamon, shaxs kabi grammatik kategoriyalardan foydalanadi hamda oddiy va qo'shma gaplarni qo'llaydi.

Bola sabab-oqibatli aloqalar, vaqgbay, muhit, miqdoriy va boshqa aloqalarni anglash bilan bir vaqgning o'zida ularni grammatik shakllarda va qurilmalarda (birlik va ko'plik son, ot kelishigi, fe'l zamonlari va turlari; orttirma zamonli murakkab gaplar, maqsad va h.k.) ifodalash usullarini o'zlashtiradi.

Bola grammatik vositalarning keng turini o'zlashtiradi. Masalan, «Nima yo'q» nomli didaktik o'yinida grammatik shakllardan foydalanadi: mo'yqalam, ruchka, qaychi va h.k.; «Sayyohatda» o'yinida o'ziga to'rt

oyoqli do'stlar tanlaydi: sichqoncha, qurbaqacha, tulkicha, kirpicha; qo'g'irchoq uchun nonushta uyushtirar ekan dasturxonga choynakni, qanddonni va tuzdonni qo'yadi hamda o'ylanib qoladi: qand uchun - qanddon, suxari uchun -suxaridonmi?

Bola tildan foydalangan holda uning xususiyatlarini o'rganadj, so'zlar va grammatik shakllar orqali u bilan sinovlar o'tkazadi. Bolalar aks ma'noli so'zlarning (antonimlar: katta-kichik, kuchli-zaif) o'zaro bog'liqligini, ma'no jihatidan bir-biriga yaqin so'zlarni (sinonimlar: kuchuk, kuchukcha, olapar), so'z yasovchi juftlikdagi so'zlarni (tulkida - tulkicha, kiyikda - kiyikcha) o'zlashtiradilar. Ko'p ma'noli nomlar bilan tanishadilar (qizchani qo'li, qo'g'irchoqning qo'li, o'quvchining ko'li, dazmolning ushlagichi, qutining ushlagichi, kistryulning qulog'i, bolaning oyog'i, stulning oyog'i, gulning oyog'i, qushning oyog'i).

Grammatik mazmunga ega bo'lgan dialogik o'yinlar, mashqlar va muammoli vaziyatlar - bolalar nutqining grammatik jihatdan to'g'riligini, ularning grammatik shakllar sohasidagi qidiruv faolligini rivojlantirishnikg zarur shartlari hisoblanadi. Bola so'z bilan sinov o'tkazar ekan, to'g'ri shaklni «ushlab ko'rgani» holda jaranglayotgan nutqni tinglaydi, so'zlarni erkin almashtirish, grammatik o'xshashliklarni anikdash, shakl va so'z yasash qoidalarini yaratishni o'rganadi. Muammoli nutqiy vaziyatlarda («yozma nutq» vaziyati, bunda bola hikoyani aytib turadi, katta yoshli odam esa yozib oladilar), birgalikda to'qish vaziyatqda, bunda katta yoshli gapni boshlaydi, bola esa nihoyasiga yetkazadi; «Jonli so'z» o'yinida gap tuzilmasini modellashtirish jarayonida bolalar turli tarkibdagi gaplarni tuzishni, nutqni erkin ravishda tuzatishni o'rganadilar.

Afsuski, hozirgi paytgacha bolaning amaliy bilimlarni o'zlashtirishda ortda qolayotganini qanday qilib barvaqg aniqlash mumkinligi haqidagi ko'rsatmalar (tavsiyalar) ishlab chiqilmagan. Biz bu ortda qolishni bola maktabda hattoki 1-sinf qursini o'zlashtirishga ham qodir emasligi ma'lum bo'lganida va endi biron narsani o'zgartirish qiyin bo'lgan bir paytda payqaymiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi grammatyk hatoliklar grammatik ahamiyatni o'zlashtirish jarayoni normal holatda davom etayotganligidan, bolaning o'z ona tylida grammatik ahamiyat mavjudlig'i haqidagi g'oyani o'zlashtirib olganidan va mazkur ahamiyatni u taqlid

qiladigan grammatik shakllar namunalarini taqdim etadigan tarbiyachilar (ota-onalar)ning pedagogik qobiliyatidan kelib chiqqan holda egallab olayotganidan dalolat beradi. Nutqda grammatik shakllarni tushunish (intuitiv) sari o'z vaqgida yo'naltirilgan bola esa bunday xatoliklarga yo'l qo'ymaydi, chunki ko'pincha u jim o'tiradi.

SHuningdek, bolalar nutqidagi qator grammatik xatoliklarning mavjudligi bolalarning o'zlari qo'llayotgan grammatik shakllar ma'nosini tushunishlari, ammo hali ularni nutkda qanday qilib qo'llashni esda saqlab qolmaganliklari - ya'ni, nutqiy me'yorlarni o'zlashtirib olmaganliklaridan dalolat beradi.

So'z yasashdagi grammatik xatoliklar. Bolalar «o'z» so'zlarini o'zlari o'zlashtirib ulgurgan so'zlarga o'xshatib hosil qiladilar. Bunga hayotdan misollarni juda ko'plab keltirish mumkin: chunki, normal rivojlanayotgan har qanday bola o'z so'zlarini «ijod qiladi».

Kattalar bolalarning ushbu yangi hosil qilgan so'zlarining grammatik ma'nosini oson tushunadilar, chunki bu yerda ma'no jihatidan grammatik xatoliklar yo'q: old qo'shimchalar, suffikslar mutlaqo tushungan holda qo'llanmoqda, ulardagi ma'no to'g'ri; bu o'rinidagi xatolik shundan iboratki, bolalar ushbu affikslarning adabiy nutqda qaysi o'zak morfemalari bilan qo'llanishyni hali eslay olmaydilar.

So'z o'zgartirivddagi grammatik xatoliklar. Bolalar nutqdagi so'zni odatda, turlash yoki kelishtirishning mahsuldor turi asosida o'zgartiradilar, samarasiz turni ular odatda, kechroq o'zlashtiradilar, agarda bu borada ularga yordam berilmasa, so'z o'zgartirishdagi xatoliklar makgabgacha yoshda «umr ko'radi», maktabda esa ularni tuzatish ancha qiyin kechadi.

So'z o'zgartirishning samarasiz turiga kichik so'zlar guruhi, ya'ni yemoq, yurmoq, o'smoq kabi fe'llar (ularning har biri alohida tuslanish guruhini tashkil qiladi), nom, ism kabi har xil turlanadigan otlar (10 ta so'z) va boshqalar kiradi, biroq bu so'zlar nutqda uchraydi, shuning uchun ularning xato o'zgartirilganligini doimo payqash mumkin.

Bolalar odatda, nutqda fe'lning sifatdosh oborotlari va ravishdosh shakllaridan foydalanishni bilmaydilar, chunki ular buni kattalar nutqida juda kam eshitadilar: kattalar bolalarning tushunmay qolishlarvdan qo'rqib bunday grammatik shakllarni iloji boricha kam qo'llashga intiladilar, oqibatda, bolalar maktabda uni o'zlashtirishga tayyor

bo'lmaydilar. Natijada bolalar nutqi grammatik jihatdan birlashtirilgan nutq bo'lib qoladi.

Tarbiyachi (va ota-ona) bolalarning shevaga oid nuqsonlariga ham e'tiborni qaratishi zarur. Qayd etish lozimki, bolalar nutqida sheva bilan bog'liq nuqsonlarni bartaraf etish ancha qiyin, chunki bola uyda, ba'zan Makgabgacha ta'lim muassasasida ham doimo kattalarning shevaga xos nutqini eshitadi.

4. Barcha yosh guruhlarida so'z o'zgartirishni shakllantirish metodlari va usullari. Grammatikaga oid mashqlar bir vaqning o'zida bolalarning leksika va fonetika bo'yicha o'zlashtirib olgan materiallarini mustahkamlashga doir mashqlar ham hisoblanadi. Bolalarning eng oz miqtsordagi so'zlar va tovushlarni artikulyatsiya qilish hamda gap intonatsiyasini modellashtirish qobiliyatini oldindan o'zlashtirib olmaslaridan turib grammatik mashqlarni bajarishlari mumkin emas.

Uch-to'rt yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Tarbiyachining asosiy vazifasi shundan iboratki, u bolalarga iborali nutqdan amalda foydalanishni o'rgatishi, ya'ni nutqda asosiy grammatik kategoriyalarni to'g'ri qo'llash, so'zni soni, kelishigi, shaxsi, zamoniga qarab amalda o'zgartirishni o'rgatishi lozim.

Grammatik qator ustidagi ishlarni otlar bilan tanishuvdan boshlagan ma'qul, chunki, otlar nutqimizning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Bundan tashqari, otlarni o'zgartirish orqali nutqning boshqa qismlari ham, ya'ni: sifatlar - kelishiklar, turlar va sonlar bo'yicha; o'tgan zamondagi sifatlar va fe'llar - turlari va soni bo'yicha o'zgaradi.

Otlarni o'zgartirish ishlarini tushum kelishigidan boshlash lozim. Buning uchun uni bosh kelishik bilan taqqoslash, so'ngra eng aniq va imkonli kelishiklar sifatida jo'nalish va birgalik kelishiklarini o'rganish zarur, shundan keyingina bolalarga qaratqich va old ko'makchili kelishiklarning ayrim ma'nolarini, ushbu kelishiklar hamda Qaerga? Qaerdan? kabi farklovchi savollar asosida hosil qilingan old ko'makchili tuzilmalarni tanishtirish lozim.

Ayniqsa old ko'makchi ustidagi ishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Old ko'makchili tuzilmalar bilvosita kelishiklarning asosiy shakllari bilan bog'likdir, shuning uchun old ko'makchilar bilan amaliy tanishuvni kelishiklarni qo'llash bilan birlashtirgan ma'qul. Birinchi navbatda bolalardan, ostida-ustida kabi ko'makchilar o'rtasidagi farqlarni tushunib

olishlari zarur. Ushbu tushunchalarni mustahkamlash uchun harakat va nutqni taqqoslash juda muhimdir.

Bolalarga nutqqa old ko'makchilardan foydalanishni o'rgatishda old ko'makchi va o'zgartiriladigan qo'shimchani ohang bilan ajratib ko'rsatish muhimdir: stol ustida, stol tagada yotibdi, stoldan olib tashladi va h.k.

Bu vaqgga kelib bolalar «bitta», «ko'p» so'zlarini farqlay olishlari lozim. Turli narsalarni tanlab olganlari holda ular «bir», «bizning» so'zlarini mazkur predmetlar bilan kelishtirishni o'rganadilar.

Uchinchi yilning boshiga kelib, bola muayyan darajada fe'l leksikasini, ya'ni: noaniq shakldagi ichmoq, bermoq fe'llarini va bor, ber, olib kel, yuv kabi buyruq maylidagi ayrim fe'llarni o'zlashtirib oladi.

Bolalarga o'tgan zamon fe'lini tanishtirishni ular otlarning kelishik shakllarini o'zlashtirib olganlaridan so'ng amalga oshirish zarur. O'tgan zamon fe'llari oson o'zlashtiriladi va u bolalarning faol lug'ati tarkibiga kiradi. O'tgan zamon fe'llari materiallari asosida bolalar nutqiga fe'lni o'zgartirishning tur va son shakllari oson kiritiladi: yuvdi; yuvdik; chizdi, chizdik. So'ngra «bo'laman» fe'li bilan bola kelasi zamon shaklini o'zlashtirib oladi. Oddiy kelasi zamon fe'llari shakllari to'rt yoshlarga kelib bola nutqida paydo bo'ladi.

Bolalar nutqiga turli xildagi fe'llarni kiritishni «harakat - nutq» usulidan foydalangan holda fe'l ustki old qo'shimchalarni kuzatish ishlari bilan birgalikda amalga oshirgan ma'qul. Bundan tashqari, bola muayyan surat yoki harakatga yo'nalgani holda old qo'shimcha fe'lga olib kirayotgan (ketdi, kirdi, yaqinlashdi, chiqtsi) ma'no qirrasini anglab olishi mumkin. Bolalar old qo'shimcha ma'nosini o'zlashtirib olganlaridan keyin uni old ko'makchi bilan taqqoslash mumkin (...ga kirdi,dan kirdi, ...dan chikdi va h.k.)-

Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishga doir maxsus mashg'ulotlarda tarbiyachiga o'yinchoqlar, narsalar, kiyimlar, poyabzal, idish-tovoqlar, oziq-ovqatlar va boshq, syujetli o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalar o'ynaganlari holda atrofdagi kattalar faoliyatiga taklid qiladilar. Tuzilayotgan gapni rang-barang qilish uchun o'yin syujetini o'zgartirish - yangi o'yin personajlarini kiritish, bolaga yo'naltiruvchi savollar berish va shu bilan uni muayyan iboralar bilan javob berishga o'rgatish zarur.

Namoyish qilinayotgan harakatlar bo'yicha «bilan» old ko'makchisi ishtirokidagi tuzilmalarni kiritish qulaydir: ayiqcha bilan, kuchukcha bilan o'ynadi; quyoncha bilan, oyisi bilan, Samat bilan gaplashdi.

Namoyish etilayotgan harakatlar bo'yicha tuzilayotgan butun gapni bolalar albatta o'zlari aytib ko'radilar. Agarda bola gapda xatolikka yo'l qo'ysa, tarbiyachi uni tuzatishi va gapni yana bir bor takrorlashi lozim.

Bolalarga iboralarni tegishli grammatik shakl bilan rasmiylashtirishni o'rgatishni o'yinli vaziyatlar asosida ham amalga oshirish mumkin. O'yinli usullardan bolalar bilan grammatik tuzilmalarni qo'llash borasidagi suhbat sifatida barcha kelishik shakllarini mustahkamlashda foydalāniladi.

Bolalarga old ko'makchilarni qo'llashni o'rgatishga doir mashg'ulotlarda predmetlarning kengliqdagi munosabatlarini albatta ko'rsatish shart. Buning uchun kubiklar, piramidalar, kitoblar va boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, uycha qurilishini ko'rsatib beruvchi harakatlarni quyidagi so'zlarni aytgan holda amalga oshirish zarur: «Kubikning ustiga kubik qo'yamiz, devor hosil bo'ldi. Devor ortida stolcha turibdi» (bu o'rinda devor ortidagi narsa harakatini ko'rsatish zarur). Stolcha atrofida quyoncha va ayiqcha o'tirishibdi. Stol ustida piyolalar bor, stol tagida esa taburetka turibdi». Stol ustidagi va tagidagi narsalar holatini albatta ko'rsatish zarur, shundagina bola narsalarga oid so'z birikmalarini oson o'zlashtirib oladi.

Maxsus grammatik mashqlarni suratlardan foydalangan holda amalga oshirish lozim. Ularni sinchiklab ko'rib chiqqandan va savollarga bir so'zli javob berilganidan so'ng to'liq bilvosita qo'shimchani tuzish va aytib ko'rishga o'tish darkor, chunki, ularga fe'lga bog'liq so'zni rasmiylashtirish ancha qiyin kechadi. Masalan, Alisher Barno bilan koptok o'ynayapti. Qizcha choynagi bilan gullarni sug'ormokda.

Bitta surat syujeti asosida savollar berish va bolaning unga javob qaytarishi savol-javob tusidagi qiziqarli mashg'ulotlardan biri hisoblanadi. Masalan, «Bola qo'lini yuvmoqda» surati asosida qator savollar berish mumkin:

«Xurshid, Timur, Alisher nima qilishayapti?», «Alisher nimani yuvmoqtsa?», «Biz qo'limizni nima bilan yuvamiz?», «Kimning qo'li toza?» va h.k.

Bola hayotining to'rtinchi yilida unga bir tarkibli gaplar tuzishni o'rgatish, shuningdek uning nutqiga umumlashtiruvchi tushunchalarni kiritishga katta e'tibor beriladi. Mashg'ulotlarda suratlar asosida, tayanch so'zlar yordamida, namoyish etilayotgan harakatlar asosida, gapning yetishmayotgan qismlarini to'ldirish asosida gap tuzish kabi turli xil ishlarni amalga oshirish zarur.

Bir tarkibli aniqlovchilar bilan gap tuzishga doir ishlarni bolalar bilan «Bu nima, toping-chi?» o'yinini uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin. Bola ajralib turuvchi belgilariga qarab narsa nomini aytishi zarur, masalan: «dumaloq, sersuv, sariq, shirin, dumi bor, foydali» - sholg'om. Yoki: - «katta, dumalok, ko'k, rezinali» - koptok.

Bir tarkibli kesimli gaplarni tuzish uchun «Esla va ayb» o'yinidan foydalanish mumkin. Tarbiyachi bolaga topshiriqni hech kim eshitmaydigan qilib aytadi. Bola topshiriqni izchil ravishda bajara boshlaydi, bolalar esa u nima qilayotganini aytib beradilar: «Abduazim qaychini oldi, qizil va ko'k qog'ozlardan bo'laklar kesib olib, ularni Zuhra va Farruhga berdi».

Nutqni rivojlantirishga doir mashqlar - ya'ni, nutqiy grammatik modellarni mustahkamlashga doir mashqlar boshqa ishlar bilan, masalan kitob o'qish bilan birgalikda bajarilishi mumkin. Kichik asarlarni o'qish o'qilayotgan matnga mos o'yinlar va harakatlar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Trammatik mashqlar o'yin, sayr soatlarida, navbatchilik paytida bajarilishi lozim, shunda kichkintoylarning nutqiy mahoratlari yanada ortadi.

Umuman olganda, bolaning maktabgacha ta'lim muassasasidagi butun faoliyati uning diqqat-e'tibori, xotirasi, fikrlash doirasini rivojlantirishga, uning nutqini takomillashtirishga xizmat qilishi lozim.

Besh-olti yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Bu yoshga kelib bola quyidagi asosiy grammatik shakllarni o'zlashtirib olishi mumkin va shart: birlik va ko'plik sondagi otlarning old ko'makchikelishik shakli, ko'p sonli sifatlarni kelishiklar, sonlar bo'yicha o'zgartirish, fe'l shakllari, ravishlarni to'g'ri qo'llash. Besh yoshda bola o'z nutqida garchi ayrim gap turlari uning uchun hali ancha qiyin bo'lsa ham, qo'shma gaplardan foydalanadi. Old ko'makchilar va bog'lovchilar turli xil ma'nolarda qo'llaniladi. Ko'proq umumlashtiruvchi so'zlar qo'llay

boshlanadi: mebel, ovqat, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar, transport. Umuman bolaning so'z zahirasi ortib borgani sayin uning nutqi ravon va izchil bo'lib boradi. Besh yoshli bolalar tuzayotgan gaplarda ular o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan hodisalarning (ertaga, kechasi, yakshanba va h.k.) sabab-oqibatli munosabatlarini ifodalaydilar.

Dasturga muvofiq tarbiyachi besh yoshli bolalarga nutq asosiy qismlarining grammatik shakllarini to'g'ri qo'llashni o'rgatishga doir ishlarni davom ettirishi lozim.

Bolalarga o'z nutqida vaqgli, maqsadli va sababli sintaktik munosabatlarni (Qachon? Qaysi maqsadda? Qaysi maqsad uchun? Nima uchun? Nega? kabi savollarga javob berish) ifodalashni o'rgatish zarur. Tarbiyachi nutqqa qator old qo'pshimchali fe'llarni kiritadi, ayni paytda Nima qilding? Nimani qilib bo'lding? (chizdim-chizib tugatdim, yuvdim - yuvib bo'ldim va h.k.) savollariga javob beruvchi fe'llar; savolga qarab asosi o'zgaradigan fe'llar (Nima qilayapman, Nimani qilib tutataman?: qurib tugataman - qurib tugatayapman, sakrayman - sakrayapman); kelgusi oddiy va kelgusi murakkab zamonli, -di qo'shimchali va usiz shakldagi fe'llar («Men o'ynamoqchiman» - «Men o'ynayapman», «U kiyinmoqchi», «U kiyinadi»); bahoni (yaxshi-yomon, ifodali, tez, sekin, past, baland); vaqgni (bugun, qishda, yozda va boshq.); joyni (bu yerda, anavi yerda, shu yerda, o'ngda, chapda, balandtsa, pastda, anavi tomonga) belgilovchi eng ko'p tarqalgan ravishlar; gapda so'zlarni bog'lash va gaplarni bog'lash uchun foydalaniladigan to'qima bog'lovchilar (va, esa, ammo, biroq); gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladigan bo'ysundiruvchi bog'lovchilar (uchun, chunki, agar, qachonki, zero) ustidan birlamchi kuzatishni amalga oshiradi.

Hayotining beshinchi-oltinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish maishiy muloqot jarayonida va ayni paytda predmetli mashg'ulotlarda maxsus nutqiy mashqlarni o'tkazishda, suratlar bilan ishlashda ro'y beradi. Mashg'ulotlar uchun taklif etilgan didaktik material zamon kategoriyalari, sonlar, shaxslar, fe'llarni o'zlashtirishga, nutqtsa tugallangan va tugallanmagan ko'rinishdagi fe'llarni amalda qo'llashga yordam berishi zarur. Bolalarni amalga oshirilayotgan va amalga oshirib bo'lingan harakatlarni farqlashga o'rgatish uchun ularga tanish vaziyat bilan bog'liq holda aniq xususiyat baxsh etish lozim.

Gap tuzishda «bugun», «hozir», «endi» ravishlarini hozirgi zamon fe'li bilan, «kecha», «anchadan buyon», «yaqinda» ravishlarini o'tgan zamon fe'li bilan bog'lash muhimdir.

Maxsus mashqlarda bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gaplardan iborat bo'lgan qo'shma gaplar tuzishga doir ishlar sezilarli ahamiyat kasb etishi darkor. Buning uchun savol-javob shaklidan foydalangan ma'qul. Dastlab bola qo'shma gapning faqat ikkinchi qismini (aslida qo'yilgan savolga javob ham shu) aytadi, keyinchalik esa undan qo'shma gapni butunicha aytishini talab qilish zarur. Ko'pincha bolalar aynan ergash gaplarni qo'llashda xatoga yo'l qo'yadi.

Qo'shma gaplarni tuzishga doir mashg'ulotlar turlicha o'tkazilishi mumkin: suratlar bilan: syujeti bir-biriga yaqin bo'lgan ikki surat tanlab olinadi: uning birida o'rin-qo'rpasini yozayotgan qizcha, ikkinchisida esa - uxlayotgan qizcha tasvirlangan. Tarbiyachi rahbarligida bola gap tuzadi: «Guli endigina joy solayapti, Lola bo'lsa uxlab qoldi».

Gap tuzish «Nima oldin, nima keyin?», «Hammasi teskari», «Xatosini top» kabi o'yinlar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Ushbu o'yinlarni o'tkazishda bolalar «va» biriktiruvchi bog'lovchisi va «yoki» ajratuvchi bog'lovchisi yordamida gap tuzadilar.

Nima uchun? Nega? savollariga javob beruvchi gaplarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday gaplarni tuzish uchun o'yinchoklardan, suratlar turkumidan foydalanish, syujetli-rolli o'yinlarni tashkil qilish mumkin. Bu borada «Telefon» o'yini katta imkoniyatlar yaratadi - bolalar o'zlarining «telefon» suhbatlarini xikoya qilishda qo'shma gap tuzishlari shart: «Barno unga qo'g'irchoqni keltirishimni iltimos qildi»,

Qo'shma gaplarni tuzishga doir ishlar sayrda, tabiat bilan tanishuvda, rasm chizish, musiqa mashg'ulotlarida davom etgarilishi lozim. Ortshrilgan nutqiy ko'nikmalar sahnalashtirish, didaktik va harakatli o'yinlarni o'tkazishda mustahkamlanadi.

Hayotning yettinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. Yetgi yoshga kelib, bola odatda, nutqning barcha grammatik shakllarini, ya'ni: otlarni turlash, eng keng qo'llaniladigan fe'llarni tushlashni egallashi lozim. Harakat belgisini (kenglik, vaqt, harakat obrazi) tavsiflash uchun ular ravishlardan foydalanadilar, buning uchun bolalar ularni so'z birikmasi va gap qatorida qo'llaydilar: tez yurdi, sekin gapirdi, chapga burildi va boshq.

Etgi yoshli bolalar nutqida old ko'makchilar ko'pincha nafaqat o'z ma'nosida, balki noaniq tarzda ham qo'llaniladi. SHunisi diqqatga sazovorki, old ko'makchilar dastlab kenglik ma'nosi ko'rsatkichi sifatida to'rt-besh yoshli bolalar nutqida paydo bo'ladi (uydan, devordan uzoqlashdi); so'ngra besh-olti yoshli bolalar ushbu old ko'makchini ob'ektiv ma'no ko'rsatkichi sifatida ham qo'llaydilar (onamning sovg'asi, dadamning xati) va faqat, keyinroq, yetti-sakkiz yoshlarga kelib, bola yeabab ma'nosini ifodalash uchun «dan» old ko'makchisidan foydalanishi mumkin (qo'rqqanidan qichqirib yubordi, og'riqning' zo'ridan yig'lab yubordi).

Etti yoshga kelib, odatda, nutqning singaktik qatori shakllanadi: bola oddiy gaplarni, bir xil a'zoli gaplarni to'g'ri tuzadi, bunda u biriktiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi bog'lovchilarni qo'llaydi; u o'z nutqida qo'shma gaplardan, ko'pincha esa turli xil sintakgik munosabatlarni ifodalovchi ergashgan qo'shma gaplardan foydalanadi: qo'shimcha gaplar - «Kamol nima ko'rganligimizni so'radi»; maqsadli gaplar - «Biz oziq-ovqat xarid qilish uchun do'konga ketayapmiz»; shartli gaplar - «Agar yomg'ir yog'masa, biz sayr qilgani chiqamiz» va boshq.

O'z taassurotlari haqida hikoya qilar ekan, olti yoshli bola ravon monologik nutq shaklidan foydalanishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasining tayyorlov guruhida grammatik rasmiylashtirilgan nutqni rivojlantirish borasidagi ishlar asosiy o'rinni egallashi lozim. Xuddi oldingi yillardagi kabi, u maxsus mashg'ulotlarda va boshqa faoliyat turlari bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Aynan bir fikrni turli vositalar yordamida rasmiylashtirish maktabga tayyorlash guruhidaga bolalarda grammatik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga doir ishlarning asosiy turi bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar o'yin-qulgi qilayotgan syujetli suratni tahlil qilishda qator g'aplarni tuzish mumkin: «Bolalar quvonchdan sakrab yuborishdi», «Xursand bo'lib, bolalar osmonga sakradilar»; «Bolalar sakrab yuborishdi, chunki ular xursand edilar». Aynan bir mavzuda turlicha gaplar tuzishga doir bunday ishlar maktabgacha yoshdagi bolalarga bitta fikrni turlicha ifodalash imkonini beradi. Mashg'ulotlarda tarbiyachi ataylab bolalarga bir-birining o'rnini bosishi mumkin bo'lgan gaplar tuzishni o'rgatadi.

Aynan bir mavzuga oid gaplar variantlarini yaratish uchun didaktik o'yinlar, syujetli rasmlar, badiiy matnlardan foydalanish mumkin. Aynan

bitta fikrni ifodalash uchun turlicha gaplar tuzishga oid ishlar yetti yoshli bolalarda grammatik to'g'ri nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy o'rinni egallashi lozim.

Bu yoshdagi bolalarga nutqqa sifatdoshlarni qo'llashni o'rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlarning ikkinchi yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Bolalar nutqiga sifatdosh shakllarni kiritish uchun bolalar, kattalar, hayvonlar, qushlarning turli harakatlarini tasvirlovchi suratlardan foydalanish mumkin (o'qiyotgan bola, raqs tushayotgan qiz, yugurayotgan quyon va h.k.).

Bolalar surat asosida gap tuzadilar: «Bola o'qiyapti», Tarbiyachi o'qiyotgan bola so'z birikmasini tuzishga yordam beradi. Tarbiyachi so'z birikmasidagi sifatdoshni aytadi, so'ngra bolalardan so'raydi: «Qaysi bola?» - «O'qiyotgan bola».

Mashg'ulot uchun eng qo'p qo'llaniladigan fe'llarni olish va ulardan hozirgi zamondagi haqiqiy sifatdoshlarni hosil qilish darkor. Bolalarga hech qanday atamalar ma'lum qilinmasligiga kerak, bunda ularning ayrim sifatdoshlarni esda saklab qolishlari va zarur bo'lganda ularni o'z nutqiga qo'sha olishlari juda muhimdir.

Bolalarning sifatdoshlarni qo'llashlariga oid ishlar tabiatni kuzatish chog'ida, rasm chizish mashg'ulotlarida, badiiy adabiyotni o'qish jarayonida o'tkazilishi mumkin. Bunda quyidaga usullardan foydalanish mumkin:

- Predmetni, uning belgilarini ko'rsatish va nomini aytishni ularning mohiyatini ochib beradigan izohlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Masalan, tushayotgan barg so'z birikmasida - bu tushayotgan bargdir. Bolalarga tanishtiriladigan sifatdoshlarni yaxshisi, oldin alohida-alohida, keyin jo'r bo'lib aytgan ma'qul.

- muayyan so'zning hosil bo'lishini tushuntirib berish: «chizayotg'an» so'zi chizmoq so'zidan, «raqsga tushayotgan» so'zi raqsga tushmoq so'zidan.

- Sifatdoshga savollar qo'yish: «Dala qanday, sarg'ayayaptimi?» - «Sarg'ayayapti».

- Ot va sifatdoshdan iborat bo'lgan so'z birikmasi asosida gap tuzish: sarg'ayayotgan barglar - «Olmaning sarg'ayayotgan barglariko'rinib

turibdi»; g'irillayotgan samolyot- «g'irillayotgan samolyot shahar ustidan uchib o'tdi» va h.k.

• Agarda o'qilayotgan asar matnida sifatdosh uchrasa, bolalarning uni hikoya qilib berishida mazkur sifatdoshni unga taalluqli bo'lgan otlar bilan birgalikda qo'llashlariga, tarbiyachi savol berganida esa ushbu sifatdosh hosil bo'lgan fe'l nomini ayta olishlariga e'tibor berish juda muhimdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga mustaqil hikoya-tavsiflar (o'yinlar, narsalar bo'yicha) yoki syujetli suratlar turkumi asosida hikoyalar tuzishni o'rgatish maqsadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni o'tkazishda tarbiyachi bolalarning o'zlariga ma'lum bo'lgan barcha grammatik shakllarni qo'llashlariga erishishi lozim: otlarning kelishik shakli va sifatlar, sifatlar to'liq va qisqa shaklda, sifatarni taqqoslash darajalari (yuqori, baland, eng baland); fe'llarning tuslanadigan shakllari; eng keng tarqalgan ravishlar (o'ngga, chapga, oldinga, orqaga, bu yerda, anavi yerda, yuqorida, pastda, yaxshi, tez), hozirgi zamon haqiqiy sifatdoshlari; old ko'makchilar va bog'lovchilar.

Bolalar nutqining sintaktik qatorini rivojlantirar ekan, tarbiyachi bolalarning oddiy gaplarni, bir xil a'zoli, gaplarni tuzish, qo'shma gaplarni to'g'ri tuzishlariga e'tiborni qaratishi lozim. Faqat yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha grammatik shakllarni o'zlashtirgan takdirdagina bola maktabda o'qishga yaxshi tayyorlangan bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishini shakllantirish mazmuni haqida so'zlab bering.
2. Bolalarning nutqining asosiy qismini qanday gaplar tashkil qiladi?
3. Grammatik ko'nikmalarni shakllantirishning qanday usullari mavjud?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirishda qanday mashq va o'yinlardan foydalanish mumkin?
5. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish qanday ishlarni o'z ichiga oladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'qitirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'rayev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'qitirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'qitirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

15-§: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AQLIY TARBIYA BERISH METODIKASI

REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning maqsad va vazifalari

2. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli.

3. Mashg'ulotlarda aqliy tarbiyalash yo'llari

Tayanch tushunchalar: didaktik o'yinlar, jozibali munosabat, elementar tushuncha, o'simlik va hayvonot olami, atrofdagi olam, ekskursiya, klassifikatsiya, rang, shakl, kattalik.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning maqsad va vazifalari. Aqliy tarbiya – shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasnif-lash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko'nikmalar, ya'ni har qanday fanni o'rganishda qo'llaniladigan umumiy o'quv ko'nikmalari –o'qish, tinglash, o'z fikrini og'zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishlash, mustaqil ishlash malakalarini shuningdek biror fanni egallash bo'yicha zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalar (chizma, haritalarni o'qiy bilish, ularning natijalarini chiqara olish)ni egallashdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ya'ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham Aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Bunda bolalar hayotining dastlabki yilidayoq atrofni o'rab turgan barcha narsalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Aqliy tarbiya ta'lim, o'yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda ro'y beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rah- barligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda

bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga, ya'ni biz ta'lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuz- di. Y.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta'lim-tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katta e'tibor bergan.

Aqliy kamolot - bu yoshning o'sib tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta'sirida bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi.

Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim yoshdagi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiyLashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, ba'zi sifatleri ba'zi xossalari haqida, qaysi materialdan

tayyorianganligi to'g'risida aniq tassawurga ega bo'lishi kerak. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'iqligi va qonuniyatlarini bilib oladi. Jonsiz tabiat o'simliklar, hayvonlarni kuzatish jarayonida bolalarda borliq to'g'risidagi tasawurlar shakllanib boradi.

2. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok xotira, xayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Aqliy malaka va ko'nimalarni rivojlantirish. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirishni ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarini ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma-malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarini chuqur egallab olishga yordam beradi.

4. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarini aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko'nikmalarini, kitob bilan ishlash ko'nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog'liqdir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligida ko'rish mumkin.

2. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli. Mustaqillik davrining o'ziga xos xususiyati maktab ta'limi mazmuni doimo takomillashtirib borishidir. Zamonaviy maktab 1-sinfga keluvchi o'quvchidan qandaydir maxsus bilim va ko'nikmalarni emas, balki ilgari yillarga nisbatan aqliy faoliyatining murakkabroq shakllarini, axloqiy-irodaviy sifatlarning yuksakroq rivojlangan darajasini, o'z hatti-harakatini boshqarish qobiliyatini talab qiladi. MTM ning vazifasi ta'lim-tarbiyaviy ishning butun tizimi bilan bolalarda zamonaviy maktab ta'limi

o'qishga to'laroq muvofiq keluvchi maktabga o'qishga tayyorlikni tarkib toptirishdir.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan MTM da tarbiyaviy ishni maktab yoshdagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan; ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Bolalarni bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlamshda manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni maktabga tayyorlash la aqliy tarbiyaning o'rni katta. Bilimlar zaxirasini kengaytirish aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, maktabda yaxshi o'qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir.

Bola 6-7 yoshdan maktabga o'tishi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bo'lishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilim tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shaqllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi.

Hech kimga sir emaski, respublikada bolalami maktabgacha ta'lim-tarbiya tashkilotlariga jalb etish 37 foizni tashkil qiladi. Bunday sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan 63 foiz bola bilan yuqorida ko'rsatilgan 37 foiz bolaning rivojlanish darajasi o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelmoqda. Bunday no- mutanosiblik, bolalar maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlab ulaming rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yengillashga aloqida e'tibor berilmoqda. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari taqdim etilmoqda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim-tarbiya tashkilotlariga jalb etilmagan 3

milliondan ortiq bolani ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim tizimini'ig ilk turi - maktabgacha ta'limga o'ziga xos yondashuvni talab etar edi.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda otana zimmasiga uning sog'lom, aqlli, iaish xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yildi.

Bu ko'nikma, malakalar bilish faoliyatini tarkibiy qismlarga bo'lib, bola bilimlami chuqur egallab olishiga yordam beradi.

1. Mashg'ulotlarda aqliy tarbiya usullari. Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish *birinchi* navbatda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni, *ikkinchi* tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'rayish bo'lmasligi kerak, degan fikmi ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng mashg'ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlami egallab olishi, aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarni egallab olishi maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun, bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib, xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Bola tevarak-atrofdagi narsalar, fanning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

2. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlamini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini,

sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

2. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmotlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O'simlik va hayvonlar bilan tanishish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar o'simlik, yosh hayvonlar to'g'risidagi ma'lum bir tasawurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma, malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin. Bular quyidagilar:

«Sen ta'rifla, men topaman».

Didaktik vazifa - Kattalarning savollariga narsaning xarakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish.

O'yin harakati - Kattalarga topishmoqni aytish.

O'yin qoidasi - Ta'riflanayotgan narsaning nomini aytish mumkin emas.

Tarbiyachining savollariga aniq va to'g'ri javob berish.

Jihozlash - Sabzavot va mevalarni stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi stulini o'simliklar ko'rinmaydigan qilib qo'yiladi.

O'yinning borishi - Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang. Men sizdan uning qandayligini so'rayman. Siz javob berasiz. Faqat uning nomini aytmang. Sizlarning javoblaringizdan men uni topishga harakat qilaman, deydi. Keyin tartib bilan tarbiyachi savol beradi: «Shakli qanday?, hamma tomoni shardek dumaloqmi?, chuqurchasi bormi?, rangi qanday?» va boshqa.

Bolalar savollargato'la javob berishadi. Bolalar narsaning xarakterli belgilari haqida gapirib berganlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi.

Mashg'ulotda, o'yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mehnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrofdagi olamning turli-tumanligini, chiroyini ko'rsatadi, o'simlikning turli xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o'simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakllantiradi. Bolalarning jozibali munosabati tarbiyachining hikoyasidan faolroq o'zlashtirib olishga imkon beradi. Mashg'ulotlarda, didaktik o'yinlarda qo'yilgan vazifani hal

etishda bola buyum va hodisalarning ayrim xususiyatlarini ajratishga, solishtirishga, umi miy xususiyatlarga, belgilariga qarab guruhlarga ajratishga, klassifikatsiya etishga o'rganadilar. Bolalar fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga o'rganadi, bolalar diqqati, xotirasi va ixtiyoriy idroki rivojlanadi. Mashg'ulotni, o'yin vazifasini hal etishda bola o'zining xatti-harakatini tushuntiradi. Bu esa nutqining o'sishiga yordam beradi. Mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar davomida turli maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p marotaba takrorlash orqali Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya dasturiga xos bilimlar majmuini o'zlashtiradilar. Tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlarni tanlashda tarbiyachi o'yinning mazmuni atrof-muhitdagi, tabiatdagi o'zgarishlarga mosligini unutmash lozim.

Masalan: «Urug' sotib olish» o'yini bahorda, «Hosil yig'ishtirish» esa yoz yoki kuzda o'tkazilishi kerak. Tarbiyachining o'zi ham mashg'ulot, o'yinning turlicha variantlarini o'ylashi mumkin: o'yinga, mashg'ulotga qo'shimcha vazifa, yangi rol, bolalarning atrof-olam haqidagi bilimlarini boyitish va boshqalar. Ba'zi bir didaktik o'yinlarni turli variantda, turli yoshdagi bolalar uchun tavsiya etiladi. O'yinlar o'simliklar, hayvonlar yoki boshqa predmetlarning soni oshishi, turlicha qoida va o'yin harakatlarining oshishi hisobiga murakkablashadi. Masalan: paypaslab bilish uchun sabzi, bodring, olma va boshqalar olish mumkin, keyinchalik shakli o'xshash bo'lgan meva va sabzavotlarni kiritish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga barg, gullar bilan o'ynash ko'pincha guruh xonasini, ovqat stolini bezash, guldasta, barglarni kattalarga, kichik bolalarga sovg'a qilishga xohishlari bilan bog'lanadi. Bunday o'yinlarni, mashg'ulotlarni o'tkazishda bolalarni o'simliklarga nisbatan ehtiyotkorlik, gullarni bekordan-bekorga uzmaslikka o'rgatish lozim.

Agar bola olma yoki boshqa predmetlarning shakliga diqqatini qaratgan bo'lsa, unga olmani dumalatib ko'rish, ko'ptokdek silab ko'rish, uning silliqligini aniqlashni taklif etish lozim. Bolalarda rang, shakl, kattalik tushunchalarini ishlatishga o'rgatish lozim. Xilma-xil tabiat hodisasi olamida o'zlarining bevosita kuzatishlari uchun eng tushunarligi o'simlik va uy hayvonlaridir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tabiatga

nisbatch muhabbat tarbiyalanadi, hayvonlami parvarishlashga, o'simliklarni o'stirishga nisbatan istaklari tarbiyalanadi.

Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi hamshakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi. Bilim insonning mehnatga munosabatini shakllantiradi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'lik. Aqliy faoliyatni rivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirish ni ham bildiradi. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan xis-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustaxkamligi hamda ongligi, tafakkur mantiqiy va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va xodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muxabbat tuyg'usi va baynalmilatchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Aqliy ta'lim-maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Birinchi yo'l bolalarning bilim, malaka ko'nikmalarini kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali egallab borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi. Ammo bu yo'l bilan egallagan bilim va malakalar bolaga hayotning turli sohalarida mustaqil qatnashish uchun imkoniyat yaratmaydi. Ta'limning ikkinchi yo'li maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv tashkilotlarida bolalarni

kerakli bilim, malaka va ko'nikmalar bilan rejali ravishda qurollantirib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir. Barcha olim-u fozillar, shoir-u yozuvchilar o'z davrining nufuzli ta'lim maskanlarida o'qish bilan xurmat- e'tibor topganlar. Abu Nasr Forobiy, Maxmud Koshg'ariy, Abu Rayxon Beruniy, Abduraxmon Jomiy, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Saidrasul Aziziy, Muxammad Sharif Sufizoda, Abdulqodir Shokiriy, Abdulla Avloniy va boshqalarmukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalorida buyuk kashfiyotlar va yangiliklar yaratganlar, shu bilan birga boshqalarni ham ilm egallashga chaqirganlar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) tomonidan yaratilgan. Y.A. Komenskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Y.A. Komenskiy 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasto'rini tuzdi. Masalan, u tabiatshunoslik (fizika) suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, o't, qum va boshqalarhaqida bilim berish lozimligini, astrnomiya, geografiya, optika va boshqa sohalarda bolalarga bilim berish kerakligini asoslab berdi. Bolalar bog'chasida beriladigan ta'lim bolalarning maktabda oladigan bilimlari bilan o'zviy bog'lik bo'lishi kerakligini ta'kidladi. U o'zining "Onalar maktabi" kitobida kichik bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiklab ishlab chiqqan. Shu bilan Y.A. Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi. Shvetsar pedagogi I.G.Pestalotssi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlantirish masalasiga katta e'tibor beradi. G. Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi. Xozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A.P.Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Olima raxbarligida 1950- yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bolalar bog'chasi har bir yosh guruhining ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, metod va usullari ishlab chiqildi. Bu o'tkazilgan ishlar ta'limning tarbiyaviy ishdan farqini aniq belgilab berdi. Ta'limning nazariy jihatlarini ishlanishi "Bolalar bog'chasi

tarbiya dasturi”da “Mashg‘ulot” bo‘limini ajratish imkonini berdi va dasturning keyingi nashrlarida bu bo‘lim takomillashtirilib borildi.

Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so‘ng mashg‘ulotlar, o‘yinlar, bilim berish orqali amalga oshirildi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo‘ladi. Doimo biror narsa bi-~~lan~~ tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko‘radi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarak-atrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta‘sir etadi va sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yor-~~dam~~ beradi. Bolada aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari -predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bi-~~lan~~ taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli nimadan iborat?

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari haida nimalarni bilasiz?

3. Qanday mashg‘ulotlar aqliy tarbiyada samarali hisoblanadi?

4. Bolalarni rang, shakl, kattalik tushunchalarini anglashga qanday o‘rgatiladi?

5. Turli mashg‘ulot, o‘yin, tabiat burchagi va maydonchadagi mehnat hamda sayrning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati nimalardan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish metodikasi. – T.,2019 y

2. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N., A‘zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: “Tafakkur”. 2019 y. (153-180-betlar).

3. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., A‘zamova M. Maktabgacha pedagogika. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Ma‘naviyat”, 2013 y. – 160 b.

4. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. -T.: “Fan va texnologiya”, 2008 y. -160 b.

5. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: -“Fan va texnologiya”, 2012 y. -268 b.

16-§: SUHBAT TURLARI VA UNING MAZMUNI

REJA:

1. Suhbat va uning turlari
2. Suhbat qismlari va unga tarbiyachining tayyorgarligi
3. Suratlar asosida suhbat o'tkazish

Tayanch tushunchalar: suhbat, suhbat turlari, suhbat qismlari, tarbiyachi tayyorgarligi, suratlar, axloqiy mavzudagi suhbat, bilishga oid suhbat, didaktik maqsadga ko'ra suhbat.

1. Suhbat va uning turlari. Suhbat ta'lim-tarbiyaviy ishning murakkab turidir. Suhbat tarbiyachining guruhdagi hamma bolalar bilan ma Turn bir mavzu yuzasidan maqsadga qaratilgan holda tashkiliy so'zlashishidir.

Bolalar bog'chasida bolalar bilan o'tkaziladigan suhbat ularning kundalik faoliyatlari va turli voqea-hodisalarni kuzatishi natijasida olgan tushunchalarini aniqlash va ularni bir tizimga solish maqsadida o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatni tashkil etar ekan, u bolalarga haqiqatni to'liq va chuqur idrok qilishga yordam beradi, ularning diqqatini tushunish qiyin bo'lgan voqea-hodisalarga jalb qiladi. Suhbat mashg'ulotida bola ilgari ko'rgan, kuzatgan voqea va hodisalarni qaytadan esga tushiradi, mantiqiy fikr yuritadi, tahlil va muhokama qiladi. Suhbat bolalarni jamoaga birlashtiradi, bir-birlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi, bilim va tasawurlarini mustahkamlaydi, ularning nutqiga (lug'atini faollashtirishga, grammatik shakllarni takomillashtirishga) sezi-larli darajada ta'sir etadi, tarbiyachining gaplarini, o'rtoqlarining berayotgan javobini e'tibor bilan eshitishga odatlanadilar. Suhbat bolalarni o'z fikri bilan o'rtoqlashishga, jamoada so'zlashishga, faolligini oshirishga, o'z-o'zini tuta bilishga odatlantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, ya'ni yuqori axloqiy sifatlarni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Suhbat metodikasi bola-larda bilim, axloqiy sifatlarni tarkib toptirish bilangina cheklan-may, balki ularning bog'lanishli nutqini o'stirishda, tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqishga, ularni aniq ko'rishga va ushbu narsalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatishda mu-him vosita hisoblanadi.

Suhbat mashg'ulotida tarbiyachi quyidagilarni amalga oshiradi:

1. Bolalarning tajribalarini aniqlaydi va tartibga soladi, ya'ni tarbiyachi rahbarligida kuzatish vaqtida va oiladagi, bolalar bog'chasidagi turli faoliyatlar jarayonida kishilar hayoti va tabiat to'g'risidagi bilim hamda tasavurlarini aniqlaydi.

2. Bolalarda tevarak-atrofga to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi.

3. Bolalarni suhbat mavzusidan chalg'imag, o'z fikrini maqsadga yo'naltirilgan holda izchillik bilan bayon etishga o'rgatadi.

4. O'z fikrini oddiy va tushunarli tarzda ifodalashga o'rgatadi.

5. Bolalarning ilgari o'zlashtirgan bilimlariga asoslanib, ularning fikrlarini faollashtiradi, mustaqil mulohaza va muhokama qilishga o'rgatadi, muhokama qilinayotgan hodisaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish fazilatini shakllantiradi va tarbiyalaydi. Bundan tashqari, tarbiyachi suhbat vaqtida bolalarda barqaror diqqatni, boshqalarning nutqini tinglash va tushunishni, savollarga ortiqcha kuttirmasdan, chaqirishni kutmasdan, tez javob berish istagini, yetarli ovoz balandligida, hamma eshitarli qilib aniq gapirish odatini ham tarbiyalaydi.

Suhbat mashg'ulotida bolalar kelgusida maktabda ta'lim olish jarayonida zarur bo'lgan bilim, malaka va odatlarni egallaydilar.

Suhbat bolalarning xilma-xil faoliyatlariga va xulqlariga katta ta'sir etadi.

Masalan, oila, onalar mehnati to'g'risidagi suhbatlardan so'ng bolalar o'zlarining yaqin kishilariga amaliy jihatdan o'z munosabatlarini namoyon etishga harakat qiladilar. Bunday suhbatlardan keyin bola tarbiyachisiga: „Yaqinda onamning tug'ilgan kunlari, ularga nima sovg'a qilishim mumkin, maslahat bering“, - deb murojaat etadi.

Transport vositalari to'g'risidagi suhbatdan keyin esa ko'cha bo'ylab harakat qilayotgan mashinalarni zo'r qiziqish va diqqat bilan kuzatadilar, ularda juda ko'p qiziqarli savollar paydo bo'ladi, ijodiy o'yinlarining mazmuni sezilarli darajada boyiydi.

Suhbat asosan 3 xil bo'ladi:

1. Kirish suhbat.

2. Sayohat va kuzatish davomida o'tkaziladigan suhbat.

3. Yakuniy suhbat.

Kirish suhbat. Bu suhbat turidan bolalarni sayohatga olib borishdan oldin yoki bolalarga o'qilgan badiiy asarlarni qayta hikoya qildirishdan oldin foydalaniladi. Masalan, 6 yoshli bolalar bilan „Pomidor

o'tqazdik" mavzusida suhbat o'tkazishda (pomidor o'tqaziladigan yerga olib borishdan awal) tarbiyachi bolalarni guruh xonasida to'plab, qisqacha kirish suhbatini o'tkazadi, kirish suhbatini davomida bolalarga quyidagi savollarni beradi:

—Bolalar, eslanglar-chi, biz sizlar bilan tuvakdagi pomidor ko'chatlarini yerga (jo'yaklarga) qachon ekan edik?

—Kimning ko'chati qayerga ekilganligini tez bilib olish uchun qanday belgi qo'ygan edik?

—Pomidor yaxshi hosil berishi uchun uni qanday parvarish qilish kerak?

—Pomidorga suvni nimada quyish yaxshiroq — leykadami yoki chelakdami?

Bolalar javobidan so'ng tarbiyachi ularni to'ldirib, shunday deydi: — To'g'ri, bolalar, biz uch kun oldin gurahimizning yeriga tuvakdagi pomidor ko'chatlarini ekan edik. Har kim o'z ko'chatini parvarish qilishi uchun har bir ko'chat kimniki ekanligini bildiruvchi uzun cho'pni tuvak yoniga (yerga) suqib, unga ismlarni yozib qo'ygan edik. Mana bugun biz sizlar bilan yerga ekilgan pomidor ko'chatlarimizni parvarish qilish uchun boramiz va u yerda kimning ko'chati qanday ko'karganini, unga qanday qilib suv berishni, qanday o'g'it solishni kuzatamiz. Mana, men pomidor ko'chatlariga suv quyish uchun leyka-chalarni tayyorlab qo'ydim. Leykachalardan quyilgan suv xuddi yomg'irga o'xshab tushadi. Bu ko'chat ildizlarining atrofmi yumshatishga, ildizning yaxshi rivojlanishiga yordam beradi. Ho-zir hammangiz kiyimlaringizni kiyib olib, ikkitadan bo'lib, qo'l ushlab, ekin maydonimizga borishga tayyorlanasiz.

Bog'cha dahlizida shovqin qilmasdan, boshqa gurahlarning mashg'ulot o'tishlariga xalaqit bermasdan, sekin-asta yuramiz.

Sayohat yoki biror-bir narsani kuzatish davomida suhbat o'tkazish. Bolalarni pomidor ko'chati ekilgan yerga olib borib, pomidor ko'chatining o'sishini kuzatish va uni qanday parvarish qilish to'g'risidagi suhbatni tarbiyachi quyidagi savollar asosida davom ettiradi:

— Bolalar, biz hozir qayerga keldik?

— Kimning ko'chati qayerga ekilganligini qanday bilib olasiz?

— Pomidor ko'chati yaxshi o'sishi uchun nima qilish kerak?, - Parvarish qilish nimalardan iborat?

— Nima uchun o'simlikka namlik (suv) kerak?

— Suvni nimada quygan yaxshiroq? Nima uchun? (Bir bolaga leykachani beradi, u o'z ko'chatiga suv quyadi.)

— Nima uchun ko'chatga oziq beriladi? (Tarbiyachi ko'chatga oldindan tayyorlab qo'yilgan o'g'itni solib ko'rsatadi va ustidan leyka bilan suv quyadi.)

— Ko'chatga nima uchun quyosh nuri kerak? ,:

— Begona o'tlarning ko'chat uchun qanday zarari bor? Shundan so'ng tarbiyachi bolalarning javobini to'ldirib, suhbatni pomidor haqidagi she'rni aytib berish bilan tugatadi:

Barglar ostidan	Xoh salat qiling,
Boqsam mo'ralab.	Xoh soling oshga.
Uzgingiz kelar,	Ishtaha ochgum
Tongda saralab.	Keksa-yu, yoshga.

Tarbiyachi mashg'ulotdan so'ng bolalarga o'z ko'chatlariga o'g'it va leykadan suv quyishni aytadi, o'zi esa topshiriqni bolalar qanday bajarayotganlarini kuzatib boradi, zarur bo'lsa, yordam beradi.

Yakuniy suhbat. Bu suhbat turi bolalarning ko'rgan-eshitgan narsalari haqidagi bilimlarini aniqlash va uni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Tarbiyachi bolalarni pomidor ko'chati ekilgan yerga boshlab borib, ko'chatni parvarish qilish kerakligi va bu ish nimadan iborat ekanligi haqida suhbat o'tkazib, parvarish bilan bog'liq bo'lgan ishlar bajarilgach, oradan bir hafta o'tgach, „Biz pomidor ko'chatini qanday ekdik va parvarish qildik“ mavzusida yakuniy suhbat o'tkazadi.

Ushbu suhbat jarayonida bolalarga quyidagi savollarni berish mumkin:

— Biz o'tgan haftada qayerga borgan edik?

— U yerda biz nimani kuzatgan edik?

— Biz tuvakdagi pomidor ko'chatini qayerga ekan edik?

— Har kim o'z ko'chati yoniga qanday belgi qo'ygan edi? Buni nima uchun qilgan edi?

— Nima uchun pomidor ko'chatiga o'g'it solinadi?

— Ko'chatga suvni nimada quydingiz? Nima uchun leykada suv quydingiz?

— Pomidor ko'chatlari uchun quyosh nuri nima uchun kerak?

— Pomidor yaxshi o'sishi uchun uni nimalardan tozalash kerak?

— Pomidor qachon ekiladi? U qachon pishadi?

— Bizning ekin maydonimizda yana qanday sabzavotlar bor? Ular nima uchun kerak?

Tarbiyachi bolalar javobini to'ldiradi va suhbatni sabzavotlar to'g'risidagi she'rlar yoki topishmoqlar aytish bilan tugatadi.

Har bir suhbat 3 qisradan iborat bo'ladi:

- 1) suhbatni boshlash;
- 2) suhbatning borishi;
- 3) suhbatni yakunlash.

Suhbat mashg'ulotini tashkil etishda asosiy o'rinni **suhbatni boshlash** qismi egallaydi. Suhbatni boshlashda bolalar e'tibori biror-bir narsa yoki suratni ko'rishga yoki bo'lmasa, ularga tanish bo'lgan hodisalarni eslashga qaratiladi. Ba'zan suhbatni quyidagi jummalarni aytish bilan ham boshlash mumkin: „Men ko'pincha o'ylab qolaman, baliqlar akvariumda o'zlarini qanday his qilar ekanlar...“, „Bugun men avtobusda emas, trolleybusda kelishimga to'g'ri keldi va shunda o'ylab qoldim, mening bolalarim qanday transportlarga tushish mumkinligini bilisharmikan?“, „Bolalar, kim biladi, mening qo'limdagi nima?“ Ba'zan tarbiyachi suhbatni suhbat mavzusiga yaqin bo'lgan topishmoq yoki she'r aytib berishdan ham boshlashi mumkin.

Suhbat mashg'ulotining borishida tarbiyachining tushuntirishi, ko'rsatmasi, bergan savollari asosiy o'rinni egallaydi. Suhbat uchun savollarni to'g'ri tanlay bilish juda muhimdir. Savollar bolalarga tushunarli boiishi lozim. Shuning uchun bolalarga beriladigan savollarni tuzishda tarbiyachi oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Savol aniq va sodda bo'lishi kerak.

2. Savolni tuzayotgan vaqtda tarbiyachining o'zi bolalardan qanday javob chiqishini ko'z oldiga keltirishi lozim.

3. Bolalarning idrok qilishlari turlicha bo'lishini hisobga olib, tarbiyachi yordamchi savollar berish orqali asosiy savolning mazmunini bolalarga anglatishi lozim.

Masalan, bolalarning oshpaz mehnati haqidagi tushun-chalarini aniqlash va mustahkamlash maqsadida tarbiyachi ularni oshxonaga olib boradi va oshpazning ishini kuzatish jarayonida bolalar bilan suhbat

o'tkazadi. Buning uchun suhbat olib borish jarayonida quyidagi savollarni berish mumkin:

- Biz hozir qayerga keldik?
- Oshxonada kimlar ishlaydi?
- Ular qanday ishlarni bajaradilar?
- Qanday ovqatlarni tayyorlaydilar?
- Nimalarni qovuradilar?
- Nimalarni qaynatadilar?
- Hozir qanday ovqatlarni tayyorlamoqdalar?
- Bu ovqatlarni pishirish uchun qanday asboblari kerak bo'ladi?
- Ovqat tayyorlash uchun qanday masalliqlar kerak?
- Oshpaz ovqatni kimlar uchun tayyorlaydi?
- Qani ayting-chi, oshpaz mehnati yengilmi yoki og'irmi?

Tarbiyachi suhbatni topishmoq, she'r, maqol, ashula aytib berish, suhbat mavzusiga taalluqli suratni ko'rsatish, axloqiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan mantiqiy xulosalar qilish bilan yakunlaydi.

Suhbat mazmuni va mavzulari.

Suhbat mazmuni — bu „Dastur“ning „Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishni tarbiyalash“ bo'limidagi materiallar hisoblanadi. Bunga tevarak-atrof va ona-Vatan, maishiy mavzudagi, buyuk siymolar va bayramlar, harbiy qo'shinlar, mashhur sarkardalar, kattalar mehnati, transport va aloqa vositalari, maishiy-xo'jalik va mehnat buyumlari, xalq ijodi, tabiat, shuningdek, bolalar bog'chasida bolalarning turli faoliyatlari (o'yinlari, mehnat, o'zaro yordam va hokazo) kiradi.

Maishiy mavzularda suhbatlar. Bu bolalar o'zlari shaxsan kuzatgan va ishtirok etgan voqea va hodisalaridir. Bu suhbatlarda bolalar uyda kim bilan yashashlari, oila a'zolarining ismlari, ularning qayerda ishlashlari, uyda nima ishlar qilishlari, qanday dam olishlari, o'zlarining o'yinlari, uydagi mashg'ulot va o'yinlar, kuchiga yarasha kattalarga yordam berish va hokazolar haqida gapirib beradilar, uydagi va bog'chadagi muhitni bir-biriga taqqoslaydilar.

Tevarak-atrof va ona-Vatan to'g'risidagi suhbatlarda bolalar o'zlari tug'ilib o'sgan joylari — o'z shahar va qishloqlari; bog'chaga yaqin joylashgan ko'cha, binolar, maktab, do'kon, choyxona, idora, mahalla, undagi diqqatga sazovor joylar, me'morchilik yodgorliklari, maydon va

xiyobonlar; o'z ko'chasi, mahallasining nomi va boshqalar haqida gapirib beradilar; O'zbekiston to'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi, O'zbekistonning poytaxti — Toshkent haqida, Toshkentdagi Mustaqillik maydoni, Alisher Navoiy xiyoboni va hokazolar (har bir viloyatning o'z tarixiy joylari, shahari, tumani) haqida gapirib beriladi.

Katta kishilarning mehnati haqidagi suhbatlar bolalarni kattalar faoliyatining ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi. (Bolalar bog'chalari uchun dasturlar. Tevarak-atrof bilan tanish-tirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot. T., 1992, 2, 8, 16-betlar.)

Buyuk siymolar va bayramlar haqidagi suhbatlarda bolalar o'zbek xalqining buyuk siymolari (Navoiy, Bobur, Al-Beraniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Yunus Rajabiy, Kamoliddin Behzod, O'rol Tansiqboyev), o'zbek xalqining milliy bayramlari (Navro'z, Hosil bayrami — Mehrjon, Gullar va qushlar bayrami, to'ylar, sayillar) haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Harbiy qo'shinlar haqidagi suhbatlarda bolalarga harbiy qo'shnlarda tankchilar, dengizchilar borligi, vatanni himoya qilish uchun jasur, kuchli, chaqqon bo'lishlari kerakligi haqida so'zlab beriladi.

Mashhur sarkardalar to'g'risidagi suhbatlarda bolalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur,

Sobir Rahimov kabi mashhur sarkardalarning hayotidan olingan qiziqarli voqealarni bilib oladilar.

Transport va aloqa vositalari to'g'risidagi suhbatlarda bolalarga transport va aloqa xodimlarining xizmatlari haqida tushuncha beriladi. Pochta, telefon, telegraf, ularning vazifalari to'g'risida gapirib beriladi.

Xalq ijodi to'g'risidagi suhbatlarda bolalarga so'zana, naqqoshlik, zardo'zlik, kulolchilik, milliy himarmandchilik namunalari, me'morchilik yodgorliklari haqida gapiriladi. O'zbek xalq qo'shiqlari: lapar, alia, ertaklar, ermaklar; topishmoqlar, maqollar, sanamalar, aytishuvlar, ovutmachoqlar, tez aytishlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Tabiat to'g'risidagi suhbatlarda bolalarni yil fasllari, hayvonlar, o'simliklar, kattalarning tabiatdagi mehnatlari haqi- dagi tasavurlari aniqlanadi va mustahkamlanadi.

Maishiy-xo'jalik va mehnat buyumlari to'g'risidagi suhbatlarda jihozlar, idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, o'yinchoqlar, ba'zi bir mehnat qurollari muhokama qilinadi, ularning nima uchun kerakligi, nimadan,

qanday tayyorlanganligi, ayrim muhim belgilari (rangi, shakli, uzunligi), bu buyumlarni kim va qayerda tayyor-laganligi, uni qanday saqlash lozimligi aniqlanadi.

Suhbatga tayyorlanish va uni o'tkazish.

Suhbatlar birinchi kichik guruhdan boshlab o'tkaziladi.

Suhbat yilning ikkinchi yarmidan boshlab o'tkazilgani ma'qul. Chunki bu davrgacha bolalarda kerakli tajriba to'planadi. Bir oyda 1 - 3 ta suhbat o'tkazish tavsiya etiladi. Suhbatni tashkil etish uchun tarbiyachidan tayyorgarlik talab etiladi. Tarbiyachi navbatdagi ishlarni rejalashtirishda tevarak-atrof bilan tanishti-rish bo'yieha qaysi dastur materialini suhbat tarzida berish maqsadga muvofiq ekanligini belgilaydi, so'ngra mashg'ulotni olib borish rejasini tuzadi.

Bolalar diqqatini tez to'plash va ularning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, aqliy faoliyatini faollashtirish, hissiyotlariga ta'sir etish uchun mashg'ulotni qanday boshlash kerakligini puxta o'ylab oladi. Bunday emotsional vositalar sifatida suratlardan, bolalar uchun notanish bo'lgan yangi topishmoqlardan, suhbat mazmuniga yaqin bo'lgan she'rlardan foydalanish mumkin.

Masalan, kuz haqidagi suhbatni O'Tansiqboyevning „Kuz“ reproduksiyasini (katta guruhda) ko'rsatishdan boshlash mumkin. Bu asar bolalarning xotirasida bog'ga uyushtirilgan sayohat vaqtidagi taassurotlarini jonlantiradi.

O'zbekiston haqidagi suhbatni esa O'zbekistonning uzoq o'tmishiga doir ba'zi yodgorliklarni, hujjatli suratlarni ko'rsa-tishdan boshlash mumkin.

Ba'zi vaqtda suhbatni mavzuga bog'liq bo'lgan savollarni berishdan ham boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, kattalarning mehnatlari haqidagi suhbatni „Bolalar kimning ota-onasi qayerda, kim bo'lib ishlaydi?“ - degan savol bilan boshlaydi. Tarbiyachi bolalar mavzudan chetga chiqib ketmasliklari, chalg'imasliklari uchun oldindan suhbatning rejasini belgilab oladi.

Avaldan rejaga ega bo'lgan tarbiyachi bolalarni har qanday sharoitda ham, navbatdagi reja savolini berish bilan mavzuga qaytara oladi. Tarbiyachi o'zining savollari bilan bolalar

fikrini narsa va hodisalarning xarakterli va muhim belgilariga yo'naltiradi. Bolalarga ularning fikrlarini faollashtirishga yordam

bermaydigan, yoshiga mos bo'lmagan savollarni berish yaramaydi. Shu nuqtayi nazardan besh-olti yoshli bolalarga: Sigirning oyog'i nechta? Quyoning nechta qulog'i bor? kabi savollarni berish yaramaydi. Birinchidan, bu bolaga ma'lum bo'lgan narsa; ikkinchidan, oyoqning, dumning, quloqning soni (miqdori) to'g'risidagi suhbat bolalarning hayvonlar to'g'risidagi bilimlariga hech qanday ma'lumot qo'shmaydi.

Chunki hamma hayvonlarda oyoq, quloq va hokazolar mavjud. Bir hayvon ikkinchi hayvondan gavda qismlarining miqdori bilan farq qilmaydi, balki hayot tarzi, harakati bilan ajralib turadi. Hayvonlarning tashqi belgilari to'g'risida eng to'g'ri savol quyidagicha bo'lishi mumkin: Mushukning ko'zlari qanday? Uning dumi qanday? va hokazolar. Suhbatning asosiy savollari (qo'shimcha savollar ham) tarbiyachining ishlanmasiga yozilishi kerak.

Shuningdek, tarbiyachi suhbat mavzusi uchun kerak bo'la-digan ko'rgazmalarni oldindan tayyorlashi va bolalar diqqatini jalb qilmaydigan joyga qo'yib qo'yishi kerak.

Mashg'ulot oxirida suhbat mazmunini mustahkamlash yoki uning bolalarga emotsional ta'sirini chuqurlashtirish foydalidir. Buni turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin, chunonchi: tarbiyachi suhbat mazmunini qisqa hikoya qilib berish, suhbat mavzusiga bog'liq bo'lgan ta'limiy o'yin o'tkazish (3 - 5 daqiqa);

tanish suhbat mazmuniga yaqin bo'lgan she'r yoki ashulani aytib berishni taklif etish; badiiy hikoya o'qib berish va hokazo. Tarbiyachining qaysi variantni tanlab olishi suhbatning mavzusiga, bolalar bilimining boyligiga va vaqtga bog'liqdir. Sabzavotlar to'g'risidagi suhbatni „Paypaslab top“ ta'limiy o'yini bilan; Navro'z bayrami to'g'risidagi suhbatni musiqa mashg'ulotida o'rganilgan ashulani aytirish bilan tugallash mumkin. Tarbiyachi suhbatda hamma bolalarning faol ishtirok etishiga harakat qilishi kerak. Buning uchun quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak: savolni guruhdagi hamma bolalarga qarata berib, so'ngra javob berish uchun bittadan chaqirish kerak. Doimo bir boladan so'rash yaramaydi. Iloji boricha berilgan savolga ko'proq bolalarni javob berishga jalb qilishi kerak. Agar tarbiyachi bitta bola bilan uzoq gaplashsa, boshqa bolalar suhbatda ishtirok etishni istashmaydi. Shuningdek, tarbiyachining o'zi suhbat vaqtida bolalarga ma'lum bo'lgan narsalar haqida ko'p gapirsa ham bolalar suhbatda ishtirok etishmaydi.

Bolalar suhbat vaqtida jo'r (xor) bo'lib emas, balki bitta-bitta javob berishlari kerak. Agar zararat bo'lmasa, bolalarning javobini bo'lmaslik lozim: agar bola zarariy bilimga ega bo'lmasa, uyatchan bo'lsa, undan to'liq javob berishni talab etmasdan, qisqa javobi bilan qoniqish kerak. Bolalar savollarga yetarli ovoz balandligida, aniq va tetik javob berishlari lozim. Agar bola past ovozda javob bersa, tarbiyachi undan javobni baland ovozda, ammo qichqirmasdan takrorlashini talab etishi zarur. Masalan; „Sen nima deganingni hech kim eshitmadi, - deb tushuntirishi kerak. - Javobingni baland ovozda takrorla“. Tarbiyachi suhbatga tayyorlanishda va uni o'tkazishda ushbu qoidalarga qat'iy amal qilishi kerak.

Misol tariqasida katta guruhda o'tkaziladigan „Bolalar bog'chasi xodimlarining mehnati" mavzusidagi suhbatni keltiramiz.

„Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining mehnati" mavzusida suhbat.

Maqsad. Bolalarning bog'cha xodimlarining mehnatlari to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirish, har xil mehnat turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatish; fe'llarni hosil qilish ustida mashq qilish.

Oldindan qilingan ish. Mashg'ulotdan 2 - 3 kun oldin (kechki soatda) tarbiyachi bolalarni yig'ib, ulardan bolalar bog'chasining mudirasi kim, u nima ish qiladi, deb so'raydi. Tarbiyachi bog'chada nima qilishi bilan qiziqadi. Bolalarning uzuq yuluq, ishonchsizlik bilan aytgan javoblarini tinglab, shunday deydi: „Sizlar bu kishilarning mehnatlari haqida juda kam bilar ekansizlar. Bu haqda ko'proq bilishni istaysizlarmi?“ Bolalardan tasdiq javoblarini eshitib (bog'cha xodimlari bilan oldindan kelishilgan bo'ladi), uch-to'rtta bolani oshpazning, hamshira va mudiraning, tarbiyachining yoniga ularning faoliyatlarini kuzatish va mehnatlari haqida ko'p narsalarni bilib olishlari (so'rab olishlari) uchun (35 — 40 daqiqaga) yuboradi.

Yuborilgan bolalar qaytishgach, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishlarini so'raydi. Boshqa bolalarga esa eshitganlari haqida qanday gapirib berish mumkinligini o'ylashni taklif etadi.

Yetti yoshga kelib, odatda, nutqning sintaktik qatori shakllanadi: bola oddiy gaplami, bir xil a'zoli gaplami to'g'ri tuzadi, bunda u biriktiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi bog'lovchilarni qo'llaydi; u o'z nutqida qo'shma gaplardan, ko'pincha esa turli xil sintaktik munosabatlarni ifodalovchi

ergashgan qo'shma gaplardan foydalanadi: qo'shimcha gaplar - «Kamol nima ko'rganligimizni so'radi»; maqsadli gaplar - «Biz oziq-ovqat xarid qilish uchun do'konga ketayapmiz»; shartli gaplar - «Agar yomg'ir yog'masa, biz sayr qilgani chiqamiz» va boshq.

O'z taassurotlari haqida hikoya qilar ekan, olti yoshli bola ravon monologik nutq shaklidan foydalanishi lozim.

Bolalar bog'chasining tayyorlov guruhida grammatik rasmiylashtirilgan nutqni rivojlantirish borasidagi ishlar asosiy o'rinni egallashi lozim. Xuddi oldingi yillardagi kabi, u maxsus mashg'ulotlarda va boshqa faoliyat turlari bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Aynan bir fikmi turli vositalar yordamida rasmiylashtirish maktabga tayyorlash guruhidagi bolalarda grammatik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga doir ishlaming asosiy turi bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar o'yin-kulgi qilayotgan syujetli suratni tahhl qilishda qator gaplami tuzish mumkin: «Bolalar quvonchdan sakrab yuborishdi», «Bolalar xursand bo'lib, osmonga sakradilar»; «Bolalar sakrab yuborishdi, chunki ular xursand edilar». Aynan bir mavzuda turlicha gaplar tuzishga doir . bunday ishlar maktabgacha yoshdagi bolalarga bitta fikmi turlicha ifodalash imkonini beradi. Mashg'ulotlarda tarbiyachi ataylab bolalarga bir-birining o'mini bosishi mumkin bo'lgan gaplar tuzishni o'rgatadi. Aynan bir mavzuga oid gaplar variantlarini yaratish uchun didaktik o'yinlar, syujetli rasmlar, badiiy matnlardan foydalanish mumkin.

Aynan bitta fikmi ifodalash uchun turlicha gaplar tuzishga oid ishlar yetti yoshli bolalarda grammatik to'g'ri nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy o'rinni egallashi lozim. Bu yoshdagi bolalarga nutqda sifatdoshlarni qo'llashni o'rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlaming ikkinchi yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Bolalar nutqiga sifatdosh shakllarni kiritish uchun bolalar, kattalar, hayvonlar, qushlarning turli harakatlarini tasvirlovchi suratlardan foydalanish mumkin (o'qiyotgan bola, raqs tushayotgan qiz, yugurayotgan quyon va h.k.). Bolalar surat asosida gap tuzadilar: Tarbiyachi ularga so'z birikmasini tuzishga yordam beradi. «Bola o'qiyapti». Tarbiyachi so'z birikmasidagi sifatdoshni aytadi, so'ngra bolalardan so'raydi: «qaysi bola?» - «o'qiyotgan bola». Mashg'ulot uchun eng ko'p qo'llaniladigan fe'llarni olish va ulardan hozirgi zamondagi haqiqiy sifatdoshlarni hosil qilish darkor. Bolalarga hech qanday atamalar ma'lum qilinmasligi kerak,

bunda ularning ayrim sifatdoshlarni esda saqlab qolishlari va zarur bo'lganda ulami o'z nutqiga qo'sha olishlari juda muhimdir.

1. Suhbatga asosiy o'rgatish usuli orqali savollar berish. Bolalar hayotda ko'rgan, ularga tanish bolgan buyumlar, narsa va hodisalarni kuzatish orqali ulami suhbatga o'rgatish. Bolalar turli mavzular yuzasidan o'tkazgan suhbatlarda hosil qilgan tushunchalari, taassurotlarini so'z vositasida boshqalarga bildiradilar. «Mening o'yinchog'im» «Avtobusda sayr», «Bizning hovli» «O'rtog'imizga ko'maklashyapmiz», «Koptokni qutqaryapmiz», «Chana uchyapmiz», «Bozorda», «Akamning kabutarlari», «Mehmonda», «Yozda», «Uy hayvonlari», «Mushuk bolalari bilan», «Quyolār», «Mening onam shifokor», «Mening dadam quruvchi» va boshqa mavzulardagi suhbatlar jumlasiga kiradi. Ushbu mavzular bo'yicha o'tkazilgan suhbatlarda bolalar yangi so'zlarni bilib olishadi. Suhbatlar natijasida bolalar nimalarni o'zlashtirishlari lozimligini, qaysi yangi so'zlarni esda saqlashlarini va uning mazmunini tushunib olishlarini, bolalar diqqatini nimalarga qaratishni va ular yuzasidan beriladigan savollarni tarbiyachi o'ziga belgilab qo'yishi lozim. Savollar qisqa va aniq bo'lishi. Bolalar tajribasiga asoslanishi, ularga fikr yuritishni, boshlang'ich — oddiy xulosalar chiqara olishni o'rgatishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi mavzular bo'yicha mashg'ulotni qanday boshlash va yakunlashni o'ylab qo'yishi, mavzu mazmuniga mos she'rlar, topishmoqlar, maqollar, masallar, tez aytishlar, kichik hikoyalar ham tanlasui kerak bo'ladi.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin bolalarni jonlantirish, suhbat mazmunini yaxshilab tushunib olishlari uchun qisqagina kirish suhbatini o'tkazish mumkin, Masalan: «Mushuk o'z bolalari bilan» nomli suhbatni boshlashdan avval tarbiyachi bolalarga: Kimning uyida mushugi bor? Nima uchun mushuk saqlaysiz? Uni nimalar bilan boqasiz? U qanday ovoz chiqaradi? kabi savollar beradi. So'ngra bolalarga: «Men sizlarga mushuk va uning bolalari tasvirlangan suratni olib keldim» - deb suratni ularga ko'rinarli joyga ilib qo'yadi va bolalar uni yaxshilab ko'rib olishlari uchun 1-2 daqiqa vaqt beradi. Suratni yaxshilab ko'rib olishgach, tarbiyachi unda tasvirlanganlar bo'yicha savollar bera boshlaydi. Savollar bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini, dastur maqsadini hisobga olgan holda beriladi. Chunonchi, agar birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda ushbu surat bo'yicha mashg'ulot o'tkazilsa, undan maqsad: bolalarning mushuk

va uning bolalari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, tashqi ko'rinishi, harakati, ovqatni qanday yeyishi haqida tushuntirish va lug'atini faollashtirish bo'lsa, tarbiyachi bolalarga suratni ko'rsatib shunday savollar beradi: Suratda nima tasvirlangan? Ona mushuk nima qilyapti? Ona mushuk yonida kim yotibdi? Mushuk qanday miyovlaydi? Ikkinchi kichik gumh bolalariga esa yuqoridagi savollardan tashqari yana ushbu savollarni ham berish mumkin: Ona mushukning panjalari qanday rangda? Dumi qanday rangda? Mushukning boshida nimalari bor, tumshug'idachi? Kulrang mushukcha nima qilyapti? U nimadan sut ichyapti?

Suhbatda o'rgatish va tarbiyalash usullari.

Suhbatda asosiy o'rgatish usuli savollar berishdir. Mazmuni va shakli jihatdan har xil murakkablikka ega bo'lgan savollardan foydalaniladi. Ayniqsa, bolalardan xulosa chiqarishni, muhokama qilishni, obyektlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashni talab etuvchi savollar juda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, obyektlarni taqqoslashni talab etuvchi savollar ham o'z qimmatiga ega. Masalan: Tramvay trolleybusdan nimasi bilan farq qiladi? Qaysi sabzavotlarni xomligicha, qaysilarini pishirilgan, qaysilarini qovurilgan holda yeymiz?

Baholovchi savollar bolalarni faollashtirishga yordam beradi. Masalan, suyuq ovqatning turlari haqidagi savollarga dastlab javob beravchilar juda ko'p bo'ladi. Biroq ovqatning 3 — 4 turini aytishgach, bolalar aytilgan suyuq ovqat xillarini takrorlay boshlashadi: mastava, moshxo'rda, karam sho'rva. Bu holda tarbiyachi savolni boshqacha shaklda bergani ma'qul. Kimga qaysi suyuq ovqat ko'proq yoqadi? Yana juda ko'p bolalar javob berish uchun qo'l ko'tarishadi: makaron sho'rva, no'xat sho'rva, qovurma sho'rva va hokazo.

Bolalarga ona tilini o'rgatishda, lug'atini faollashtirishda suhbatning ahamiyati juda katta. Suhbatda lug'at ishining turli usullaridan foydalanish mumkin. Tarbiyachining ayrim so'zlarning ahamiyatini (ba'zan kelib chiqishini ham) tushuntirishi juda muhim. Masalan, oziq-ovqatlar haqidagi mashg'ulotning borishi jarayonida tarbiyachi shunday tushuntiradi: „Ha, bu oziq-ovqatlar muzlatgichda saqlanadi. Ularga sovuq joy kerak. Ular aynib qolmasligi uchun muzlatgichda saqlanadi“. „To'g'ri, bu maxsus xona, u „omborxonona" deb ataladi. Omborxonada oziq-ovqatlar saqlanadi. „Omborxonona" so'zini esda saqlang". Lug'at ishida

so'zlarni tarbiyachi bilan birgalikda jo'r (xor) bo'lib takrorlashdan foydalaniladi. Shuningdek, yangi yoki talaffuzi qiyin so'zlarni (motoroller, trolleybus, tipratikan va boshqalar) takrorlash mumkin.

Mashg'ulotda bolalarning faol ishtirok etishlarini ta'minlash uchun ularni tarbiyachiga va o'z o'rtoqlariga savollar berishga o'rgatish kerak. Chunki bolalarning savol berishi ularning diqqatini barqarorlashtiradi, qiziquvchanligini, sinchkovligini o'stiradi. Buning uchun tarbiyachi suhbat jarayonida bolalarda paydo bo'lgan savollarga katta e'tibor berishi kerak. Ularni rag'batlantirishi, kuzatuvchanliklari, qiziquvchanliklarini ta'kid-lab o'tishi lozim.

Tarbiyachi bolalarni savollarga so'zlar yoki jumlar bilangina javob berishga o'rgatib qolmay, balki o'z fikrini kengroq bayon etishga ham o'rgatib boradi. Buning uchun bir-biriga bog'langan 2 — 3 ta savol berish usulidan foydalanadi. Masalan: Bizning yechinish xonamiz haqida gapirib ber. U qanday? Guruh xonasidan nima bilan farq qiladi? U yerda qanday jihozlar bor va ular nima uchun kerak?

Bolalar fikrining to'liq emasligi ko'rsatma berishni talab etadi: kengroq gapirib ber; o'zing esla va hammasi haqida gapirib ber va boshqalar. Suhbatda o'yin va emotsional xarakterdagi usullardan foydalanish ham yaxshi natijalar beradi: so'z o'yinlari, „Shundaymi yoki shunday emasmi?“, „Masxaraboz o'rganyapti“ shaklidagi o'yin-mashqlari, topishmoqlar, musiqa tinglash, badiiy asarlarni o'qib berish. Tarbiyachi deyarli barcha suhbat mash-g'ulotlarida ko'rgazmali qurollardan foydalanadi. Uning maqsa-di — bolalar diqqatini to'plashga yordam berish, bilimlarini aniqlash va boyitish, turli xil analizatorlar ishtirokida suhbatda ishtirok etishni yengillashtirish. Suhbat mashg'ulotida foydalaniladigan buyumlar (materiallar) xarakteri jihatidan juda xilma-xil. Masalan, buyumlarning asli (o'zi), o'yinchoqlar, suratlar (rasmlar), yirik suratlar yoki illustratsiyalar (tasvirlar), amaliy san'at jihozlari. Suhbatning kirish qismida foydalaniladigan ko'rgazmali qurol bolalar diqqatini to'plashga, ularning bilimlarini jonlantirishga (bayram to'g'risidagi suhbatda bayram jihozlari, bolalarning uydagi hayotlari haqidagi suhbatda „Oilada“ nomli surat) yordam beradi.

Mashg'ulotning borishida foydalaniladigan ko'rgazmali quroldan bolalarning bilimni aniqlash, diqqatini faollashtirish, mashg'ulotning

oxirida esa emotsional kayfiyatni vujudga keltirish maqsadida foydalaniladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Suhbatning qanday turlarini bilasiz ?
2. Suhbat didaktik maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Grammatik rasmiylashtirilgan nutqni rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?
4. Tarbiyachining suhbatga tayyorlanishi va o'tkazish jarayoni haqida gapirib bering, suhbatga o'rgatish usuli orqali savollar berish qanday amalga oshiradi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev _K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.:“O'qituvchi”,_1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: “O'qituvchi”, 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: “O'qituvchi”, 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

17-§: SURATLAR BILAN O`TKAZILADIGAN SUHBATLAR

REJA:

1. Suratlar orqali suhbat o`tkazish usullari.
2. Suratlar bilan o`tkaziladigan mashg`ulotlarda bolalarni so`zlashuv nutqiga (dialogik) o`rgatish.

Tayanch tushunchalar: *mushukchalar, ip kalavasi, panja, mo`ylov, ichyapti, chapillatib, chuvalashib, kulrang, sochib yuborilgan, mi-yovlaydi, xirillaydi, perron, vokzal, relslar, bekat, yo`lovchilar vagoni, yuk vagoni, pristan, paluba likopcha, kosa, chinni lagan, qoshiqcha, ushlab turibdi, salfetka, pat, toj, baqbaqa, panjalar.*

1. Suratlar orqali suhbat o`tkazish usullari. Bolalarni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar, ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirishda, ular lug`atini kengaytirishda suratlar muhim ahamiyatga ega. Suratlardan lug`at ishining barcha vazifalarim hal etishda foydalaniladi. Bu mashg`ulot turida tarbiyachining nutqi, ya`ni uning tushuntirishi, yangi so`zlarni aytishi, bolalarga ma`lum bo`lgan so`zlar bilan yangi so`zlarning ma`nosini taqqoslashi va hokazolar asosiy o`rin egallaydi. Buning natijasida bolalarning lug`ati boyib boradi, ular suratdagi tasvirlarni ko`rishga va tushunishga o`rganadilar. Biroq tarbiyachi suratdagi tasvirlar haqida gapirib berish jarayonida bolalarga murojaat etadi, ularga ma`lum bo`lgan so`zlarni faollashtirish usulidan foydalanadi. Tarbiyachi suratlardan bolalar kuzatishi lozim bo`lmagan obyekt, ya`ni narsa va buyum, hodisalar, hayvonlar qushlar va o`simliklar, ayrim tabiat manzaralarining aynan o`zini ko`rsata olish imkoni bo`lmagan hollardagina foydalanadi. Masalan, yovvoyi hayvonlar, ularning belgilari, ayrim uy hayvonlari (sigir buzog`i bilan, tuya bo`talog`i bilan, eshak xo`tigi bilan va hokazolami), shahar va qishloq hayoti, kishilar faoliyati va hokazolar bilan tanishtirishda suratlardan keng foydalaniladi. Shahar maktabgacha ta`lim tashkilotlarining bolalari surat orqali qishloq hayoti bilan tanishganlarida ular dehqonlarning mehnati bilan bog`liq bo`lgan *xirmon, paxtakor, paxtazor, paxta terish mashinasi, zangori kema, bunker, jo`yak, egatkabi* so`zlarni bilib oladilar. Qishloq maktabgacha ta`lim tashkilotlaridagi bolalar esa suratlar yordamida shahar hayoti bilan tanishadilar va *bekak, shohko`cha, chorraha, haykal, yodgorliklar, svetoforkabi* so`zlar va ularning ma`nosini bilib oladilar. Shuningdek,

suratlardan bolalarni sayohatda, sayrda kuzatganlari yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash va mustahkamlash maqsadida foydalaniladi. Bolalar hayotda ko'rgan, ularga tanish bolgan buyumlar, narsa va hodisalarni suratda ko'rib, tez bilib oladilar va tushunadilar, bevosita kuzatish vaqtida aniqlay olmagan, ko'rish imkoni bo'lmagan belgilarni, qismlarni bilib oladilar. Masalan, uy hayvonlarini, qushlarni, transport vositalarini va boshqalarni kuzatganda ko'p narsalar bolalar uchun noaniq bo'ladi. Aytaylik, bolalar maqsadli sayrga chiqqanlarida tovuqlarni kuzatadilar. Mana shu kuzatishda bolalar xo'rozning baqbaqasini, tojini yoki oyoqlaridagi panjalarini, panjalaridagi tirnoqlarini sezmay qolishlari mumkin. Suratlarda esa bu aniq tasvirlangan bo'lib, bolalar xo'rozning tashqi tuzilishini tasvirlashganda bu ularning diqqat markazida turadi va **pat, toj, baqbaqa, panjalari** kabi so'zlar bilan. lug'atlari yanada boyiydi. Suratda tasvirlangan narsani to'g'ri tushunish fikrlash mas'uli bo'lib hisoblanadi. Bolalar surat yuzasidan yurigan fikrlarini, hosil qilgan tushunchalarini, taassurotlarini so'z vositisida boshqalarga bildiradilar. Suratda tasvirlangan narsa va buyumlarni, hodisalarning nomlarini, ularning belgilarini, sifat va xossalarni o'z bilan ifodalaydilar, sayr va sayohatda ko'rgan narsalari bilan taqqoslaydilar, suratdagi tasvirlar haqida gapirib beradilar.

«Suratlar ko'rsatish va ularning mazmunini gapirib berish tarbiyachining bolalarga yaqinlashuvida eng yaxshi vositadir», - deb ko'rgazmali ishni yuqori baholaydi K.D.Ushinskiy. Suratlarni ko'zdan kechirish va u haqida suhbat mashg'ulotlari har oyda bir marta rejalashtiriladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun mashg'ulotlarda foydalaniladigan suratlarni maxsus nashr etiladi. Y.G.Baturinaning «Biz o'ynayapmiz», «Avtobusda ketyapmiz», «Uy quryapmiz» «O'rtog'imizga ko'maklashyapmiz», «Koptokni qutqaryapmiz», «Chana uchyapmiz» suratlari, O.I.Solovyovning «Bizning Tanya», «Tanyaning kabutarlari», «Kimning qayiqchasi?», «Yozda» suratlari, S.A. Veretennikovning «Uy hayvonlari», «Mushuk bolalari bilan», «Quyonlar», «Echki bolalari bilan», «Ot toycho'g'i bilan», «Qo'ylar qo'zichoqlari bilan», «Tovuqlar» suratlari shular jumlasiga kiradi. Ushbu suratlarni bo'yicha mashg'ulotda bolalar **likopcha, kosa, chinni lagan, qoshiqcha, yeyapti, artyapti, ushlab turibdi, salfetka** so'zlarini bilib olishadi. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ar-cha bayrami», «Bolalar

tovuq, jo'jalami boqishyapti», «Tipratikanlar», «Quyionlar», «Olmaxonlar», «Tulki», «Bo'rilar», «Oq ayiqlar», «Arslonlar», «Yo'lbarslar», «Fillar», «Maymunlar» nomli rasmlari, L.A. Penevskaya, Y.I. Radinaning «Buvimnikiga - mehmonga», «Shar uchdi», «8-Mart bayramiga onamga sovg'a», «Maktabda», «Ishga», «Shahar ko'chasi», «Anhorda», «Aziz mehmonlar» nomli suratleri, bulardan tashqari, qishloq maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun F.F.Sovetkin va V.I.Chistyakovning «Bolalar bog'chasi», «Oila», «Hovli», «Qishloq ko'chasi», «Anhorga» nomli suratleri, O.I.Solovyova va O A.Frolovaning «Qadrdon dalalar», «Qishloqda bolalar bog'chasi», «Qishloq otxonasida», «Qishloq bog'ida» va boshqa suratlar.

Bolalar o'z lug'atlarini transport turlarini tasvirlovchi suratlami ko'rib chiqish («Hayajonli uchrashuv» , «Buvimnikiga-mehmonga», «Vokzalda» va boshqalar) va u haqdagi suhbat mashg'ulotlari orqali bcyitib boradilar. Ular bilan tanishish orqali bolalar uchun *peron, vokzal, relslar, bekat, yo'lovchilar vagoni, yuk vagoni, pristan, palubakabi* so'zlar tushunarli bo'ladi. Suratlar bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulot tarbiyachidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Tarbiyachi surat bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rar ekan, u awalo, surat mazmuni bilan yaxshilab tanishib chiqishi kerak. So'ng suratlami ko'rib chiqish natijasida bolalar nimalarni o'zlashtirishlari lozimligini, qaysi yangi so'zlami esda saqlashlarini va uning mazmunini tushunib olishlarini, suratlarni ko'rib chiqishdagi izchillikni, bolalar diqqatini nimalarga qaratishni va ular yuzasidan beriladigan savollami o'ziga belgilab qo'yishi lozim. Savollar qisqa va aniq bo'lishi, bolalar tajribasiga asoslanishi, ularga fikr yuritishni, boshlang'ich - oddiy xulosalar chiqara olishni o'rgatishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi suratlar bo'yicha mashg'ulotni qanday boshlash va yakunlashni o'ylab qo'yishi, mavzu mazmuniga mos she'rlar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar, kichik hikoyalar ham tanlashi kerak.

2. Suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarni so'zlashuv nutqiga (dialogik) o'rgatish. Suratni ko'rish va u haqida suhbat mashg'ulotining uslubiyoti xuddi kuzatish mashg' ulotining uslubiyotiga o'xshashdir. Tarbiyachi mashg'ulotdan oldin suratni bolalarga ko'rsatmasdan, guruh xonasiga olib kiradi va uni doskaga teskari tomoni bilan osib qo'yadi. Bunday qilishdan maqsad bolalardagi ixtiyorsiz diqqatdan mashg'ulotning boshlanishida foydalanishdir.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin bolalami jonlantirish, yangi surat mazmunini yaxshilab tushunib olishlari uchun qisqagina kirish suhbatini o'tkazish mumkin, Masalan: "Mushuk o'z bolalari bilan" nomli suratni bolalarga ko'rsatishdan avval tarbiyachi ularga: Kimning uyida mushugi bor? Nima uchun mushuk saqlaysiz? Uni nimalar bilan boqasiz? U qanday ovoz chiqaradi? kabi savollar beradi. So'ngra bolalarga: «Men sizlarga mushuk va uning bolalari tasvirlangan suratni olib keldim, hozir sizlarga ko'rsataman, - deb suratning old tomonini ilib qo'yadi va bolalarning uni yaxshilab ko'rib olishlari uchun 1- 2 daqiqa vaqt beradi. Suratni yaxshilab ko'rib olishgach, tarbiyachi unda tasvirlanganlar bo'yicha savolar bera boshlaydi. Savollar bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini, dastur maqsadini hisobga olgan holda beriladi. Chunonchi, agar birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda ushbu surat bo'yicha mashg'ulot o'tkazilsa, undan maqsad: bolalarning mushuk va uning bolalari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, tashqi ko'rinishi, harakati, ovqatni qanday yeyishini bilish va lug'atini faollashtirish bo'lsa, tarbiyachi bolalarga suratni ko'rsatib shunday savollar beradi: Suratda nima tasvirlangan? Ona mushuk nima qilyapti? Ona mushuk yonida kim yotibdi? Mushuk qanday miyovlaydi? Ikkinchi kichik guruh bolalariga esa yuqoridagi savollardan tashqari, yana ushbu savollarni ham berish mumkin: Ona mushukning panjalari qanday rangda? Dumi qanday rangda? Mushukning boshida nimalari bor, tumshug'ida-chi? Kulrang mushukcha nima qilyapti? U nimadan sut ichyapti? U sutni qanday ichyapti? Ip kalavasi bilan o'ynayotgan mushuk bolasini ko'rsatib: Bu mushukcha qanday rangda? U panjalari bilan nima o'ynayapti? ip kalavali qanday rangda? Katta va maktabga tayyorlov guruhida beriladigan savollar esa ancha murakkablashadi. Rasmlarni ko'rib chiqish vaqtida bolalar diqqati ayrim detallarga yo'naltiriladi: Ona mushuk nimaning ustida yotibdi? Uning yonida uxlab yotgan mushukchani panjalarida ninasi ko'rinib turibdi? Poldi sochilib yotgan ip kalavali qayerda edi? Nima uchun ip kalavali polda sochilib yotibdi? Savatni kim ag'darib yubordi? Tarbiyachining savollariga bolalar javob berib bo'lishgach, surat yuzasidan tarbiyachining o'zi gapirib beradi: «Mana bu ona mushuk - Mosh. Uning mushukchalari bor. U gilamcha ustida yotib, bolalariga qarayapti. Kulrang mushukchalar tarelkadagi sutni tili bilan chapillatib ichyapti, targ'il rangdagi mushukcha esa sakrab, savat ichidagi ip kalavalarini ag'darib

yubordi. Ip kalavallari savat ichidan har tomonga sochilib ketdi va targ'il mushukcha ko'k rangdagi ip kalavasini chuvalashtirib o'ynay boshladi. Oq-qora rangli mushukcha esa ona mushukning yonida uxlab yotibdi. Ona mushuk mushukchalariga qarayapti va «xir-xir» qilib xirillayapti». Ushbu mashg'ulot jarayonida yangi so'zlar izohlab beriladi, qiyin so'zlar jo'r bo'lib takrorlanadi. Mashg'ulot topishmoq aytish va uning javobini topish (Kichkina qumg'on, o'tirib ko'zini yumgan), she'r aytish (Sh. Sa'dullaning «Mushuk» she'rini):

Mushugim deydi: myov,
Sichqon doim menga yov!
Shuning uchun qo'ymayman,
Qancha yemay to'ymayman.

yoki qisqa hikoya o'qib berish bilan (Habib Po'latovning «Mosh hikoyasi» davom ettirilishi mumkin. Tarbiyachi ushbu mashg'ulotda bolalar lug'atiga *mushukchalar, ip kalavasi, panja, mo'ylov, ichyapti, chapillatib, chuvalashib, kulrang, sochib yuborilgan, miyovlaydi, xurillaydi* va hokazolami kiritadi. Suratlam ko'zdan kechirish va u haqda suhbat mashg'ulotining o'ziga xos xususiyati shundaki, mashg'ulotda ko'p o'rinni hikoya, yangi ma'lumotlar va so'zlarni ma'lum qilish, ularni bolalarga oldindan tanish bolgan tushunchalar bilan taqqoslash egallaydi. Bunday mashg'ulotlarda bolalarga ma'lum bo'lgan so'zlarni faollashtirish, yangi so'zlarni mustahkamlash elementlari mavjud. Ba'zan katta va maktabga tayyorlov guruhlari bolalariga mashg'ulotda rassomlarning reproduksiya suratlarini ko'rsatishdan ham foydalaniladi; bunday mashg'ulotlar bolalarga estetik va axloqiy tarbiya berishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Undan to'g'ri foydalanish natijasida tarbiyachi bolalar lug'atini sezilarli darajada boyitishi mumkin. Maktabgacha tarbiya pedagogikasida va tasviriy faoliyat uslubiyotida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar yoshiga mos bo'lgan suratlar reproduksiyasining ro'yxatlari ishlab chiqilgan.

Mashg'ulotdan keyin surat bir necha kun guruh xonasida qoldiriladi va bolalar uni yana bir bor diqqat bilan ko'rib chiqadilar. Bolalar lug'atini faollashtirish, aniqlash va mustahkamlashda suratlardan keng foydalaniladi. **Suratlarning turlari juda xilma-xil.** Masalan, predmetli suratlar, voqeaviy suratlar va hokazo. Suratlarini ko'zdan kechirishdagi lug'at ishi bevosita kuzatishdagi lug'at ishidan ancha farq qiladi. Bolalar

suratda buyumlarning tasvirini ko'radilar va biz bolalarga shu tasvirdagi buyumlarni bilishga, ya'ni ularga ma'lum bo'lganlari bilan taqqoslashga o'rgatamiz. Suratdagi tasvirni ko'rib chiqish va unda nimalar tasvirlanganligini aytish uchun bola ilgari ko'rgan, idrok qilgan so'zni, buyumni esga keltirishi kerak. Suratda tipik obraz berilib, aniq narsalar tasvirlanadi, shuning uchun bola suratdagi tasvirni osonlikcha bilib oladi. Chiroyli surat bolalar diqqatini o'ziga jalb qiladi va u suratni ko'rib chiqish bilan birga, ovoz chiqarib, tasvirdagi buyum, hodisa nomini aytadi, unga o'z munosabatini bildiradi. Dastlab kichkintoy suratdagi tasvirlarning nomlarini diqqatini o'ziga tortuvchi, o'ziga yaxshi tanish yoki qiziqarli bo'lgan narsalarni tartibsiz sanab o'tadi. Tarbiyachining vazifasi bolalarni surat mazmunini idrok qilishga, izchillik bilan ko'rib chiqishga, asosiy belgilarini ajratib ko'rsata olishga o'rgatishdan iboratdir. Suratlarni to'g'ri ko'rib chiqish malakalari ta'lim jarayonida, tarbiyachi rahbarligida shakllanib boradi. U buyum va hodisalarni suratdan darrov tanib olishga, hayotda ko'rganlari bilan taqqoslashga, tasvirlanganlarni to'g'ri asoslashga o'rgatadi va bolalarning his-tuyg'ularini tarbiyalaydi. Suratdagi tasvirlar yuzasidan beriladigan umumiy savollar: Nima tasvirlangan? Yana nima deyish mumkin? bolalarni idrok qilishga o'rgatmaydi. Suratdagi mazmunni aniq yoritishga yordam beruvchi ancha to'g'ri savol bu

- Surat nima haqida? degan savoldir. Tarbiyachi bolalarni sekin-astalik bilan bu savolga javob berishga o'rgatib boradi. Bunda ushbu usullardan foydalaniladi:

1) o'zi surat mazmunini qisqacha yoritib beradi;

2) markazdagi buyumni ko'rsatkich tayoqcha bilan ko'rsatadi va shu vaqtning o'zida: «Bu nima, bu kim? deb so'raydi, ya'ni birinchi savol aniq jaranglaydi;

3) surat kompozitsiyasi haqida beriladigan savol tuzilishiga diqqatini yo'naltiradi: «Ona mushuk qayerda yotibdi va u kim- larga qarayapti?». Katta guruh bolalariga suratga nom o'ylab topishni faqat mashg'ulot oxirida emas, balki mashg'ulotning boshida ham taklif etadi. Suratlarni ko'rib chiqish va u haada suhbat mashg'uloti umumiy faol didaktik prinsiplarga bo'ysunadi. bu haqda bevosita kuzatish mashg'ulotlari haqida fikr yuritilganda yoritib o'tilgan suratni bolalarga ko'rsatishdan avval diqqatlari to'planadi, tasvimi ko'rib chiqishlari uchun vaqt beriladi,

so'ngra tarbiyachi rahbarligida suratdagi tasvirlardan biri ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda ular o'rtasidagi mazmunli bog'liqlik aniqlanadi. Bu mashg'ulotda lug'at ishining asosiy usuli savoldir. Bunda turli shakldagi savollardan- foydalaniladi:

1. Suratning umumiy mazmunini aniqlash uchun - Surat nima haqida? Uni biz qanday ataymiz?

2. Buyumlarni tasvirlash uchun - Nima?, Qanday?, Qayerda?, Nima qilyapti?, Nimaga o'xshaydi?

3. Suratning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash uchun-Nega?, Nima uchun?, Nimaga?,-Kimniki?, Nimasi bilan o'xshash?

4. Suratda tasvirlanganlardan chetga chiqish uchun - Keyin nima bo'ladi? Bungacha nima boigan edi? Buni sen qanday topding?

5. Surat mazmuniga yaqin bo'lgan, bolalar shaxsiy tajribasiga oid savollar - Senda shunday o'yinchoq bormi, yaqinda bizning guruhimizga kim keldi? Biz yangi bolani qanday kutib oldik?

6. Katta guruh bolalarining lug'atlarini faollashtirish maqsadida sinonimlarni tanlash uchun savollar - buni yana qaysi so'zlar bilan aytish mumkin: kun-oftob-quyosh, yordamlashyapti- ko'maklashyapti-qarashyapti, tiniq-beg'ubor, iliq - issiq, go'zal

- ko'rkam va boshqalar.

Beriladigan savollar har doim ham javob berishni talab etuvchi bo'lmasdan, balki yordam beruvchi ham bo'lishi mumkin. Bunday savollardan ko'proq kichik guruhlarda foydalaniladi - Bu mushukchami? Bu koptokmi? Katta guruhlarda Y.I.Tixeyeva tomonidan ishlab chiqilgan usullardan foydalanish mumkin. Bu usul «Kim ko'proq ko'radi» nomli, o'yin shaklidagi mashqdur. Bolalar bu o'yin mashqida suratda tasvirlangan buyumning belgilarini bir-birlarini takrorlamagan holda aytadilar. Bunday usul bolalarda kuzatuvchanlikni, diqqatni rivojlantirish va ulaming lug'atini boyitish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, suratlarni taqqoslash ham nimasi bilan o'xshaydi, nimasi bilan o'xshamaydi, juda yaxshi usul hisoblanadi. Suratlarini ko'zdan kechirish va beriladigan savollarning maqsadi rasmning asosiy mazmunini aniqlashdan, ma'lum bir guruh so'zlarni faollashtirishdan iboratdir. Suratni ko'zdan kechirish mashg'ulotida bolaning samimiy muomala me'yori, hatto muomalada ko'z qarashlari, boshqalar oldida o'zini tuta

bilish - muomala madaniyatining oddiy talablari ham ahamiyatlidir.

Surat bo'yicha hikoya qilish. «2-sentabr - bilimlar kuni» nomli surat ..

Maqsad: Surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suratdagi tasvirdan oldingi voqealarni mustaqil o'ylab to'qishga o'rgatish.

Vazifalar:

- «Maktab», «Kuz» mavzularida lug'atni faollashtirish.
- Voqea-hodisalarning muhim belgilarini ajratishga, solishtirishga va umumlashtirishga, ularni ifodalash uchun aniq so'zlarni tanlashga o'rgatish.

• Bog'lanishli nutq-hikoya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.

• Nutqning ifodaliligini tarbiyalash.

Kutilayotgan natijalar:

• Surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suratdagi tasvirdan oldingi voqealarni mustaqil o'ylab to'qishga o'rganadilar.

• So'zlarni bo'g'inlarga bo'lishni o'rganadilar.

• Grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi.

Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan, ishtirok etishga mo'ljallangan interfaol usullar:

• Aqliy hujum

• Qisqa hikoya

• Savol- javob

• Tetiklashtiruvchi mashqlar

• Amaliy ishlar

Kerakli jihozlar:

«2-sentabr - bilimlar kuni» mavzusi aks ettirilgan surat.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: bolalar, 2-sentabr - bilimlar kuni deb belgilangan. Hammangizni bilimlar kuni bilan tabriklayman. Bugun bizning muassasamizdan chiqqan bolalarimiz ilk bor maktabga qadam qo'ydilar. O'quvchi bo'ldilar. Bugun, 2-sentabrdan barcha ta'lim tashkilotlarida o'qish boshlanadi. Shuning uchun bu kun «Bilimlar kuni» deb nomlanadi. Siz ham bir yildan so'ng maktabga chiqasiz, o'quvchi bo'lasiz. Men sizlarni hammangizni a'lo baholarga o'qishlaringizni, ilm- hunarli bo'lishingizni istayman. Ilm-hunar orqali inson ko'p narsalarni bilib oladi.

Mana bu suratga qarang.

Savollar:

1. Bu suratni qanday nomlash mumkin? Nom o'ylab toping.
2. Kimning nomlagani to'g'riroq, qiziqarliroq deb o'ylaysiz?
3. Nima uchun bu bolalami bog'chaga emas, maktabga kelyaptilar deb o'ylaysiz? (o'quvchilar kiyimini kiyishgan, papka olib ketyaptilar)
4. Maktab deganda qayerni tushunasiz? Maktabda bolalar nima qila dilar? (Maktab- bolalarga bilim beruvchi o'quv - tarbiya maskani)
5. Maktabga kelayotgan bolalarni kimlar deyish mumkin? (o'quvchilar, maktab bolalari)
6. O'quvchilarning papkalarida nimalar bor? (daftarlar, kitoblar, qalamdon, ruchka).
7. Bu narsalarni hammasini birgalikda qanday aytish mumkin? (o'quv qurollari)
8. Ulami qanday asrab- avaylash zarur?
9. Kitob - o'quvchilarning eng aziz do'sti, ular bolalarga bilim beradi. Kitob haqida qanday topishmoqlar yoki hikmatli so'zlarni bilasiz? (A.Navoiy «Olamda kitobdan aziz do'st yo'qdir», «Qat-qat qatlama, aqling bo'lsa tashlama», «Kito- bim-oftobim»).
10. Suratda kimlarni ko'ryapsiz?
11. Bolalar gullarni kimlarga taqdim etyaptilar?
12. Ilk bor maktabga chiqayotgan bolalar ota-onalari bilan chiqyaptilar, ko'ryapsizlarmi? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
13. Qizchani qo'lida nima bor?
14. To'g'ri, qizchani qo'lida qo'ng'iroqcha bor. Siz ham maktabga chiqqaningizda maktabda 1-qo'ng'iroq chalinadi. 1-qo'ng'iroq siz uchun esda qoladigan qadri daqiqalar bo'lib qoladi. Siz bu daqiqalarni bir umr yodda saqlaysiz.

Jismoniy daqiqa (ixtiyoriy):

Hozir mana shu surat bo'yicha hikoya tuzamiz.

Bolalar awal o'quvchi-bolalar maktabga kelgunlariga qadar ular nima qilganliklari haqida, keyin suratda ko'rayotganlari haqida so'zlab beradilar (5-6 ta bola hikoya qilishga chaqiriladi).

Agar bolalar surat tasviridan oldingi voqealarni o'ylab topishga qiynalsalar, tarbiyachi ularga oldindan tayyorlab qo'yilgan namunasini beradi. Masalan: quyoshli sentabr kunlarining birida o'g'il va qiz bolalar maktabga borishga tayyorlanishdi. Kechqurun ular papka va o'quv qurollarini tayyorlab qo'yishdi. Salim erta turdi. Uning oldiga o'rtog'i

Nodir keldi va ular tanish yo'ldan maktabga kcdilar (keyin bolalar suratda tasvirlangan voqealar haqida so'zlab beradilar). Tarbiyachi hikoyaning tugallanganligini nazorat qilib turadi.

6 ta bolalarning hikoyalari tinglanadi.

Tarbiyachi: Bolalar siz maktabga borishni xohlaysizmi?

Qani, «Men maktabga boraman», degan gapni maktabga borishni xohlayotganingizni va xursandligingizni bildiradigan holatda ayting-chi (5-6 ta bolalardan so'raladi). Mashg'ulot bolalarni rag'batlantirish bilan yakunlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Suratlar orqali suhbatlar o'tkazish usullarini ayting.

2. K. D. Ushinskiy tarbiyachining bolalarga suratlar ko'rsatish va ularning mazmunini gapirib berishni qanday baholaydi?

3. Suratlarini ko'rib chiqish natijasida bolalar nimalarni o'zlashtirishlari lozim?

4. Suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarni so'zlashuv nutqiga (dialogik) o'rgatish haqida nimalarni bilasiz?

5. Bolalar surat tasviridan oldingi voqealarni o'ulab topishga qiynalsalar, tarbiyachi qanday yo'l tutishi lozim?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. - T., 2010.

2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. - T., 2019

3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. - T.: "O'qituvchi", 1988.

4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -T.: "O'qituvchi", 1995.

5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T., 1997.

6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.

8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediyada texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

18-§: HIKOYA QILIB BERISH TURLARI VA METODLARI

REJA:

1. Hikoya qilishga o'rgatish mashg'ulotlari
2. Badiiy asarlarni hikoya qilib berishga o'rgatish
3. Turli yosh guruhlarida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish

Tayanch tushunchalar: hikoya, hikoya tuzish, hikoya tinglash, hikoya so'zlash, badiiy asar, nasriy asarlarni so'zlash, tinglash madaniyati

1. Hikoya qilishga o'rgatish mashg'ulotlari Bolalarda biz o'ylaganimizdanda ko'proq xislat, fazilatlar mavjud. Faqat ularni vaqtida rivojlantirish va namoyon etish darkor. Xuddi shunday hikoya qilib berish, so'zlash qobiliyati bilan bir qatorda unga doir madaniyat shakllarini ham o'zlarida o'zlashtirishlari mumkin. Bu mavjud qobiliyatni rivojlantirish uchun ularga avvalo biz kattalar o'rnak bo'lishimiz kerak. Ya'ni, ular taqlid qilishga moyil ekanliklarini unutmagan holda ularni avvalo tinglay bilishimiz kerak. Agar ularni vaqtida tinglay olsak, ular ham kattalarni tinglay boshlaydi. Natijada mazmunli suhbat yaraladi. Badiiy asarlarni hikoya qilib berishda bolalarga yordamlashish, so'zni qabul qilish vositalari va asosan, turli xil savollar orqali amalga oshiriladi. Savollarning quyidagi turlari mavjud. monologik matnni hikoya qilib berishga yordam beruvchi savollar:

— birgalikda hikoya qilishga yo'naltiruvchi savol (iboradagi so'nggi so'zga qo'yilgan savol);

— aytib turuvchi savol;

— yo'naltiruvchi savol;

— to'g'ridan-to'g'ri savol;

— to'g'idan-to'g'ri savollar zanjiri (reja);

— qidiruv savollari;

--- ko'rsatma savollari.

Eng avvalo bolalarni hikoya qilishga o'rgatishdan oldin ularga tinglash madaniyatini singdirishimiz zarur. Tarbiyachilar bolalarni tinglash madaniyatiga o'rgatishida ba'zi ko'rsatmalarga amal qilishi kerak bo'ladi. Bu o'z o'rnida bolalarning fikrlash va noverbal muloqotiga ham yordam beradi. Shuningdek, bolalarga jismoniy harakatlar va imo-

ishoralar orqali faol tinglash texnikasining turlarini uqtirib borish ham samarali hisoblanadi.

- Tarbiyachi bolalarga xalaqit bermasligi, ularni to'xtatmasligi kerak. Ushbu faol tinglash texnikasi bolalarga asosiy g'oyasini oxirigacha yetkazishga imkon beradi.

- Savoldan keyin bolalar uchun javob berishni emas, balki bolalar javobini kutishni lozim topgan ma'qul.

- Tarbiyachi bolalarning ko'zlari orqali ham aloqa o'rnatishi mumkin. Ko'zlar inson qalbining ko'zgusi hisoblanib, nima demoqchiligini doim tasdiqlab turishini unutmazlik kerak.

- Bolalarning fikr-mulohazasi bilan tarbiyachi o'rtoqlashadi, savol beradi, bosh irg'itib tasdiqlaydi. Bola tarbiyachini xayrixoh ekanligingidan ilhomlanadi.

- Eshitilgan ma'lumotni darhol rad etmasligi kerak. Birinchidan, bolaning gapini mohiyatini tushunib olish, ikkinchidan, bolaning ko'rsatishi mumkin bo'lgan sabablarini tushunib olish kerak.

- Sabr va xotirjamlik bilan bolani eshitishga harakat qilish lozim.

Shu o'rinda qo'shimcha tarzda tarbiyachidan yana qator talablar bajarilishi ko'zda tutiladi:

- Doim bolalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, buni bosh irg'itib tasdiqlash bilan bajarish talab etiladi;

- hikoya qilib berayotgan bolaning fikrini chalg'itmaslik, oraga boshqa yangi mavzu haqida so'z ohmaslik kerak;

- Tarbiyachi bolalarni ko'ziga qarab, ularni tinglayotganini oddiygina yo'l bilan izohlashi mumkin;

- O'rni kelganda qo'llab-quvvatlovchi so'zlar aytish: "Tushunarli", "qiziq ekan" kabi so'zlarni aytib, diqqat bilan tinglash;

Hikoya - o'quv materialini bolalar uchun tushunarli tarzda bayon etish imkonini beruvchi og'zaki metodlardan biri. Hikoyada turli mazmundagi bilimlar obrazli shaklda taqdim etiladi. Bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, ona shahri haqida bo'lishi mumkin. Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, bolalar uchun tarbiyachining shaxsiy tajribasi bilan bog'liq hikoyalar qiziqarlidir: «Mening bog'cham», «Mening oilam», «Mening sevimli o'yinchog'im»; va

boshqalar. Hikoyani tushunish qobiliyati, ya'ni tinglay olish, mazrouniga munosabat bildira olish, savollarga javob berish, oddiy qayta aytib berish uch yoshdan boshlab paydo bo'ladi. Kichik guruhlarda hikoya ko'rgazmali materiallarni (narsa-buyumlar, ulaming tasviri) namoyish qilish bilan birga qo'shib olib boriladi. Ko'rgazmali materiallardan bolalar tasavvurga ega bo'lmagan voqea-hodisalar haqida hikoya qilinganda o'rta va katta maktabgacha yosh guruhlarida ham foydalaniladi. Biroq, katta guruhlarda hikoya qilish jarayonida ko'rgazmali materiallardan keragidan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Chunki bolalami so'z yordamida fikrlashga o'rgatish, ularda fazoviy tasavvurni rivojlantirish lozim.

Hikoya - biror voqea, hodisani kengaytirib bayon qilishdir. Hikoya tasviriy va syujetli bo'lishi mumkin. Tasviriy hikoya - bu biror predmet yoki voqeaning o'ziga xos tomonlarini bayon etishdir.

2. Badiiy asarlarni hikoya qilib berishga o'rgatish. Qayta hikoya qilib berishdan oldin bolalarga ushbu asar matni o'qib beriladi. Hayotining ikkinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda pedagogga birgalikda hikoya qilishga yo'naltiruvchi savollarni qo'llash, ya'ni iboradagi so'nggi so'zga savol qo'yish tavsiya etiladi: - Bir bor ekan bir.... Bir.....nima ekan? - yo'q ekan.

Ko'pincha pedagogga o'z savoliga o'zi javob berishga va bolaning ushbu javobni qaytarishiga erishishga to'g'ri keladi. Bolaning tarbiyachi aytayotgan iborani oxiriga yetkaza olishi uchun unga badiiy asarni necha marta o'qish kerakligi uning nutqiy rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi,

Birinchi sanoq she'rni bola taniy boshlashi, undagi ayrim so'zlarni yodda saqlab qolishi uchun u sanoq she'rni besh yoki o'n marta eshitishi mumkin. Biroq bola bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda ish olib borilsa, uning yoshiga mo'ljallangan ikkinchi sanoq she'rni u birinchisidan ancha tez o'zlashtirib oladi. Bolalarning barchasini birdek diqqat bilan tinglayotganingizni ko'rsatishga harakat qilish zarur. Katta yoshlilar bilan suhbatda tinglash qoidalariga amal qilib, begona narsalarga chalg'imay yoki uning atrofidagi narsalarga boshdan oyoq qarab o'tirmay, faqat suhbatdoshni tinglash va diqqat qilish muhimdir. Tarbiyachi bolalarning diqqatli bo'lishlari uchun har xil yengil o'yinlarni ora-orada o'ynatgani samarali hisoblanadi. Masalan, "ha, yo'q" o'yini. Bu savol-javob shaklida bo'lib, bolalarni diqqatini jamlashga yordam beradi. Ularni sergaklikka chorlaydi. Bola bilan suhbat davomida muammolaringizni bir muncha

vaqt unuting, o'zingizni his-tuyg'ulardan, unga nisbatan bo'lgan munosabat va u haqidagi fikrdan xalos qilishga harakat. Tinglash davomida bolangiz aytayotgan ma'lumot rost yoki yolg'on, haqiqat yoki tuxmat ekanligiga munosabatingizni ko'zlaringiz orqali ifodalang. Ular bilan suhbatlashish davomida ko'z bilan aloqa qilishni o'rgatish kelajakda ijobiy samara beradi. Bolangiz nafaqat sizni yaxshi tushunishi uchun, balki kelajakda turli davralarda bo'lganida ham tashqi unga nisbatan bo'layotgan munosabatlarni aniqlashtirib olishida ham ko'zlar va nigohlar orqali aloqa hamda munosabatlarni tushunishi o'zi uchun juda foydali bo'ladi. U insonlarni ko'zidagi ifodalari orqali dastavval tinglab oladi. Ko'zlar inson kayfiyatini, holatini, vaziyatga munosabatini ifodalovchi birinchi omillardan. Shuning uchun ham nigohlar gapirganda ba'zan tilga ehtiyoj qolmaydi. Shu o'rinda tarbiyachilarga bir tavsiyamizni aytib o'tmoqchimiz, Siz bola qabul qilayotganingizda har bir bolaning ko'ziga diqqat qiling. Nigohlaringiz to'qnashsin. Shunda ham mehr ortadi, ham qabul qilgan bolangizning kayfiyati qanday ekanligini bilib olasiz. Tushkun kayfiyatli bolaga qilish kerak bo'lgan munosabatni quvnoq kayfiyatli bola yoqtirmaydi yoki aksincha. Shuning uchun ham tarbiyachi bolani dastavval ko'ziga qarab uni tinglay olishi lozim. Ota-onalar ham bolalarini ko'zlariga qarab gapirishlari shart. Nigohlar to'nashganda har qanday tanbeh yoki erkalash ta'sirli bo'ladi. Shu bilan birga nigohlar to'qnashganda o'zaro aloqa vujudga keladi. Kimdir nigohlar bilan gapiradi, ikkinchi tomon tinglaydi.

Hikoya tuzish jarayonida bolalarning narsalarni ko'rib idrok etishi, eslab hikoya qilish, tasavvur etib hikoya qilish kabi qismlarga bo'linadi.

Ko'rgan narsalarni idrok etib yoki eslab hikoya qilish aniq materiallar asosida tuziladi. Ulardan tasavvur etib hikoya qilish - ijodkorlikni talab qiladi. Bu hikoyalarning hammasi ham nutqning bog'liqligi va maqsadga yo'naltirilganligi bilan muhimdir.

Hikoya tuzish - hikoya qilib berishga nisbatan ancha murakkab faoliyatdir, chunki bolalarning o'zi ushbu mavzu bo'yicha hikoya mazmuni, uning nutqiy shaklini tanlashlari, ketma-ket (tarbiyachi yoki o'z rejasi asosida) bayon qilishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyalaming uchta turini ko'rsatish mumkin:

- qabul qilinishiga qarab aytiladigan hikoyalar (bolaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);

- xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni qabul qilganligi haqida hikoya);

- tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoya).

Qabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon qiladilar.

Tasavvurga asoslangan hikoyalar ijod mahsuli bo'lib, unda hikoyachi bola mavzuga qarab o'z tajribasining shaklini o'zgartiradi hamda yangi vaziyat va obrazlar yaratadi. Bitta mashg'ulotda bitta fikrda hikoyalar turlarining aralashib ketishiga yo'l qo'yish mumkin: bola o'yinchi oqni tavsiflab (qabul qilish asosidagi hikoya) bo'lganidan so'ng uni qayerdan sotib olganligi yoki uni qanday qilib tuzatganini (xotira asosidagi hikoya) aytib berishi mumkin.

Besh yoshli bolalarga ham tarbiyachi to'g'ridan-to'g'ri savollar berish orqali qayta hikoya qilishda yordamlashishi lozim, ammo ayni paytda u mavzuni rivojlantiruvchi savollar turkumi (zanjiri)ni berishi, ya'ni hikoya qilishning oddiy rejasini tuzishi darkor. Dastlab reja bor-yo'g'i 2-3 ta savoldan iborat bo'lishi mumkin. Keyinchalik esa, bolalarning voqealarni vaqg bo'yicha izchillikda bayon qilish zaruratini o'zlashtirishlari (bayoniy matnlar), tavsifiy matnlarni hikoya qilib berishni o'rganishlariga qarab, bayon mavzusi murakkablashtirilib borilishi lozim.

Birinchi marta pedagog bolalar asar mohiyatini qabul qilishlari, undan estetik zavq olishlari uchun butun matnni o'qib beradi. Uni qismlari bo'yicha qayta aytib berish mumkin: tarbiyachi asarning tugallangan bir qismini o'qib beradi, so'ngra uning butun mazmunini qamrab olgan savollar turkumini beradi va bolalar ushbu parchani hikoya qilib beradilar. Ayni paytda tarbiyachi bolalarning nafaqat so'zlarni to'g'ri aytishlari va gap tuzishlari, balki asarlarda ishtirok etayotgan shaxslarning suhbatlarini ifodali qilib aytishlarini nazorat kilib boradi.

Har bir tarbiyachining bugungi kun tarbiyachisi oldiga qo'yilgan zamonaviy talablarni bajara olishi avvalo davlatimiz, qolaversa maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldidagi dolzarb vazifalarni muvafaqqiyatli amalga oshirishining garovi bo'lib xizmat qiladi. Bunda tarbiyachi avvalo bolaning sog'ligini saqlash, aqliy qobiliyatlarini o'rganish va o'stirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash,

manaviyatimizga mos e'tiqod va qarashlarini tarkib toptirish, Ona Vatanga muhabbat, yosh avlodga nisbatan do'stlik, o'rtoqlik hissini singdirish, mehnatsevarlik va halollikni tarkib toptirishi lozim.

3. Turli yosh guruhlarida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish. Uch yoshli bolalarga hikoya qilishda yordamlashar ekan, tarbiyachi aytib turuvchi savollardan foydalanadi. Aytib turuvchi savollar asosida hikoya qilishni yana aks ettirilgan hikoya qilish deb ham atashadi. Ushbu usulning maqsadi — bolalarning alohida so'zlarni takrorlashiga emas, balki badiiy asarning butun iboralarini takrorlashlariga erishish, ularga matnni erkin yodlab olishda ko'maklashishdan iborat.

Hayotining to'rtinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarga hikoya qilishda tarbiyachi hikoyani yo'naltiruvchi savollar, ba'zida esa aytib turuvchi savollar bilan osonlashtirgani holda to'g'ridan-to'g'ri savollar bilan yordam berib turadi. Agarda she'r qayta aytib berilayotgan bo'lsa, bolalar uning tez-tez qo'llaniladigan, oson esda saqdab qolinadigan ayrim qismlarini yoddan bilganlari ma'qul. SHunda ular tarbiyachining savollariga she'rdan sitatalar bilan javob berishlari mumkin, lekin bularni ular bilan oldindan kelishib olish lozim.

Nasriy asarlarni qayta aytib berishda ham bolalarning javoblari iloji boricha badiiy matnga yaqin bo'lgani yaxshi. Shuning uchun tarbiyachining to'g'ridan-to'g'ri savollari bolalarga nafaqat lug'atdan, balki matn sintaksisidan ham iloji boricha to'laroq foydalanishda yordam berishi lozim. Agarda bolalar matnni unutib qo'ygan bo'lsalar, tarbiyachi uni aytib turadi.

To'rt yoshli bolalar tomonidan bayon qilish va tavsiflash tusidagi asarlarni hikoya qilishda ularga so'zli usullar orqali yordam ko'rsatish zarur. Bu yoshdagi bolalarga tavsiflash uchun mulohaza yuritishni bilish talab etiladigan asarlarni tanishtirish tavsiya qilinadi. Ular bilan tanishtirish, keyinroq esa qayta hikoya qilish uchun mustaqil mulohaza yuritishga tayyorlanish hisoblanadi. Bunday asarlarni hikoya qilishga o'rgatishda real obrazlarga tayanish lozim: so'zli usullarni didaktik o'yin yoki real narsalarni ko'rsatish bilan birgalikda amalga oshirish mumkin.

Bolalarni har qanday sharoitda qo'llash ota-onaning oliy mas'uliyati bo'lishi kerak. Bolasining tarbiyasiga faqat MTTni as'ul qilib qo'yish to'g'ri emas. Xuddi shunday hikoya qilishga o'rgatishda ham ota-onalarning roli bo'lishi kerak. Ular avvalo bolalarini tinglay bilishlari lozim. Pedagogikada

tinglash tushunchasi juda ko'plab texnikalarni o'zida jamlaydi. Joiz bo'lsa, bolalarning bir-birini tinglashi, ota-onalarning farzandlarini tinglashi, tarbiyachining tarbiyalanuvchilarni tinglashida qator usul va uslublar talab qilinadiki, bular faol tinglash texnikasini o'zlashtirishda muhim sanaladi. Tarbiya oiladan boshlanadi. Shu boisdan, avvalo ota-onalardan bolani tinglashda nimalar talab qilinishi muhimdir:

1. Bola bilan suhbat tog'ridan-tog'ri, nigohlar bir muddat bo'lsa-da, ko'rishganda yuz berishi, buning uchun esa ota-ona har qanday ishdan ma'lum muddat voz kechishi kerak bo'ladi. Muloqot xayrixoh nigohlar orqali bo'lishi, boshqa xonadan turib nomiga tashkil qilinmasligi kerak.

2. Bolaning so'zlari ma'nosini hissiyotlari bilan birlashtirish kerak. Bu ota-onaga vaziyatni tushunishga yordam beradi. Bolaning ichki holatini tavsiflashda ijobiy shakl muhim rol o'ynaydi.

3. Bola o'z fikrlarini to'plashi va suhbatni davom ettirishi uchun pauza talab qilinadi. Bu pauzani also bo'lmaslik kerak, balki uni ma'qullab turish talab qilinadi.

4. Bolaning asosiy g'oyasi ota-onasi tomonidan o'z so'zlari orqali takrorlanishi va tasdiqlanishi shart. Bu esa bolaga ota-onasi uning so'zlarini tushunib tinglayotganini bildiradi. O'z o'rnida bu suhbatning davomiyligini ta'minlaydi.

5. Bolani qo'rquvlari, muammolari, tajribalari bilan yolg'iz qoldirmaslik maqsadga muvofiqdir. Ota-ona doimo farzandining yonida ekanligini va uni qo'llashga doim tayyorliklarini o'z mehr-muhabbatlari ila ko'rsatmoqliklari shart.

6. Eng asosiysi bolaga samimiyat va e'tibor berilishi talab etiladi.

Ota-onalar bolalar bilan do'stona munosabatda bo'lishlari shart. Aks holda ko'p xatoliklar oiladan boshlanadi. Bolalar oilasida ko'rgan tarbiyani tashqarida qo'llaydi. Agar ota-onalar farzandlariga ishonch bildirsa, mehr bersa bu shunchaki ishonch bilan mehr bo'libgina qolmay, ishonchning zamirida bolaning kelajakdagi komil inson bo'lishidagi o'ziga bo'lgan ishonchni uyg'onishiga, mehrda esa oilasi va yaqinlariga qanday bo'lsa qolganlarga ham shunday hurmat bilan munosabatda bo'lishlik kabi fazilatlarini sindirishda bu usul o'z samarasini beradi.

Bolalar bilan qanday mazmunli vaqt o'tkazish mumkin? Har kim bu savolga har xil javob beradi. Kimdir bolalar bilan ertak o'qish deb o'ylasa, kimdir televizor ko'rish deb javob beradi. Bizningcha, bu fikrlar ham

to'g'ri. Biroq bolalarga mazmunli hordiq bag'ishlash uchun ko'p narsa kerak emas. Shunchaki xohish bo'lsa, bolalarning ko'nglini topish qiyin bo'lmaydi. Bunda ota-onalar ham bolalari bilan barobar bolalarcha o'ynashlari kerak bo'ladi. Doim ota-onalar o'zlari o'rnak bo'lishlari lozimligini unutmasliklari kerak. Bolalar bilan o'ynash uchun esa maxsus bolalar o'yingohlariga borish ham shart emas. Bolalar bilan uyda birgalika o'ynash uchun juda ham ko'p o'yinlar mavjud. Ayniqsa, son-sanoqsiz harakatli o'yinlar bor. Hozir biz ota-onalar o'zlari ijodiy fikrlab o'yin yaratishlari mumkinligini isbotlab beramiz. Bunda bizga topishmoq janri yordam beradi. Topishmoq doim bolalarni o'ziga jalb qilib kelgan. Ota-onalar ba'zida topishmoq topishga qiynalib qolishadi. Shu vaqtlarda o'z so'zlari bilan bola tilida oson topishmoqlarni o'zlari ham tuzishlari mumkin. Bu o'rinda qofiya bo'lishi shart emas. Bolalarning yoshiga moslab savol yaratishda ob'ektning rangi, shakli, hajmi, qiymati, harorati, bajarish vazifasi va boshqa holatlari inobatga olinib savolnomalar tuzilsa, bolalarda bunga faqat va faqat qiziqish uyg'onadi. Aksincha, murakkab tuyulgan jumboqlar ularni tez orada zeriktirib qo'yadi. Mana shu kabi izohlarni bola yoshiga moslab aytish mumkin. Bolalar ham bunday jumboq tuzishga qiziqib ketadilar. Bu ularning mantiqiy va ijodiy fikrlashlarini o'stiradi.

MTT tarbiyalanuvchilariga tinglash madaniyatini o'rgatar ekanmiz, ularga avvalo o'zimiz faol tinglovchi ekanligimizni ko'rsata bilishimiz zarurligini qayta-qayta takrorlayapmiz. Xuddi shunday bolalar bilan suhbatda ularga faol tinglovchi qanday bo'lishini ko'rsata bilish uchun, avvalo o'zimiz shu o'rinishda namoyon bo'lamiz. Ya'ni:

- Bolalar sizga gapirayotganda uni aslo gapini bo'lmaslik kerak;
- Gapirayotgan bolaning gaplarini tushunayotganingizni va tasdiqlashingizni boshingizni qimirlatishingiz orqali ifodalashingiz unga yanada kuch beradi;
- Nigohlaringiz, ko'z qarashlaringiz va yuz ifodasi ham bolaga ta'sir qiladi. Undan har xil ma'no o'qish mumkin;
- Agar bola xato gapirayotgan bo'lsa ham unga tuzatish kiritayotgan vaqtingizda ehtiyotkorona, bolani maqtab, "agar bunday deganingda yanada to'liq javob bo'lar edi"- deb, bolani ruhiyatini ko'tarish kerak. Bola doim uning fikri muhim ekanligini bilib yashashi kerak;

• Bola bilan bo'lgan suhbat davomida ora-orada savol ham berib turish foydali. Bu bolada o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi.

Tarbiyachilarda har qanday o'yin turiga mos o'yinlar ro'yxati bo'lishi shart. Tarbiyachi kerak bo'lsa har kuni qaysi o'yinni o'ynatishini rejadagi mavzusiga mos ravishda sana qo'yib belgilab borshi kerak. Aynan bugungi mavzuni yoritish borasida tashkil qilingan o'yin ham bolalarga, ham tarbiyachilarga qo'l keladi. Shu bilan birga har kuni turli xil o'yinlarni o'ynash bolalarni bog'cha hayotiga mehrini kuchaytiradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Hikoya qilishga o'rgatish mashg'ulotlari qanday tashkil qilinadi?
2. Bolalarni badiiy asarlarni hikoya qilishga o'rgatish nima uchun kerak?
3. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish borasida sizda qanday takliflar bor?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediyaya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

19-§: O'YINCHOQ VA PREDMETLARGA QARAB HIKOYA QILISHGA O'RGATISH

REJA:

1. Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati.
2. Turli yosh guruhlarda bolalarni o'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish usullari.
3. Bola tarbiyasida milliy o'yinchoq va qo'g'irchoqlarning roli.
4. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish usullari.

Tayañch tushunchalar: shartli va natural ko'rinish, sivilizatsiya, san'at vositalari, qo'lbola o'yinchoqlar, oyinchoq-ovutmacholqlar, chamberak froniton, kolonka, tom, ark, kub, prizma, konus, piramida, slindr, plastinka, texnika o'yinchoq, personaj, shaqldoq, buyumli harakat.

1. Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati. *O'yinchoq* - bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh, quvonch manbaidir. O'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

Pedagog A.S.Makarenko, «O'yinchoq o'yinning «material asosi», o'yinchoq o'yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatadi», deb ta'kidlaydi. Rus pedagoglari o'yinchoq bolalarga atrof-dagi mavjud voqelikni o'rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko'lamini ulaming materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar. Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlamini rivojlantiradi. O'yinchoq bolalarda - ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual

xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondashuv - o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigienik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi.

Pedagogik talab. O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi; jamiyatimiz g'oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada olijanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalash, voqeylikka nisbatan olijanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy, axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O'yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko'p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi:

- *Gigiyenik talablar.* O'yinchoq qanday materialdan va rarlgdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

- *Badiiy talablar.* Shakl, bo'yoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

To'g'ri tanlangan o'yinchoq - bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta'sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy his-tuyg'ulami tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg'ulami shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo'g'irchoq bolalami boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San'atni birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalami

uyg'otadi, estetik tarbiyani to'plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

2. Turli yosh guruhlarda bolalarni o'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish usullari. O'yinchoq bolalarni turli rang- barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqildoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlab harakatlan va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi.

O'yinchoqlarni turlari va ko'rinishlari bo'yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- syujetli-obrazli;
- texnika o'yinchoqlari;
- qurish-yasash, qurilish materiallari o'yinchoqlari;
- didaktik o'yinchoq va o'yinlar;
- sport va harakati o'yinlar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar;
- yig'ma-bo'linma o'yinchoqlar;
- teatr va dekorativ o'yinchoqlar (soya va qo'g'irchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o'yinlar uchun kiyimlar, archa o'yinchoqlari);
- o'yinchoq-ermaklar;
- ohang chiqamvchi musiqaviy o'yinchoqlar;
- qo'lbola o'yinchoqlar va o'yin materiallari, turli-tuman o'yin jihozlari.

-Syujetti-obrazli o'yinchoqlardan syujetli-rolli o'yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g'amxo'rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek, kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o'ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

-Texnika o'yinchoqlari bolalarda texnikaga va texnika asboblari bo'lgan qiziqish uyg'otib, ularni o'z o'yinlarida qo'llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi

ko'rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o'yinchoqlar yaqin turadi.

-Qurish-yasash o'yinchoqlari sodda, boshqarish va foydalanish jihatdan qulay va osondir. Bu o'yinchoqlarni o'ynash buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim. (avtomobilda g'ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinchoqlarning asosiy 2 tori mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, slindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to'plami. b) turl blok - devor, froniton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektara- qurilish materiallari. Mayda (stol o'yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo'lishi mumkin.

-Didaktik o'yinchoqlarning asosini xalq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ularni o'ynashda bola o'z-o'zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlanti radi. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlari tanlash va joylashtirishdan iborat.

-Harakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoqlar: suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chamberaklar va boshqalar. Ulaming asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

-Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

-O'yinchoq-ovutmachoqlar harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan boladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti- harakatlari bilan quvontiradilar, syujetlari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

-Qo'lbola o'yinchoqlar nikattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

-O'yinchoqlarni materialiga ko'ra: hunarmandchilik, qo'lbola usulida, fabrikada tayyorlanadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning 3 turini ajratib ko'rsatgan edi: **tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari**. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalar- ning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o'stiradi. Ikkinchi turi boladan faol faoliyatni talab qifadi, mantiqan va aqlan o'sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi.

Bola tarbiyasida milliy o'yinchoq va qo'g'irchoqlarning roli.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning aqliy tafakkurini shakllantirish turli xil vositalar orqali amalga oshiriladi. Avvalo tarbiyalanuvchilarning aqliy tafakkuri har xil faoiyatlar vositasida katta kishilarning mehnati bilan tanishtirish jarayonda (masalan, qo'g'irchoq yasash ishi), har xil mashg'ulotlar va mashg'ulotlardan tashqari, ta'lim berish asosida, mustaqil topshiriqlarni bajarish bilan rivojlantirib boriladi. Bundan tashqari, har xil bayramlar, turli xil tadbirlar, shoir va yozuvchilarning tavallud topgan kunlarini nishonlash jarayonlari, san'at vositalari, bolalar badiiy adabiyoti, tasviriy va amaliy san'at, o'yinchoq va o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari, kino va turli xil multfilmlar, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan ertaklar, rivoyat va topishmoqlar, maqollar tarbiyalanuvchilarning aqliy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu hamma vositalardan keng ravishda, izchillik va tizimlilik asosida foydalanib borsagina bolalar aqliy tafakkurining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar tafakkur va bilimlarini faqat o'yin-mashg'ulotlarda yaxshi o'zlashtirib oladilar. Tarbiyalanuvchilar tomonidan o'zlashtirib olingan aqliy tafakkur jarayoni tasavur va tushunchalami ongli ravishda tushunib yetishlari, fikrlashlari dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik o'yin, mehnat, ayrim topshiriqlarni mustaqil bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Ana shunday vositalardan biri maktabgacha yoshdagi (3-5 yoshli) bolalar aqliy tafakkurini shakllantiruvchi asos *qo'g'irchoqlardir*.

Qo'g'irchoqlar voqea, hodisa va jarayonning obrazli ko'rinishidir. Qo'g'irchoqlar milliy va umuminsoniy xususiyatlarga egaligi bilan insoniyat sivilizatsiyasida yashagan bo'lib kelmoqda. Uning obrazlilik xususiyati maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tafakkurini, maqsadni shakllantirish imkonini beradi. Bu o'rinda, ta'kidlash lozimki, aqliy tafakkur tushunchasida bilish, emotsional va anglash tafakkuridan shu jihatlari bilan aqliy tafakkur farq qiladi. Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalami tarbiyalash uchun zaruriy tashkiliy, uslubiy, psixologik shart-sharoitlar yaratadi, bolalami maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlash ota-onalar davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Shunday shakllardan biri **qo'g'irchoqlar** vositasida tarbiyalashdir.

O'zbek tilining izohli lug'atida qo'g'irchoq - odamga yoki boshqa biror narsaga o'xshatib yasalgan bolalar o'yinchog'idir. Shu ma'noda qo'g'irchoq o'yinchoqning bir turi va har turli ashyolardan yasaladi. Qo'g'irchoqlarning to'la, shartli va natural ko'rinishlari bor.

Qo'g'irchoqlarni shartli ravishda ikki ko'rinishga bo'lish mumkin:

- 1) odam timsoli ifodalangan qo'g'irchoqlar.
- 2) hayvonlar timsoli ifodalangan qo'g'irchoqlar.

Butun dunyo xalqlarida qo'g'irchoq mavjud, hatto qo'g'irchoq teatrlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Insoniyat qachondan boshlab qo'g'irchoq yasay boshlagan va uni qaysi davrdan boshlab tarbiya vositasiga aylantirganligi masalalari aniqlangan emas. Lekin olimlar qo'g'irchoqlar eramizdan avvalgi X-XI asrlarda mavjud bo'lganligini qayd etadilar. Bizning fikrimizcha, qo'g'irchoqlarning yasalishiga sabab aynan tarbiyaviy zaruriyati bo'lgan. Chunki qo'g'irchoqning quyidagi xususiyatlarga egaligi tarbiya vositasi sifatida qabul qilingan:

- a) qo'g'irchoqlar yumshoq, mayin va estetik rang-barang ashyolardan yasaladi, bu bolada qiziqish uyg'otadi;
- b) bola qo'g'irchoq bilan ovunadi va o'zi xohlagan tarzda o'ynaydi;
- d) qo'g'irchoq bolada idrok, tasavvur va fikr uyg'otadi;
- e) bola qo'g'irchoq bilan munosabatga kirishadi, uni yaqin kishisi sifatida qabul qiladi;
- f) qo'g'irchoq bola ongining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi va h.k.

2. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish usullari.

Suhbat jarayonida bolalar bilan so'zlashuvning jonliligi ko'p jihatdan og'zaki nutqqa va nutqiy muloqotning savol-javob shakliga xos bo'lgan grammatik tuzilmalarining turlichaligi bilan bog'liqdir. Suhbat jarayonida bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Boiaga mana bunday ko'rsatma berish mumkin: «Qisqa javob ber. Batafsil javob ber (ammo to'liq javob bilan emas)», ulardan so'rash mumkin: «Kim qisqa javob bera oladi (yoki o'rtog'idan chiroyliroq javob bera oladi)». Zarur holatlarda pedagog qo'yilgan savolga keng qamrovli javob namunasini namoyish qilishi mumkin.

Suhbatlarda bolalar keng qamrovli fikr bildirishlari va bir-ikkita so'zdan iborat bo'lgan javob berishlari mumkin (Sizgabog' yoqdimi?)

a). Bolalami keng qamrovli jav-iblariga savollarni to'g'ri qo'yish orqali yo'naltirish zarur: «Bahorda ob-havo ko'proq qanday bo'ladi? Bu haqda aytib bering»:

Didaktik o'yin: «O'yinchoqlar ro'koni»

O'yin jarayonida bolalarning o'uilgan o'quv materialidan nutqda foydalana olishlarini, savollar berishlari va ularga javob qaytarishlari hamda hosil qilinayotgan vaziyatda mustaqil nutqiy yechimlar topa olishlarini aniqlash zarur bo'ladi.

Bolalar sotuvchining oldiga kelib, o'z ismini aytishi va o'yinchoqning rangi va o'lchamini aytgan holda uni olib berishni so'rashi kerak. O'yinchoqlar bolalarning bilimlari (ularning nomi, o'lchami va rangi haqidagi) ga mos ravishda tanlanadi: qizil va sariq mashinalar, katta va kichik qo'g'irchoqlar, kubiklar, sharlar, har xil rangdagi bayroqchalar va kuzovi yashil, kabinasi esa qora bo'lgan bitta mashina.

Sotuvchi rolini Sanjar ismli bola ijro etadi. Bolalarga ular do'kondan xohlagan o'yinchoqlarini olishlari mumkinligini aytadi. Sotuvchi bilan bolalar o'rtasida taxminan mana bunday dialog bo'lib o'tadi:

Sotuvchi: Assalomu alaykum.

Bola: Assalomu alaykum.

Sotuvchi: Keling, ismingiz va sizga qanday o'yinchoq kerak?

Bola: Mening ismim Alisher, menga sochi qora rangdagi Zumrad degan o'yinchoq kerak.

Sotuvchi: Bu qizlar o'yinchoqi-i-ku. Uni qanday o'ynaysiz?

Bola: Bu o'yinchoqni singlim Nargizaga sovg'a qilaman. U ham Zumrad kabi aqlli qiz bo'lishi uchun.

Sotuvchi: Juda yaxshi o'ylabsiz. Bu fikringiz menga yoqqani uchun, qo'g'irchoqni sizga sovg'a qilishga moslab, o'rab beraman.

Bola: Rahmat.

Bolalar navbati bilan kelib, o'zlariga yoqqan o'yinchoqlarni so'raydilar. Anvar kelganida esa barcha mashinalar tarqatib bo'lingan va faqat yashil kuzov va qora kabina rangli mashina qolgan edi. Alisher va Dilshod o'rtasida quyidagi suhbat bo'lib o' tdi:

Alisher: Salom Dilshod.

Dilshod: Assalomu alaykum.

Alisher: Sen oying bilan o'yinchoqlar do'koniga bordingmi?

Dilshod: Men oyimlarni o'yinchoqlar do'koniga o'ib bordim.

Alisher: Qanaqa o'yinchoq olding?

Dilshod: Koptok.

O'yinning tugashi: Bolalar dialogini kuzatib turgan tarbiyachi, ularni boshqa mashg'ulotga yo'naltiradi. Dialog davomida Dilshod tomonidan qilingan nutqiy g'alizliklar inobatga olinadi va kunning ikkinchi qismida Dilshod bilan individual ish olib boriladi.

Bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. Ulardan asosiylarini aytib o'tamiz:

1. Hikoya namunasini berish usuli. Bunda qandaydir buyumni (predmetni) yoki voqeani jonli va qisqa tasvirlanadi. Bu usul birmuncha yengil usul bo'lib, tarbiyachi bolalarga narsa-buyum, rasm, voqea haqida tayyor hikoya aytib beradi, bolalar hikoyani tinglab, o'z hikoyalari uchun mazmun tanlaydilar, uning hajmini, izchilligini belgilab oladilar. Shuning uchun bu usul bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishga yordam beravchi ta'limiy usul bo'lib hisoblanadi.

Namuna bolalarning taqlid qilishiga mos bo'lishi, ya'ni hajmi kichik, fikrlar izchil bayon qilinishi, jumlar qisqa va grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi lozim. Masalan, tarbiyachi o'yinchoqni tasvirlashga o'rgatishda o'zi bitta o'yinchoqni olib, u haqda shunday tasviriy hikoya tuzadi:

— Mana bu ayiqcha. U jigarrang, yumshoq baxmaldan yasalgan. Uning bosh qismida ikkita kichkina quloqlari, ikkita qop-qora, dum-dumaloq ko'zlari, tumshug'i bor. Tumshug'ida esa burni bor. Tanasida 4 ta oyog'i bor. Ayiqcha o'yinchog'i bizga o'ynash uchun kerak.

Bolalar namuna hikoyadan yaxshi foydalanishlari uchun uning matni qisqa gaplardan iborat bo'lishi va izchil bayon qilinishi kerak.

Hikoya namunasi boshqa usullarga nisbatan hikoya qilishga o'rgatish jarayonini yengillashtiradi, bolalar erishishi kerak bo'lgan natija ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari, namuna bolalarning hikoya qilishlari lozim bo'lgan mavzularning taxminiy mazmunini, ularning hajmini, ketma-ketligini belgilaydi.

Tarbiyachining namuna hikoyasidan bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishning dastlabki bosqichlaridan, shuningdek, yangi vazifa qo'yilganda yoki hikoya qilib bera olmaydigan bolalarga yordam berishda foydalaniladi. Tarbiyachining namuna hikoyasini yomon hikoya qiladigan 1 — 2 bola takrorlashi mumkin.

Namuna hikoya usulidan mashg'ulotning boshida foydalanish kerak. Undan mashg'ulot oxirida foydalanish esa hech qanday ijobiy natija bermaydi, chunki bolalar namuna hikoyaga taqlid qila olmaydilar, o'z nutqlarida undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

2. Hikoya rejasini berish usuli. Hikoya rejasi 2 — 3 asosiy savoldan iborat bo'lib, fikrning ketma-ketligini va mazmunini belgilaydi. Namuna usulidan foydalanib hikoya qilib berish bilan bog'liq 2 — 3 mashg'ulotdan keyin hikoyani reja asosida so'zlab berishga o'rgatish mustaqil, yetakchi usullardan biri bo'lib qoladi. Bolalar hikoyasi xilma-xil bo'lishi uchun tarbiyachi oldindan asosiy va qo'shimcha reja tayyorlab qo'yishi kerak. Bir mashg'ulot jarayonida savollarni almashtirish (yangilash) bolalar diqqatini faollashtiradi.

Masalan, maktabga tayyorlov gurahi bolalariga o'z guruh xonalarini tasvirlash uchun taxminan quyidagi rejani taklif etish mumkin:

- Xonani kim toza saqlaydi?

- Sen xonani yig'ishtirishda (tozalashda) qanday yordam berasan?

5yoshli bolalar guruhi bilan dastlabki mashg'ulotlarda, agar bola rejadan chetlashsa, uning nutqini bo'lmasdan, oxirigacha tinglab turish lozim. Ammo asta-sekin hikoyaning to'liq yoki izchil emasligini aytib, boshqa bolalarni javobni to'ldirishga jalb qilishi kerak. 6yoshli bolalarning hikoyasiga dastur talablarini (ularning maqsadga qaratilganligi va izchilligiga) qo'yadi. Shuning uchun bolalarni hikoya rejasiga amal qilishga o'rgatish kerak. Ayniqsa, bu rasm asosida hikoya qilish va o'z tajribalaridan hikoya tuzishga taalluqlidir. Tarbiyachi hikoya qiluvchining mavzudan yoki rejadan chetga chiqib ketganini o'zi ko'rsatibgina qolmay, balki bolalarni o'rtog'ining hikoyasini nazorat qilib borishga jalb qilishi kerak.

(Hozir nima haqida hikoya qilib berish kerak? Hammaga tushu-narli bo'lishi uchun awal nimani hikoya qilib berish yaxshiroq?) Hikoya namunasini berish hikoya qilishga o'rgatishning eng yengil usuli, hikoya rejasi berish usuli esa ancha qiyin. Bu usul murakkab bo'lishiga qaramay, bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda keng tarqalgan muhim usul hisoblanadi.

3. Rejani jamoa bosh muhokama qilish usuli. Reja asosida hikoya tuzish va uning mazmunini boyitishni yengillashtirish maqsadida, rejani jamoa bo'lib muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu usuldan katta va

maktabga tayyorlov guruhlarida reja asosida hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi. Masalan, tarbiyachi bolalarga shunday yo'llanma beradi: „Biz qanday qilib jo'ja boqqanimizni gapirib bering. Jo'jalar qayerdan paydo bo'ladi? Ularni qanday parvarish qildingiz? Jo'jalar katta bo'lganda, ular qanday bo'lishdi?“

Bu usulning mohiyati nimadan iborat?

Hikoyani tuzishga qadar tarbiyachi bolalar bilan birgalikda rejadagi ayrim savollarni muhokama qiladi, ya'ni hikoya mazmunining xilma-xil bo'lishi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Rejadagi bir savolga (masalan, „Bola qanday kuchukcha topib oldi?“) bir necha bola joyida o'tirgan holda javob berishini taklif etadi. Bolaning joyida o'tirgan holda javob berishi — bu hali hikoya emas, balki bir yoki bir necha gap. Hikoya rejasini jamoa bo'lib muhokama qilish usuli esa bolalarning tashabbuskorligini jonlantiradi, faollashtiradi, bolalarni murakkab jarayon hisoblangan mustaqil hikoya tuzishga o'rgatadi.

4. Jamoa bo'lib hikoya tuzish usuli.

Bu usul o'ziga xos bo'lib, undan bolalarni ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda foydalaniladi. Oldindan belgilab qo'yilgan hikoya rejasini ketma-ket muhokama qilish jarayonida tarbiyachi va bolalar ayrim javoblarni tinglaydilar, ulardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini muhokama qiladilar. Tarbiyachi ularni o'ylab topilgan hikoyaning boshlanishi sifatida takrorlaydi. So'ngra navbatdagi eng yaxshi savol tanlanadi, tarbiyachi esa aytilgan eng yaxshi jummalarning va o'zining gapini birlashtirib, kichik hikoya tuzadi.

Oxirida hikoya tarbiyachi tomonidan takrorlanadi, so'ngra 2 — 3 bola takrorlaydi. Bu usulning mohiyati shundaki, mash-g'ulotda barcha bolalar faollik ko'rsatishadi, ularning xayollari asta-sekinlik bilan shakllanadi. Biroq bu usulning bir qator kamchiliklari mavjud: bolalarning nutq faoliyati jummalarni tuzish, so'zlarni tanlash bilangina chegaralanadi, ular monolog nutqni rivojlantirish ustida kam mashq qiladilar. Shuning uchun bu usuldan foydalanish chegaralangan.

5. Hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usuli.

Ayrim mashg'ulotlarda hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usulidan foydalanish mumkin, bu usul hikoya tuzishni yengillashtiradi, chunki topshiriq hajmi kamayadi. Shuningdek,

mashg'ulot ancha qiziqarli va xilma-xil bo'lib, hikoyalar to'liq va chuqur mazmunga ega bo'ladi, ko'p bolalardan so'rash imko-niyati vujudga keladi.

Mazmuni alohida qismlarga yengil ajraladigan rasmlarni qism bo'yicha tasvirlash mumkin. Masalan, bolalar ushbu rasmlarni qism bo'yicha tasvirlashlari mumkin: „Tovuqlar“, „Mushuk bolalari bilan“, „Echki bolalari bilan“, „Sigir buzog'i bilan“, „Qishki o'yinlar“ va hokazolar.

Tarbiyachi tasviriy hikoya uchun mavzu taklif etishdan avval rasmni kichik-kichik qismlarga ajratib chiqadi. Masalan, „Quyonglar“ degan mavzuda tasviriy hikoya tuzishda tarbiyachi bolalarni shunday ogohlantiradi: „Quyonglar haqida hikoya qilamiz, ammo hammasini bir yo'la emas, balki quyonglar haqida hamma narsani xotirlash (esga tushirish) uchun tartib bilan gapiramiz“. So'ngra har bir qism uchun reja taklif etish mumkin. Masalan: „Hozir, bolalar quyongni tanasi nima bilan qoplan-ganligini, uning tumshug'i qanday ekanligini, u qanday harakat qilishini (yurishini) eslaymiz“.

Bu reja asosida 2 — 3 bola hikoya qilib bergach, navbatdagi qismga o'tiladi: „Bizning quyonglarimiz qayerda yashashini, katagida nimalar borligini, ular nima uchun kerakligini gapirib bering“. So'ngra quyongning oziqlari, kim ularga g'amxo'rlik qilishi va hokazolar haqida hikoya qilib berish mumkin. Mashg'ulot oxirida nutqi yaxshi, hikoya qilish malakasi rivojlangan bir bola rasmda tasvirlangan narsalar haqida batafsil gapirib berishi mumkin.

6. Savollar berish usuli.

Bu usul hikoya qilishga o'rgatishda ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Savollar, asosan, hikoya aytib berilgandan keyin aniqlik kiritish va to'ldirish maqsadida beriladi.

7. Aytib turish usuli.

Hikoya qilish jarayonida bola qandaydir xatoga yo'l qo'yishi yoki ayrim joyini esdan chiqarganda so'z yoki gapni aytib turishdan foydalanish o'rinli. Bolaning xatosini to'g'rilash yoki hikoyaning esdan chiqargan joyini aytib turish yetarlicha baland ovozda, samimiy bo'lishi kerak. Bola tarbiyachining tuzatishini takrorlashi shart emas, aks holda u o'z hikoyasining davomini yo'qotib qo'yadi. Bolalar hikoya qilib

berayotganlarida ular nutqidagi xatolarni e'tiborsiz qoldirish kerak emas — xatoni hikoya jarayonida to'g'rilash mumkin, agar ko'pchilik bolalarda xato uchraydigan bo'lsa, tarbiyachi ular bilan lug'at ustida ishlash yoki grammatik to'g'ri nutqni, nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun tashkil etiladigan mashg'ulotlarda shug'ullanadi.

8. Baholash usuli.

Bu usuldan foydalanishning asosiy maqsadi shundaki, baho faqat hikoyasi baholanayotgan bolagagina ta'sir etib qolmasdan, balki hikoya tuzishi lozim bo'lgan boshqa bolalarga ham ta'sir qilsin. Shuning uchun bu usuldan mashg'ulot davomida foydalaniladi. Mashg'ulot oxirida berilgan baho, o'z mohiyati bilan foydasizdir, bundan tashqari, barcha tinglangan hikoya-larning sifati qanday bo'lganligini bola esda saqlashda qiynaladi, mashg'ulotning oxirida ular toqatsizlanadilar va buning natijasida tarbiyachining ko'rsatmalarini idrok eta olmaydilar. Har bir hikoyani batafsil baholash shart emas, biroq ayrim hikoyalardagi biror ahamiyatli tomonni, izchillikni, yangilikni yoki kamchi-liklarni (lug'ati, ovoz kuchi, qomatini noto'g'ri tutish va hokazo) aytib o'tish kerak.

Masalan, ikkita o'yinchoqni stol bo'ylab yurgizib, harakat-larini aniq aytib, hikoya qilib berish topshirig'i berilgan.

Tarbiyachi hikoya qilib bergan bolaning hikoyasini shunday baholaydi: „Yasha, Salim. Sen birinchi bo'lib hikoya qilib bersang-da, o'rdakchalar qanday harakat qilishlarini aytishni esingdan chiqarmading. Sening hikoyangni qiziqib tingladik“.

Ba'zan o'rtoqlarining hikoyasini muhokama qilishga bola-larning o'zini ham jalb qilish mumkin. Bu usul katta guruhlarda qo'llaniladi. Chunki 6 yoshli bolalar hikoyaning sifatini (to'liq-ligini, qiziqarililigini, ifodaliligini va boshqalarni) ayta oladilar.

Shunday qilib, tarbiyachi bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan hamma usullarni juda yaxshi bilishi va bu usullardan sharoitga qarab, mashg'ulot uchun yetakchi usulni tanlashi kerak.

Bolalarning eng sevimli va qiziqarli mashg'ulotlaridan biri bu o'yinchoqlarni ko'rib chiqish va tasvirlashdir. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishning ma'nosi juda keng. U bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi, birgalikda hikoya qilish malakalarini rivojlantiradi, xotira, diqqat va irodani mashq qildiradi. Hayotda hosil qilgan tajribalarini, idroklarini mustahkamlaydi; kam gapiradigan bolalarning nutqiy

muloqotga kirishib ketishiga ta'sir etadi, ularning hayotlarini sermazmun va quvnoq qiladi; lug'atini faollashtiradi, bog'langan nutqning rivojlanishiga yordam beradi.

Katta guruhlarda taxminan quyidagi o'yinchoqlarni tanlash mumkin (tarbiyachi oldindan o'yinchoqlar to'plami ro'yxatini tuzib qo'yadi):

Sentabr. Qog'ozdan yasalgan to'q sariq, zarg'aldoqrang bayroqcha; matodan yasalgan yashil rangdagi bayroqcha; yog'ochdan yasalgan qo'ziqorin; plastmassadan va metallardan qilingan chelakchalar; har xil kattalikdagi qo'g'irchoqlar to'plami; qayiqchalar (o'yinchoqlar nimadan yasalganligini, nomini, rangini bildiruvchi so'zlarni mustahkamlash uchun),

Noyabr. Soatlar, pochta qutisi, telefon, paroxod, avto-mobillar, samolyotlar (shakl va fazoni bildiruvchi, *oldinda, yuqorida, orqada* kabi so'zlarni mustahkamlash va tushuntiravchi hikoyalar tuzish uchun).

Yanvar. Juft o'yinchoqlar to'plami: past va baland ikkita piramida; ikki xil avtomobil; mushuk va kuchuk; har xil rangdagi ikkita otcha; ikkita har xil qo'g'irchoq (*o'ngda, chapda, yonda, ketma-ket* so'zlarini mustahkamlash hamda taqqoslovchi hikoya tuzish uchun).

Turli yosh guruhlarida o'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish.

Kichik guruh. Ushbu guruhda o'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar emotsional shaklda, odatdagi oddiy ta'-limiy o'yin ko'rinishida („Ajoyib xaltacha“, „Bu kim?“, „Sen nimani topding?“) olib boriladi.

O'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar ularni ko'rib chiqishdan boshlanadi. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'yinchoqlarning tashqi ko'rinishidagi xarakterli xususiyatlarga qaratadi (rangi, shakli, materiali), ularning belgilarini bildiruvchi so'z-larning to'g'ri aytilishini nazorat qiladi. Tasvirlash tarbiyachining savollari yordamida olib boriladi. Kichikintoylarga tugallangan hikoya berilmay, balki alohida jumlar aytiladi, shuning uchun savollar yordamida uzuq so'zlar, jumlar, luqma tashlashlar birlashtiriladi. Tarbiyachi bolalarning javoblaridan keyin ularni umumlashtiradi, o'yinchoqlar haqidagi namuna-hikoyani taklif etadi. Masalan, kuchukcha o'yinchog'ini olib (tarbiyachining stoli ustida ikki xil rangdagi kuchukcha, bin katta, oq baxmaldan qilingan, qulog'i

pastga tushgan; ikkinchisi, kichkina, qora rangda, quloqlari tik) shunday deydi: „Men hozir bu o‘yinchoq kuchukcha haqida gapirib beraman. Sizlar esa diqqat bilan tinglab o‘tiringlar, keyin sizlar ham kuchukcha haqida xuddi mendek gapirib berasizlar: Bu o‘yinchoq — kuchukcha. U katta, rangi oppoq, baxmaldan yasalgan. Kuchukchanning boshida ikkita uzun quloqlari bor. Uning bitta qulog‘i tik, yuqoriga qaragan, ikkinchi qulog‘i esa pastga osilib tushgan. Kuchukchanning bo‘ynida yashil rangli lentasi bor. Uning uzun dumi, oldingi va orqa oyoqlari ham bor. U „vov-vov“ deb vovullaydi. Bu o‘yinchoqni biz juda sevib o‘ynaymiz, o‘zimiz bilan sayrga olib boramiz. O‘ynab bo‘lgach, uni o‘yinchoqlar burchagiga qo‘yib qo‘yamiz“. Bolalar, endi kuchukcha haqida sizlar gapirib berasizlar. Men kimni chaqirsam, shu bola o‘yinchoqni olib, uning nomini, rangini, qanday materialdan yasalganligini, uning nimalari borligini aytib beradi. Bolalar shu tariqa sekin-astalik bilan namuna-hikoya asosida tasviriy hikoya tuza boshlaydilar.

O‘rta guruhda bolalar sekin-astalik bilan mustaqil ravishda o‘yinchoqlar bo‘yicha tasviriy hikoya tuza boshlaydilar. O‘rgatishning eng natijali usullaridan biri bu har doimgi mashg‘ulotda namuna-hikoyadan foydalanishdir. Namuna-hikoyani mashg‘ulotning qaysi qismida (mashg‘ulotning boshida, oxirida) berishni bolalarning hikoya qilib bera olish darajasi belgilaydi. Ushbu guruh bolalari yilning ikkinchi yarmidan boshlab tarbiyachining rejasi asosida hikoya tuza boshlaydilar. Dastlab uncha katta bo‘lmagan reja asosidagi ikki-uchta savol o‘yinchoqlarning nomini, ularning asosiy sifatlarini va u bilan qilinadigan harakatlarni birlashtiruvchi uncha katta bo‘lmagan hikoya tuzishni nazarda tutadi. („O‘yinchoqning nomi, rangi, hajmi, u bilan qanday o‘ynash mumkinligini gapirib bering.“) Sekin-astalik bilan rejani murakkablashtirish, ya‘ni savollarni har xil berish mumkin. (Bu o‘yinchoq qanday materialdan qilingan? U senga yoqadimi?)

O‘yinchoqlar bilan o‘tkaziladigan ta‘limiy o‘yinlardan keng foydalaniladi: „O‘yinchoqlar do‘koni“, „Pochtachi sovg‘a olib keldi“. Bunday mashg‘ulotlarni emotsional tarzda o‘tkazish bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish uchun qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, o‘yinchoqlar haqidagi topishmoqlardan foydalanib o‘tkaziladigan mashg‘ulot juda qiziqarli o‘tadi.

Bolalar tasviriy hikoya tuzishga yaxshi o'rganib olganlaridan so'ng, o'yinchoqlar to'plami bo'yicha voqeaband hikoyalar tuzishni taklif etish mumkin. Bu mashg'ulot uchun o'yin-choqlarni shunday tanlash kerakki, oddiy voqea chizig'ini belgilash qiyin bo'lmasin (qizcha, qo'ziqorin, savatcha, archa, tipratikan). Tarbiyachining savollari bolalarga hikoya voqealarini izchil yoritishga yordam beradi. Chunonchi: „O'rmonda qizcha bilan qanday voqea sodir bo'lishi mumkin? Qizcha o'rmonda nimani uchratib qolishi mumkin? Nimani topib olishi mumkin? U o'rmondan savatchasida nima olib keldi?“ Hikoya tuzishda tarbiyachining hikoya-namunasidan ham foydalaniladi. Bolalar bu hikoya namunasining aynan o'zini takrorlaydilar, shuning uchun namunani har bir mashg'ulotda berish maqsadga muvofiqdir.

Namuna bolalarni voqeaviy hikoya tuzishga o'rgatib qolmasdan, balki nutqiy qurilmalarni ham berishi kerak. Shuning uchun hikoyaga ko'chirma gapni, tasvirli (obrazli) ifodalarni, uncha katta bo'lmagan tasvirlashlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, tarbiyachining namuna-hikoyasi: „Gavhar ismli qizcha yozda qishloqdagi buvisinikiga dam olgani bordi. Kunlardan bir kuni u savatchasini olib o'rmonga sayr qilgani chiqdi. Qarasa, yo'lning chekkasida tipratikan yugurib ketyapti. Gavhar uni ushlab, savatchasiga solib, uyiga olib ketmoqchi bo'ldi, biroq bu fikridan tez qaytdi. „Mayli, tipratikan o'rmonda yashay qolsin, bu yerda unga juda ham yaxshi“ deb o'yladi-da, gullar, qo'ziqorinlar tera boshladi“.

O'yinchoqlar to'plami bo'yicha voqeaband hikoya tuzish mashg'uloti ikki qismdan iborat bo'ladi:

- 1) o'yinchoqlarni ko'rib chiqish;
- 2) o'yinchoqlar bo'yicha hikoya tuzish.

Birinchi qismning maqsadi — bolalarni o'yinchoqlar bilan tanishtirish, har biriga qisqacha ta'rif berish. Bu qism vazifa berish, hikoyaning qisqacha rejasi yoki namuna-hikoya tuzish bilan tugallanadi. (Bu o'yinchoqlar haqida hikoya tuzishga o'rganamiz.)

Katta guruhda o'yinchoqlar bo'yicha bog'langan hikoya tuzishning xilma-xil mashg'ulot turlaridan foydalaniladi, chunonchi:

- 1) o'yinchoqlarni tasvirlash;
- 2) o'yinchoqlar to'plami bo'yicha voqeaband hikoya tuzish;
- 3) bitta o'yinchoq bo'yicha voqeaband hikoya tuzish.

Mashg'ulot ikkinchi yarim yillikdan boshlab tashkil etiladi. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun uni jihozlashni va tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yish kerak. Guruhda bolalar diqqatini chalg'itmaslik uchun o'yinchoqlarni yashirin holda (qutichada, sandiqchada va hokazo) olib kirgan ma'qul. Dastlab mashg'ulotga 6 — 8 yirik o'yinchoq olib kiriladi. Mashg'ulotni boshlashda tarbiyachi bolalarga o'yinchoqlarni ko'rib chiqqanliklarini, ular har xil rangda va har xil material dan yasalgan bo'lishini bilishlarini eslatib o'tadi. Yana ularga o'yinchoq olib kelganligini ma'lum qiladi. Tarbiyachi bolalarga bugungi mashg'ulotda o'yinchoqlarni ko'zdan kechiribgina qolmasdan, balki ular haqida hikoya tuzishlarini ma'lum qiladi. Bolalarga shunday deydi: „Awal o'yinchoqni diqqat bilan ko'zdan kechirish kerak, so'ngra u nima deb aytilishini, qanday rangda ekanligini, nimadan yasalganini gapirib berish kerak". Tarbiyachi dastlabki mashg'ulotda hikoyaning namunasi yoki rejasini (Bu qanday buyum? Uning qanday qismlari bor? Ular nima uchun kerak? Bu buyumdan qanday foydalanishni tushuntir va ko'rsat) beradi. Ushbu guruhda mustaqillikka va ijodiylikka undovchi mashg'ulotlardan keng foydalaniladi: „o'yinchoqlar bo'yicha topishmoqlar aytish o'ynaymiz". (Stol ustiga echki, it, xo'roz, ot, toshbaqa, mushuk, qo'y o'yin-choqlari qo'yiladi. Ularga oid topishmoqlar oldindan tanlab qo'yiladi: „Boshida tayog'i bor, sakkizta tuyog'i bor", „Emaklagan toshni ko'rdik, toshdan chiqqan boshni ko'rdik", „To'rtidir uning oyog'i, temir mixli tuyog'i, manzilga yetishtirar, toshdan qattiq tuyog'i", „Ketaveradi, ketaveradi, savatday yerni egal-laydi", „Erta turadi, jar chaqiradi", „Kichkina qumg'on, o'tirib ko'zini yumgan". Tarbiyachi bitta o'yinchoq bo'yicha topishmoqni aytadi, bolalar topadilar. So'ngra bolalarning o'ziga topishmoqlar aytish taklif etiladi) „Cevimli o'yinchoqlarimiz haqida gapiramiz". o'yinchoqlarni ta'riflashda bolalar nutqiga katta talablar qo'yiladi. Bolalarga berilgan „Qanday o'yinchoq?" degan savolga o'yinchoqning har bir qismini diqqat bilan ko'rib chiqib uni tasvirlashni (shaklini, uzunligini, rangini, nimadan qilinganligini va hokazolarni) talab etadi. Bolalar uni darrov to'liq tasvirlab bera olmaydilar. Tarbiyachi bolalarga hikoyani to'ldirishni taklif etadi yoki o'zi hikoya namunasini beradi.

Bolalar o'yinchoqlar to'plami ichidan o'zlari istagan o'yinchoqni tanlab, ular bo'yicha qiziqarli hikoyalar o'ylab topishadi,

biroq ba'zan mazmundan chetga chiqib ketish hollari ham bo'ladi. Bunday hollarda tarbiyachi o'zining savollari, esga tushirishi, aniqlik kiritishi, to'ldirishi bilan mantiqli, tasvirli hikoya tuzishga yordam beradi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhida o'yinchoqlar yordamida inssenirovka ko'rinishidan iborat bo'lgan hikoya tuzishga ham o'rgatib boriladi. Tarbiyachi bunday hikoyaning namunasini beradi. Masalan, qizcha va kuchukcha to'g'risida hikoya: „Bir qizcha yashar edi va uning oppoqqina, yaxshigina kuchukchasi bor edi. Qizcha uni boqar, sayrga olib chiqar edi. U kuchukchasining bo'yniga qizil tasma bog'lab qo'ygan edi. Kunlardan bir kun qizcha maktabga o'qishga ketdi. Uyg kimdir keldi-yu, eshikni ocbiq qoldirdi, kuchukcha esa ko'chaga yugurib chiqdi. Qizcha maktabdan kelsa, kuchukcha yo'q. Qidirib topa olmadi. U ko'chaga yugurib chiqdi. Qarasa, qo'shni uyning darvozasi oldida o'tiribdi. U juda kir bo'lib, titrab yig'lar edi. Qizcha uni ko'tardi-da, uyga olib keldi". Hikoya o'yinchoqlarni harakatlantirish bilan aytiladi.

Bog'lanishli nutqni jonli va ravshan bo'lishi uchun o'yinchoqlar bilan tashkil etiladigan spektakllar katta ahamiyatga ega. Bu spektakllarni katta guruh bolalari kichkintoylarga qo'yib berishadi. Spektakl boshlanishidan awal tarbiyachi guruh bolalari bilan kichkinagina suhbat o'tkazadi, bolalarga o'yinchoqlar uchun „voqealar“ o'ylab topishni va uni o'rtoqlariga gapirib berishni taklif etadi. Mavzular hayotiy yoki xayoliy bo'lishi mumkin. Masalan, „Hayvonot bog'ida ayiq hayotida qanday voqea sodir bo'ladi?“, „Tulking tug'ilgan kuni“, „O'yinchoqlar do'koni“, „Yangi yil kechasi“ va boshqalar.

Tabiiy buyumlarni tasvirlash. Bu mashg'ulot katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega, bunday mashg'ulotlarda bolalarning kundalik hayotlarida ishlatiladigan, atrofni o'rab turgan, ro'zg'orda ishlatiladigan buyumlar tasvirlanadi. Shuningdek, tabiat obyektlari (mevalar, uy o'simliklari, barglar), xo'jalik buyumlari, tanish mehnat qurollari va hokazolar bo'lishi mumkin. Bolalar hikoya tuzar ekan, ularning buyumlar (shakli, nimadan qilinganligi, uning vazifasi) to'g'risidagi bilimlari yanada mustahkamlanadi. Buyumlarni tasvirlash bilan bir vaqtda ularning kuzatuvchanligi, tahlil qila olish malakasi, taqqoslash qobiliyati rivojlanadi. Bu mashg'ulot turida buyumlar yig'indisidan (25 — 30 dona, vazifasi, turkumi va hokazolari bir xil bo'lgan) foydalangan

ma'qul. Masalan, katta guruhda quyidagi buyumlardan foydalanish mumkin: turli xildagi sovundonlar, tish cho'tkalari, g'iloflar, taroqlar, oynalar va hokazo; idish-tovoqlar va oshxona buyumlari (o'qlov, kapgir, chovli, tuzdon va hokazo); tikuv buyumlari (ip g'altaklari, tugmachalar, qaychilar, igna qadagichlar va boshqalar); maktab (o'quv) anjomlari (qalamlar, o'chirg'ichlar, chizg'ichlar, ruchkalar). Bolalarning hikoyasini buyumlarning turkumlanishi asosida, vazifasiga qarab (Yana kimda g'iloflar bor?), materiali bo'yicha (Yashil rangdagi buyumlarni eslay-sizmi?) navbatlashtirish mumkin.

Mashg'ulotda topishmoqlardan ham foydalanish mumkin: Hamмага to'n tikadi, o'zi yalang'och (*Igna*); Tap-tap etadi, tagidan karvon o'tadi. (*Elak*); Borishda qorni och, qo'shiq aytar, kelishda qorni to'q yig'lab qaytar (*Chelak*). Bolalarning taqqoslovchi hikoyalaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, ikkita ignadonni tasvirlash: „Mening ignadonim plastmassadan yasalgan, uniki esa — yog'ochdan. Mening ignadonimning yuqorisida angishvonasi bor, unikida esa yo'q. Mening ignadonimning uchi o'tkir, xuddi raketaga o'xshaydi, lining ignadoni esa xuddi hushtakka o'xshaydi“. Bunday mashg'ulotlar natijasida bolalar o'zlari mustaqil ravishda buyumlar to'g'risida, uning eng muhim belgilarini ajratgan holda topishmoqlar o'ylab topishga o'rganadilar.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Bola tarbiyasida o'yinchoqning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Turli yosh guruhlarda bolalarni o'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish usullari haqida nimalarni bilasiz ?.
3. Bola tarbiyasida milliy o'yinchoq va qo'g'irchoqlarning roli qanday?
4. Qo'g'irchoqlarning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
5. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish usullari xususida to'xtaling?.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019

3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. - T.: "O'qituvchi", 1988.

4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -T.: "O'qituvchi", 1995.

5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.

6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalami savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.

8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

20-§: BADIY ASARNI SAHNALASHTIRISH TURLARI VA UNI QO'YIB KO'RSATISH METODLARI

REJA:

1. Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari
2. Sahnalashtirilgan o'yinlar
3. Badiiy asarni shakllantirib ko'rsatish usullari

Tayanch tushunchalar: *personaj, emotsional, ijodiy o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar, qurish-yasash o'yinlari*

1. Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti- harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarini o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bujarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.
 2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
 3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
 4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.
 5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.
 6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'i zarur.
- Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan, «Sholg'om», «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq» va boshqalar. Bolalar

boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo'g'irchoq, soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta qo'yib berish, sahnada ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o'yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. o'yinda faol ishtirok etgan bolalami alohida rag'batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Bolahrning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechayeva o'z tadqiqotlarida qurish- yasash o'yinlarining o'ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib berganlar. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishidagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar. _

Sahnalashtirilgan o'yinlar. Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yinlar sirasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, xayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini uyushtira olish jihatlari xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida ko'riladi: o'yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertagidan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so'zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo'lmaydi, ammo unga o'yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi.

Bunday o'yinda bola o'zini o'sha asardagi qahramon o'rnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so'zlab berish boladagi xayolni rivoj-

lantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo'lgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o'yinda badiiy asarning g'oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi.

Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma'lum bir rolni bajarishiga, o'yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so'zlarining yod olinishiga asoslangan bo'lib, bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi. Sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

I bosqich. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko'p bo'lishi kerak; 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo'lish ga e'tibor qaratish lozim; 3) asar ifodali o'qishga mos bo'lishi kerak, 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo'lishi zarur; 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

II bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o'qib berish.

III bosqich. Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erish , qayta o'qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

IV bosqich. O'yin qiziqarli o'tishi va uzoq davom etishi uchun o'yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to'g'ri amalga oshirish.

Badiiy asarni sahnalashtirib ko'rsatish usullari.

Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo'naltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda tulki, sichqon, xo'roz, quyon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos

xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari mana shunday o'rganiladi.

Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo'lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo'lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg'om», «Bo'g'irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklarga olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she'rlar ham olinadi. Masalan, tarbiyachi o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ulaming kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi. Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko'proq qanday asarni sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola topshirilgan rolni yaxshi ijro eta olganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo'lg'usi sahnalashtiriladigan o'yinlar jonlantiriladi.

Non isi

Alisher Navoiy

Sahnada saroy ko'rinishi tasvirlanadi. «Non isi» rivoyatini sahnalashtirish uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar hozirlanadi. Ishtirokchilarning barchasi o'z o'rnini egallaydi.

- Bir kuni podshoh Husayn Boyqaro o'z huzuriga vazirlarini chaqiribdi. Dunyodagi eng xushbo'y narsani keltiring!

O'ng qo'l vaziri bir dasta atirgul keltiribdi.

Vazir: - Mana shohim.

Shoh: - Yo'q, men aytgan narsa bu emas.

Chap qo'l vaziri qalampirmunchoq keltiribdi.

Vazir: - Mana, shohim, marhamat.

Shoh: - Yo'q. Men aytgan narsa bu emas. Sizlarga uch kun muhlat topsalaringiz - topdingiz, topmasalaringiz, hammangizni jazolaymen!

Vazirlar nima qilishlarini bilmay, rosa boshlari qotibdi. O'ylay-o'ylay, Alisher Navoiyning huzuriga borib, maslahat so'rashga qaror qilishibdi.

- Assalomu-alaykum, taxsir.

- Vaalaykum assalom. Kelinglar, xush ko'rdik, marhamat.

Vazir: - Ey, mehribon ustoz! Bizni jazodan qutqaring. Shohimiz dunyoda eng xushbo'y isli narsani keltirishimizni buyurib edilar. Shuni hech topa olmayapmiz. Panohingizga oling.

Navoiy: - Bu jumboqni ochadurg'on kishi - Dehqon bobodur. Qani, yuringlar-chi, so'raymiz.

Hammalari birgalashib, Dehqon bobo huzuriga boribdilar. Dehqon: - Otam rahmatli tandirdan yangi uzilgan non isidan hushbo'yroq narsa yo'q, deguvchi edilar. Yangi yopilgan non olib boringlar-chi, shohga ma'qul kelsa, ajabmas. Navoiy yangi uzilgan nonni savatga solib, shoh huzuriga kiribdi. Navoiy: - Mana, shohim. Dunyoda hushbo'y hidli narsa - tandirdan yangi uzilgan nondir.

Shoh: - Rahmat, do'stim, ko'nglim istagan narsani siz topib keltiribsiz.

Navoiy: - Shohim, rahmatni menga emas, Dehqon boboga ayting, ko'nglingizning istagini shu kishi topdi.

Shoh chapak chalib, mulozimlarini chaqiribdi.

Shoh: - Dehqonga sarpo kiydiring!

Shoh xazinaboni dehqonga sarpo kiydiribdi.

Dehqon: - Qulluq, shohim, qulluq.

Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning ahamiyati. Bolalar badiiy adabiyoti ularga aqliy, axloqiy va estetik tarbiya berishda, nutqini har taraflama rivojlantirishda va boyitishda katta ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolalarga jamiyat hayotini va tabiatni, kishilik dunyosining ichki his-tuyg'ularini va o'zaro munosabatlarni poetik obrazlarda ochib beradi, tushuntiradi. U bolaning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, xayolini tarbiyalaydi va o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalarini bilan tanishtiradi. Bu namunalar o'zining ta'siri jihatidan xibna-xildir: hikoya orqali bolalar so'zlarning aniqligini, ma'nodorligini anglab oladilar; she'rlardan esa ularning musiqaviyligini, kuylanuvchanligini, ohangdorligini bilib oladilar, xalq ertaklari bolalarga tilning ifodaliligini, mazmundorligini ochib beradi, nutqning xilma-xilligini, hazil-mutoyibaga boyligini bolalarning ko'z oldida namoyon qiladi.

Badiiy adabiyot bolalarga kishilarning hayoti va mehnatlari, ishlari va qahramonliklari, bolalikdagi eng qiziqarli voqealar, ularning o'yinlari, mehnatlari haqida hikoya qilib beradi.

Badiiy adabiyot bolalarga hayotni tushuntiradi va shu orqali bola hayotiy tajribasining ortib borishiga ta'sir etadi. Badiiy adabiyot kishilarning ichki dunyosini, ularning his-tuyg'ularini, xarak-terlarini ochib berishi bilan bolalarni hayajonlanishga, qahra-monlarning xatti-harakatlarini baholashga va uni muhokama qilishga o'rgatadi. Badiiy asarning eng yaxshi namunalari bolalarda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga: yaxshi — yomon, haq — nohaq, rost — yolg'on va h.k. so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda bolalar bog'chasining tarbiyachisi oldida turgan vazifalar. Bolalar bog'chasi tarbiyachisining oldida har bir badiiy asarni san'at asari sifatida bolalar ongiga yetkazish, uning mazmunini ochib berish, badiiy asarda qatnashuvchi personajlarga nisbatan emotsional munosabatda bo'lish, muallifning lirik kechinmalarini his etishga, ya'ni asarda qatnashuvchi qahramonlarga nisbatan o'z munosabatlarini ifodalashga o'rgatish kabi murakkab vazifalar turadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachining o'zi, bolalarni badiiy asar bilan tanishtirishdan awal, uni his etishi va tushunishi, mazmunini tahlil eta olishi zarur. Shuningdek, pedagog o'qish va hikoya qilib berish texnikasini, ya'ni aniq diksiyani, ifodali o'qish vositalarini (mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'ya olish, pauza, ovoz toni va tempi) egallagan bo'lishi kerak. Badiiy asarning har bir janrini ifodali tarzda bolalarga yetkaza olingandagina, uning g'oyaviy mazmunini to'g'ri idrok ettira olish mumkin. Bolalarda badiiy asarni idrok etish qobiliyati o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, uni bolaning ilk yoshidan boshlab rivojlantirish va tarbiyalash kerak, shundagina bola keyinchalik badiiy asarlarni diqqat bilan tinglashga, badiiy nutqqa e'tibor berishga o'rganadi. Bolalar ongiga badiiy asarlarning axloqiy, estetik mohiyatini yetkazish — bu murakkab vazifa hisoblanadi.

Pedagogik rahbarlikning bir maqsadga qaratilishi bolalar tomonidan badiiy asarlarning estetik jihatlarni va ularning mazmunini, badiiy ifoda vositalarini idrok etish imkonini yara-tadi.

Turli yosh guruhlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning mazmuni. Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ bolalar adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi vazifalarni qo'yadi: bolalarda badiiy so'zga muhabbatni tarbiyalash; kitobni sevishga o'rgatish. Shuningdek, dasturda

bolalarga qaysi asarni o'qib berish, hikoya qilib berish, yod olish ko'rsatilgan.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha dastur vazifalari birinchi kichik guruhdan boshlab belgilab berilgan. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning birinchi va ikkinchi kichik guruhlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha quyidagi ish vazifalari belgilangan:

1. Bolalarda badiiy asarga nisbatan qiziqish uyg'otish. Ularni yoshiga, qiziqishlariga mos keladigan asarlar bilan tanishtirish.

2. Bolalarda ertak, hikoya, she'rlarni berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ko'nikmalarini hosil qilish.

3. Asar mazmuni bo'yicha beriladigan savollarga javob berish, qisqa she'rlarni, ertak va hikoyalarning mazmunini buzmay (tarbiyachi bilan birga, keyinchalik mustaqil) takrorlash kabi ko'nikmalarni o'stirish. Bolalarda asarlar bo'yicha ishlangan rasmlarga nisbatan qiziqishni rivojlantirish.

O'rta guruhda esa bolalarni badiiy adabiyot bilan tanish-tirishning quyidagi vazifalari belgilangan:

1. Bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish va tabiiy muhabbatni tarbiyalash. Ularni turli mavzudagi ertak, shuningdek, topishmoqlar, sanamalar, hadislar, maqollarning mazmunini idrok etishga o'rgatish.

2. O'zbek xalq dostonlaridan olingan parchalar bilan tanishtirish. Sharqning buyuk allomalari haqida qisqacha ma'lumot berish orqali bolalar qalbida avlod-ajdodlarga nisbatan hurmat, iftixor tuyg'usini uyg'otish.

3. Asarlar mazmuni bo'yicha savollarga javob berish ko'nikmasini mustahkamlash.

4. Asarda ishtirok etuvchi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga, ayrim an'anaviy sifatlarini (yaxshi, yovuz, jasur), rahiy kechinmalarini (xafa, xursand) ta'riflashga undash. She'r, ertak, topishmoq, hikoya, sanamalarni ifodali aytishga o'rgatish.

Katta va maktabga tayyorlov guruhida:

1. Bolalarda hayotga nisbatan qiziqish va muhabbatni yanada kuchaytirish, asardagi go'zallikni, nafosatni his etish kabi ko'nikmalarni mustahkamlash.

2. Ularning badiiy asarlardagi qahramonlar xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini to'g'ri baholash, aks ettirilayotgan voqealar mohiyatini tushunish qobiliyatlarini o'stira borish lozim.

3. Bolalarning milliy, badiiy didlarini rivojlantirish, badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, ba'zi janrlari, asarning tili haqidagi boshlang'ich tasavurlarini shakllantirish.

4. Bolalarni asar g'oyasini tushunishga, tasviriy vositalarni his etishga, she'riy nutqdagi musiqiylik, ohangdorlik va ritmni payqay olishga o'rgatish.

5. Bolalarning o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, sharq allomalari, yozuvchilari, shoirlari haqidagi tushunchalarini boyitish. Ertak va hikoyalarni o'qib berganda va bolalar tomonidan badiiy asarlarni qayta hikoya qilish jarayonida badiiy asarlarda aks etgan voqea va obrazlarga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlab, to'g'ri yo'l ko'rsatib borish.

6. Asarlardagi obrazlar haqida gapirilayotganda, ularning holatlarini imo-ishora, yuz ifodasi, harakatlar orqali bayon qilishga o'rgatiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Adabiy asarlarni tanlashga qo'yiladigan talablarni bilasizmi?

3. Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarda qaysi sifatlarni tarbiyalashda yordam beradi?

4. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlashda nimalarga rioya qilish kerak?

5. Sahnalashtirish ishini qanday bosqichlar bo'yicha o'tkazish mumkin?

6. Badiiy asarni sahnalashtirib ko'rsatish usullarini aytib bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.

2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T., 2019

3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.

4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -T.: "O'qituvchi", 1995.

5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.

6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalami savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.

8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

21-§: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY RIVOJLANISHIDA TEATR O`YINLARINING AHAMIYATI

REJA:

1. Bolalar nutqini rivojlantirishda teatr o`yinlaridan foydalanish

2. M.Montessori tizimi asosida bolalarning kommunikativ nutqini rivojlantirish asoslari

Tayanch tushunchalar: teatr, teatr o`yinlari, o`yin, M.Montessori, nutq mashg`ulotlari, sahnalashtirish.

1. Bolalar nutqini rivojlantirishda teatr o`yinlaridan foydalanish. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning juda ko`p vositalari mavjud bo`lib, ulardan biri teatr o`yinlaridir. Teatr o`yinlari vositasida bolaning muloqot qilish qobiliyatining dastlabki shakllanishi, to`g`ri suhbat va fikrlashning shakllanishiga erishiladi. Monitoring natijalari shuni ko`rsatadiki, so`nggi paytlarda to`g`ri gapirish qobiliyati sezilarli darajada buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalar soni ko`paygan. Afsuski, bizning zamonamizning doimo band bo`lgan ota-onalari ko`pincha buni unutishadi va nutqni rivojlantirish jarayoni o`z yo`nalishini olishiga imkon beradi. Uyda bola kattalar davrasida kam vaqt o`tkazadi (ko`proq kompyuterda, televizorda yoki o`yinchoqlari bilan), kamdan-kam hollarda ona va dadaning og`zidan hikoyalar va ertaklarni tinglaydi, shuningdek, bolalar uchun tizimli rivojlanish mashg`ulotlarini o`tkazadi, nutqni o`zlashtirish odatda kam uchraydi.

Ko`pgina ota-onalar muammolarni hal qilish uchun maktabgacha ta`lim tashkilotiga tayanadilar, ammo amaliyot shuni ko`rsatadiki, haftada ikkita mashg`ulot nutq ko`nikmalarini shakllantirish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun yetarli emas. Teatr faoliyati maktabgacha ta`lim tashkilotidagi maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq amaliyotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi, bu bolalar nutqining rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatadigan teatr o`yinlari: so`z boyligini kengaytirish orqali nutqni rag`batlantiradi, artikulyar apparatni yaxshilaydi.

Bolalarning o`yin faoliyati jarayonida har bir bolaning nutqini rivojlantirish darajasini aniqlash mumkin bo`ladi. Olingan natijalar

individual diagnostika jadvallarida qayd etiladi, bu esa bolalarning yoshi va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishni samarali qurishga imkon berdi. To'g'ri tashkil etilgan ob'ekt-fazoviy muhit bolalar nutqini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi, shuning uchun ota-onalar bilan birgalikda teatrlashtirish burchagini turli xil teatr turlari bilan to'ldirish maqsadga muvofiq bo'ladi: qo'g'irchoq, barmoq, stol, manzara, turli kayfiyatdagi qahramonlar o'rnini bosuvchi atributlar. Kiyinish xonasi burchagini o'zbek va rus xalq ertaklaridagi qahramonlarning yorqin sarafan va ko'ylaklari, shuningdek, ertak qahramonlarining liboslari bilan bezatish mumkin bo'ladi. Bolalar tanish ertaklarni sahnalashtirishda ishtirok etishdan, liboslar tanlashdan, obrazlarni taqsimlashdan xursand bo'lishadi, ammo ba'zi bolalar xavotirda, qo'rquv tuyg'usini his qilishlari mumkin.

Teatr faoliyatining eng muhim vazifalardan birini - nutqni rivojlantirishni hal qilishga imkon beradi, shuning uchun guruh "Nutq faoliyati markazi" ni yaratish, fantastika, tanish asarlar rasmlari bilan albomlar, o'yinchoqlarni joylashtiriladi. Barmoq mashqlari va didaktik o'yinlar quyidagi sohalarida:

- Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish "Kimning rasmi o'xshash?", "Qofiya tanlaymiz", "Topishmoq-ta'rif" va hokazo.

- izchil nutqni rivojlantirish uchun "Menga bir so'z ayting", "Kim bu harakatlarni bajarishi mumkin?", "Kim, qanday harakat qiladi? "Tabiatda nima sodir bo'ladi?".

- Nutqning tovush tomonidagi ishda "Qahramon qaysi ertakdan?", "Soat mexanizmi o'yinchoqlari", "Tulki bekinmachoq" va hokazo.

Nutqni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlarni o'z ichiga olgan texnologik xaritalar mening ishimda tizimlilikka erishishga yordam beradi. Men bu o'yinlarni barcha rejim lahzalarida yoqaman. Shuningdek, men tomonidan amalga oshirilgan, maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan "Ertaklar bolalar ijodiyoti manbai" loyihasi ham ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. U mazkur loyiha doirasidagi ishlarni izchillik bilan, bolalar va kattalar faoliyatini ijobiy natijaga erishishga yo'naltirgan holda tizimli qurdi. Loyiha faoliyati teatr faoliyati orqali nutqni o'z vaqtida rivojlantirishga qaratilgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Teatr faoliyatining ta'lim imkoniyatlari juda katta, uning mavzusi cheklanmagan va bolaning har qanday qiziqish va istaklarini qondira oladi. Teatr faoliyati hissiyotlar sohasini rivojlantiradi, bolada rahmshafqatni uyg'otadi, o'zini boshqasining o'rniga qo'yadi, u bilan birga quvonadi va tashvishlanadi.

Demak, nutqni teatr faoliyati orqali rivojlantirish bosqichlaridan biri nutqning ifodaliligi ustida ishlashdir. Qahramonlarning harakatlarini, o'z bayonotlarini ifodalash jarayonida bolaning so'z boyligi seziladigan darajada faollashadi, nutqning tovush madaniyati, intonatsion tuzilishi yaxshilanadi. Ushbu bosqichda men asarni quyidagi ketma-ketlikda quraman: avval men o'zim mo'ljallangan syujetni rollarda o'ynayman, keyin bolalarni qahramonlar uchun gapirishga taklif qilaman. Va faqat bolalar tarkibni yod olgandan so'ng, men ushbu syujet bo'yicha o'yinni taklif qilaman. Bunday o'yinlarga misol qilib, "Topmoqni top", "Ichkarida ertak", "Bo'ladimi yoki yo'qmi?" va hokazo.

Ertak terapiyasi usulidan foydalanish, bolalarning ijodiy tashabbuskorligini, bolalar qo'rquvini engish qobiliyatini, tashvish hissini rivojlantiraman. Men ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish yo'llarini ko'rsatadigan ertaklarni aytib berish, menimcha, bolalarda sog'lom fikr va baxtsizliklarga nisbatan sog'lom hazil tuyg'usini shakllantiradi, ular oilaviy nayranglar haqida gapirishadi. Bunday ertaklarga "Xunuk o'rdak", "Sehri so'z", "Kim birinchi bo'lib gapirdi?" kabi ertaklarni misol qilib keltirish mumkin.

Teatr o'yinlari bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun qulay muhit bo'lib, bu faoliyat bolalar nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun, o'yin faoliyati jarayonida men quyidagilarni o'z ichiga olaman: musiqiy va ritmik isinish, bu harakatchanlikni, plastik ekspressivlikni, musiqiylik va ritmni rivojlantiruvchi musiqiy va amaliy o'yinlar va mashqlar; nafas olish va nutq gimnastikasi, uning yordamida bolalar to'g'ri, aniq artikulyatsiya va talaffuzni shakllantiradilar. Sog'lom nutq madaniyatini shakllantirish bo'yicha ishda men nutq vositalaridan keng foydalanaman: bolalar qofiyalari, qofiyalar, til burmalari va boshqalar.

To'g'ri va mohirona tanlash bilan ular nafaqat tovush talaffuzining to'g'ri shakllanishiga hissa qo'shadi, balki bolalarning atrofdagi voqelik haqidagi bilimlarini umumlashtiradi, deb ishonaman. Muvaffaqiyatli nutqni rivojlantirish bo'yicha darslarda men rasmlar va rasmlarni

o'rganishga katta e'tibor beraman, bolalar ob'ektlar va hodisalarni tasvirlaydilar, turli xil nutq burilishlaridan foydalanadilar. Bolalar bilan birgalikdagi mashg'ulotlarda men besh daqiqalik nutq terapiyasi mashg'ulotlarini o'tkazaman, juma kuni tushdan keyin esa "teatr soati". Amaliyot shuni ko'rsatdiki, nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlar oila ishtirokisiz to'liq bo'lmaydi. Faqat ota-onalar bilan yaqin aloqada ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shu sababli, mening barcha ishim ota-onalarning ushbu masala bo'yicha malakasini oshirishga qaratilgan edi, buning uchun men uchta mashg'ulotdan iborat bo'lgan "Bolalar nutqini rivojlantirishda teatrning o'rnini" seminarini o'tkazish mumkin:

- "Maktabgacha ta'lim tashkiloti qo'g'irchoq va o'yinchoqlar teatri" - ma'ruza-munozara;

"Teatrlashtirilgan o'yinlar - bolalar ijodiyotiga yo'l" - mahorat darsi;
"Ertaklar, ertaklar, ertaklar ..." - seminar.

Ota-onalar bilan olib borilayotgan bu ish samaralidir, chunki bu ularga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni amalda mustahkamlash imkonini beradi. Ota-onalar bilan ishlash jarayonida suhbatlar taklif qilindi:

"Bola nutqini rivojlantirishda ota-onalarning roli";

"Men kichkina aktyorman";

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'z qo'g'irchoq teatrlari.

Ota-onalar nutqni rivojlantirishda oilaviy ta'limning ijobiy tajribasi bilan tanishishlari, "Teatr bola hayotida" ota-onalar yig'ilishida, shuningdek, gazeta sahifalarida ushbu yo'nalishda bolalar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar olishlari mumkin edi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida uning zarurligi 70 foizga (yil boshida 35 foiz) qayd etildi. Ota-onalar bu masalada yanada malakali bo'lishdi, ular menga spektakllarga tayyorgarlik ko'rishda yordam berishadi, ba'zi ota-onalar uyda bolalar oilaviy bayramlarda kichik sahnalarni o'ynashlarini va qahramonlarning xarakterini juda ifodali etkazishlarini ta'kidladilar. Bu ish tor mutaxassislar bilan yaqin aloqada amalga oshirildi. Ular musiqa rahbari bilan birgalikda ertak qahramonlarining turli obrazlari uchun musiqa tanladilar, "Sholg'om", "Teremok" ertaklari asosida teatrlashtirilgan tomoshalar o'tkazdilar. uchun o'qituvchi jismoniy ta'lim-tarbiya turli harakatlarni ishlab chiqdi, bo'sh vaqtni, bayramlarni tashkil etishga yordam berdi, bolalarga faol,

mustaqil va ijodiy bo'lish imkoniyatini berdi. Amalga oshirilgan ishlar samarali bo'lib, qayta ekspertizadan o'tkazilgan ijobiy natijalardan ko'rinib turibdiki:

1. Bolalarda nutqning rivojlanish darajasi oshdi.

2. Teatr faoliyatiga qiziqish kuchaydi, bolalar tanish ertaklarni drammatizatsiya qilishda faol ishtirok etadilar, kichik sahnalarni o'ynaydilar.

3. Muloqot ko'nikmalarini shakllantirish darajasi sezilarli darajada oshdi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashni mumkin, teatr faoliyatining nutqni rivojlantirishga ta'siri shubhasizdir. Teatr mashg'ulotlari yordamida nutqni rivojlantirish dasturining deyarli barcha vazifalarini hal qilish mumkin va bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy usullari va usullari bilan bir qatorda, xalq og'zaki ijodining eng boy materiali bo'lishi mumkin va kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalik davri nutqning barcha tomonlarini yanada rivojlantirish uchun asos hisoblanadi. Bolalarni maktabga o'rgatishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan izchil nutqni o'zlashtirish darajasiga bog'liq. Bolalar bilan ishlashning umumiy tizimida izchil nutqni maqsadli shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bolalar bog'chasida bolalarning izchil nutqini shakllantirish o'yinlar, rejim lahzalari, boshqalarni kuzatish va hokazolar davomida turli xil amaliy mashg'ulotlar jarayonida ham, bolalarning uyushgan faoliyati jarayonida ham amalga oshiriladi.

Uslubiy adabiyotlar va ish tajribasini o'rganish jarayonida men asosiy muammoni hal qilish kerak degan xulosaga keldim, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish kerak. Bu muammo mening pedagogik faoliyatim jarayonida asosiy muammo hisoblanadi.

1.M.Montessori tizimi asosida bolalarning kommunikativ nutqini rivojlantirish asoslari

Montessori metodikasi va mashg'ulotlari So'nggi paytlarda XX asrning birinchi yarmida yashagan italiyalik novator-pedagog Mariya Montessori metodikasi bo'yicha mashqlar kundan kunga ommabop bo'lib bormoqda. Ushbu pedagogik yo'nalish doirasida faoliyat yurituvchi yangi guruhlar ochilayotir. Bu tasodif emas, albatta. Chunki ushbu uslub vaqt o'tishi bilan o'zini oqladi. Ko'pgina ota-onalar o'z farzandlarining

Montessori muhitidagi rivojlanish natijalarini ko'rib, uning muxlisiga aylanishmoqda. SHubhasiz, mazkur uslubning asosiy jihati, ya'ni har bir bolaning yagona va takrorlanmasligiga bo'lgan ishonch, o'ziga xos rivojlanish rejasi, bolani o'rab turgan dunyoni o'rganish usullari va muddati ham kishining e'tiborini o'ziga tortadi. SHuning uchun ustoz Montessori (ushbu uslub bo'yicha ishlaydigan pedagogni shunday deb atashadi) bolaga dunyoni o'z rivojlanish tempida o'rganish, ish uchun u yoki bu materiallarni o'zi tanlash imkonini beradi. Bola o'z iqtidorini rivojlantirishi uchun esa Montessori guruhida imkoniyat katta. Buning uchun bolaga dunyo to'g'risidagi bilimlarini bir tizimga solishga yordam beradigan tayyor muhit yaratilgan. Bunda mashg'ulotlar beshta rivojlanish zonasida, ya'ni amaliy hayot mashqlari, sensor, til, matematika zonalari hamda kosmik yoki tabiiy-ilmiy tarbiya sohasida joylashgan materiallar bilan o'zaro bog'liklikda olib boriladi. Albatta, bolani Montessori bog'chasiga berish imkoniyati hammada ham mavjud emas. Ammo tayyor muhitni uyda ham yaratsa bo'ladi! Bola o'z hayotining ko'p qismini oilada o'tkazadi va shuning uchun hech qanday pedagogik ta'sir oila ta'sirini yenga olmasligi esingizda bo'lsin. Uy sharoitida tayyor muhitni yaratish uchun nima zarur? Avvalambor, bolaning xonasidagi mebel yengil va uning bo'yiga mos bo'lishi kerak. Bola uy mashg'ulotlarida foydalanishi mumkin bo'lgan stol va stulcha hamda bo'yi yetadigan balandlikda o'rnatilgan va ish uchun materiallarni qo'yadigan tokcha kerak bo'ladi. CHunki kattalarning yonida bola o'zini xuddi devqomatlar mamlakatiga tushib qolgan odamchaday his qiladi. Unga qiziqarli tuyulgan ko'pgina narsalarga qo'li yetmaydi. Farzandingizning tish cho'tkasi va sochig'i uchun alohida joydan tashqari (ular bolaning bo'yi yetadigan balandlikda bo'lishi lozim), kichkina gubka, chang artadigan latta, kichkina supurgi va xokandoz turadigan burchak ham ajrating. Bolaga uy ishlarini ishonib topshirishdan qo'rqmang. Kattalar bolaning sa'y-harakatlarini hurmat qilsa, u mustaqil va tashabbus ko'rsata oladigan inson bo'lib ulg'ayadi. Deyarli barcha uyda parvarish talab qiladigan o'simliklar va jonivorlar bor. Farzandingiz ularni parvarish qilishning uddasidan chiqishiga ishonchimiz komil. Ha, Montessori materiallarining to'liq komplekti anchagina joyni egallab, juda katta miqdordagi xarajatlarni talab etadi. Buni faqat ixtisoslashgan bolalar bog'chasi yoki markazi eplashi mumkin. Biz esa bola bilan uyda bir nechta

oddiy mashg'ulotlarni bajarishni tavsiya etamiz. Ularga juda kam mablag' va tayyorgarlik ketadi. Biroq bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun bir nechta qoidalarga amal qilish zarur bo'ladi.

- Mashg'ulotlarni boshlashdan oldin materiallar uchun bitta joyning o'zini tanlang, bu bilan siz bolani tartibga o'rgatasiz.

- "Montessori" ilmiy tili bilan aytganda namoyish yoki taqdimot paytida juda kam so'z ishlatib, kam harakat qiling, ya'ni bolaga buyumlarning xususiyatlarini o'rganishi jarayonida o'zi barcha narsalarni kashf qilish imkonini bering.

- Sabr-toqatli bo'ling – sizga osonday tuyulgan ish 3 yashar bola uchun murakkab bo'lishi mumkin.

- Montessori-ustozning asosiy vazifasi kuzatuvdan iborat ekani esingizdan chiqmasin. Agar farzandingiz ishni eplolmayotgan bo'lsa, albatta birinchi qiladigan ishingiz "Kel, qanday to'g'ri bo'lishini ko'rsataman", deb aralashishga harakat qilasiz. Sabr qiling, bola mashg'ulotni oxiriga yetkazsin. CHunki Montessori metodikasining asosiy shiori "O'zim bajarishimga yordam ber!" iborasidan iborat.

- Ish uchun u yoki bu materialni tanlashni, mashg'ulotlarning davomiyligini, ularni istalgancha takrorlashni va ishni istagan paytda tugatishni bolaning o'ziga qo'yib bering. Biroq bolada o'zini intizomga bo'ysundirish ko'nikmasini ishlab chiqish uchun unga materialni joyiga olib borib qo'yishdan oldin mashg'ulotni tugatish lozimligini tushuntirish kerak.

- Biz uy mashg'ulotlarini kundalik odatiy ishga aylantirishni maslahat bermaymiz! Agar sizning va farzandingizning kayfiyati bo'lmasa, mashg'ulotlarni keyingi kunga qoldirgan ma'qul. CHunki mashg'ulotlar vaqti – bu farzandingiz bilan yolg'iz qoladigan va ikkalangiz ham o'zaro muloqotdan lazzatlanadigan payt! Guruchni idishga solish (2,5 dan 5 yoshgacha) Mashg'ulotning maqsadi: muskullar koordinatsiyasini rivojlantirish, guruchni ko'zadan kosaga to'kmasdan solish, o'z kuchiga bo'lgan ishonchga ega bo'lish. Zarur bo'ladigan narsalar: kichkina patnis, kosa va yarmigacha guruch solingan ko'zacha, stolni artish uchun latta. Taqdimot: stol ustida turgan barcha predmetlarni ko'rsating, ularni nomma-nom aytib chiqing va ular bilan bajariladigan harakatlarni tushuntiring ("kosa", "ko'za" va hokazo); bir qo'lingiz bilan ko'zani, ikkinchisi bilan kosani oling; ko'zani kosa ustiga olib kelib, unga guruchni

soling; endi farzandingizning o'zi ishlasin. Bolangiz guruch solishni mukammal o'rganganidan keyin suyuqliklarga o'tish mumkin, ya'ni bola o'ziga ko'zadan stakanga sut yoki sharbat solishiga ruxsat bering.

«O'lchami to'g'ri keladigan qopqoqni top» (2 dan 4 yoshgacha) Mashg'ulotning maqsadi: ko'rish va harakatlanish koordinatsiyasini rivojlantirish. Zarur bo'ladigan narsalar: qopqoqli 4-6 ta shisha idishcha yoki turli o'lchamdagi bankacha (qopqoqlarni kichik konteynerda saqlash mumkin). Taqdimot: shisha idishchalarni stol ustiga qo'ying; sekin qopqoqlarini yechib olib, yana yopib qo'ying; oldiniga shisha idish o'lchamiga mos keladigan qopqoqlarni yoping, keyin qopqoqlarni aralashtirib, bolaga kerakli qopqoqni o'zi topishiga imkon bering. Mato namunalari solingan quticha (2,5 dan 5 yoshgacha) Mashg'ulotning maqsadi: qo'l bilan sezish hissini rivojlantirish. Zarur bo'ladigan narsalar: turli teksturadagi 2 tadan mato parchasi solingan kichkina quticha (masalan, ipak, paxta, jun, moxer matolar). Taqdimot: farzandingizga teksturasi bo'yicha bir biridan farq qiluvchi uchta juft mato parchasini ko'rsating; keyin ularni aralashtirib, boladan mato parchalarining juftini qo'l bilan ushlab topishini so'rang; bolangiz mashg'ulotning ma'nosini tushunganidan keyin boshqa mato parchalarini qo'shing; farzandingizni ko'zlari bog'langan holda shu ishni yana takrorlashga ilhomlantiring.

«Sehrli xaltacha» (3 dan 5 yoshgacha) Mashg'ulotning maqsadi: turli shakldagi predmetlar bilan tanishish, qo'l bilan sezish hissini rivojlantirish. Zarur bo'ladigan narsalar: bolaga tanish 8-10 ta predmet solingan xaltacha (masalan, taroq, hushtak, o'yinchoq va hokazolar). Taqdimot: farzandingizning ko'zlarini boylang yoki undan ko'zini yumishni so'rang; keyin u xaltachadan biror predmetni olsin va uni qo'li bilan ushlab nimaligini topishga harakat qilsin; bola barcha narsalarni aniqlay olganidan keyin ularni boshqalariga almashtirish mumkin. Bunda bolaning yoshiga qarab asta-sekin mashqni qiyinroq qilsa bo'ladi. Ushbu mashqni bitta harfdan boshlanadigan predmetlar bilan ham o'tkazish mumkin (masalan agar siz "r" harfini o'rgatgan bo'lsangiz, xaltachaga ruchka, ro'molcha va hokazolarni soling). Albatta, bu farzandingiz bilan Montessori metodikasi bo'yicha o'tkazishingiz mumkin bo'lgan mashg'ulotlarning hammasi emas. Muhimi sizda bolangizga vaqt ajratish va u bilan birgalikda ijod qilishdan lazzatlanish istagi mavjud bo'lsa bas!

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bolalar nutqini rivojlantirishda teatr o'yinlaridan foydalanishning ahamiyati?
2. M.Montessori metodikasining bolalarning kommunikativ nutqini rivojlantirishdagi o'rni?
3. Sahnalashtirilgan ertaklarni bolalarni og'zaki nutqini o'stirishdagi roli?
4. Sahnalashtirish uchun badiiy asami tanlashda nimalarga rioya qilish kerak?
5. Sahnalashtirish ishini qanday bosqichlar bo'yicha o'tkazish mumkin?
6. Badiiy asarni sahnalashtirib ko'rsatish usullarini aytib bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'rayev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

22-§: BOLALARNI ERTAK KITOBLARI BILAN TANISHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

REJA:

1. Ertak kitoblarining afzalliklari
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ertak kitoblari orqali kitobxonligini oshirish
3. Ertak kitoblari orqali bolalarning intellektual salohiyatini shakllantirish

Tayanch tushunchalar: ertak,ertak kitoblar, kitobxonlik, onalar allasi va ertagi, kitobxonlik, salohiyat, og'zaki nutq, ijodiy hikoya,"ertakning oxirini top" o'yini.

1. Ertak kitoblarining afzalliklari. "Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir". Buyuk sohibquron bobomiz Amir Temur kitobga shunday tarif beradi.umri jangu jadallarda o'tgan, o'z salohiyati bilan buyuk davlat barpo etgan ulug' bobokolonimizning bu fikri barchamizda kitobga nisbatan mehr muhabbat uyg'otadi. Hayotimizni bebaho boylik, aql zakovatning ulkan mo'jizasi kutobsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero kitob qorong'u yo'lni yorituvchi nur dunyo ilmlarini ochuvchi noyob kalitdir. Ota-bobolarimiz, momolarimiz farzand tarbiyasiga azaldan katta e'tabor qaratib kelgan. O'g'il - qizlarimiz hushxulq bo'lib o'ssin, nabiralarimiz el koriga yaraydigan inson bo'lib ulg'aysin, deb ularni kitob o'qishga undashni, birbiringan qiziq hikoya, rivoyat va ertaklarni so'zlab berishni zinhor kanda qilishmagan. Negaki ertaklarda ezgu g'oyalar ulug'lanadi, yakuni esa yaxshilik bilan tugab, yovuzlik ustudan g'alaba qozoniladi. Hozir biz katta yoshdagilar biroz befarqmizmi, nima uchundir ertak aytishga erinamiz. Ko'pchilik" zamonaviy "onalar o'ziga yengillik tug'dirish maqsadida tag'in vaqti yo'qligini bahona qilib, har xil multfilmlar ko'rishga, telefon kompyuter o'yinlari bilan "og'zini yopishga" urunishadi. O'ylab qolasan kishi shu to'g'rimi? Bolaga ertak aytib berish qanchalik muhim? Bu savollarga javob izlalar ekanmiz bugungi globallashuv davrida yosh avlodni axborot - kommunikatsiya texnologiyalariga o'ta berilib ketishdan asrab, mutolaaga undash o'rniga afsuski o'zimiz bunga sharoit yaratib

berayotganimiz kundek ravshan bo'lib qolmoqda. Shuni unutmashlik lozimki farzand tarbiyasida 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr juda muhim va nozik davr hisoblanadi. Ota-onasi xoh eng yaxshi odamlar bo'lsin, xoh eng yomon-go'dak yozilmagan qog'oz, bitilmagan doston. Tili endigina chiqqan farzandingiz savol beraverib, sizni esankiratib qo'yadi. Aynan bu davr juda muhim. Afsuski ko'pchilik yosh onalar bu holdan bezor bo'lib, bolasini noo`rin jerkib tashlaydi. Bola bunday vaziyatda biror nimani so`rab o`rganishga ham qo`rqib qoladi. Unutmang, tili chiqib, yura boshlagan kichkintoyingiz juda g`ayratli va serharakat. Uning lug`atida har kuni yangi-yangi so`zlar paydo bo'lib o`sib boradi. Aynan shu payti farzandingizga nima o`rgatsangiz, tez ilib oladi. Unda syujetli o`yinlarga ehtiyoj tug`iladi. Agar bu paytda aytib bergan ertaklaringizni u bilan rolga kirib o`ynasangiz, foydadan holi bo`lmaydi. Ertak bolada hayot haqida tasavvur uyg`otadi, yaxshi va yomonni ajratishga ko`maklashadi, murakkab vaziyatlardan chiqish yo`llarini o`rgatadi. Ertak orqali

farzandingiz boshqalar bilan o`zaro munosabat meyyorlarini, bo`lishi mumkin bo`lgan muammo va to`siqlarni anglay boradi. Farzandingizga qiyinchiliklarni yengib o`tish, muammoni hal qilish, voqealarning yaxshilik, adolat va muhabbat bilan tugashiga umid qilishdan saboq beradi. Siz uchun oddiy tuyulgan ertak kichkintoyingiz ruhiyatiga juda katta ta`sir qilishini xayolingizga keltiraolmaysiz.

Chunki ertakda go`dagingiz amalda qo`llay olmaydigan, lekin tasavvur qilishi mumkin bo`lgan chek-chegarasiz imkoniyatlar yotadi. Ertak yoningizdagi bu kichkina odamchaning yaratuvchanlik qobiliyati ,fantaziyasi, idrok etish tuyg`ularini shakillantiradi. Bir eslab ko`ring, Hamid Olimjonning "Bahor kuychisi "bo`lishida onasi aytib bergan ertaklar sabab bo`lmaganmide?

Ertak bolaning xulq-atvoridagi salbiy hususiyatlarni ijobiy tomonga masalan yolg`onchilik, qo`pollik, badjahillik, o`g`rilik, dangasalik, yig`loqilik, qo`rquv kabilarning to`g`riso`zlik, muloyimlik, oqko`ngillik, ozodalik, mehnatsevarlik, botirlik vajasurlik tuyg`ulariga o`girishga samarali yordam beradi. Ertak bolaning nafaqat ichki dunyosiga, tarbiyasiga balki uning nutqidagi nuqsonlarni, masalan ,duduqlanib gapirish (logonevroz)ni bartaraf etishda ham samarali ta`sir ko`rsatadi. Muhimi ertakchi shunday mahoratli bo`lishi kerakki, u bolani

real hayotdan mo'jizaga ishontira olsin. Umuman ertakning foydalari ko'p:

- u orqali tinglovchi o'zi ayb va xatolarini tan olishdek og'riqli holatga duchor bo'lmaydi, qo'rqmasdan qiziqarli ertak qahramoniga aylanib, muammosini hal qiladi, ertakdan xulosa chiqaradi; - ertak bolalar uchun shunday himoya muhitini yaratib beradiki, u orqali bola o'zi va o'z olami haqidagi biror-bir yangilikni ichki dunyosining aralashuvidan qo'rqmagan holda olish imkoniga ega bo'ladi;

- bola ertakni eshitar ekan, o'zini qahramonlar bilan solishtiradi, o'z harakteriga

yaqin qahramonlarni tanlab oladi, qo'rquv va kechinmalari orasida o'zini yolg'iz his etmaydi; - eng asosiysi, ertak qahramonlari qiyinchiliklarni yengayotganini eshitib, fikrlarini jonlantirib, muammolarini hal etish tajribasi va o'z kuchiga ishonchni paydo qiladi. Ertakning yana bir muhim belgisi shuki, kuchsiz va omadsiz qahramon ertak so'ngida kuchli, aqlli, botir va omadli g'olibga aylanadi. Bu o'zgarishlar bolada yaxshilanishga bo'lgan urinishni yuzaga keltiradi. U doim "Irkit o'rdakcha" qachondir, albatta, g'o'zal oqqushga aylanishini biladi va o'zi ham qiyinchiliklardan qo'rqmasdan olg'a intilishga, shunday yo'l tutishga harakat qiladi. Bolada mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, o'zi eplab ketaveradi. Hayot shunday: kim tadbirkorlik bilan erinmay ko'p mehnat qilsa, sog'lom, boybadavlat yashaydi, xor-zor bo'lmay umr kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu fazilatlar bilan ajralib turadi. Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg'ir, yer, o't, mol, bo'ri, mergan-u sichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismini to'g'riso'zlik, halollik, birovlarini aldamaslik kabi g'oyalar ifodalangan asarlar tashkil etgani ma'qul. Masalan, turkman xalq ertagi „Rostgo'y bola“ni olib ko'raylik. Ertak qahramoni to'g'riso'zligi, kattalarning pand-nasihatlariga quloq solishi bilan yosh kitobxonda

yaqin taassurot qoldiradi. Rus xalq ertagi "Sholg'om" bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o'rinda turadi. Ertak juda oddiy va sodda. Ammo uning ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli. Ertakda boboning sholg'om ekishi va yirik sholg'omni ko'plashib tortib olish voqeasi tasvirlanadi. Ortiqcha tafsilotlar deyarli yo'q. Ammo unda

kichkintoylarga ibrat bo'ladigan jihatlar ko'p. Ertakda boboning mehnatkashligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bobo kechasi-yu kunduzi sholg'omga ishlov beradi, ter to'kib mehnat qiladi. Demak, ertakda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug'lanadi. Ikkinchidan, bola atrofida gilar bilan ahil, do'st bo'lib ulg'ayishi kerak. Kimki do'stlar bilan, jamoa bilan hamfikir, hamkor bo'lib o'ssa, o'ziga ham, o'zgalarga ham yaxshi. Ertakdagi kattakon sholg'omni yerdan tortib, sug'urib olish voqeasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishadi. Bu holat bolalarga katta zavq beradi. Ertak kichkintoylarda kuch birlikda degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ertak kitoblari orqali kitobxonligini oshirish. Bola ijodiy hikoya tuzar ekan, uning mazmunini mustaqil o'ylab topish, mazmuni tushunarli bo'lishi uchun zaruriy so'zlarni to'g'ri tanlashi va ularni mantiqan bir-biriga to'g'ri bog'lay olishi lozim. Yaxshi hikoya yoki ertak tuzish uchun uning kompozitsiyasini (bog'lamini, kulminatsiyasini, yechimini) bilishi hamda katta so'z boyligiga ega bo'lishi, uning mazmunini qiziqarli tuza olishi, o'zining fikrlarini aniq va ifodali qilib bayon eta olishi kerak. Bola doimiy mashq qilish orqali o'z fikrini bir-biriga bog'lab bayon eta olishi va hikoya, ertak to'qiy olishi mumkin. Bu vazifa esa katta va maktabga tayyorlov guruhida amalga oshiriladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning nutqi grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan, lug'ati boy, fikr yuritish doirasi keng, o'z fikrini ketma-ket bog'lab bayon eta olish malakasiga, boy hayotiy tajribaga, xilma-xil hayotiy taassurotlarga ega bo'ladi. Bu esa ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir. Shuning uchun ham „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ da katta va maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishga bir qancha talablar qo'yilgan. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tarbiyachi tomonidan boshlangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlar tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga, tarbiyachi taklif etgan mavzu asosida („Quvonchli kun“, „Mehmonda“, „Bizning oila“, „Eng yaqin o'rtog'im“, „Dam olish kuni“, „Dadamga qarashdim“, „Zo'r multfilm ko'rdim“ va hokazo) mantiqiy rivojlanib boravchi hikoya yoki ertak tuzishga, tuzayotgan hikoya yoki ertaklarida ishtirok etuvchi personajlarning ruhiy kechin-malarini

ta'sirchan bera bilishga o'rgatiladi. Bundan tashqari, bolalar suratlar bo'yicha hikoya tuzishda rasmi aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lganini va keyin nima bo'lishini aytib berishga, tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida hikoyalar tuzishga o'rgatib boriladi. Bolalarning hayot tajribalaridan olingan voqealar: sayohat, sayr, mehnat jarayoni jonli va ravon hikoya qilib berish malakasini tarbiyalaydi. Hikoya qilayotganda tevarakatrofdagi buyum, voqea-hodisalarning nomini, ularning o'ziga xos xususiyatlari, xatti-harakatlarini to'g'ri ifodalashga, voqea-larning vaqti va joyini ko'rsatishga o'rgatish, topishmoqlar o'ylab topishga undash kabi vazifalar qo'yilgan.

Ikkinchi yarim yillikda esa dasturga asosan bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishda quyidagi ish vazifalari belgilangan: tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzu bo'yicha voqeani izchil davom ettirib, tugal mazmunli hikoya tuzish ko'nikmalarini mustahkamlash, voqea sodir bo'lgan joy va vaqt, tabiat manzarasini qisqacha tasvirlash, personajlar ruhiy kechinmalarini ko'rsatish-lariga ahamiyat berishga o'rgatish. Mustaqil tuzgan hikoyalaridagi personajlarga qisqacha ta'rif berishlariga, ularning xatti-harakatlarini baholashlariga o'rgatish, mustaqil tanlangan mavzu bo'yicha hikoya aytilayotganda voqeaning izchilligiga, tugal mantiqqa ega bo'lishiga, tasviriy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanishlariga ahamiyat berishga o'rgatish kabi vazifalar qo'yilgan.

Ijodiy hikoyaning bir qancha turlari mavjud:

Tarbiyachi boshlagan ertak yoki hikoyaning oxirini o'ylab topish va oxiriga yetkazish. Tarbiyachi bu hikoya turida hikoya yoki ertakning boshlanishi, uning bog'lamini aytadi, bolalar esa qahramonlar bilan bo'ladigan asosiy voqealarni o'ylab topadilar.

Masalan, bolalar tomonidan hikoyaning oxirini o'ylab topish. Tarbiyachi bolalarga qanday qilib Vali ismli bola otasi bilan hayvonot bog'iga borganligi haqidagi hikoyaning boshlanishini tinglashni taklif etadi. „Valining otasi uni hayvonot bog'iga olib borishni va'da qildi. Vali bu kunni juda sabrsizlik bilan kutdi. Dam olish kuni Valining otasi uni erta uyg'otdi va ular hayvonot bog'iga jo'nashdi...“ Bolalar, endi sizlar bola u yerda nimalarni ko'rganligini o'ylab topinglar va hikoyani oxiriga yetkazinglar. O'rtog'ingizning hikoyasini takrorlamang, har

qaysingizning hikoyangiz har xil bo'lsin.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar yoshiga mos bo'lgan ertaklar yetishmaydi deyolmaymiz. Biroq ularning hammasini ham bolalar yoshiga mos deyishda biroz ikkilanishga boramiz. Sababi, ertak nomi, qisqa ekanligi, qahramonlariga qo'yilgan qiziqarli nomlar, bola tilida yozilganligi kabi mosliklar bor bo'lgani bilan, lekin mavzu ko'lami bolalar yoshiga mos emasligini guvohi bo'lamiz. Masalan, biz butkul qarshi bo'lgan va bolalar yoshiga mos emas deb hisoblaydigan to'y, yor va yorga nisbatan muhabbat mavzularini yoritilishi yoki asosan ko'p hollarda yalmog'iz, jodugar, sehr-jodu kabi bolalar tarbiyasiga va ongiga salbiy ta'sir qiluvchi ertaklarni guvohi bo'lyapmiz.

Tarbiyachidan ertak qahramonlarini bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini belgilovchi sifalarni oshirish talab qilinadi. Ya'ni, tarbiyachi har qanday salbiy qahramondan ijobiy fazilatlarini qidirib topish muminligini o'rgatishi zarur. Masalan, Qimmatning ishyoqmas, dangasa, erkatoiy ekanligining yomon oqibatlarini tushuntirish bilan birga bolalarga mehnatsevarlik, xushmuomalalik, odobli bo'lsa hammaga yoqishi mumkin ekanligi va mehnatsevarlik, xushmuomalalik, odobli bo'lish yaxshi odat ekanligini tushuntirish kerak.

Bolalar ertakni tushunishlari va ko'zlangan maqsadga erishi uchun xoh qo'yib eshittirilgan, xoh ko'rsatib berilgan yoki so'zlab, televizor orqali namoyish qilib berilganda ham bolalar ertakni tushunishlari to'g'ri xulosa chiqarganliklariga ishonch xosil qilish uchun ham ular bilan birga savo-javob usulidan foydalanish kerak. Bunda bolalar tarbiyachi savollarini, bir-birlarini javoblarini tinglashga, berilgan javoblarni fikrlashga, o'zi ham fikrini bayon qilish orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga erishadi. Shu bilan birgalikda tarbiyachi bolalarni tinglash, fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ertakdan turli xil usullarni qo'llash orqali foydalanishi mumkin. Masalan, "ertakni davom ettiring" nomli usul orqali bolalar sheriklarini tinglashni, o'zlari esa fikrlab, ertakni davom ettirishlari va bu orqali muloqot komponentlarini rivojlantirishlari mumkin bo'ladi. Og'zaki nutq – bu bolaning maktabga olib boradigan eng muhim ijtimoiy-bilim qobiliyati ekanligini unutmasligimiz lozim.

Tarbiyachi bolalarning ertakni davom ettira olishlarini ta'minlash maqsadida, ularning yosh xususiyatlarini, mavzu ko'laminani hsobga

olishari talab etiladi. Ya'ni, uch yoshli bolalar ertakni davom ettirishlari emas, balki tinglashga, katta va tayyorlov guruhi bolalari esa ertakni davom ettirishga yo'naltirilganliklari maqsadga muvofiq. "Ertak nomini toping" usulida bolalarning topqirliklari, fikrlash tezligi va faol tinglash borasidagi xususiyatlari birlamchi vazifani o'taydi. Bunda tarbiyachi birorta ertakdan mashhur jumla aytadi va bolalar o'sha ertak nomini topishlari talab etiladi. Bu kabi usullarni qo'llash orqali bolalardagi tinglash, fikrlash, muloqot ko'nikmalari mustahkamlanadi va rivojlanadi.

Tadqiqotchi A.Flerina "maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish muammosini tor darajada hal etish"ning xavfliligi haqida ogohlantirib, maktabgacha yoshdagi bolani o'qitishning o'ziga xosligini ta'kidlagan: "Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo'li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg'ulotlar va maxsus mashg'ulotlarda tarbiyachining ko'rsatib o'tishi orqali o'qib o'rganadilar". Darhaqiqat, tarbiyachilar doim bolalarga o'rnak bo'la olishi zarur. Bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan talablarga avvalo tarbiyachining o'zi javob bera olishi zarur. Tarbiyachining nutqi ravon, toza va aniq bo'lishi lozim. Shu bilan birga so'z boyligi eng asosiy masalalardan sanaladi. Chunki bolalarga bir xil so'zlarni ko'p takrorlash, ulardagi qiziqishni va shijoatni so'ndirishi mumkin. Shu jumladan, bolalar nutqini o'stirish masalasi doim asosiy vazifalardan biri hisoblanib kelingan. Agar bola nutqi ravon, so'z boyligi yetarli bo'lsa, uning muloqotga kirishishi oson bo'lgan.

Ertakning oxirini o'ylab topish

Dastur mazmuni: bolalarda xayolni rivojlantirish, uncha katta bo'lmagan ertak to'qishga, uning mazmunini izchillik bilan bayon etishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bolalar, bugun biz sizlar bilan ertak to'qishni o'rganamiz. Ertak „Ayiqcha qanday qilib etigini yo'qotdi va uni qanday topib oldi?“ deb ataladi. Men ertakning boshlanishini o'yladim, siz esa oxirini o'ylab topinglar. Ertakning boshlanishini tinglang: „O'rmonda ona ayiq ayiqchasi bilan yashar edi. Ayiqcha juda ham sho'x, qiziquvchan edi, ona ayiq uni juda ham yaxshi ko'rar edi. U ayiqchasiga qizil etikcha sovg'a qildi. Etikcha ayiq-chaga juda yoqdi, u etikchani kiyib, har tarafga yugurar, hatto uxlab yotganida ham uni yechmas edi. Kunlardan bir kuni

ona ayiq ovqat izlab, uzoq joylarga ketdi. Ayiqcha esa yolg'iz o'zi qoldi. O'tirib-o'tirib, uning anhorda cho'milgisi kelib qoldi. U mazza qilib anhorda cho'mildi, biroq etikchasini yo'qotib qo'ydi".

Endi sizlar ayiqcha qanday qilib etikchasini yo'qotganini, so'ngra uni qanday qilib topib olganligini o'ylab topinglar. Balki ayiqcha etigini yechib, uni qayerga qo'yganini esidan chiqargandir yoki uni tulki olib ketgan bo'lishi mumkin. Balki unga kimdir etigini topishga yordam bergandir?"

Quyida bolalar tomonidan oxiri o'ylab topilgan ertaklardan birini misol tariqasida keltiramiz:

Ahmad. Ayiqcha etigi bilan anhorda cho'mildi. Etikchalar esa oyog'idan chiqib, anhor bo'ylab oqib ketdi. Buni ayiqcha sezmay qoldi, anhordan chiqqandan keyingina buni bilib qoldi: qarasa, oyog'ida etikchalari yo'q. U etikchalarni topmoqchi boidi. U anhorga qayta tushdi. Etikchalarini uzoq qidirdi. So'ngra uzoqda bir qizil narsani ko'rib qoldi. Ayiqcha uning yoniga suzib bordi, qarasa, o'zining etikchalari. U etikchalarini olib, oyog'iga kiyib oldi. U juda xursand bo'lib, uyga qaytdi.

Maftuna. Ayiqcha cho'milgani bordi. Etigini yechib suvga tushdi. U cho'milayotganida tulki kelib etikchalarini olib ketdi. Ayiqcha mazza qilib cho'milib bo'lgach, anhordan chiqib qarasa, etikchalari yo'q. U etikchalarini qidira boshladi. Qidirib-qidirib juda charchadi va tulkidan uning inida dam olishga ruxsat so'radi. Tulkining inida o'zining etikchalarini ko'rib qoldi. Tulkidan etikchalarini tortib olib, uyiga ketdi.

Salim. Ona ayiq ovqat izlab ketganda, ayiqcha anhorga cho'milish uchun bordi. U etikchasini yechishni esidan chiqarib, cho'mila boshladi. Anhordan chiqib qarasa, etigi yo'q. U etigini qidira boshladi. Qirg'oqda fil turar edi. Fil undan: „Ayiqcha, sen nimani qidirypasan?“, — deb so'rabdi. Men anhorda etikcha-larimni yo'qotib qo'ydim, — debdi ayiqcha. Ayiqcha fildan etikchasini topishga yordam berishini so'rabdi. Fil anhorga tushib, xartumi bilan etikchani qidira boshlabdi va uzoq qidirib, etikchani topibdi. Ayiqcha juda ham xursand bo'lib ketibdi va filga rahmat aytibdi.

Ijodiy hikoya tuzishning ikkinchi turi bu — tarbiyachining rejasi asosida hikoya yoki ertak tuzish. Bu hikoya turi bolalardan mustaqillikni talab etadi, chunki tarbiyachi tomonidan berilgan reja hikoya va ertak mazmunining ketma-ketligini belgilaydi xolos, mazmunni rivojlantirishni esa bolaning o'zi mustaqil amalga oshirishi lozim.

Ijodiy hikoyaning uchinchi turi bu tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzu asosida (rejasiz) ertak yoki hikoya o'ylab topishdir. Bu hikoya turi ijodiy xayolni rivojlantirish, mustaqil fikr yuritishga katta yordam beradi, bola bu hikoya turida muallif sifatida hikoyaning mazmunini va uning shaklini mustaqil tanlaydi. Tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzuning o'zi bolalarni hikoya to'qishga tayyorlashi kerak. Bolalar bu hikoya turi orqali narsa-buyumlarni tasvirlashga, qahramonlarning his-tuyg'ularini, kayfiyatlarini bildirishga, ular bilan bo'ladigan voqealarni bayon etishga, hikoyaning oxirini qiziq voqea bilan tugallashga o'rganadilar. Bolalar mustaqil ravishda hikoya yoki ertak o'ylab topishlari uchun turli xildagi mavzular berilishi mumkin. Masalan: „Tulkining tug'ilgan kuni“, „Quyov qanday qilib o'rmonda sayr qildi“, „Bo'riining sarguzashti“. Misol tariqasida „Mushukning tug'ilgan kuni“ degan mavzuda 6 yoshli bolalarning tuzgan ertaklarini keltiramiz.

„Mushuk uzoq uxladi, so'ngra uyg'ondi: „Miyov-miyov, bugun mening tug'ilgan kunim, tezroq turish kerak“. U uyqudan turdi, o'rinlarini yig'ib, qo'l-yuzlarini yuvdi va mehmonlar uchun dasturxon tuzay boshladi. Mushuk yelib-yugurar va qo'shiq aytar edi. So'ngra mehmonlar kela boshlashdi: „Taq, taq, taq, uy bekasi uydami?“ — deb so'rashdi ular. „Marhamat qilinglar!“ Mehmonlar sovg'alarni berishdi: „Tabriklaymiz, sovg'amizni qabul qiling!“ „Rahmat! Dasturxonga qaranglar“. Mehmonlar ovqatlanishar, mushuk esa ular atrofida parvona bo'lar edi.

Mehmonlar dasturxondagi noz-ne'matlardan yeyishdi va mushukka minnatdorchilik bildirishdi. Mushuk xola mehmonlarga shunday dedi: „Kelinglar, raqsga tushamiz“. Hamma raqsga tushdi, xursand bo'lishib, uy-uylariga tarqalishdi. Mushuk xursand bo'lib, shunday dedi: „Tug'ilgan kun qanday yaxshi!“.

Ijodiy hikoya turlaridan eng murakkablari — bu mustaqil ravishda tanlangan mavzu asosida hikoya yoki ertak to'qishdir. Bu hikoya turining muvaffaqiyatli chiqishi tarbiyachining bolalarni qiziqтира olishiga, ularda emotsional kayfiyatni vujudga keltirishiga, ijodiy xayolga ta'sir etishiga bog'liqdir. Bu ijodiy hikoya turini „Kim qiziqroq ertak tuzadi?“ shiori ostida o'tkazish mumkin. Bu hikoya turida bolalarni o'rtoqlarining tuzgan ertak yoki hikoyasini baholashga, hikoyadagi ijobiy va salbiy tomonlarni ko'ra olishga o'rgatish juda muhimdir. Buning uchun tarbiyachi

baholashning namunasini beradi. Bolalar uchun ijodiy hikoyaning murakkab turi — bu tabiat haqida tasviriy hikoya tuzish hisoblanadi. Bolalar bu hikoya turini tasvirichining aniq ko'rsatma berishi natijasida sekin-astalik bilan egallaydilar. Jumladan, yil fasllari to'g'risida („Bahor“, „Mening sevimli faslim“) hikoya tuzishdan awal tarbiyachi bolalarga biror faslga oid ob-havo, so'ngra o'simliklar va daraxtlar, hayvonlar haqida, bolalar qanday o'yinlar o'ynashlari va kattalar qanday mehnat qilishlari to'g'risida gapirib berishlarini taklif qiladi. Ba'zan reja berish mumkin. Masalan: 1. Bahor fasli qish faslidan nimasi bilan farq qiladi? 2. Bahor faslida ob-havo qanday bo'ladi? 3. Daraxt va o'simliklarda qanday o'zgarishlar bo'ladi? 4. Bahorda qushlar va hayvonlar qanday yashashadi? Kattalar bahor faslida bog'da qanday mehnat qilishadi?

Tabiat to'g'risida ijodiy hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida bolalar diqqatini hikoyadagi mazmunning ketma-ketligiga qaratish kerak. Bolalar mazmuni aniq bo'lgan hikoya tuzishga o'rganib olganlaridan so'ng ularning o'zlariga hikoya rejasi va bayonning ketma-ketligini mustaqil ravishda hal etish imkonini berish kerak.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni tinglash, fikrlash va muloqot ko'nikmalarining rivojlanganligi ularni shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim hisoblanadi. Maktabgacha bo'lgan yosh bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to'ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yosh hisoblanadi.

Xo'sh bu yoshda bolalarni tarbiyalash vositalari nimalardan iborat bo'lishi mumkin!? Bizningcha, bugungi rivojlangan zamon va talablar pedagogikaning milliy elementlarini inkor etolmaydi. Eng avvalo qadim-qadimdan oila muhitida tarbiya manbayi sifatida qaralgan ertaklarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Tarbiya oiladan boshlanishini unutmagan holda bolalarga tarbiya berishda ertakning roli katta ekanligini ham unutmashlik kerak. Eng asosiysi, ertakni ota-ona tanlashi, ertak tanlayotgan paytda undagi qahramonlar bolalarning orzusiga aylanib borishi mumkinligini unutmashlik kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashi, muloqoti va xayollari tarbiyachilar tomonidan olib borilgan turli mashg'ulotlarda o'sadi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar plastilin, xamir, loy, qum o'ynashni va ulardan turli narsalar yasab ko'rishni yaxshi ko'radilar. Shu

kabi mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi. Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabat yuzaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ko'p rivojlanish sohalarini ertak tinglash orqali rivojlantirish mumkin. Masalan, ularning tinglash, fikrlash, muloqot, keng dunyoqarash, axloqiy tarbiya bilan bog'liq ko'nikmalari rivojlanishida ertaklarning ahamiyati salmoqlikdir. Shu bilan birga ertak tinglagan bolalar qiyinchiliklarni yengishga, qiyinchilik va mehnat ortida rohat borligiga ishonadilar.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bolalarni monolog nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?

2. Adabiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda qanday usullardan foydalaniladi?

3. Rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatishda qanday mashg'ulot turlaridan foydalaniladi?

4. Bolalarning nutqini o'stirishda o'yinchoqlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishning ahamiyati nimalardan iborat?

5. Bolalarni ijodiy hikoya tuzishga qanday o'rgatiladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.

2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T., 2019

3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.

4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.

5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T., 1997.

6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.

8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

23-§: TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

REJA:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonini tashkil etish
2. Bolalar nutqini rivojlantirishda tevarak-atrofnı bilishning ahamiyati
3. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish usullari

Tayanch tushunchalar: tevarak-atrof, *nutq, tovush, talaffuz, muhit, suxbat, kuzatuv, hikoyalar, rivojlanish, yosh xususiyatlari, malaka.*

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonini tashkil etish.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda, uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida, ayniqsa, jamoa ishlarida qatnashishida namoyon bo'ladi. bola o'z ona tili atrofi o'rab olgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Ammo o'qish va yozishni maxsus ta'lim orqali o'rganadi. Maktabgacha tarbiya davri uchun muhim bo'lgan o'sish faoliyatiga bolalar tarbiyachining rahbarligi asosida narsa va buyumlar to'g'risidagi bilimlar ularning sifat va xususiyatlarini bilib oladilar. Birgalikda bajariladigan harakatli o'yinlar orqali bolalar kishilar hayotidagi, ular o'rtasidagi munosabatlarni, kelishib harakat qilishni bilib oladilar. Shu orqali bolalarda tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari kengayib boradi. Demak, bolani tarbiyalashda va uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'limtarbiya tashkilotlarida va oilada bolaning hayotini turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib, tashkil etish muhim sanaladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqgay tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat

jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi — bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir. Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa asta-sekin dunyoni bilib boradi. Tevarak-atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari-analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, gadir-budur, silliq-yaltiroq, xushbo'y va h.k.ni bilib olishda yordam beradi. Sezgi atrofdagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi. Bolada nutq paydo bo'lishidan ancha oldin (bola bir yoshga to'la boshlaganda birinchi bor gapira bosh laydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yosh dagi kishilar yordamida bilib oladi. Bolalar nutqini rivojlantirish uchun ma'lum bir tizimdaish olib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalardabog'lanishli nutqni o'stirish dasturini takomillashtirish va uni bir butun,yaxlit jarayon sifatida tarbiya tizimiga kiritish hamda mazmunini belgilash zarur.

Bolalarning so'z zahirasi bevosita ko'rgan-kuzatganlari asosida orta boradi degan xulosaga keldik. Masalan, Toshkent shaxri bo'ylab sayohat natijasida bolalarning lug'at boyligiga birdaniga bir necha mavzu bo'yicha so'zlar, birikmalar qo'shiladi. Masalan, Amir Temur maydoni, Amir Temur haykali, Amir Temur - buyuk sarkarda, Toshkent mehmonhonasi, «O'zbekiston» mehmonhonasi, O'zbekiston tarixi muzeyi, San'at saroyi, Milliy teatr, Markaziy univermag, CHorsu bozori, Hayvonot bog'i kabilarshular jumlasidandir. Bular 6-7 yoshli bolalarning kundalik turmushda haliishlatilmasa-da, ularning xotirasi kuchli bo'lgani bois so'z vabirikmalarni yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalarning bog'lanishlinutqini rivojlantirishda, ayniqsa, lug'at boyligini faollashtirish muhim va zarurdir.

Biz hozirgi davr talabi darajasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning bir butun tizimi, mazmuni, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab chiqdik hamda eng yangi talablar darajasida uni amalga oshirish metodlari, shakllari va vositalari texnologiyasini ishlab chiqdik. Nutqda

eng muhim metod bu dialogik nutq, ya'ni bolalar bilan so'zlashishdir. So'zlashish og'zaki nutqning eng oddiy shakli bo'lib, unda bola o'zini tutishi, ko'z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So'zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofnibilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko'pchilik o'rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e'tibor qaratiladi.

Bunda bir-birining nutqini to'ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so'rash, so'rab bilib olish dialogik nutqqa o'rgatishning usullari sanaladi. Maxsus tayyorlanadigan muloqotlar esa dastur asosida muayyan mavzular bo'yicha uyushtiriladi. Masalan, maxsus tayyorlangan suhbatlar quyidagicha tuziladi: dastlab mavzu belgilanadi, uning maqsadi, vositalari aniqlanadi, savollar tuziladi. Lekin bularning har biri nimaga? nima uchun? nimadan? qanday qilib? kabi izlanuvchi va muammoli savollar tarzida bo'lishi zarur. Shu bilan birga, savollar, umumlashtiruvchi xarakter kasb etishi ham mumkin. Bunda muloqot mashg'uloti suhbat, muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi.

Bunday o'yin-mashg'ulotlar, ro'li o'yin-suhbatlar bolalarda, bir tomondan, nutq madaniyatini tarbiyalaydi, ikkinchi tomondan, so'z zahirasini boyitadi.

2. Bolalar nutqini rivojlantirishda tevarak-atrofnibilishning ahamiyati. Bolalar bilan yoz, kuz, qish, bahor oylarida tarbiyachi sayru sayohatlarda bolalarning javob berishinigina talab qilmasdan, ularni savol berishga ham o'rgatishi zarur. Chunki savollar izchillikni saqlash, mantiqqa rioya qilish, nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar nutqini rivojlantirishda tevarak-atrof haqidagi bilim birlamchi sanaladi. Chunki, bolalar faqatgina eshitibgina qolmasdan, balki o'sha jarayonni guvohi ham bo'ladilar.

Sayrlarda bolalar bilan birga didaktik o'yinlar o'ynash ularni ifikrlashga, tasavvurlarini kengaytirishga yo'llaydi.

Masalan, «Qaysi fasl qanday o'tadi?» savoliga bolalar:

- Qish sovuq, qor yog'adi.

- Yoz issiq, quyosh charaqlaydi, jazirama bo'ladi.

- Kuz salqin, yomg'ir yog'adi, Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadilar.

- Bahor iliq, yomg'ir yog'adi, shamol esadi, issiq o'lkalarga ketgan qaldirg'och, bulbul, ko'k qarg'a kabi qushlar qaytib keladilar. Ariq va suv bo'ylarida qurbaqalar qurillaydi.

- Kuzda daraxtlarning barglari sarg'ayadi.

- Bahorda hamma yoq yam-yashil bo'ladi.

- Yozda ariqlarda cho'milamiz kabi javob berishlari mumkin. Yoki shunday savollar ham berish mumkin:

«Qanday mevalar sariq rangda bo'ladi?»

- Olma.

- Limon.

- O'rik.

- Sariq gilos.

«Yovvoyi hayvonlarning nomini ayting».

- Ayiq.

- Sher.

- Bo'ri.

- Tulki.

- Yo'lbars.

Tarbiyachi ikkita o'xshash so'z aytadi. Bolalar uchinchi o'xshash so'zni

topadilar. Uchinchisi nima?

- archa, tol, ... terak;

- lola, binafsha, ... chuchmoma;

- chumchuq, qarg'a, ... kaptar.

Bu o'yinlar bolalarni hayvonlarni bir-biridan ajrata olishga, o'simliklarni farqlashga, tez va aniq so'zlashga o'rgatadi. Sayr-sayohatlardagi suhbatlardan maqsad, bir tomondan, bolalarni tevarakat-rof, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda mavsumiy o'zgarishlarning yuz berishi bilan bog'liq nutqini shakllantirish hamdir. Sayohatga tayyorgarlik jarayonida bolalarga mavsumiy kiyinish va aynipaytdagi faslga xos xususiyatlar haqida ma'lumot beriladi. Sayohat davomida tarbiyachi bolalarga dovdaraxtlardagi o'zgarishni ikuzatish vazifasini topshiradi. Buning uchun quyidagicha savollar bilan murojaat qilish mumkin:

- Bahorda va yozda (kuz va qishda) daraxtlarning bargi qanday rangda edi?

- Hozir daraxtlarning bargi qanday tus olibdi?
- O't-o'lanlarning rangi-chi?
- Daraxtlardagi mevalar qaysi faslda pishadi?
- Kapalaklar bahordagidan, yozdagidan ko'pmi, ozmi?
- Kuz fasli nimasi bilan go'zal?
- Qish fasli-chi?

Bolalar bu savollarga javob berar ekan, olma, xurmo barglarini solishtiradilar. Olma bargi sariq, to'q sariq, qirmizi rangda rangintovlanishi, xurmo barglaridan hali yashillik ketmaganligi, o't-o'lanlar hambirin-ketin sarg'aya boshlaganligini kuzatadilar va olmalardan keltirgan savatlariga, yelim xaltalarga solib oladilar. Xurmolar hali terib olinmagani, ammo to'q sariq rangda yal-yal tovlanishi, uni birdaniga daraxtdan uzib, yeb bo'lmasligi, 3-4 kun uyda saqlab, yumshay boshlagandan keyingina yeyish mumkinligi, o'shanda meva totli bo'lishi tushuntiriladi. Bu sayrda bolalar yeb ko'rgan, ammo daraxtini, unda mevalarning pishishini ko'rmagan xurmo haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Bahor kelsa, bog'chalari hovlisiga ham xurmo ko'chati o'tqazishga kelishadilar.

Sayr oxirida bolalar qizil, sariq, qirmizi barglardan terib, gulchambar yasaydilar. Bunday sayrlar bolalarning dunyoqarashini shakllantirishga, lug'at boyligini oshirishga, nutqini boyitishga yordamberadi. Kuz faslida qushlarning uchib ketishi haqida ham maroqli suhbatuyushtirish mumkin. Suhbatdan maqsad – bolalarning kuzda qushlarning(qaldirg'och, chug'urchuq va boshqalar) uchib ketishi, qarg'alarning uchib kelishi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va qushlar dunyosini kuzatishga qiziqtirish bo'ladi. Suhbatga tayyorlanish jarayonida tarbiyachi quyidagi savollarni belgilab olishi mumkin:

- Yozda qanday qushlarni ko'rgansiz? Qaysi qushlarning ovozi ni eshitgansiz?

- Qushlarni tanib, bilib olishda sizga kim yordam bergan?
- Qushlar kuz oxirida nima uchun issiq o'lkalarga uchib ketadi?
- Qishda nima uchun pashsha, chivin, kapalak va qo'ng'izlar ko'rinmayqoladi?

- Hovlingizda musicha va maynalar bormi? Ular nega uchib ketmaydi? Mazkur savollarga javoblar, albatta, tarbiyachi tomonidan to'ldirilib, tuzatib boriladi. Bolalar uchun talay yangiliklar ham ma'lum

bo'lib, buyangiliklarni zukkolik bilan o'zlashtirib olganliklari ularning nutqlaridaham namoyon bo'ladi. Ma'lumki, hozirgi davrda deyarli ko'pchilik xonadonlarda to'tilarparvarish qilinadi. SHuning uchun, to'tilar hayoti bilan bog'liq savollar asosidagi suhbat bolalarning qiziqishini yanada oshiradi hamda bog'lanishli nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, bolalarning tevarak-atrof bilan muloqoti qancha ko'p bo'lsa, ularning bog'lanishli nutqi shunchalik samaralirivojlana boradi. Tevarak-atrofdagi rangin dunyo ular tasavvuri va dunyoqarashini shakllantirishga, so'z zahirasini boyitishga, nutqini o'stirishga rag'bat uyg'otadi. Ayniqsa, qish fasli bilan bog'liq mashg'ulotlar bolalarning qiziqishiga yanada mos tushadi. Masalan, bog'cha hovlisida qor yog'ishini kuzatish jarayonida quyidagi savollar asosida suhbat uyushtirish mumkin:

- Qor uchquni nimaga o'xshaydi?
- Nima uchun qor uchquni kapalakka o'xshatiladi?
- Qor uchqunlari nima uchun har xil bo'ladi?
- Qorda yurganida odam nima uchun sovqotadi-yu, qorbo'ron o'ynaganidaisib ketadi?
- Qor odam qachon erib ketadi?
- U nima uchun erib ketadi?
- Sirpanchiq o'ynash uchun nima qilish kerak?

Savol-javob jarayonida tarbiyachi bolalarni kundalik hayot bilan tanishtira boradi, tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish vositasida bilimni boyitadi, nutqini rivojlantiradi. Savol-javob orqali bolalar qor uchqunlarining har xil shaklda bo'lishi, uning turli tezlikda yog'ishi sabablarini bilib oladilar, havo harorati bilan bog'liq o'zgarishlarni tushunib yetadilar, qish mavsumidagi qiziqarli mehnat jarayoni bilan tanishadilar; qor kurash, supurish, qor bosgan joylarda qushlarga dontashlash uchun joylar tayyorlash kabi ishlarni zavq-shavq bilan, hamkorlikdabajaradilar va tarbiyachi, tengdoshlari bilan faol muloqotda bo'ladilar. So'zlashuv jarayonida ishlatiladigan «qor uchqunlari», «kapalak qor», «lo'ppi-lo'ppi qor uchquni», «qor kurash», «muz yo'lak», «don xo'rak», «qor odam», «muz tepa» kabi so'z va so'z birlikmalari dialogik nutqni hakllantirishga yo'l ochadi. Nutq o'stirishga oid mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlashda mavzularning qiziqarliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, «Boychechakning ochilishi»

mavzusidagi ertalik o'tkazish fikrimiz dalilidir. Bolalar bog'chasining katta guruhida ertalikka tayyorlanishda bolalar rollarga bo'linib, boychechak haqidagi she'rlar va qo'shiqlar tarqatiladi. Guruh xonasi ertalikkacha qog'ozdan ishlangan boychechak, binafsha, lolakabi gullar bilan bezatiladi. Ertalik «Boychechak» qo'shig'i bilan boshlanadi. Ikki bola «Boychechak» qo'shig'ini galma-gal ijro etadi. Jarchi bola boychechak tergani hammani dalaga chorlaydi. Bolalar «Dala»da boychechaklar - qog'ozdan yasalgan gullarni tera boshlaydilar va qo'shiq kuylaydilar, raqs ijro etadilar. Qo'shiq ijrosi va raqslarda guruhning barcha a'zolari ishtirok etadilar. «Boychechakning ochilishi» bilan bir qatorda «Gullar bayrami» ham bolalar sevib o'tkazadigan ertaliklardandir. Uni o'tkazishdan oldinguruhdagi barcha bolalarga gullar haqida she'r, topishmoq, raqsar bo'lib beriladi, bolalar «Gulchi qiz», «Boychechak», «Binafsha», «Lola», «Atirgul», «Rayhon», «Chuchmoma», «Bo'tako'z», «Gulsafsar», «Nomozshomgul», «Gulbeor», «Gulxayri» va boshqa gullar timsolida she'rlar yodlaydilar. Bu xildagi ertaliklar bolalarda ham estetik didni tarbiyalash, hamnutqni rivojlantirish usullari, vositalari sifatida katta yordam beradi. Savol-javoblar asosida suhbatlar o'tkazish orqali bolalarda nutqqa oid muayyan darajada malaka hosil qilgach, hikoya tuzishga o'rgatgan ma'qul.

3. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish usullari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom, tabiiy muhit yaratish, ulaming to'g'ri muomalaga kirishishi, boshqalar bilan gaplashish ishtiyosining ortishiga turtki bo'ladi. Buning uchun bolalar nutqining shaklan va tagti p ap mantiqiy birligiga erishish muhim bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- dastlab bola o'z lug'at boyligiga ega bo'lishi;
- bolalar nutqining grammatik tuzilishini aniqlashga e'tibor berish;
- bolalarda tovush madaniyatini tarbiyalash;
- dialogik nutq, ya'ni so'zlashuv nutqini rivojlantirish;
- hikoya qilib berish;
- bolalami badiiy adabiyot bilan tanishtirish;
- bolalami savod o'rgatishga tayyorlash va boshqalar.

Bu talablar maktabgacha tarbiyaning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi.

Lekin ularning har birida bolalaming yosh xususiyati, shaxsiy tayyorgarlik darajasi, albatta, hisobga olinadi.

Bolalaming tevarak-atrofnı kuzatib bonshi natijasida talaffuzi ham ijobiy tomonga o'zgarı boshlaydi; tovushlami to 'g 'ri talaffuz qila boshlaydilar, jumlar mazmuni kengaya boradi, grammatik tomondan gapni to'g'ri tuza boshlaydilar, lug'at boyligi ham ortadi. Bolalaming o'zlari kichik-kichik hikoyalar tuza boshlaydilar va bu hikoyalami erkin bayon qila oladilar. Ularda kattalar bilan muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Shunga ko'ra bolalar nutqida tovush madaniyatini takomillashtirish, atrofıdagi narsalar, predmetlar, hodisalar nomini ifodalovchi so'z boyligini kengaytirish, faollashtirish, monologik nutqning oddiy shakllariga rioya etish, o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri va aniqifodalay olish ko'nikmalarini paydo qilish muhim va zarur hisoblanadi.

Bu talablar bolalarda borliqni, tevarak-atrofnı idrok etish, uni tushunish, his etish, hikoyalar tuzish, o'z fikrini bayon qila olish, ifodali o'qish faoliyati jarayonida tarkib toptiriladi.

Ma'lumki, bog'lanishli nutqda bolalaming atrofıdagilar bilan voqea-hodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati, aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jumalarda o'z aksini topishi mumkin.

Nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalaming og'zaki nutqqa doir, malaka va ko'nikmalari mavjud bo'lganligini hisobga olib, ularda bog'lanishli nutqni shakllantirishda, awalo, tevarak-atrofnı kuzatishda nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini aniqlab olishimiz zarur. Bular, awalo, ona-Vatan haqida dastlabki tasawurlami shakllantirishdan boshlanadi. Bunda «Bolalar bog'chalari uchun dastur»da bolalarda mustaqil O'zbekiston davlati haqidagi tushunchalami kengaytirish, uning o'tmishiga oid yodgorliklar bilan tanishtirish, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon kabi tarixiy shaharlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, «Mustaqillik kuni» (1991 yil 1 sentyabr), O'zbekiston ramzlari: gerbi, bayrog'i, madhiyasi bilan tanishtirish, O'zbekiston Prezidenti, Prezidentlik boshqaruvi haqida ma'lumotlar berish, bolalaming o'z mahallasi, ko'chasi, uyi, uning

nomlanishi, nomlanish sababi; O'zbekistonning tabiati, yer-osti va usti boyliklari, tog'lari, cho'l va adirlari, tog'u soylari, o'rmonu-bog'lari, iqlimi; buyuk siymolari, sarkardalari, ulug' mutafak-kirlari, an'anaviy bayramlari, sayllari, milliy marosimlari, o'zbek xalqining amaliy san'ati, kattalar mehnati, bolalaming ota-onalari, aka-opalarining O'zbekiston xalqxo jaligining turli sohalaridagi ishtiroki, ishlab chiqarishning muhim sohalar, aloqa vositasi haqida bilim berish nazarda tutilgan. Ana shulaming barchasi bolalaming tevarak-atrofdagi hodisalar haqidagi bilimlami aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish asosida bog'lanishli nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunda, birinchi navbatda, bolalar so'z boyligini kengaytirishda Respublikamiz tabiati, kasb-hunarga oid,, qurilish va qishloqxo'jaligida foydalaniladigan mashinalar, narsalaming o'ziga xos belgilari va ranglari, mehnatga munosabatni ifodalovchi tushunchalar, nom va so'zlar bilan boyitish zarur. Shuningdek, xalqog'zaki ijodi namunalarini o'rganish; ona tilidagi antonim, sinonim, omonim so'zلامي tushunish va to'g'ri qoilashga doir tushunchalar, so'zlar bilan boyitishga erishish lozim. Bolalami narsalaming nomlarini to'g'ri aytishga, ulaming o'xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalarirti, jinsi va turiga oid yo'naltiruvchi lug'atini faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutqmadaniyatini shakllantirish, dialogik va monologik nutqini takomillashtirish va nihoyat savod o'rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar bog'chalarida olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ulaming bog'lanishli nutqi yoshiga ko'ra orqada qolib, qator kamchiliklar mavjud. Shuning uchun biz ularning nutqini kuzatishda odatdagi hayotiy faoliyatidan chetga chiqmaslikka harakat qildik. Bujarayonda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1. Ona tili boyligidan unumli foydalanish.
2. Nutqni rivoj lantiravehi omillami to'g'ri belgilash.
3. Nutqni rivojlantirish jarayoni.
4. Nutqni rivoj lantirish da uzviylik va uzluksizlik.
5. Nutqni rivojlantirish mazmuni.
6. Nutqni rivojlantirish shakllari.
7. Nutqda ijtimoiy-maishiy omillaming o'zaro aloqasi.

8. Sayrlar, o'yin va mehnat jarayoni - nutqni o'stirishning muhim vositasi ekanligi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarining katta guruhlarida bolalarning nutqi qay darajada shakllanganligini aniqlanib, maxsus topshiriqlar ro'yxatini ishlab chiqiladi, har bir bola bilan yakka tartibda olib boriladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonini tashkil etish nechog'lik muhim?

2. Bolalar nutqini rivojlanishida tevarak-atrofnii bilishning ahamiyati nimada?

3. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq qanday takliflar bera olasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. - T., 2010.

2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. - T., 2019

3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. - T.: "O'qituvchi", 1988.

4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -T.: "O'qituvchi", 1995.

5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T., 1997.

6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.

7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.

8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003

9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediyaa texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

24-§: BOLALARNI SAVOD O'RGATISHGA TAYYORLASH METODIKASI

REJA:

1. Bolalarda o'qish, yozish va mavzuga qiziqish uyg'otish
2. Bolalarni turli faoliyat yo'nalishlarida savodga o'rgatishga tayyorlash

3. Bolalar nutqini o'stirish va savodga tayyorgarlik

Tayanch tushunchalar: Ekspressiv muloqotchanlik, Impressiv muloqotchanlik, Ijodiy-rivojlantiruvchi muhit, mini muhit, tayyorgarlik davri, savodga o'rgatish.

1. Bolalarda o'qish, yozish va mavzuga qiziqish uyg'otish.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga ta'lim-tarbiya berish sifatiga bog'liq. SHu bois Vatani, halqini sevadigan, istiqloq g'oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni yetishtirish davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. SHuning bilan birga ta'lim tizimidagi tub islohotlar orqali shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlash mazkur yo'nalishning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, bu haqda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim, umuman olganda, uzliksiz ta'limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o'qish uchun tayyor bo'lgan sog'lom va to'laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, sog'lom, tetik o'sishiga. Ahloqiy sifatlariga o'quv dasturini o'zlashtirishda me'yorli bajarilishini ta'minlashshiga, qo'llanmalarining monandligiga bog'liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta'limda o'z yechimi ifodasini topishi va o'z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur.

Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o'stirish zarur: Bola har bir so'z manosini tushuna olishi uni o'z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo'lishi kerak. Tushunchalar tizimiga

moslashgan bola o'z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o'rganadi.

Og'zaki nutqni o'stirish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda, asosan, bolalarning og'zaki nutqini o'stirishga, nutqni grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishga, nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo'shma gaplar tuzish, bunda barcha so'z turkumlaridan foydalanishga o'rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe'lga to'g'ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e'tibor beriladi. Og'zaki nutqini o'stirishda mustaqil hikoya qilishga o'rgatish katta o'rin egallaydi: bolalarni o'z hayotlarida uchragan voqealar, suratlariga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog'langan, ma'lum izchillikda, grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak.

Savodga tayyorlash bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda savodga o'rgatish ikki davrga ajratiladi.

Tayyorgarlik davri.

Asosiy davr (Savodga tayyorlash).

Savodga o'rgatishning **tayyorgarlik davri** vazifalari sentyabr, oktyabr oylarida rejalashtiriladi. Bu davrda quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish.

2. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish.

3. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish.

4. Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

a) gapni so'zlarga bo'lish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;

b) ma'lum tovushlarning o'rnini aniqlash (so'zning boshida, o'rtasida va oxirida);

v) so'zda tovushlar ketma-ketligini va sonini aniqlash;

g) tovushlardan bo'g'inlar, so'zlar tuzishga o'rgatish;

d) tovushlarni eshitishda farqlashga o'rgatish;

Tayyorlov guruhida nutq, o'qish va savodga tayyorlash yo'nalishining savodga o'rgatish bo'limi 2-bosqichi - **asosiy davrida** (oktyabr-may) quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Berilgan tovushni harf belgisi bilan tanishtirish;
2. Kesma harflar yordamida tovush-harf tahlil va sintezi bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatib borish;

3. Bo'g'in o'qish;

2. Kesma harflar yordamida bo'g'in va so'zlarni tuzish va ularni bo'g'inlab o'qishga o'rgatish.

Tayyorlov guruhlarida yil davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalar yoshiga mos bo'lishi va ketma-ketlikda olib borilishi kerak.

Mashg'ulotlar ishlanmasida mavzuning maqsad-vazifalari, kutilayotgan natijalar, kerakli jihozlar, mashg'ulotning borishi to'liq yoritiladi. Mashg'ulot mavzulari bolalar uchun tushunarli, amaliy ishlar va turli interfaol o'yinlar bolalar yoshiga mos, qiziqarli va turli bo'lishi lozim. Mashg'ulotlar davomida bolalar barmoq mashqlarini tetiklashtiruvchi daqiqalarda bajaradilar, harflar bilan maxsus o'yinlar (yig'ish, terish), amaliy ishlarni bajarib, alifbeni bilib, bo'g'inlarni o'qiy olish ko'nikmalari mustahkamlanib boradi.

Bola nutqi rivojlanganligini aniqlash (savodxonlikka o'rgatish).

Maqsad: Bolalarning tovushlar, so'zlar va so'z birikmalari haqidagi bilim va tasavvurlarini, ularning so'zlarni bo'g'inlarga ajaratish hamda berilgan so'zlardan gap tuzishni bilishini aniqlash.

1. «Chiroyli stol» so'zi ishtirokida gap tuzish.

2. «Ruchka» chiqib so'zi bilan so'z birikmasi o'yla.

3. Koptok haqida imkon qadar ko'p so'z ayt.

4. «Bolalar maktabga kelishdi. Ular sinfda o'tirishibdi. Dars boshlandi. Bir o'quvchini doskaga chaqirishdi». Bu hikoyada nechta gap bor (har bir gapni uchburchak bilan belgilang. Qancha uchburchak bo'lsa, demak shuncha gap bo'ladi).

5. «Mashina», «oshxona» so'zlarini bo'g'inlab ayt.

6. «Bahor keldi» so'z birikmasidan gap tuz.

7. So'z nimadan tashkil topgan?

8. Gap nimadan tashkil topgan?

9. Xonadagi «O» tovushi bor narsalarni ayt (boshqa tovushlarni ham aytish mumkin).

- *Ikkita gapni eplab gapira olmasang, maktabda kanday uqiysan?*
- *Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?*
- *Maktabga borsang, o'rtoqlaring bu kiligingdan lol qolishadi!*

- *Xech narsani bilmaysan, maktabga borsang bizni uyaltirasan!*

Kabi ta'na-dashnomlar, bolada maktabdan qo'rkish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Shunday kurkuv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uygotish uchun xaddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda shubxasiz, murakkab jarayondir.

2. Bolalarni turli faoliyat yo'nalishlarida savodga o'rgatishga tayyorlash. Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Bolaning faoliyatdagi mavqei uni faqat tarbiya ob'ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub'ektiga ham aylantiradi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallashdagi muvaffaqiyat oiladagi, Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'liq, bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning hammasi bola

shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg'ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadikn, u bolaga maktabdagi muntazam o'qishga o'tish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o'qish bo'lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqei o'z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o'zgacha nuqtai nazardan – maktab o'quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo'yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko'rsatib, kattalarning uning xulq-atvoriga va faoliyatiga qo'yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiati har bir yosh avlodga ob'ektiv ravishda berilgan bo'ladi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimlarda, san'atda, ahloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo'lgan paytda tarbiya va ta'lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi.

3. Bolalar nutqini o'stirish va savodga tayyorgarlik. Nutq o'stirish va savodga tayyorlash mini muhitiga M. Montessori va boshqalarning nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishning turli uslublarini qo'yish mumkin. Hozir maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qishga o'rgatish to'g'risida munozaralar o'tkazishayapti. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi metodik jihatdan ishni to'g'ri tashkil etishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan o'yin faoliyati orqali bolalar harflar bilan o'ynashadi, o'qishga o'rganishadi, so'zlar yozilgan turli tuman kartochkalardan, yirik bosma shriftlar, chiroyli rasmlardan foydalanishadi.

M.Montessorining shiori – «Menga o'zim bajarishim uchun yordam ber, men o'zim bajaraman». Tarbiyachi doim mehribon, sabr-toqatli, bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirishi, o'zining shaxsiy namunasi bilan nima qilish va qanday qilish lozimligini ko'rsatishi lozim. U bu yerda ustoz emas, balki voqealarning qatnashchisi sifatida ishtirok etadi: faqat bolalarni qiziqтира olishi lozim. O'zaro bir-birini tushunish, anglash va muhabbat tuyg'usi asosida muloqot olib boriladi. Tabassum, imo-ishora bilan kichkintoyni qo'llab quvvatlab turadi, ko'proq uni maqtaydi.

Tarbiyachining ichki dunyosi bilan kichkintoyning ichki tuyg'usi o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud, tarbiyachining madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bolaning madaniyat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunday jarayon davrida tarbiyachi ham, bola ham shakllanadi, bu esa hamma uchun hissiy qulaylik yaratadi, shuningdek, ota-onalarni ham ijod qilishga uo'naltiradi. Ijodiy rivojlantiruvchi muhitning samarasi kichkintoyning umumiy taraqqiyotiga, ijodiy tafakkuriga, mustaqilligiga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitgagina bog'liq emas, balki tarbiyachining bola bilan bo'ladigan muloqotiga, vaziyatga, beriladigan topshiriqlarga, ularni berish usullariga ham boliq. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish bir tartibda o'tmaydi. Tarbiyachi bolalarning taraqqiy etish dinamikasini kuzatib borishi, lozim bo'lsa, yordam ko'rsatishi lozim. Ammo bunda bolaning psixikasiga nisbatan yutuqlari darajasi dastur talablari bilan solishtirilmaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, yuqorida ko'rsatilgan shart-sharoitlarda psixikasi sog'lom bola sezilarli darajada an'anaviy davlat ta'lim standartlaridan o'zib ketadi, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar esa o'z yoshlariga mos yetarlicha bilim va malakalar oladilar. Yuqori darajada olinadigan bilimlar darajasi har bir bolaning individual imkoniyatlariga bog'liq. Ijodiy-rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish bola shaxsining har tomonlama yetukligi: mustaqil, maqsadga intiluvchan, ishni to'g'ri rejalashtira olish qobiliyatlarini takomillashtiradi. Bunday vaziyat bolani to'g'ri anglab harakat qilishga o'rgatadi. Tarbiyachilar bolalarning o'xshamaydigan xislatlarini qadrlashlari, o'ziga xos individual bo'lishlarini hurmat qilishlari lozim.

Tarbiyachilar! Bolani majburlamang, bolaning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib bering. Eng asosiysi, hamma narsa bola uchun qiziqarli bo'lishi lozim.

1. Eshitish va tushunish malakasini shakllantirish.

1. Impressiv muloqotchanlik;
2. Nutq malakasi. Ekspressiv muloqotchanlik.

2. O'qish va savodga tayyorgarlik ko'rish.

1. Kitobning qadr-qimmatini tushunish;
2. O'qish va savod malakalarini egallash.

Bu yo'nalishda bolalarning nutqi va ularda shakllanayotgan o'qish va yozish malakalari orqali muloqot qilishning belgilari rivojlanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalarni o'qish, yozishga qiziqtirishda nimalar ahamiyatli sanaldi?
2. Bolalarni savodga tayyorlash muhiti nima?
3. Turli faoliyat doirasida bolalarni savodga tayyorlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?
4. Savodga o'rgatishning tayyorgarlik davri qanday rejalashtiriladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

25-§: BOLALARNI SAVOD O'RGATISHDA TOVUSH VA XARFLARDAN FOYDALANISH USULLARI

REJA:

1. Bolalarni savodga tayyorlashda muloqotning o`rni
2. Bolalarni savodga o`rgatish mashg`ulotlari
3. Bolalarni savod o`rgatishda tovush va xarflardan foydalanish usullari

Tayanch tushunchalar: Ekspressiv muloqotchanlik, Impressiv muloqotchanlik, Ijodiy-rivojlantiruvchi muhit, mini muhit, tayyorgarlik davri, savodga o`rgatish.

1. Bolalarni savodga tayyorlashda muloqotning o`rni.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o`zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya`ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o`qish, o`yin, ijod qilish va boshqalar) o`zaro munosabat va o`zaro ta`sir shakllarini o`z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma`lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. SHuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o`rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro`si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog`liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo`lib, unga odam hayoti mobaynida o`rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F. Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko`p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o`zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o`zaro ta`sir jarayoni;
- b) individlar o`rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta`sir ko`rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatleri, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir.

Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. SHuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funkqiylarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funktsiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro *bir - birini tushunishlarini* ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. SHunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funktsiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Kattalar bilan muloqotda bola:

- * Kattalar bilan muloqotga kirisha oladi;
- * Kattalarning savollariga javob bera ola oladi;
- * O'z fikrini kattalarga bayon qila oladi;
- * Dialogik nutqdan foydalanib suhbatlasha oladi;
- * Istagini so'z bilan ifodalay oladi;
- * Kattalardan so'z orqali yordam so'raydi;
- * Oilasi va tanishlari to'g'risida hikoya qilib bera oladi;
- * Kattalar bilan boshqa mavzularda ham so'zlasha oladi;
- * Odob bilan muloqotga kirisha oladi;
- * Muomalada nutq va imo-ishoralarni qo'llay oladi;
- * Kattalar bilan muloqot qilishda tanish qonun-qoidalarga rioya qiladi;
- * Kattalarga murojaat qilishning turli usullaridan foydalanadi;
- * Notanish kattalar bilan muloqotga kirisha oladi.

Tengdoshlari bilan muloqotda:

- * Tengdoshlari bilan yonma-yon o'ynay oladi;

- * Tengdoshlari bilan muloqotga kirisha oladi;
- * Tengdoshlari bilan salomlasha oladi;
- * Tengdoshlarini ismi bilan chaqiradi;
- * Olgan taassurotlarini boshqa bolalar bilan o'rtqlasha oladi;
- * Tengdoshlari bilan o'yin qoidalarini birgalikda kelishib oladi
- * Tengdoshlari bilan muloqotda o'z fikrini ayta oladi;
- * Tengdoshlari bilan yuzaga kelgan nizolarni bartaraf eta oladi;
- * Tengdoshini so'z orqali baholay oladi;
- * Tengdoshiga oddiy takliflar, iltimoslar bilan murojaat qiladi;
- * O'yin davomida tengdoshiga sherik sifatida qaraydi;
- * Tengdoshlari bilan muloqotda dialogik nutqdan foydalanadi.

2. Bolalarni savodga o'rgatish mashg'ulotlari

Mavzu: «d» tovushi hamda bosh va kichik (Dd) harflari bilan tanishtirish.

Maqsad:

«d» tovushi va «Dd» harflari bilan tanishtirish, o'rganilgan unli harflar bilan bo'g'in, so'z tuzish va o'qish.

Vazifalar:

- «D» tovushining undosh tovush ekani haqida tushuncha berish, uning so'z boshi, o'rtasi va oxirida kelishini aytish, uning to'g'ri talaffuzini o'rgatish;

- «D» tovushli so'zlar bilan bolalar lug'atini boyitish;
- «D» tovushli so'zlarni bo'g'inga bo'lish;
- Bo'g'inlardan so'z tuza olish.

Kutilayotgan natijalar:

- «D» tovushi va «Dd» harflaritsh bilib oladilar.
- «D» tovushining undosh tovush ekanligini, uning so'z boshi, o'rtasi va oxirida kelishini bilib oladilar.

- «D» tovushli so'zlarni ayta oladilar;
- «D» tovushli so'zlarni bo'g'inlarga bo'la oladilar.

Kerakli jihozlar:

- «Dd» harflari;
- «D» tovushi qatnashgan predmetlar suratlar;
- «Bo'g'inlardan so'z tuzing» ta'limiy o'yini uchun materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi bolalarga o'rganilgan harflarni Harf jildidan o'qitadi. Ularga xos xususiyatlarni savollar yordamida eslatadi: Bular qanday xarflar? Ular nimalarni ifodalaydi? Unli tovushlar qanday aytiladi? Ular nimadan hosil bo'ladi? Ular nima hosil qiladi? (bo'g'in hosil qiladi.). Bu harflarning nechta shakli bor?

Bolalar, bugun «D» tovushi va bosh va kichik «Dd» harflari bilan tanishamiz. Bosh «D» va kichik «d» ko'rgazmadan, rasmi alifbodan, maxsus tayyorlangan ko'rgazmadan (bosma shakli) ko'rsatiladi. Bosh «D» harfi ko'rsatilib, bu harfning qanday shakli? (bosh shakli – bosh D harfi) Bosh «D» harfi bilan qaysi so'zlar yoziladi? Bu («D») qanday harf? (bu kichik «d» harfi) U qaysi so'zlarda yoziladi? (**ductor, doira...**) Men ko'rsatgan «Dd» harflarini nimalarda o'qiydiz?

Di-van so'zi necha bo'g'inli? Men aytaman, siz aniqlaysiz: **Di-van** men shu so'zni qayta aytaman, siz birinchi tovushni aytasiz: **D-D-Di-van**, Xattaxtaga bitta to'rtburchak chizaman. Endi 2-tovushni ayting: **Di-v-v-van**, 2-to'rtburchak chiziladi. 3-tovushni toping: **Di-v-v-van** 3-to'rtburchak chiziladi: – **Di-van** so'zining modeli hosil bo'ladi: Bu so'zda biz tanishmagan qaysi tovush bor? («D» tovushi) Bugun siz «D» tovushi bilan tanishasiz. «D» tovushi bolalarga talaffuz qildirtiladi.

Tarbiyachi: «D» tovushini talaffuz qilganimizda quyidagilar sodir bo'ladi: lablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin jipslashmagan, «D» tovushi unli «a», «i», «o», «u» tovushlari bilan qo'shib talaffuz etilganda tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlarga yoki alveolalarga tiralib turadi. «D» tovushi **ya, yo, ye, yu** unli tovushlari birikmasi bilan talaffuz etilganda tilning uchi pastga tushgan bo'lib, pastki kurak tishlari tilga tegib turadi.

Tarbiyachi: endi men «D» tovushini talaffuz qilaman, «D» tovushini cho'zib aytib bo'ladimi? (Yo'q) Tarbiyachi «D» tovushining hosil bo'lishini tushuntiradi. «D» tovushi undosh tovushlar sirasiga kirishi qayd etiladi. «D» tovushining xususiyatlari quyidagi savollar asosida bolalardan so'raladi:

«D» tovushi qanday tovush?

Undosh tovushlar qanday rang bilan belgilanadi?

«D» undosh tovush. Undosh tovush unli bilan birga bo'g'in hosil qiladi.

«D» tovushining talaffuzi o'rgatiladi. «D» tovushining so'z boshida (**don, deraza, dutor**), o'rtasida (**O-dil, A-do-lat**) kelishi haqida, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib aytish, bo'g'inlardan tovushlarni ajratish, «D» tovushi so'zning qaysi o'rnida kelganini aniqlatish orqali tushuncha beriladi. Shundan so'ng kesma «Dd» harflari harf kassasiga qo'yiladi.

Tetiklashtiruvchi mashqlar:

«Kapalaklar»

O'yinning mazmuni: Bolalar stulchalarda o'tirishadi.

Tarbiyachi bolalarga: «Bolalar, qaranglar-a, qanday chiroyli kapalaklar, ko'k, sariq, qizil! Ular xuddi jonli kapalaklarga o'xshaydi. Ko'raylikchi, ular ucha oladilarmi? (ularni puflaydi). Qaranglar, uchib ketishdi. Qani sizlar ham puflab ko'ringlar-chi, kimniki uzoqqa uchar ekan?»

Tarbiyachi har bir kapalakning qarshisiga bittadan bolani turg'azib qo'yadi, bolalar kapalakka qarab puflaydilar.

O'yin bir necha marotaba takrorlanadi. Bunda bolalarning to'g'ri turishiga, nafas olganlarida yelkalarining ko'tarilmasligiga ahamiyat berib borish kerak. Bolalar bir nafas chiqarishda, havo olmasdan turib, biron narsani puflashlari kerak. Lablar biroz cho'chchaygan bo'ladi. Har bir bola biror narsani 10 soniyadan (orasidan tanaffus qilish bilan) ortiq puflamasligi kerak.

Bolalar uchun amaliy ish.

Tarbiyachi: Bolajonlar, kelinglar hammamiz plastilindan «D» harfini yasaymiz. Buning uchun «D» harfining shakliga diqqat bilan qarab olib, plastilindan shu shaklni yasaymiz.

Bolalar «D» harfi haqida quvnoq she'r eshiting.

Oyijonim olmani

To'rt bo'lakka bo'ldilar.

Bir bo'lagin ko'rsatib,

«D»ga o'xshar, dedilar.

«D» harfli bo'g'in tuzish va uni o'qish. Tarbiyachi harf terish kartoni, xattaxta tagligiga yoki xattaxtaga **di,du,do,ad, id,od, o'd** bo'g'inlarini tuzib, yozib qo'ygan bo'ladi. Uni bolalarga o'zi o'qib namuna ko'rsatadi. Bolalar bilan xo'r bo'lib o'qiydi. So'ng yakka-yakka o'qitadi. Bunda «D» tovushiini ichda saqlab, keyin unlini qo'shib birga o'qish lozimligi amaliy ko'rsatiladi.

Shu bo'g'inlar qayta bolalarning o'zlariga tuzdiriladi va o'qitiladi. Bunda tarbiyachi «Da» deydi va yo'llanma beradi: avval qaysi tovushni eshityapsan («D» tovushini), o'shani harf jildidan olib qo'y. «Daa», endi oxirida qaysi tovushni eshityapsan? («a» tovushini) «D» harfining qaysi tomoniga «a» harfini qo'yan? (orqasiga). Tuzgan bo'g'iniingni o'qi: «Da» (Qolgan bolalar o'z joylarida kesma harflardan foydalanib bo'g'in tuzadilar).

Shu tartibda di, du, do' ,ad, id, od, o'd bo'g'inlari tuzdiriladi va o'qitiladi.

Kesma harflar bilan ishlash. Bolalarga kesma harflardan bo'g'in tuzdiriladi va o'qitiladi. Tuzilgan bo'g'inlardan yoki bo'g'inli kartochkalardan bir nechta so'z tuzdirilib, o'qitiladi, ulardan birining bo'g'in-tovush tahlili o'tkaziladi: don, do'l, do-ri, da-la, O-dil, du-tor.

Mashg'ulotga faol qatnashgan bolalar rahbatlantiriladi.

Bolalar bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :

- Bugun qaysi tovush bilan tanishdik?
- «D» qanday tovush ekan?
- Biz tovushlarni nima uchun o'rganamiz?»
- «D» tovushi qaysi harf bilan yoziladi?
- «D» harfining shakli qanaqa ekan?
- «D» harfining necha xil shakli bor ekan? (bosh va kichik, bosma shakli)
- Bosh D harfi qaysi so'zlarda yozilar ekan?
- Bo'g'inli kartochkalar bilan qanday so'zlarni tuzdik?

3. Bolalarni savod o'rgatishda tovush va xarflardan foydalanish usullari. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikdan iboratdir

–“Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik” quyidagi maxsus vazifalardan iborat:

- nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash,
- lug'atini boyitish,
- mustahkamlash va faollashtirish,
- nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish,
- og'zaki nutqni shakllantirish,

-ravon nutqni rivojlantirish,

-savodga tayyorlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining tayyorlov guruhdagi "Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik" yo'nalishining asosiy vazifalari: Bolaning til to'g'risidagi tasavvurlari va bilimlarga ega (antonim va sinonimlarni topa oladi), o'qish va yozish malakalarini shakllantirishdan iborat. Bola o'z ona tilining fonetik gramatik tuzilishini biladi, so'zlardagi birinchi tovushlarni biladi, bo'g'inlab o'qiydi, alifbeni biladi deb belgilangan. Bu vazifalarni bajarish uchun tayyorlov guruhida yildavomida jami 72 tamashg'ulot o'tkaziladi. Shulardan 36 tasi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha, 36 tasi savodga tayyorlash bo'yicha bo'ladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi 25 -30 daqiqa.

1 -Savodga o'rgatishning tayyorgarlik davri vazifalari sentyabr, oktyabr oylarida rejalashtiriladi. Bu davrda quyidagi ishlar olib boriladi:

1. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish

2. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish

3. Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish:

a/ Gapni so'zlarga bo'lish, so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish;

b/ ma'lum tovushlarni o'rnini aniqlash (so'zning boshida, o'rtasida va oxirida);

v/ so'zda tovushlar ketma-ketligini va sonini aniqlash;

g/ tovushlardan bo'g'inlar, so'zlar tuzishga o'rgatish; d/ tovushlarni eshitishda farqlashga o'rgatish;

jarangli va jarangsiz undoshlar B-lab portlovchi jarangli undosh tovush. So'zning oxirida, boshida va o'rtasida keladi. B..., ...B, Bog', ...b..., b P-lab portlovchi jarangsiz undosh tovush. P..., P, Paxta, ...p...,p, kelib-kelip,

Tayyorlov guruhida nutq, o'qish va savodga tayyorlash yo'nalishining savodga o'rgatish bo'limining asosiy davrida (oktyabr- may) quyidagi ishlar olib boriladi: 2 - 1. Berilgan tovushni harf belgisi bilan tanishtirish
2. Kesma harflar yordamida tovush-harf tahlil va sintezi bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatib borish; 4. Bo'g'in o'qish; 5. Kesma harflar

yordamida bo'g'in va so'zlarni tuzish va ularni bo'g'inlab o'qishga o'rgatish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalarni savodga tayyorlashda kattalar va tengdoshlari muloqotining ahamiyati?
2. Tarbiyachi bolalarni savodga tayyorlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?
3. Bolalarni savodga o'rgatish mashg'ulotlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar?
4. Bolalarni savod o'rgatishda tovush va xarflardan foydalanishda qanday usullardan foydalaniladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019 ..
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

REJA

1. Tarbiyachi nutqining bolalar nutqini to'g'ri rivojlanishidagi ahamiyati.

2. Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan pedagogik talablar

3. Tarbiyachi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashning zarurligi

Tayanch tushunchalar: *madaniyatli munosabat, ilg'or tajribali, haqiqatgo'ylik, madaniy axloq, texnikaviy vositalar, ravon nutq, pauza, ritm, tembr, ohang, sheva, mahalliy so'zlashuv, ibora, nutqning shoshqaloqligi.*

Tarbiyachi nutqining bolalar nutqini to'g'ri rivojlanishidagi ahamiyati. Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash – bu uning o'z kasb-koriga tayyorligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Taniqli pedagog, bolalarni ona tiliga o'rgatish uslub va uslubiyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo'yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I.Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, shunday degan edi: "Bog'chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog'bon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g'oyat samarali va nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatadigan hamma narsalarni o'zida birlashtiradigan bo'lishi kerak. Bog'bonning tili bekam-u ko'st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo'lishi lozim".

Tilshunoslik bolalar nutqni kattalarga taqlid qilish yo'li bilan egallab olishlarini isbotlab berdi. Tarbiyachining nutqi ona tilini endigina o'rganayotgan bolalar uchun namuna va ularga ta'sir etish vositasidir. Bolalar hali tajribalari yo'qligi, nutqlari yaxshi rivojlanmaganligi sababli kattalar nutqidagi yaxshi jihatlarga ham, yomon tomonlarga ham bir xilda taqlid qilaveradilar. Har bir yosh guruhidagi bolalar, o'z tarbiyachilari bilan maishiy-xo'jalik, mehnat, o'yin faoliyatida muloqotda bo'ladilar. Tarbiyachi bolalar o'yinini tashkil etadi, badiiy asararni o'qib beradi yoki hikoya qiladi. Mana shu jarayonda tarbiyachi nutqining yaxshi tomonlari ham, nuqsonlari ham yaqqol namoyon b'ladi va bu xususiyatlar tarbiyalanuvchilar nutqida o'z aksini topadi. Demak, bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarining nutq xususiyatlari to'laligicha tarbiyachi nutqiga

bog'liq. Doimo bolalarning diqqat markazida bo'lgan tarbiyachining nutqi bolalar muhim madaniy nutq namunasi hisoblanadi.

Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nuqtayi nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Biroq u har doim o'z nutqidagi kamchilikni aniqlashga muvaffaq bo'lmaydi. Chunki unina diqqati nutqining shakliga emas balki mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, uzoq vaqtgacha o'z nutqiga ehtiyotsizlik bilan qaraganligi tufayli, ayrim kamchiliklar nutqiga mustahkam o'rtnashib qolishi va bu nuqson o'ziga rnutlaqo sezilmasligi mumkin. Buning uchun, tarbiyachi hamkasblarining ko'rsatmalariga amal qilishi va bu kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, haqiqatgo'ylik, yaxshilik, jasurlik, kamtarinlik, adolat, kattalarga hurmat bilan qarash, kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Xalq san'ati, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, musiqa, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi - tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini

ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'likdir. Pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tadbiiq eta oladigan bo'lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb kilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi;

8. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi;

9. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo'lsa ovuntira olishi;

10. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak. Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har bir tarbiyachi o'z nutqidagi nuqsonlarni aks ettiruvchi daftar tutishi, unga kamchiliklarini belgilab borishi, so'ngra ularni bartaraf etish bo'yicha reja tuzib, ishni tashkil etishi kerak.

Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo'yilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda o'z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak.

Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan pedagogik talablar. Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

1. Nutq tovush tomonining to'g'riligi. Agar tarbiyachining nutqi aniq bo'lsa, jumalarni, so'zlarni va har bir tovushni aniq talaffuz. etsa, bolalar ona tilining tovush tomonini muvaffaqiyatli o'zlashtira oladilar.

Ko'p hollarda, ayrim tarbiyachilar tovushlarni noaniq talaffuz etadilar, so'zning tarkibidagi ayrim tovushlarni tushirib ketadilar, tovushlar o'rnini almashtiradilar.

2. Adabiy til normalariga muvfiq to'g'ri talaffuz. Tarbiyachi idabiy til normalariga amal qilishi, o'z nutqida turli mahalliy so'z- ishlatmasligi. so'z urg'ularini to'g'ri ishlatishi lozim.

3. Nutqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan to'g'ri foydalanish. Nutqda fikrlar, his-tuyg'ularni aniq ifoda etish lozim. Vunga faqat so'zlar yordamidagina emas, balki nutqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan: ovoz kuchi, temp, to'xtam, ritm, urg'u va hokazolardan foydalanish orqali erishiladi,

Tarbiyachining she'r, ertak va hikoyalar o'qib berayotganda ushbu vositalardan o'rinli foydalanishi bolalar asar mazmunini yaxshi tushunib olishlari va ona tilining go'zalligini his etishlariga yordam beradi.

Tarbiyachining bir xil ohangdagi nutqi kichkintoylarni zerik tiradi, asar mazmuniga bo'lgan qiziqishini susaytiradi. Bunday nutqni eshitishdan zerikkan bola boshqa narsalarga chalg'iydi, so'ngra tarbiyachining nutqiga butunlay quloq solmay qo'vadi.

4. Tarbiyachi nutqining jo'shqin, inionatsiyaga boy bo'lishi. Shoshilib gapirish so'zlar tarkibidagi tovushlarni noaniq talaffuz etilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda shoshilmasdan, o'rtacha tempda (tezlikda) gapirish kerak. Bunday tempda gapirish nutqning aniq bo'lishini ta'minlaydi, aksincha, tez temp nutqning buzilishiga sabab bo'ladi, uni idrok qilishni qiyinlashtiradi.

Tarbiyachi ovozdan to'g'ri foydalanishi lozim. Haddan tashqari baland gapirish bolalarni charchatadi. Agar ovoz past kuchsiz bo'lsa, bolalar mashg'ulotda zerikadilar.

5. Tarbiyachi nutqining aniq, oddiy bo'lishi, fikrlar izchillik bilan bir-biriga bog'lanib, tushunarli ifodalanishi. Bolalar tarbiyachidan, kattalardan tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishni o'rganibgina qolmasdan, balki tinglagan ertak va hikoyalarining mazmunini aniq, qiziqarli tarzda qayta hikoya qila olishga, tevarak-atrofnı kuzatish natijasida olgan taassurotlarini so'zlab berishga, o'z fikrlarini ketma-ketlik bilan bayon etishga xulosalar qilishga ham o'rganadilar.

Nutqda bildiriladigan mazmunni bolalarga tushunarli, qiziqarli, bog'langan holda yetkaza olish tarbiyachi nutqining zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi.

Tarbiyachi fikrini ketma-ketlik bilan bayon etishi, o'z nutqi tushunarsiz so'zlar, murakkab va uzun jumlar bilan qalashtirib tashlamasligi kerak. Agar tarbiyachining nutqi qisqa jumalarda, iborat bo'lsa, uni bolalar oson o'zlashtiradilar. Aksincha, nutqdagi jumlar uzundan uzoq bo'lsa, nutqning mazmunini tushuna olish juda qiyin bo'ladi.

6. Tarbiyachi lug'atining boy bo'lishi. Tarbiyachi o'z. nutqida so'zlarni to'g'ri va aniq ishlata olsa, u holda uning nutqi bolalarga tushunarli bo'ladi. O'zbek tilining lug'ati juda ham boy, u doimo- yangi so'zlar bilan to'ldirib boriladi, iste'moldan chiqqan so'zlar yo'qolib boradi.

Tarbiyachi bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda, ularning yoshini hisobga olib, ona tilining lug'at boyligidan keng foydalanmog'i lozim.

So'zlarni to'g'ri tanlash tarbiyachi nutqini ifodalimazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Yangi so'zlarni ishlatishga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

Kattalar bilan bevosita muloqot qilish bola nutqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to'g'ri talaffuz, so'zlarni to'g'ri qo'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda (pedagoglar, ota-onalar, oila a'zolari va boshq.), atrofdagi bolalarda uchrab turadigan nutq nomukammalliklarini ham o'zlashtirib oladi. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning (va boshqa katgalarining) nutq madaniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o'qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg'otadi, ularda qayg'urish, so'z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va quruq ohangda his-hayajonlarsiz o'qib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi.

Tarbiyachining nutqi emotsional to'liq, intonatsiyalarga boy, etarli darajada baland va tezligi bir maromda bo'lishi lozim. Bolalar bilan muloqotda xuddi tovushlarni - noto'g'ri talaffuz etib bo'lmaganidex, nutqning shoshqaloqligiga ham yo'l qo'yilmaydi. Agarda nutq biroz ohista sur'atda davom etsa, u yaxshi qabul qilinadi. Bunday sur'at nutqning aniqligini oshiradi va aksincha, tezlashtirilgan nutq qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bolalar uchun mo'ljallangan ertaklar, hikoyalar, she'rlarni badiiy so'z ustalari odatda, og'zaki nutqqa qaraganda biroz sekin sur'atda o'qiydilar. Shu bilan birga esda tutish lozimki, bu qoida hamma narsani ham qamrab olmaydi. Badiiy asarlarni o'qishda nutqni jadallashtirish yoki sekinlashtirishni ushbu chog'da mazmun tushuntirilayotgani bilan oqlash mumkin, ayni paytda bu badiiy ifodalilik vositasiga aylanishi zarur.

1. Ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi.

2. Sof, aniq ravshan nutqqa ega bo'lishi, ya'ni diksiyasi yaxshi bo'lishi,

3. Nutqida adabiv talaffuzdan (so'zardan) foydalanishi. ya'ni orfoepik normalarga rioya qilishi.

4 Bayon etiladigan fikrlarning mazmuniga qarab intonatsiya vositalaridan (ovoz kuchi, tempi, arg'u, to'xtam, ritm, temp. ohang) to'g'ri foydalanishga harakat qilishi.

5. Bolalar bilan nntqiy muloqotda bo'lganda yengil, sekin tempdagi, o'rtacha baland ovozdagı nutqdan foydalanishi.

6. Bolalarning yoshiga qarab hikoya matnining mazmunini bayon etishda sinonim, omoniliardan va kinova so'zlardan, xalq og'zaki ijodiyotining namunalaridan foydalanishi.

7. Nutqning grammatik tomoniga e'tibor bergan holda fikrini izchillik bilan. bir-biriga bog'lab bayon etishi.

8. Bolalar bilan so'zlashganda balandtionda gapirmaslik, qo'pol so'zlardan (adabiv til normalariga to'g'ri kelmaydigan, mantiqsiz so'zlardan) foydalanmaslik.

Tarbiyachining o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi muhim sanaladi. Nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaslik natijasida yillar o'tishi bilan bu nuqsonlar mustahkamlanib, kishilar uni sezmay ham qoladi. Nutqida kamchiligi bo'lgan tarbiyachi bolalar bilan ishlashi mumkin emas. Ko'pchilik kattalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Lekin bu to'g'ri emas. O'z nutqi ustida doimiy va qat'iy ishlagan (tarbiyachi nuqsonlarini bartaraf etish mumkin. Avniqsa, tarbiyachi o'z nutqida sirg'aluvchi (s, j, ch), sonor (l, r) tovushlar (alaHii/iga e'tibor benshi kcrak. Agar tovush talaffuzida nuqsoni bo'lsa. artikulatsiya apparati a'zolarining harakatiga, tovush talaffuzini takomilliashtirishga yordam beruvchi mashqlarni bajarishi kerak. Buning uchun maxsus adabiyotlardan foydalanishi To'g'ri nafas olish va nafas chiqarish ustida ishlash. Tarbiyachi so'zlashganda to'g'ri nafas olib, uni to'g'ri chiqarishi nutqning jarangdor, ohangdor bo'lishiga yordam beradi. U normal holdagi ovoz va tovushning hosil bo'lishini ita'minlaydi, nutqning bir xilligi va musiqaviyligini saqlaydi, nutqning mazmundorligiga qarab ovoz kuchi va balandligini o'zgartirishi imkonini beradi. Nutq jarayonida to'g'ri nafas chiqarishda kamchiligi bo'lgan tarbiyachi doimiy ravishda to'g'ri nafas chiqarishga yordam beruvchi quyidagi mashqlarni bajarib borishi zarur:

1. Tarbiyachi o'ziga qulay bo'lgan holatni (turgan holda, chalqancha yotgan holda, o'tirgan holda) tanlaydi. Bir qo'lini qorniga, ikkinchi qo'lini esa yondan ko'krak qafasining pastki qismiga qo'yib, burni orqali chuqur

nafas oladi (bunda qorin yuqoriga ko'tariladi, oldinga chiqadi, ko'krakning pastki qismi kengayadi). Bu qorin va ko'krak qafasiga qo'yilgan qo'l yordamida his etiladi – shu vaqtning o'zida havo erkin, bir tekisda chiqariladi (qorin va ko'krak qafasining pastki qismi avvalgi hola tga qaytadi).

2. Burun orqali qisqa havo olib, uni 2 - 3 soniya davomida o'pkada ushlab turib, so'ngra og'iz orqali bir tekisda cho'zib chiqarish.

3. Og'izni ochgan holda qisqa nafas olish va cho'zib, ashula qilib unli tovushlardan (a, o, i, u) birortasini talaffuz etish.

4. Bir nafas chiqarishda bir nechta unli (a) tovushlarni talaffuz etish.

5. Bir nafas chiqarishda 3 dan 5 gacha sanash (bir, ikki, uch..), sekin-astalik bilan sanashni 10-15 tagacha yetkazish. Bir nafas chiqarishda teskari (o'n to'rt, o'n uch, o'n ikki) sanash.

6. Bir nafas chiqarishda (avval qisqa, so'ngra cho'zib) tez aytish aytib, bir jumla bilan ikkinchi jumla o'rtasidagi (o'xtam vaqtida havoni yutish (nafas olish):

a) Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq.

b) Chovli simdan, chovgun misdan.

d) Lola arralaydi, Sora allalaydi.

e) G'uj chumchuqlar g'ujum ustida chug'uiashib, g'uj chumchuqqa g'ujum cho'qilatmaydi.

7. Bir nafas chiqarishda yonib turgan shamni puflab o'chirish, shoxdagi barglarni, qoqigulni, yupqa qog'ozdan qirqiiib, ipga osilgan kapalak shakllarini puflash va hokazolar.

Shuningdek, tarbiyachi yaxshi diksiyaga ham ega bo'lishi kerak. Nutq orfoepiyasi ustida mashq qilish, nutqning adabiy talaffuzini o'zlashtirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki talaffuz har doim ham qoida talabi asosida. ya'ni adabiy til normasi talablari darajasida bo'lmaydi. Shuning uchun ham adabiy til normalari darajasidagi nutqni suxandonlardan. badiiy so'z ustalaridan. namunali madaniy nutqqa ega bo'lgan kishilardan o'rganish kerak. Ularning nutqlariga taqlid qilish lozim. Agar ayrim so'zlarning to'g'ri lalaffuz etilishiga. urg'ularning ishlatilishiga shubha bo'lsa, lug'atdan fovdalanish kcrak.

Nutqning ifodaligi ustida ishlashda og'zaki nutq uchun ifodalilikning intonasion vositalaridan to'g'ri fovdalanish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun tarbiyachi o'z nutqida urg'ularni to'g'ri ishlatish, ovoz tempini va kuchini o'zgartirish bilan so'zlarning mazmunini ajratish, to'xtamlardan nutqda ovoznı vaqtincha to'xtatish (o'rinli foydalanish, nutqda ovozning balandligi va kuchiga qarab harakati nutq tempi, ma'lum vaqt ichida aytiladigan so'zlar miqdori), ovoz balandligini o'zgartirish ustida mashq qilish lozim. Intonatsiya nutqni jonli, jo'shqin qiladi, fikrni to'liq va tugallangan holda bayon etishga yordam beradi.

Tarbiyachi o'z lug'atini, tilning grammatik tomonini badiiy, ilmiy, maxsus va boshqa adabiyotlarni doimiy ravishda o'qib borish bilan boyitadi va takomillashtiradi. Biroq tarbiyachi adabiyotlarni o'qish jarayonida tilining mazmuniga, yangi so'zlarga ahamiyat beribgina qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochishda tilning qaysi vositalaridan foydalanganligiga, qaysi so'z va grammatik shakllarni ishlatganligiga, materialni qay darajada bayon etganligiga ham e'tibor qaratishi kerak.

Tarbiyachi nutqidagi so'zlar aniq tanlansa, jumlar grammatik tomondan to'g'ri bo'lsa, imdagi fikrlar oddiy, aniq, ravshan bo'lsa, izchil ketma-ketlikda bayon etilsa, bolalarning yoshi va psixik xususiyatlari hisobga olinsa, bunday nutq bolalar tomonidan osonlik bilan idrok qilinadi va ular uchun tushunarli bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, tarbiyachining hikoyasi to'liq, chiroyli so'zlari to'g'ri tanlab olingan, grammatik tomondan to'g'ri shakllangan, mazmunli va ifodali, mantiqan bog'langan bo'lishi kerak.

3. Tarbiyachi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashning zarurligi. O'qituvchi - tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi chuqur bilimga ega bo'lishi kerak.

Bolalarning nutq madaniyati pedagogning (va boshqa kattalar-ning) nutq madaniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Doimo kichkintoylarning diqqat-e'tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, shuning uchun u nafaqat to'g'ri so'zlashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi, balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan so'zlashi, uning nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunish uchun oson bo'lishi hamda so'z bilan belgilash to'g'ri va aniq amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o'qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg'otadi, ularda qayg'urish, so'z kuchini his qilish, uring mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va qumq ohangda his-haya- jonlarsiz o'qib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi.

Pedagog o'z nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi va unda kamchiliklar borligini sezsa, ularni darhol bartaraf etishga intilmog'i lozim.

Biroq o'z nutqining kamchiligini aniqlash har doim ham oson kechmaydi, chunki muloqot jarayonida so'zlovchining diqqat-e'tibori eng avvalo nutqning shakliga emas (qay tarzda aytish), balki uning mazmuniga (nimani aytish) qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, o'z nutqiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lish natijasida ayrim kamchiliklar tilga qattiq o'mashib qolishi va keyinchalik so'zlovchi uni sezmay qolishi mumkin. Masalan, nutqning shoshqaloqligi, tushunarsizligi, bir ohangdaligi (monotonligi), ovoznning kuchliligi, ayrim tovushlar, so'zlarni noaniq talaffuz qilish kabi nuqsonlar sezilmasdan qoladi.

O'z nutqining nomukammalliklari haqida bilish uchun pedagog o'z o'rtoqlarining mulohazalariga quloq tutishi darkor. Ochiq darslarni videokassetaga yozib olish va uni keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Shunda tarbiyachi nutqini tovush, leksik vositalardan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiylashtirish nuqtayi nazaridan tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki nutqni yozib olish chog'ida tarbiyachining o'zini-o'zini nazorat qilishi evaziga nutq si-fati yaxshilanadi. Shuning uchun nutqda aniqlangan kamchiliklarga tarbiyachining o'zi va uning o'rtoqlari diqqat-e'tibor bilan yondashishlari zarur.

Nutqda aniqlangan kamchilik(nomukammalliklar)larni (yomon diksiya, leksik-grammatik rasmiylashtirishdagi xatoliklar va h.k.) tarbiyachi maxsus daftarga qayd etadi, so'ngra reja ishlab chiqadi va kamchiliklarni bartaraf etishga doir ishlarni tashkil qiladi.

O'z tarbiyalanuvchilarida ana shunday kamchiliklar paydo bo'lishining oldini olish uchun pedagog o'z nutqiga nisbatan qanday talablarni qo'yishi zarur?

Bolalar aniq va tushunarli so'zlaydigan, iboralar, so'zlar va har bir tovushni alohida-alohida aniq talaffuz etayotgan, ya'ni yaxshi diksiyaga ega bo'lgan pedagog yordamida ona tilidagi tovushlarni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtiradilar. Ko'pincha pedagoglarning talaffuzi biroz noaniq va tushunamiz bo'ladi, ular tovushlar va so'zlarni og'izni yetarli darajada ochmasdan talaffuz qiladilar, ayrim tovushlar yutib yuboriladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi.

Pedagog talaffuzning adabiy me'yorlariga rioya qilishi, o'z nutqida turli shevalar, mahalliy so'zlashuvlar ta'sirini bartaraf etishi, so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'yishi lozim.

Nutqda hissiyotlar, fikrlarning eng nozik qirralarini ham ifodalash mumkin. Bunga nafaqat tegishli so'zlar yordamida, balki ifodalilikning intonatsion vositalari, ovoz kuchi, sur'ati, mantiqiy urg'usi, pauza, ritm, tembr, ohangdan to'g'ri foydalanish tufayli erishiladi. Ushbu vositalardan foydalanilganda tarbiyachi tomonidan bolalarga o'qib berilgan she'rlar, ertaklar, hikoyalar ularning mazmunini yaxshi tushunish, ona tilining qudrati va go'zalligini his qilish imkonini beradi.

Bir xil ohangdagi nutq kichik tinglovchilarni toliqtirib qo'yadi, matn mazmuniga bo'lgan qiziqishni pasaytiradi. Bolalar bunday nutqni tinglash davomida tez toliqib qoladilar, boshqa tomonlarga qaraydilar, chalg'iy boshlaydilar, keyinroq esa umuman tinglamay qo'yadilar.

Tovush apparati uch bo'limdan iborat: generator, energetik, rezonator.

Tovushning hosil botishi:

1. Bu tovush kuchi bilan bog'liq (nutq apparati organlari bilan bog'liq).
2. Tovush jarangdorligi (tovush jarangdorligini turli masofalarga yuborib baland pastligini o'zgartirish).
3. Tovushning egiluvchanligi va harakatchanligi (tovushni o'zgartirish olishi, tovushning baland-pastligi).
4. Diapazon-tovushning hajmi (chegarasi eng baland va eng pastki ton bilan belgidir).

5. Tembr-tovushning yaqinligi, yumshoqligi, silliqdigi, xususiydigi. Tovush apparatining charchashi, tovushda bor bo'lgan nuqsonlar va buzilishlar orqali yuzaga keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tarbiyachi nutqining bolalar nutqini to'g'ri rivojlanishidagi ahamiyati qanday?
2. Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan pedagogik talablarni sanang.
3. Sizningcha bugungi kun tarbiyachisi shaxsiga va nutqiga qo'yilgan talablar asoslimi? Bu borada sizda qanday takliflar bor?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

27-§:MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA OILADA NUTQ O'STIRISH BO'YICHA METODIK ISHLAR

REJA:

1. Farzand tarbiyasining oilada tutgan o'rni
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilada olib boriladigan ishlar
3. Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish

Tayanch tushunchalar: tarbiya, oila, nutq o'stirish, tarbiyachiga qo'yiladigan talablar, ota-onalarga qo'yiladigan talablar, ota-onalar burchagi, ko'rgazma tashkil etish, ota-onalar qo'mitasi.

1. Farzand tarbiyasining oilada tutgan o'rni. Bolalar tarbiyasi masalasi azaldan muhokamaga sabab mavzu sanalgan. "Bolalarni kim tarbiya qilishi kerak, oilami yoki davlat" – degan jumboq qadimgi yunon faylasuflari Aflotun ham Arastu davrlaridanoq paydo bo'lgan. Bu ikki olim ham o'z qarashlarini bayon etgan. Ularning fikriga ko'ra, bola tarbiyasi bilan davlat shug'ullanishi kerak va barcha zarur ishlarni davlat bajarishi kerak edi. Bu fikrni qo'llab-quvvatlovchilar ham topildi. Biroq sharq mutafakkirlari bu nazariyani rad etishdi, aksincha bola tarbiyasi uchun dastavval ota-ona javobgar degan fikrni ilgari surishdi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga solish zarur ekanligini Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida keltirib o'tgan. Necha asrlik tarixga ega bo'lishiga qaramay o'sha fikrlar hali ham amalda muhim sanaladi. "Ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta'sirining bor kuchi obro'ga asoslanadi. Biroq, bu obro' tabiatan berilmaydi, sun'iy ravishda yaratilmaydi, qo'rqitish va zo'rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr-oqibatdan kelib chiqadi"-degan fikrni yoqlaydi. Hamma ota-onalar ham bolalarini yaxshi ko'radi. Lekin yaxshi ko'rish bilan mehr bilan yaxshi ko'rishni farqi bor. Ba'zi qattiqqo'l ota-onalar borki, ular garchi qattiqqo'l bo'lsalar-da, lekin bolalari ota-onalarini qattiq hurmat bilan yaxshi ko'radilar. Sababi, garchi qattiqqo'l bo'lsalar-da, lekin bolasiga mehr bilan ko'ziga tik qarab, cho'kkalab tanbeh bergan-ki, buni bola juda muhimligini tushungan. Shunchaki "bu ish mumkinmas, bunday qilma" deyish o'rniga qattiqqo'l bo'lsalar-da obro' topgan ota-onalar bolalarining qo'llarini ushlab, ular bilan hattoki bo'ylarini ham tenglash maqsadida cho'kkalab, do'stlarcha ko'zlariga qarab o'ziga ishongan shaxs

ovozida tushuntirishi qilingan xatoning takrorlanmasligini kafolatlaydi. Umrida bolasini ko'ziga qaramay, faqat shirin so'zli, erkalovchi ota-onalarning bolalari aksincha, ulardan uzoqlashadilar. Sababi bolalar bilan muloqotda siz ham bolalikka qaytishingiz kerak. Biz kattalar ham ko'proq tashqaridagi insonlar gapini muhim deb sanaganimiz kabi bolalar ham tengdoshlarini fikrini o'ziga yaqin olishadi. Shuning uchun ham bolalar bilan bola tilida muloqot qilish kerak. Bu samarali va sinalgan uslubdir. Biz qattiqqo'l bo'lish kerak degan fikrdan yiroqmiz, biroq oilada tarbiyachi ota-onalar ekanligini unutmagan holda, bolalar bilan tarbiya masalasida oz bo'lsa-da qattiqqo'llik kerak degan fikrdamiz. Bu degani bolani urish yoki shaxsiyatiga tegish emas. Shunchaki bolaga qat'iyat bilan javob berish, ko'zlar bilan yo'l ko'rsatish va o'zini farzandi uchun ideal darajaga olib chiqish oilada farzandlar oldida ota-onalarning hurmat qilinishini kafolatlaydi. Bunde ota-onalar bolaning erkalanish vaqtini ham, o'ynash vaqtini ham, oilada o'zini erkin tutishi muhimligini ham yaxshi biladilar, faqat hukronlikka intilib, bolalar ustidan zug'm qilish kelajakda yaxshi meva bermasligini tushunadilar. Shuning uchun ham Alisher Navoiy "tarbiyada xato qilishga yo'l qo'ymaslik kerak" – degan. Bu fikr nafaqat ota-onalar, balki tarbiyachilar uchunham ta'lluqlidir.

Tarbiyachi bolalarga aslo baqirmasliklari kerak. Tarbiyachining baqirib tanbeh berishi bolalarga salbiy ta'sir qiladi. U rivojlanishdan to'xtaydi, ya'ni ko'zga ko'rinmaslikka harakat qiladi, hech qachon tashabbus ko'rsatmaydi. E'tiborda bo'lishdan qo'rqib yashashadi. Shuni yodda tutish kerakki, faqatgina boladagi tashabbuskorlik, xayrixohlik va erkinlik ularning yaxshi natijalarga erishishida yordam beradi. Shu bilan birga oiladagi sharoit va muammolar ham bolalar psixikasiga ta'sir qiladi. Shuning uchun bolalarni ota-onalari bilan har kuni bu haqida oz fursat bo'lsa-da, bolaning bugungi kayfiyati haqida so'rab olish kerak. Tarbiyachi har bir bola bilan individual suhbat chog'ida o'shaning kayfiyatga kira olishi va ikkalasi birgalikda kayfiyatni ko'tarishga erishishi zarur. Yig'lab turgan yoki hafa holdagi bolaga aslo kulib gapirilmaydi. Bu bolaga ham yoqmaydi. Mahoratli tarbiyachilar yoshga bog'liq bolalar psixikasini o'rganadi va ulardagi o'zgarishlar bilan bog'liq sabablarni qidiradi, har bir bolaning individual xususiyatlarini ko'ra biladi. Aksincha, shunchaki oylik uchun ishlayotgan tarbiyachilar esa bu jarayonda ota-onalar bilan bog'liq muammolar sababli deb e'tiborsiz qoldiradilar. Garchi ota-onalar bilan

bog'liq bo'lsa-da, lekin o'sha jarayondan chiqib ketish mahoratli tarbiyachilar uchun sevimli kasblaridagi bir imtihon kabi oson kechadi. Shuningdek, bu jarayonda bolaning kayfiyatini, umuman ruhiyatini ko'tarish uchun ham tarbiyachi bolaning yaqin qarinoshlari bilan yaqindan suhbat qilish kerak bo'ladi. Bolaning shaxsiyatiga tegmagan holda unga mehr ko'rsatishga dav'at etish lozim.

Tarbiyachilik eng muhim kasblardan biridir. Kasblarni bir-biridan ustun qo'yib bo'lmaydi, lekin tarbiyachilik baribir yuksak e'tirofga arziydi. Aynan bolalar bog'chasida bolalar dunyoviy bilimlarga qiziqishni boshlaydilar, bu qiziqishni tarbiyachilar uyg'otadilar. Tarbiyachi bu jarayonda hammani teng ko'ra bilishi doim eslatilib kelingan. Agar tarbiyachi kimnidir a'lo ko'radigan bo'lsa-da, buni aslo bildirmasligi lozim. Shunday vaziyatda tarbiyachining adolatliligi, mehribonligi, mas'uliyatliligi, pedagogik mahoratining mavjudligi yordam beradi. Tarbiyachi ham robot emas, biroq u avvalo insoniy his-tuyg'ularga aldanmasligi, faoliyati davomida faqat tenglikka amal qilishi lozimligini yodda tutmog'i shart. Bizning nazarimizda ideal tarbiyachi qanday bo'lishi kerak? Har kimning qarashi bu borada o'zgacha. Eng muhimi shuki, tarbiyachi hech qachon to'xtab qolmasligi, doim mehri bilan intilishda bo'lmog'i kerak. Malakasini oshirishi, mualliflik uslubi, qo'llanmalarini, maqolalarini e'lon qilib borishi ham uning zamonaviy pedagog ekanligini isbotlaydi. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish, ularni fikrlashga, uni boshqalarga tushunarli bayon etishga o'rgatish, bolalarning "obrazli, mantiqiy, ijodiy, abstrakt" fikrlashini shakllantirish va maktabga tayyorlashda nutq o'stirish metodlarining o'rni, mohiyati muhimdir. Shuning uchun har bir tarbiyachi pedagogning ta'lim metodlarini puxta bilishi, bolalar nutqini rivojlantirishning eng qulay metodlarini tanlashi va qo'llay olishi, uni takomillashtirishi lozim.

Bizningcha, fikrlash bu – faol jarayon bo‘lib, u biror haqiqat yoki asos to‘g‘risidagi fikrlarni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Erta bolalikdan farqli o‘laroq, maktabgacha tarbiya g‘oyalarga asoslangan. Bola hozirgi paytda nimani sezmagani, balki o‘tgan tajribasidan bilgan narsasini o‘ylashi mumkin. Tasvirlar va tasavvurlar bilan ishlash maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlashini qo‘shimcha vaziyatga aylantiradi, qabul qilingan vaziyatdan tashqariga chiqadi va bilish chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlashidagi o‘zgarishlar, avvalambor, fikrlash va nutq o‘rtasida tobora yaqinroq aloqalar o‘rnatilayotganligi bilan bog‘liq. Bunday o‘zaro bog‘liqliklar, birinchidan, batafsil fikrlash jarayoni paydo bo‘lishiga olib keladi - mulohaza yuritish, ikkinchidan, nutq rejalashtirish funksiyasini bajarishni boshlaganda, amaliy va aqliy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarni qayta qurish, uchinchidan, aqliy operatsiyalarning jadal rivojlanishiga olib keladi. Fikrlash savol berishdan boshlanadi. Savolning mavjudligi fikrlashning muammoli xususiyatini ko‘rsatadi, chunki u bolada paydo bo‘lgan intellektual yoki amaliy vazifani aks ettiradi. Maktabgacha yoshdagi bolada savollar kognitiv xususiyatga ega bo‘lib, qiziquvchanlik, dunyoni bilishga intilish rivojlanganligidan dalolat beradi. Bolalarning savollariga o‘xshab ko‘rinadigan beg‘uborligi ortida borliqning murakkab muammolarini anglash, hodisa yoki jarayon mohiyatiga kirib borish istagi yotadi. Bizningcha, fikrlash bu – faol jarayon bo‘lib, u biror haqiqat yoki asos to‘g‘risidagi fikrlarni qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Oila va oilada bola tarbiyasi doimo dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo‘lib qoladi. Tarbiya ishi qanchalik erta boshlansa, hosil ham shuncha erta ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ota-onalar va ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilari hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan etuk, jismonan sog‘lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Sog‘lom bola avvalo sog‘lom va mustaxkam oilada dunyoga kelishi, muqaddas dargoxda o‘tib, ulg‘ayib, tarbiyalanib voega etishi hammaga ma‘lum. Oilada farzand tarbiyasida qo‘yilgan har bir xato va kamchilik insonning kelajagiga o‘z ta‘sirini oikazmasdan qolmaydi va aksincha to‘g‘ri va sog‘lom bola tarbiyasi kelajak poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Bola tarbiyasi bilan shug'ullangan oilalarning bolalari ta'lim muassasasida o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiynalmasdan koisata oladilar. Oila va taiim muassasalarining uzluksizligi bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uni ma'naviy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila va taiim tashkilotlari tomonidan bolalarga berilayotgan taiim-tarbiya, pandu- nasihatlari haqiqat yoiida xizmat qilishga da'vat etishidan iborat boiishi lozimdir.

Oila va maktabgacha taiim tashkilotlarining eng dolzarb vazifalaridan biri sogiom bola tarbiyasi ekan , demak Maktabgacha taiim tashkilotlarida hozirgi zamon talablarig mos ravishda , har tomonlama mukammal tarizda singdirilgan bilim, tarbiya yosh go'dak qalbida, ongida muxirlanib qoladi. Bolalami jismonan barkamoletib tarbiyalash, etuk, yuqori ahloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni akliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'ls a, oilada ota-onalarimizning zimmasida sogiom nasil, sogiom bola tarbiyasi mas'uliyati, bolalarni sharqona uslubda tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni kundalik hayotga tadbqiq etish, yoshlar qalbida Vatanga muxabbat ruxida tarbiyalash, imonu-e'tiqod, insofu-diyonat xaqida ma'lumotlami to'liq bilish bilan birga bolalardagi mexir oqibat, kattalarga boigan xurmat, kabi xislatlami shakllantirish vazifalari turibdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun treninglar, munozaralar, testlar, topshiriqlar, savol nomalar, interfaol metodlari vaqti- vaqti bilan o'tkazilib turilsa, ayniqsa maktab yoshdagi 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalarning ishtirokida olib boriladigan har-bir mashg'ulotlar farzandlarining nimaga qodir ekanliklarini anglab olishlariga yaqindan yordam berilardi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a'zolarining mas'uliyati oshardi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilada olib boriladigan ishlar. Ta'lim tashkilotlarida ota - onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozaralar bolalarni maktabning ilk bosqichiga qadam qo'yishlarim silliqlik bilan o'tilishida yordam beradi hamda sog'lom bola va sogiom muxit sharoitini mustaxkam yaratishga imkon beradi.

Treninglar maktabgacha ta'lim muassasa uslubchisi, maktabgacha tayyorlov gurux tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-

onalari, boshlang'ich sinif o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Ota-onalarga: "Sizning bolangiz yaqinda yoshga to'ladi uning hayotida yangi tartibli, rejaga asoslangan ta'lim boshlanib, u bolangizni har tomonlama sog'om, tetik, mustaqil shaxs sifatida voyaga etishida zamin yaratish bosqichlariga aylanadi" deb murojat etiladi. Maktab ostonasiga birinchi qadamini qo'yar ekan sizning bolangiz hayotida o'chmas, esda qoluvchi damlar boshlanadi deb savolnomalar tarqatiladi vayozma ravishda javob berilishini iltimos qilinadi.

1. Sizning bolangizda maktabda o'qishga moyillik bormi?
2. Sizningcha bola maktabga tayyorgarlikni oilada oladimi?
3. Maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun nima zanir?
4. Jismoniy sog'om boiishi uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?
5. Shaxsan sizning bolangiz bolalar bog'chasidan so'ng maktab sharoitiga moslashishi uchun nimalarga etibor qaratar edingiz?
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab ta'limi o'rtasidagi farqlami bolangiz ongiga singdira olasizmi?
7. Maktab hayotidagi qonun-qoidalami bilishi va unga amat qilishiga yordam bera olasizmi?
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan qanday talab va istaklaringiz bor?

Shu kabi savollarga javoblar olingandan so'ng munozarani olib borish uchun ota- onalarga topshiriqlar beriladi:

- ota-onalaming maktab bo'sag'asidagi tashvishlari qay darajada ekanligini aniqlash,

- maktabga bolalami har tomonlama tayyorlash uchun ota-onalami qiziqtirgan kitoblarni mavjudligi,

- bolani sog'lom muxitda tengdoshlari bilan o'rtoqlashishga ko'maklashishi.

- o'cjish va sanashni bilish darajalarini amqlashga yordam berish.

- bolalami intizomli, tartibli, chidamli va mustaqil fikirlashga undash.

Ota-onalar topshiriqlar yuzasidan o'zaro munozara qilganlaridan so'ng ulami fikr va muloxazalarini tinglash hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari bolalami maktab ta'limiga tayyorlashda ulami sog'lomligiga katta e'tibor qaratish, jismonan va aqlan rivojlantirish mas'uliyatini yuklash, muassasalar bilan

hamkorlikda ish olib borish vazifalarini bajarishdan iboratligi tushuntiriladi hamda ta'limning kevingi turi - boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishga yo'naltiriladi. Xususan mustaxkam oilada sog'lom bola tarbiyasi bolalami ma'rifatli, ishbilarmon, tadbirkor, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishning ma'naviy-axloqiy asoslarini to'g'ri tushuna oladigan, halol, to'g'ri, birovlar haqqiga xiyonat qilmaydigan, hayr-ehson, sahovat va muruwat kabi fazilatlaming asl ma'nosini yaxshi anglaydigan jamiyat a'zosi qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-ona awalo, o'zi, qolaversa, farzandlarmi ham o'rgatib bormog'i har biri o'z mas'uliyatini anglab etmog'i, ota-ona va tarbiyachi farzand tarbiyasida mohirona bo'hshi bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga, bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskon oiladir. Bolalarda insoniylik, awalambor, oilada, ota-onalardan ibrat olgan holda shakllanadi. Ota-ona bolaga boshidan ta'lim-tarbiyani, nutqmadaniyatini, odamiylik hislatlarini qunt bilan singdirib borsalar, etuk, barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi eng asosiysi, odobli shaxs bo'lib etishadilar.

Inson hayotda bilim olishga intilishni, Vatanni sevishni, ardoqlashni, kattalami hurmat qilishni, muomala madaniyatini ota-onadan o'rganadi. Oila birinchi navbatda ta'lim-tarbiya maskani hisoblanadi. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy-madaniy tarbiya berishning yo'llan va vositalari xilmaxil bo'lib, bular ichida bolalarning nutqi, muomalasi alohida o'rin tutadi. Farzand ota-onaning baxti va boyligi hisoblanadi, ota-onalarning bolalami sevishi, o'z navbatida bolalarning ota-onalaridan o'rgangan, eshitgan muomalalari, so'zlashish madaniyati bolalarning ota-onalarini astoydil hurmat qilishi oila ko'rki bo'lib hisoblangan.

Ota-onaning shaxsiy namunasi bola tarbiyasining eng muhim metodlaridan biri hisoblanadi. Ota-ona o'z bolalarida mehnatsevarlik, kaltalarga hurmat, o'zidan kichiklarga shafqatli bo'lish va g'amxo'rlik qilish, yovuzlikka nafrat kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga harakat qilganlar.

Ba'zi oilalarda ota-onalarning o'zaro kilishmovchiliklari sababli bolalar hayotda juda qiynaladilar. Bunday oilalarda bo'lib turadigan janjal-to'palonlar, xaqoratli so'zlar oilada o'sib kilayotgan farzandlarga katta ta'sir etadi. Bolalarda ota-onasiga bo'lgan hurmat yo'qoladi. Bola

yurish turish va o'zaro munosabat qoidalari, yoshlarning ota-ona va kattalar oldidagi burchi, mehnati, kasb-kori va ularning inson hayotidagi roli haqidagi dastlabki tushuncha va tasavurlarni oilada oladilar, odob hamda ma'naviy hayot oilada o'yg'onadi. Shuning uchun ota-onaning jamiyat oldidagi eng katta va birmuncha vazifasi farzandlarning qobiliyatlari va qiziqishlariga e'tibor bergan holda ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishlaridir.

Bugungi kunda farzandlarining ehtiyoj va intilishlari asosida yuksak darajada ta'lim-tarbiya berayotgan oilalar juda ko'p.

Bola har qadamda, har daqiqada kattalardan ta'sirlanadi, o'rganadi, eshitgan ko'rganlarini takrorlaydilar, Ota-onalaridan mulokotga kirish madaniyatini o'rganadilar, bu narga keyinchalik ularning hayoti mazmunini begilaydi. Ota-onalar bolalariga nutqmadaniyatiga muvofiqimani qanday gapirish mumkin, nimani aytmaslik kerakligini yaxshi biladilar.

Nutq madaniyati inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutqmadaniyati bu avvalo fikrlash madaniyatidir.

Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud boigan oilalarning ijtimoiy- iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

Oila bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti eng muhim hisoblangan hulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlabgina qolmasdan, ota-onalarda o'ziiga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning etuk, barkamol bo'lib voyaga etishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Ota-onalar o'z ijtimoiy burchini bajarar ekanlar, farzandlarning mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabaitlarini me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, ko'zda tutiladi. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, ijtimoiy mehnat hamda oilaviy hayotga tayyor, nutqmadaniyatni shakllangan, so'zga boy shaxsni o'sib ulg'aytirib beradi. Ota-onalar bolalarining etuk,

barkamol va sog'lom o'sishlarida ulaming kundalik hayotiy rejimiga amal qilishlari nihoyatda muhimdir.

Oilada uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Odob-axloqmavzusida uyushtirilgan muloqotlar farzandlarning til-vontalarini mustaqil tarzda qo'ilashlariga erishish zarurligini ko'rsatadi. Bunday oilaviy suhbatlar farzandlarning kundalik faoliyatida, sayru sayohatlarda samarali natija berishi shubhasizdir.

Hozirgi zamon talablariga muvofiq oilada bolalar ona tilini, adabiy talaffuz me'yorlariga binoan barcha tovush va so'zlarni aniqva tiniqtalaffuz etib, so'z boyligini rivojlantirmog'i lozim. Bolalar shaxsini shakllantirish, nutqini rivojlantirish borasida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar hali-hanuz oilalarda etarli darajada emas. Ota-onalarning bolalarga beparvoliklari, so'zlashganda nutqmadaniyatiga ahamiyat bermasliklari oilada bola nutqining buzilishiga olib kelmoqda. Oilada bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi birgalikda uyushtiriladigan o'yinlarda, sayrlarda yuqori darajada shakllanadi. Bolalarning nutqmadaniyatini shakllantirishda oiladagi katta-kichiklar, timgdoshlari bilan qilinadigan muomalalari ko'proqrol o'ynaydi. Farzandlarning o'z harakatlari va xulqini boshqara bilishi diqqat, fikr va xotira sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Oilada bolalarning yaqin qarindoshlari bilan hamkorlikdagi va mustaqil faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq kundalik mashg'ulotlarni bajarishi ularning fikrlash faolligini rivojlantirishga jadal ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Shu bilan birga, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini yo'lga qo'yish orqali rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni muntazam tashkil etishda uzviylik tamoyiliga amal qilish o'zining ijobiy samarasini berdi.

Xulosa qilganda, oilada biror-bir yutuqqa erishish tarbiyaga bog'liq. Shuning uchun ham oilada tarbiya, madaniy xulq-atvor odatlarini shakllantirishga muayyan darajada e'tibor berish, ularda yaxshilik, kamtarlik, adolatlilik, vijdonlilik to'g'risidagi axloqiy tasavurlarini tarkib toptirish va shu xildagi sifatning didiga nisbatan salbiy munosabatni tarbiyalash kerak.

Oilada farzandlar nutqmadaniyatini shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan, barkamol avlodni voyaga etkazishda o'z samarasini berishi shubhasizdir.

3. Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jumallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaming uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limi to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim - tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalaming ishlari o'rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ish- ning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalami qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo'ladi.

Ota-onalar uchun ochiq eshiklar kunining tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishida muhim o'rin egallaydi. Bunday kur larda ota-onalarga bolalaming mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatlari, sayrlar va bolalaming jamoada o'zlarini qanday tutushlari va shunga o'xshashlar ko'satiladi.

Ota-onalar qo'mitasi. Ota-onalar qo'mitasi «Maktabgacha ta'lim muassat asining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi, U ota-onalaming umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bi qo'mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil saylanadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta'lim muassasasining xo'jalik va ta'lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo'mita a'zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o'tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko'maklashishdir.

Ota-onalar qo'mitasi bolalaming ota-onalari bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo'yicha ular bilan ish olib boradi. Qo'mita a'zolari har ikki oyda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Ota-onalar qo'mitasi mudiraning ish rejafari va ishning ahvoli to'g'risidagi o'zlarini qiziqtimvchi ba'zi masalalar haqidagi ma'ruza va hisobotni eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo'mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasasida saqlanadi.

Munozara shaklidagi ota-onalar bilan o'tkaziladigan pedagogik kengash.

Maqsad: Ota-onalarga bolalarining maktabning ilk bosqichiga moslashuvini silliqlik bilan o'tishida yordam berish. Bolalami maktabga tayyorlashda ota-onalarning vaziyatlarini aniqlash.

Ishtirokchilar:

- maktabgacha ta'lim muassasasi metodisti;
- katta guruh tarbiyachilari;
- maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari;
- 1-sinf o'quvchilarining ota-onalari.

O'zbek oilasining o'ziga xos, betakrorligi - nutq etiket qoidalarignutq etiket qoidalarignutq etiket qoidalarigka intilish kabilarning barhayotligidadir.

Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga, bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskon oiladir. Bolalarda insoniylik, avvalambor, oilada, ota-onalardan ibrat olgan holda shakllanadi. Ota-ona bolaga boshidan ta'lim-tarbiyani, nutq madaniyatini, odamiylik hislatlarini qunt bilan singdirib borsalar, yetuk, barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi, eng asosiysi, odobli shaxs bo'lib yetishadilar.

Inson hayotda bilim olishga intilishni, Vatanni sevishtni, ardoqlashni, kattalarni hurmat qilishni, muomala madaniyatini ota-onadan o'rganadi. Oila birinchi navbatda ta'lim-tarbiya maskani hisoblanadi. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy-madaniy tarbiya berishning yo'llari va vositalari xilmaxil bo'lib, bular ichida bolalarning nutqi, muomalasi alohida o'rin tutadi. Farzand ota-onaning baxti va boyligi hisoblanadi, ota-onalarning bolalarni sevishtni, o'z navbatida bolalarning ota-onalaridan o'rgangan, eshitgan muomalalari, so'zlashish madaniyati bolalarning ota-onalarini astoydil hurmat qilishi oila ko'rki bo'lib hisoblangan.

Ota-onaning shaxsiy namunasi bola tarbiyasining eng muhim metodlaridan biri hisoblangan. Ota-onalarning o'zaro bir-birlari bilan suhbatlashishi, ovozlarning past-balandligi, sizlab gaplashishlari, bir-birlarini tinglashlari, yurish-turishlari, munosabatlarining ta'siri ostida o'sib-ulg'ayishlari shular jumlasidandir.

Ota-onaning shaxsiy namunasi bola tarbiyasining eng muhim metodlaridan biri hisoblanadi. Bolalarni yuksak axloqli va odobli qilib tarbiyalash qadim zamonlardanoq, barcha xalqlarning orzusi, istagi bo'lib kelgan. Ota-ona o'z bolalarida mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, o'zidan kichiklarga shafqatli bo'lish va g'amxo'rlik qilish, yovuzlikka nafrat kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga harakat qilganlar.

Ba'zi oilalarda ota-onalarning o'zaro kilishmovchiliklari sababli bolalar hayotda juda qiynaladilar. Bunday oilalarda bo'lib turadigan janjal-to'palonlar, xaqoratli so'zlar oilada o'sib kilayotgan farzandlarga katta ta'sir etadi. Bolalarda ota-onasiga bo'lgan hurmat yo'qoladi. Bola yurish turish va o'zaro munosabat qoidalari, yoshlarning ota-ona va kattalar oldidagi burchi, mehnati, kasb-kori va ularning inson hayotidagi roli haqidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlarni oilada oladilar, odob hamda ma'naviy hayot oilada uyg'onadi. Shuning uchun ota-onaning jamiyat oldidagi eng katta va birinchi vazifasi farzandlarning qobiliyatlari va qiziqishlariga e'tibor bergan holda ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishlaridir.

2. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligida bolalarni tarbiyalash. Bugungi kunda farzandlarining ehtiyoj va intilishlari asosida yuksak darajada ta'lim-tarbiya berayotgan oilalar juda ko'p.

Bola har qadamda, har daqiqada kattalardan ta'sirlanadi, o'rganadi, eshitgan ko'rganlarini takrorlaydilar. Ota-onalaridan muloqotga kirish madaniyatini o'rganadilar, bu narga keyinchalik ularning hayoti mazmunini begilaydi. Ota-onalar bolalariga nutq madaniyatiga muvofiq nimani qanday gapirish mumkin, nimani aytmaslik kerakligini yaxshi biladilar.

Nutq madaniyati inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutq madaniyati bu avvalo fikrlash madaniyatidir.

Ota-onalar avvalambor bolalarining nutq madaniyatini nazorat qilib borishlari, bolalari nutqiga jiddiy e'tibor berishlari, muloqotda nutq etiket qoidalariga rioya qilishlari, bola nutqini takomillashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yishlari kerak.

Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning

ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

Oila bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo'lib, bu muhitda shaxs kamolotida eng muhim hisoblangan hulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlabgina qolmasdan, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Ota-onalar o'z ijtimoiy burchini bajarar ekanlar, farzandlarning mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarini me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, ko'zda tutiladi.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, ijtimoiy mehnat hamda oilaviy hayotga tayyor, nutq madaniyati shakllangan, so'zga boy shaxsni o'sib ulg'aytirib beradi. Ota-onalar bolalarining yetuk, barkamol va sog'lom o'sishlarida ularning kundalik hayotiy rejimiga amal qilishlari nihoyatda muhimdir.

Oilada uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Odob-axloq mavzusida uyushtirilgan muloqotlar farzandlarning til vositalarini mustaqil tarzda qo'llashlariga erishish zarurligini ko'rsatadi. Bunday oilaviy suhbatlar farzandlarning kundalik faoliyatida, sayru sayohatlarda samarali natija berishi shubhasizdir.

Hozirgi zamon talablariga muvofiq oilada bolalar ona tilini, adabiy talaffuz me'yorlariga binoan barcha tovush va so'zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, so'z boyligini rivojlantirmog'i lozim. Bolalar shaxsini shakllantirish, nutqini rivojlantirish borasida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar hali-hanuz oilalarda yetarli darajada emas. Ota-onalarning bolalarga beparvoliklari, so'zlashganda nutq madaniyatiga ahamiyat bermasliklari oilada bola nutqining buzilishiga olib kelmoqda.

Oilada bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi birgalikda uyushtiriladigan o'yinlarda, sayrlarda yuqori darajada shakllanadi. Bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda oiladagi katta-kichiklar, tengdoshlari bilan qilinadigan muomalalari ko'proq rol o'ynaydi.

Farzandlarning o'z harakatlari va xulqini boshqara bilishi diqqat, fikr va xotira sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Oila va oilada bola tarbiyasi doimo dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo'lib qoladi. Tarbiya ishi qanchalik erta boshlansa, hosil ham shuncha erta ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ota-onalar va ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Sog'lom bola avvalo sog'lom va mustahkam oilada dunyoga kelishi, muqaddas dargoxda o'sib, ulg'ayib, tarbiyalanib voyaga yetishi hammaga ma'lum. Oilada farzand tarbiyasida qo'yilgan har bir xato va kamchilik insonning kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi va aksincha to'g'ri va sog'lom bola tarbiyasi kelajak poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Bola tarbiyasi bilan shug'ullangan oilalarning bolalari ta'lim muassasasida o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiynalmasdan ko'rsata oladilar. Oila va talim muassasalarining uzluksizligi bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uni ma'naviy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oila va ta'lim tashkilotlari tomonidan bolalarga berilayotgan ta'lim-tarbiya, pandu nasihatlari haqiqat yo'lida xizmat qilishga da'vat etishidan iborat bo'lishi lozimdir.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng dolzarb vazifalaridan biri sog'lom bola tarbiyasi ekan, demak maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hozirgi zamon talablariga mos ravishda, har tomonlama mukammal tarzda singdirilgan bilim, tarbiya yosh go'dak qalbida, ongida muxrlanib qoladi. Bolalarni jismonan barkamol etib tarbiyalash, yetuk, yuqori ahloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lsa, oilada ota-onalarimizning zimmasida sog'lom nasl, sog'lom bola tarbiyasi mas'uliyati, bolalarni sharqona uslubda tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni kundalik hayotga tatbiq etish, yoshlar qalbida Vatanga muhabbat ruxida tarbiyalash, imonu e'tiqod, insofu diyonat haqida ma'lumotlarni to'liq bilish bilan birga bolalardagi mehr oqibat, kattalarga bo'lgan hurmat kabi xislatlarni shakllantirish vazifalari turibdi.

3. Ota-onalar bilan treninglar o'tkazish usullari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun treninglar, munozaralar, testlar,

topshiriqlar, savol nomalar, interfaol metodlar vaqti- vaqti bilan o'tkazilib turilsa, ayniqsa, maktab yoshidagi 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalarning ishtirokida olib boriladigan har bir mashg'ulotlar farzandlarining nimaga qodir ekanligini anglab olishlariga yaqindan yordam beradi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a'zolarining mas'uliyati oshardi.

Ta'lim tashkilotlarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozaralar bolalarni maktabning ilk bosqichiga qadam qo'yishlarini silliqlik bilan o'tishida yordam beradi hamda sog'lom bola va mustahkam sog'lom muhit sharoitini yaratishga imkon beradi.

Treninglar maktabgacha ta'lim muassasa uslubchisi, maktabgacha tayyorlov gurux tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari, boshlang'ich sinif o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi.

Ota-onalarga: «Sizning bolangiz yaqinda yetti yoshga to'ladi. Uning hayotida yangi tartibli, rejaga asoslangan ta'lim boshlanib, u bolangizni har tomonlama sog'lom, tetik, mustaqil shaxs sifatida voyaga yetishida zamin yaratish bosqichlariga aylanadi» deb murojat etiladi. Maktab ostonasiga birinchi qadamini qo'yar ekan sizning bolangiz hayotida o'chmas, esda qoluvchi damlar boshlanadi, deb savolnomalar tarqatiladi va yozma ravishda javob berilishini iltimos qilinadi.

1. Sizning bolangizda maktabda o'qishga moyillik bormi?.
2. Sizningcha bola maktabga tayyorgarlikni oilada oladimi?..
3. Maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun nima zarur?.
4. Jismoniy sog'lom bo'lishi uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?.

5. Shaxsan sizning bolangiz maktabgacha ta'lim muassasasidan so'ng maktab sharoitiga moslashishi uchun nimalarga etibor qaratar edingiz?..

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab ta'limi o'rtasidagi farqlarni bolangiz ongiga singdira olasizmi?.

7. Maktab hayotidagi qonun-qoidalarni bilishi va unga amal qilishiga yordam bera olasizmi?..

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan qanday talab va istaklaringiz bor?

kabi savollarga javoblar olingandan so'ng munozarani olib borish uchun ota-onalarga topshiriqlar beriladi:

- ota-onalarning maktab bo'sag'asidagi tashvishlari qay darajada ekanligini aniqlash,

- maktabga bolalarni har tomonlama tayyorlash uchun ota-onalarni qiziqtirgan kitoblarning mavjudligi,

- bolani sog'lom muhitda tengdoshlari bilan o'rtoqlashishga ko'maklashishi.

- o'qish va sanashni bilish darajalarini aniqlashga yordam berish.

- bolalarni intizomli, tartibli, chidamli va mustaqil fikirlashga undash.

Ota-onalar topshiriqlar yuzasidan o'zaro munozara qilganlaridan so'ng ularning fikr va mulohazalarini tinglash hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularni sog'lomligiga katta e'tibor qaratish, jismonan va aqlan rivojlantirish mas'uliyatini yuklash, muassasalar bilan hamkorlikda ish olib borish vazifalarini bajarishdan iboratligi tushuntiriladi hamda ta'limning keyingi turi - boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishga yo'naltiriladi. Xususan, mustahkam oilada sog'lom bola tarbiyasi bolalarni ma'rifatli, ishbilarmon, tadbirkor, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishning ma'naviy-axloqiy asoslarini to'g'ri tushuna oladigan, halol, to'g'ri, birovlar haqqiga xiyonat qilmaydigan, hayr-ehson, sahovat va muruvvat kabi fazilatlarining asl ma'nosini yaxshi anglaydigan jamiyat a'zosi qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-ona avvalo, o'zi, qolaversa, farzandlarini ham o'rgatib bormog'i, har biri o'z mas'uliyatini anglab yetmog'i, ota-ona va tarbiyachi farzand tarbiyasida mohirona bo'lishi bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Ota-onalarga topshiriq.

Muloqotni, munozarani vujudga keltirish uchun ota-onalarga ko'p uchraydigan jummalarni tavsiya qilish mumkin. Ularni o'qib ko'ring va ular bolalarga qanday ta'sir etishini izohlab bering.

«Maktabga borsang, o'shanda ko'rasan.»

«Bilasanmi, sen a'lochi bo'lsang biz seni juda yaxshi ko'ramiz»

«Sen shunday o'qiki, sen uchun biz qizarmaylik»

Natijasi:

Bu jumalarning hammasi bolada o'ziga bo'lgan ishonchni, maktabga borishga xohishini so'ndiradi.

Boshqacha qilib aytganda, ota-onalarning o'z-o'zlariga bergan bahosi bolasiga berilgan bahodan ustun bo'ladi. Shuni esda tutingki, bolalarni o'zi bajara olmaydigan topshiriqlar bilan band qilib qo'ymang. Bu ularni yolg'on gapirishiga olib keladi. «Agar diktantda xato qilsang ko'rasan» kabi. Bu jazolashga taqlid hisoblanadi. Jazolangan bolada ota-onasiga nisbatan dushmanlik paydo bo'lishiga olib keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Farzand tarbiyasida oila va MTTning ahamiyati qanday?
2. Bolani tarbiyasi va ta'lim olishida oila va MTT jamoasi hamfirklikda qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?
3. Sizningcha bola tarbiyasiga ko'proq kim mas'ul, ota-onalarni yoki tariyachilar?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. –T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalami savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

28-§: BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA OTA-ONALARNING O'RNI

REJA:

1. Bolalarning nutq madaniyatining oshishida oilaning o'rni
2. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligi to'g'rsidagi bilimlarni shakllantirish
3. Ota-onalarda farzandlarini maktabga tayyorlashdagi mas'uliyatini oshirish

1. Bolalarning nutq madaniyatining oshishida oilaning o'rni. Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi. Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb aytishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? MTT tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo. Lekin, oila - bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bola o'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-ona va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun bolani maktabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalarning ko'pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa

bolani maktabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilar esa butun javobgarlikni o'z bo'yniga olishadi.

Y.A. Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.

2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.

3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda. Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri shaxsning umumiy rivojlanishi deb hisoblashadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi. Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni

Pedagogik topshiriqlarning sanab o'tilgan mazkur turlari ota-onalarning ijtimoiy ishlarining barcha turlarini qamrab olmaydi. Ota-onalarga ular nima bilan shug'ullanishni xohlayotganliklari bo'yicha savol bilan murojaat qilish va anketa to'ldirishni taklif etish mumkin.

Pedagogik maslahat asosida ota-onalarning savollariga javob berish asosiy o'rin egallaydi. Maslahatning pedagogik-psixologik shartlari o'zida tarbichi va psixologning ota-onalarning tashabbuslariga ijobiy munosabati, oilaga yordam ko'rsatishga tayyor turish, ota-onalarda paydo bo'lgan savollar bo'yicha aniq tavsiya va maslahatlar berishni aks ettiradi.

2. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligi to'g'rsidagi bilimlarni shakllantirish. Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qili-nadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tash-kilotlarida ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shu-ningdek bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga ma'sul bo'lgan shaxslar belgilanadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-uslubistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zga-rishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Tarbiyachilarning ota-onalar bilan olib boradigan ishlari shakl va uslublarini tavsiflashdan oldin ularning o'zaro birgalikdagi faoliyati va oila bilan aloqalarni yo'lga qo'yish usullarining ba'zi psixologik-pedagogik ta'sirlariga to'xtalib o'tish lozim.

Birinchi qoida. Maktabgacha ta'lim muassasasi va tarbiyachilarning oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari asosida ota-onalarning obro'sini oshirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan harakat va tadbirlar turishi kerak. Ota-onalar bilan maslahatlashganda, hech vaqt "qilishingiz kerak". "majbursiz" kabi jummalarni ishlatmaslik ma'qui. Chunki ko'pchilik ota-onalar o'z majburiyatlarini yaxshi biladilar, faqat amaliyotda ular ana shu bilganlarini qanday amalga oshirish muammosiga duch kelishlari mumkin. Tarbiyachi va ota-onalarning o'zaro munosabatlarining yagonato'g'ri shakli-bu o'zaro hurmat. Qachonki, nazorat shaklida tajriba almashish, maslahat va birgalikda muhokama, yagona qaror shakllantirilsa, ikkala tomon uchun ham qoniqish hosil qiladi. Bunday munosabatlarning qimmatini shundaki, tarbiyachilarda ham, ota-onalarda ham shaxsiy javobgarlik hissini, talabchanlik, fuqarolik burchini rivojlantiradi.

Ota-onalarning ish joylariga "Rivojlanish xaritasi", "Ochiq jurnal" kabilarni olib borish kutilgan natijalarni bermaydi. Ota-onalar bilan

suhbatda "qora ro'yxafdagi ma'lumoflardan foydalanish ham yaxshi foyda bermaydi, chunki birinchidan, ota-onalarda bolalaridan norozilik paydo bo'ladi, ikkinchidan ta'lim muassasasiganisbatanularda salbiy munosabat shakllanadi. Keyin ota-onalar ta'lim muassasasiga borgisi kelmasligi, ular bolalari haqida yomon iikr aytganliklari uchun ko'ngli tortmasligini aytib arz qiladi. Ba'zan bunday holat oilada ota-ona munosabatlari yomonlashuviga ham olib keladi. Oxir-oqibat bolada ta'lim muassasasiga nisbatan ham, tarbiyachilarga nisbatan ham salbiy munosabat hosil bo' ladi. Tarbiyachi tarbiyaviy ish shakl va uslublarini tanlashda qabul qilingan qaror va talab bolalar ko'z oldida ota-onaning obro'sini mustahkamlash va oshirishga imkon berishini hisobga olishi kerak. Ota-onalarning tarbiyalovchi imkoniyatlariga ishonish, ularning pedagogik madaniyati darajasi va tarbiyalashdagi faolligini oshirish. Ko'pchilik ota-onalar psixologik jihatdan barcha talab-larni qabul qilishga tayyor bo'lishsa ham, biroq shunday ota-onalar borki, bolalarni tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashish va bu jarayonni chuqur tushunishga doir yetarlicha ma'lumotga va pedagogik tayyorgar-likka ega emas.

Pedagogik takt, oila hayotiga nojo'ya aralashishga yo'l qo'yilmasligi. Tarbiyachi - rasmiy shaxs, biroq u o'z faoliyatida oila hayotining maxfry tomonlariga, "boshqalar"dan sir saqlanadigan tomonlariga ham daxldor bo'ladi. Yaxshi tarbiyachi oila uchun begona bo'lmaydi, ota-onalar yordam qidirganlarida ularning bu vaziyatdan chiqishlariga ishonadi, maslahat beradi. Oila qanday bo'lishi, ota-onalar tarbiyachilar bilan qanday bo'lishlariga qaramasdan, tarbiyachi hamma vaqt uddaburon, yordamga tayyor bo'lishi kerak. fPa haqidagi hamma narsaga yaxshi tomondan e'tibor qaratishi, tarbiyada ota-onalarga yordam ko'rsatishi kerak.

To'rtinchi qoida. Oilaviy muammolarni hal qilishga doir qaror qabul qilishda ko'tarinki run va kayfiyat, bolaning ijobiy sifatleri, oila tarbiyasining kuchli tomonlari, shaxsni muvaffaqiyatli rivojlantirishga tayanish. Tarbiyalanuvchining xarakterini shakllanishi qiyinchiliklarsiz, qarama-qarshiliklarsiz kechmaydi. Agar bu jarayon shaxs rivojlanishi qonuniyatining namoyon bo'lishi sifatida idrok etilsa, u holda mazkur qiyinchilik, qarama-qarshilik, kutilmagan natijalar tarbiyachining saro-simaga tushib qolishiga olib kelmaydi. Hammamizga yaxshi ma'lumki, yuzaga kelgan pedagogik vazifalarni hal etishning o'nlab

usullari mavjud, biroq ulardan faqat biri mazkur aniq vaziyat uchun to'g'ri bo'lib chiqadi. Ana shuning uchun ham maktabgacha pedagogikaga tayyor ko'rsatma sifatida emas, shaxsga samarali ta'sir etishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan sifatida qarash kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni bog'-chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad-oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarini o'rganib, ommalash-tirishdir. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

3.Ota-onalarda farzandlarini maktabga tayyorlashdagi mas'uliyatini oshirish. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlari to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qat-nashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim muassasasiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarining uquv va imkoniyatlari ga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiligi kamida 2 marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etadi. Masalan:

- bolalami tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya tashkilotlarining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bolalar bilan ishlashning bunday shakllari ularning tizimli o'rganishga to'liq tayyorligini ta'minlamaydi: kelajakdagi birinchi sinf o'quvchilari tasodifiy rivojlanish darajasi, aloqa darajasi, umumiy tezlikda ishlashga qodir emasligi, kattalar va boshqalar. Ba'zi ta'lim tashkilotlari bolani "Diplom" yoki "Sertifikat" ni tugatgandan so'ng berishadi. Ushbu "hujjat" bolaga va uning ota-onasiga maktabdagi muvaffaqiyat kafolatlanganiga ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ko'pincha, bolalar bog'chasidan tashqarida turli xil tayyorgarlik tuzilmalarida mashg'ulotlar bu o'ziga xos "murabbiylik" bo'lib, u bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlamaydi, balki faqat maktabga yaxshi tayyorgarlik xayoliyligini yaratadi. Bundan tashqari, bunday tayyorgarlik haddan tashqari stress tufayli bolaning sog'lig'ining yomonlashishiga olib kelishi va uning o'qishga bo'lgan salbiy munosabatini keltirib chiqarishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan maktabgacha yoshdagi bolalarning 39,5% faqat oilaviy muhitda tarbiyalanadi. Ularning

maktabga tayyorgarligi asosan ularning ota-onalari yoki boshqa katta yoshli oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Ovqatlanish, uxlash, qattiqlashish, kasalliklarning oldini olish, yaxshiroq parvarish qilish va sog'likni muhofaza qilish uchun individual sharoitlar yaratish imkoniyati, maktabga tayyorgarlikning individual tizimi va boshqalar kabi tortishuvsiz afzalliklar bilan bir qatorda bu yo'l ham bir qator kamchiliklarga ega. Avvalo, bu bolalar jamoasida shaxslararo aloqaning etishmasligi. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'qigan bola tez va osonlik bilan yangi maktab jamoasiga qo'shiladi, chunki uning kommunikativ tayyorgarligi bolalar jamoasidan tashqarida tarbiyalangan bolaga qaraganda ancha yuqori. B'undan tashqari, katta yoshdagi oila a'zolari ko'pincha bolani o'qish, yozish, hisoblashni o'rgatish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega emaslar, shuningdek, etarli darajada psixologik va pedagogik tayyorgarlikka ega emaslar va qabul qilish bosqichida bolaga qo'yiladigan talablar tizimida yomon yo'naltirilgan. birinchi sinf. Natijada, ko'plab ota-onalar aprel oyida o'z farzandini birinchi sinfga yozdirish uchun maktabga olib kelganida, u o'qish, yozishni noto'g'ri o'rgatishganini, she'rlarni yoddan bilmasligini, bilmasligini bilib hayron bo'lishadi. bolalar qo'shiqlari va u maxsus qo'shiqlarni ishlab chiqmagan, eng oddiy taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish qobiliyatlari, yuqori tashvish qayd etilgan, u qalamni qanday tutishni bilmaydi, nozik vosita mahoratiga ega emas va hokazo.

Maktabga tayyorlik muammosini o'rganish doirasida Rossiya Ta'lim akademiyasining Ijtimoiy ish pedagogikasi instituti xodimlari so'rov o'tkazdilar, unda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab direktorlari, tarbiyachilar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va boshqalar. bu masalada vakolatli deb hisoblangan mutaxassislar ekspert sifatida qatnashdilar.

Ulardan odatiy belgilar ("+" - "Ha", "+ -" - "Yo'q" degan ma'noda, "- + -" - "Ha "dan ko'proq", "- -" - "Yo'q"), maktabgacha yoshdagi bolaning turli xil sharoitlarda umumiy va maxsus tayyorgarligini rivojlantirishda muvaffaqiyat darajasini baholash: maktabgacha ta'lim muassasasi (maktabgacha ta'lim muassasasi), boshqa ta'lim tashkilotlari, oila.

Kutilganidek, ko'pchilik mutaxassislar bolani maktabgacha tarbiya sharoitida maktabga tayyorlashni afzal ko'rishdi. Barcha respondentlarning fikriga ko'ra, jismoniy, shaxsiy va intellektual

tayyorgarlikni shakllantirish bolaning umumiy psixologik tayyorgarligining tarkibiy qismlari sifatida bolalar bog'chasi devorlarida muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu erda sog'liqni saqlash va mustahkamlashga, bolaning har tomonlama umumiy aqliy va jismoniy rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun ochiq havoda o'yinlar tashkil etiladi, jismoniy tarbiya, ritm, suzish va boshqalar o'tkaziladi, qattiqlashuv elementlari kun tartibiga kiritilgan. Ko'pgina bolalar bog'chalarida kun musiqa ostida ertalabki mashqlar bilan boshlanadi. Bularning barchasi bolada yaxshi holatni shakllantirishga yordam beradi, vosita mahoratini rivojlantiradi, harakatlarni muvofiqlashtirishni yaxshilaydi va jismoniy ish faoliyatini oshiradi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalar bog'chasida bola o'zining aqliy va aqliy rivojlanishi uchun maqbul sharoitda: bu to'g'ri tashkil etilgan kun tartibi va tengdoshlar va kattalar (o'qituvchilar) bilan ko'plab aloqalar va tayyorgarlik guruhlarida maxsus tashkil etilgan darslar. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bolaning jismoniy tayyorgarligini shakllantirish boshqa sport tashkilotlarida yaxshi yo'lga qo'yilishi mumkin, u erda bola har xil sport seksiyalari va to'garaklariga borishi kerak. Biroq, hamma ota-onalar ham farzandini bunday mashg'ulotlarga olib borish imkoniyatiga ega emas. Shu bilan birga, mutaxassislarining yarmidan ko'pi, oilada ham bolaning maktabga jismoniy tayyorgarligini shakllantirish imkoniyati mavjud deb hisoblaydi. Biroq, respondentlarning 40% gacha bolani maktabga tayyorlashning oilaviy shakli sharoitida yuqori sifatli jismoniy tarbiya shubhali yoki mumkin emas deb hisoblashadi.

Bolaning maktabga shaxsiy tayyorgarligi uning hayotiy munosabatlarining uchta asosiy yo'nalishini qamrab oladi: atrofdagi kattalar bilan, tengdoshlari bilan, bolaning o'ziga bo'lgan munosabati. Maktabgacha yoshdagi bolada ijtimoiy vakolatlarni shakllantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitlari afzalroq ekanligi aniq, chunki u erda bolalar bolalar jamoasi va kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish mumkin. Shu bilan birga, ko'plab respondentlar boshqa ta'lim tashkilotlarida ham, oilaviy sharoitlarda ham bolaning shaxsiy tayyorgarligini shakllantirish yuqori darajada bo'lishi mumkinligiga aminlar (mos ravishda 73% va 80% respondentlar).

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bolaning o'qishga intellektual tayyorgarligini shakllantirish, uning kattalar a'zolarining ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan oilada ham, maktabgacha ta'lim muassasasida ham (93%) teng ravishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, respondentlarning 40% i boshqa ta'lim tashkilotlari yordamida bolaning intellektual tayyorgarligini shakllantirish muvaffaqiyatidan shubhalanmoqda. Bu yana bir bor tasdiqlaydiki, bunday trening, mutaxassislarining fikriga ko'ra, ko'pincha "o'qitish" ning bir turi bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolada ilmiy bilimlarning boshlang'ich asoslarini to'liq rivojlanishini ta'minlamaydi.

Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash bu o'qituvchilar va psixologlarning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, bolalar bog'chalarida maktabga tayyorgarlik ko'radigan dasturlarning bilimlari ko'pincha maktabning birinchi sinfida talab qilinadigan narsalardan sezilarli darajada oshib ketadi.

Qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari bilan mashg'ulotlar, gimnaziya va litseylarda tayyorgarlik mashg'ulotlarida qatnashish, rivojlanish markazlaridagi turli "maktabga tayyorgarlik guruhleri", madaniyat uylari va hk., Shuningdek bepul sotish bo'yicha ko'plab o'quv materiallari va qo'llanmalar mavjud. aksariyat bolalar maktabga, boshqacha qilib aytganda, "intellektual jihatdan tayyor" bo'lganliklariga. Ushbu bilim yuklari birinchi sinfga yozilish paytida intervyu olish uchun etarli (garchi, qoidalarga ko'ra, bu umuman zarur emas: bola maktabga hech qanday tekshiruvsiz va suhbatsiz qabul qilinishi kerak), ammo muammolar maktabdan boshlang.

Uzoq muddatli kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik bolalar birinchi sinfda duch keladigan qiyinchiliklar maktabga bir tomonlama tayyorgarlik ko'rishning tabiiy va mantiqiy natijasidir va ularning sabablari maktabgacha bolalikdan kelib chiqadi.

Maktabga tayyorgarlik aslida o'qish, yozish va o'nlab raqamlar bilan ishlash qobiliyati bilan chegaralanmaydi, ya'ni aslida maktabga kirishda nima tekshiriladi va bolalar bog'chasi o'qituvchilari va ota-onalari nimalarga intilishadi. Agar bola yaxshi o'qisa, yuzga hisoblasa, dunyoqarashi keng bo'lsa va 8-9 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan mantiqiy vazifalar va boshqotirmalar bilan ishlasa ham, bu muvaffaqiyatli o'qishni kafolatlamaydi, chunki bu faqat uning intellektual rivojlanishi va

yaxshi ekanligidan dalolat beradi xotira (bu o'z-o'zidan ajoyib va \u200b\u200buni o'rganishga, aniqrog'i, yangi bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi).

Ko'pgina birinchi sinf o'quvchilari topshiriqqa diqqatni jamlay olmaydilar, o'qituvchini qanday tinglashni bilmaydilar, xotirasi rivojlanmagan, beparvo, bezovta va tengdoshlari bilan munosabatlarda ziddiyatli. Bolani boshlang'ich maktabda o'qitish samaradorligi ko'proq harflar va raqamlarni bilish, o'qish va bilishga emas, balki xotira, diqqat, iroda, o'zini o'zi tashkil etish darajasiga, o'z harakatlarini boshqarish qobiliyatiga bog'liqdir. hisoblash qobiliyatlari.

Maktabga maktab hayotini tashkil qilishni tushunishga tayyor bo'lmagan bolalar keladi. Ular odamlar o'rtasidagi munosabatlarga yomon yo'naltirilgan, ularning ijtimoiy rollarini noaniq tarzda ifodalaydi, qachon, qanday va kim bilan gaplashishni bilmaydilar, ishbilarmonlik va do'stona muloqotni aralashtirib yuborishadi. Ba'zilar kimga itoat qilish kerakligini umuman tushunmaydilar - o'qituvchi yoki sinfdosh. Bunday bolalar uchun jamoada o'z o'rnini topish, o'quv jarayoniga kirishish oson emas. Ko'pincha ular o'quv va kognitiv motivatsiyani shakllantirmaganlar: o'rganish, yangi narsalarni o'zlashtirish ular uchun muhim maqsad emas (aytmoqchi, bu birinchi sinf o'quvchilarining 90% uchun muammo).

Birinchi sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ular maktabdan, birinchi navbatda, "yangi do'stlar orttirish", "chiroyli xalta kiyish", "o'qituvchini rozi qilish", "kun davomida hushyor turish" imkoniyatini kutmoqdalar. , "Bolalar hali bolalar bog'chasida bo'lganida sayr qilish" ... Bolalarga "sinfdagi pardalar", "mazali bulochkalar", "yugurayotgan joyidagi o'zgarishlar", "mushukchasi muqovali daftarlar", "hamma narsa yangi" yoki endi ular "deyarli kattalar" bo'lgan xushomadgo'ylik kabi. , "Ba'zilar hali maktabga bormagan va bog'da qolgan" degan "o'z uyg'otuvchi soatiga turinglar". Ushbu javoblar shuni ko'rsatadiki, 6,5-7 yoshdagi bolalarning maktabni idrok etishi kattalar ular kutgan narsadan yiroq va mohiyatan ular hali maktabgacha yoshdagi bolalardir.

O'qituvchi, hatto maktabga katta yoki tayyorgarlik guruhlarida ham, bolalarga nima uchun maktabga borishini tushuntirishi mumkin. Buni o'yin shaklida ("Faqat maktabda nima o'ziga xosligini taxmin qiling") yoki maxfiy suhbatda qilish yaxshidir. Ota-onalar, shuningdek, bolasi bilan

ushbu mavzu haqida suhbatlashishga tayyor bo'lishlari kerak. "Ota-onalar burchagida" siz chaqaloq bilan suhbatlar uchun mavzular ro'yxatini, "maktab" o'ynash stsenariylarini (o'yinchoqlar bilan va sherik bolalar bilan), munozara uchun maktab hayotidan rasmlarni joylashtirishingiz mumkin. Masalan, bitta rasmda qiz uy vazifasini bajarayotgani tasvirlangan bo'lsa, ikkinchisida tanaffus paytida ikkita o'g'il bir-birining orqasidan yugurayotgani, uchinchisida kitoblar bilan stol va o'yinchoqlar solingan quti va ular orasida sarosimaga tushgan bola tasvirlangan. Farzandlarimizdan qaysi rasm eng yaxshi ko'rishini, qaysi biri maktab o'quvchisining hayotiga o'xshashligini, hozir u nimani tanlashini - darslarni yoki o'yinchoqlarni va maktabga borayotganda nimani tanlashini so'rashimiz kerak. Doimiy suhbatlar, kognitiv qiziqishlarni rag'batlantirish, maktabga ekskursiyalar va bolalar bog'chasida va uyda ko'rganlarini muhokama qilish bolalarga o'z maktablarining kelajagini yanada haqqoniy tasavvur qilishga yordam beradi. Biroq, muvaffaqiyatli bilim olish uchun faqatgina bilim motivatsiyasi etarli emas, psixologik tayyorlik talab etiladi. Psixologik tayyorgarlikning eng oddiy sinovini o'qituvchi, psixolog yoki ota-onalarning o'zi amalga oshirishi mumkin.

Bolaning ijtimoiy va hissiy etukligi uning boshqa odamlar bilan (bolalar va kattalar) muloqot qilish, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, qoidalar bilan o'yin o'ynash, ularga o'zi rioya qilish va boshqa ishtirokchilar tomonidan ularga rioya qilinishini nazorat qilish. Ijtimoiy jihatdan barkamol bola odamlar bilan munosabatlarni o'rnatishi, ular bilan nizolarsiz muzokaralar olib borishi, o'z maqsadiga erishishi, hech kimni xafa qilmasdan, suhbatdoshiga yoki sherigiga biron bir narsani tan olishga qodir. Hissiy jihatdan etuk bola teginmas, tajovuzkor emas, boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunadi va ularni xatti-harakatlarida hisobga olishga qodir. U o'z his-tuyg'ularini va unga sabab bo'lgan sababni qanday tushunishni, tasvirlashni biladi (masalan: "Men xafa bo'ldim, chunki hamma yo'q bo'lib ketdi va men yolg'iz qolishni yoqtirmayman"). Bunday bola bayramda beixtiyor yig'lamaydi, chunki ular unga bayroq berishni unutib qo'yishdi, lekin jimgina o'qituvchiga yaqinlashib, so'rashadi.

Maktabga kirishda bolalar o'zlarining his-tuyg'ulariga dosh berolmaydigan qiyin ahvolga tushib qolishadi. Har qanday qayg'u ularni butunlay falaj qiladi. Uzoq vaqt davomida ba'zi bir ishlarda

muvaffaqiyatsizlik kamsitilish tuyg'usiga olib keladi, zavq shiddatli quvonchga aylanadi. Shu bilan birga, atrof-muhitni (shu jumladan o'quv materialini) idrok etish qobiliyati keskin kamayadi. O'zlarining tajribalariga singib ketgan bolalar, sodir bo'layotgan narsalarga yo'naltirishga qodir emaslar, diqqatlari susayadi, mulohaza yuritish qobiliyati va mantiqiy fikrlash yo'qoladi. Ba'zan bola ahmoq, qobiliyatsiz bo'lib tuyulishi mumkin, ayniqsa stressli vaziyatda: kirish suhbatida, imtihonda, test sinovlarida va keyinroq doskada javob berishda. Xavotirli va ta'sirchan bolalar bilan bog'cha tarbiyachisi va psixologi ota-onalar bilan ittifoqda ishlashlari kerak. 6-6,5 yoshga kelib, bolani his-tuyg'ulari va tajribalarini boshqarishga o'rgatish, uni "o'zini o'zi qoniqtirish" usullari bilan tanishtirish (masalan, "o'zini ishontirish": "Hammasi yaxshi, endi hamma narsa o'tadi, men tinchlanaman, hammasi yaxshi bo'ladi ..."). Shu bilan birga, zarracha bilan "emas": "Yig'lamang", "Men asabiylashmasligim kerak" va hokazolarni shakllantirishdan saqlanish kerak.

Bolaga eng oddiy nafas olish mashqlarini (10 marta chuqur nafas olish - nafas chiqarish), "chekinish" texnikasini o'rgatish kerak (barcha qiyinchiliklarni qalin shisha, oqar suv va boshqalar to'sib qo'ygan deb tasavvur qiling). Buni faqat malakali psixolog qilishi kerak; u shuningdek ota-onalarga o'rgatadi, chunki odatda bolada ta'sirlanish mexanizmi onasi yoki otasi bilan bir xil bo'ladi va keskin vaziyatda salbiy his-tuyg'ular o'zaro yuqadi va ulardan xalos bo'lish kerak hammasi bo'lib. Ota-onalarga bolaning ta'sirchan portlashlariga qanday munosabatda bo'lish - unga yordam berish va u bilan g'azablanmaslik yoki vahima qo'zg'amaslik bo'yicha tavsiyalar beriladi. Agar bolalar bog'chasi psixologi bu borada qobiliyatsiz bo'lsa, ota-onalarga bolaning noto'g'ri, affektiv rivojlanishining xavfli oqibatlari tushuntirilishi va ularga tibbiy-ijtimoiy-psixologik markaz yoki maxsus psixologik xizmat bilan bog'lanishni maslahat berishlari kerak.

Birinchi sinfdan chap qo'llar, giperaktiv va beparvo "tezkorlar", sekin "g'uvullashlar", uyatchang "g'ayriinsoniy" va yosh "tajovuzkorlar" uchun qiyin. Ular maktabga tayyorgarlik jarayonida ham, birinchi va ikkinchi sinflarda o'quv jarayonida ham alohida e'tibor talab qiladi. Bunday bolalar o'zlarining darslarini tayyorlashlari ehtimoldan yiroq emas; ular, albatta, ota-onalarining yordamiga muhtoj bo'lishadi. Shuning uchun bu erda

"uzaytirish" istalmagan, bolaning hayotini normallashtirilgan, mumkin bo'lgan yuklar va kattalar yordami bilan tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Asab tizimining organik yoki funktsional buzilishlari bo'lgan, turli xil nevrozlarga chalingan bolalar (duduqlanish, enureziya, qo'rquv, obsesif holatlar) bolalar bog'chasida ham, maktabda ham doimiy ravishda shifokorlar va psixologlar nazorati ostida bo'lishi kerak. Ular uchun mashg'ulotlarning erta boshlanishi, murakkabligi oshgan dasturlar ustida ishlash qabul qilinishi mumkin emas. Agar ota-onalar hali maktabga psixologik jihatdan tayyor bo'lmagan bolani litsey yoki gimnaziyaga yuborishsa, unda tejamkor rejimni ta'minlash uchun hamma narsani qilish kerak (kichik sinf, individual yondoshish, yaxshi dam olish).

Umuman olganda, bolaning aqliy, jismoniy va hissiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, uning o'ziga bo'lgan ishonchini saqlab qolish va unga hissiy tasalli berish muhimdir. Baxtli bolalar yaxshiroq o'rganadilar, yangi sharoitlarga tezda moslashadilar va kattalar ular bilan osonroq.

Shunday qilib, bolani maktabga tayyorlashning asosiy usullari va usullarini ko'rib chiqib, ularning har birining muvaffaqiyat darajasini baholaydigan mutaxassislar yordamida biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: shubhasiz afzalliklar bilan bir qatorda, ta'riflangan uchta yo'lning har biri yuqorida, shunga qaramay, kamchiliklari bor, ya'ni takomillashtirish yoki qo'shib qo'yish kerak.

Bolani maktabgacha ta'lim muassasasida tayyorlash afzalroqdir. Bu shuni anglatadiki, har bir bola, iloji bo'lsa, ushbu ta'limni maktabgacha ta'lim muassasasida olishi kerak.

Rus adabiyoti darsiga o'lkashunoslik materiallarini kiritish (Anatoliy Garay she'riyati misolida)

Mahalliy tarixni tarixiy ta'limning elementi deb hisoblash uchun avval siz tushunchaning o'zini tushunishingiz kerak. Buyuk Sovet Entsiklopediyasi, menga o'xshab ko'rinadi ...

Qo'shimcha san'at darslarining bolalarni maktabga tayyorlashga ta'siri

Shunday qilib, bolalar bog'chasi tizimli, maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir jarayonida bolalarni maktabga psixologik tayyorlash vazifasini bajaradi. Biroq, bolani maktabga to'liq tayyorlash maktabgacha tarbiya muassasasi va oila o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimida mumkin. Shu sababli, tarbiyachi o'z ishida oilaning yordamiga tayanishi kerak va ota-

onalar o'zlarining harakatlarini bolalar bog'chasi ishi bilan muvofiqlashtirishi kerak, natijada umumiy natijaga erishish uchun - bolani maktabga to'liq tayyorlash, bu faqat bolalar bog'chasi va oilaning hamkorligi.

Maktabga tayyorgarlik ko'rish bola hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan murakkab, ko'p qirrali vazifadir. Uni hal qilishda bir qator jihatlarni ta'kidlash odat tusiga kiradi. Birinchidan, kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim faoliyati zaminida yotadigan bola shaxsi va uning bilim jarayonlarining doimiy rivojlanishi, ikkinchidan, yozish, o'qish, sanash elementlari kabi boshlang'ich maktab ko'nikmalarini o'rgatish zarurati.

Agar maktabgacha yoshda etakchi faoliyat o'yin bo'lsa, endi ta'lim faoliyati bola hayotida shunday rol o'ynaydi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bolalarni maktabga tayyorlashdir. Maktabga tayyorgarlik muammosi pedagogik va psixologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan maktabga pedagogik va psixologik tayyorgarligi ajralib turadi. Maktabga psixologik-pedagogik tayyorgarlik kompleksida uchta tarkibiy qism ajratiladi: intellektual tayyorlik, shaxsiy tayyorlik va irodaviy tayyorlik. Ushbu tuzilishda maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limi uchun intellektual tayyorgarligi, eng samarali vositalarni izlash alohida ahamiyatga ega bo'lib, uni maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim jarayonida shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda bunday shakllanishning eng istiqbolli vositalaridan biri bu bolalar bog'chasi amaliyotida imkoniyatlari to'liq amalga oshirilmagan qoidalarga ega o'yinlardir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bolalarning nutq madaniyatining oshishida oilaning o'rni qanday?
2. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligi to'g'rsidagi fikringiz..
3. Ota-onalarda farzandlarini maktabga tayyorlashdagi mas'uliyatini qanday baholaysi va qanday oshirish yo'llarini bilasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.
2. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish metodikasi. – T.,2019
3. Jo‘raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o‘stirish. – T.:“O‘qituvchi”, 1988.
4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. –T.: “O‘qituvchi”, 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o‘zbekcha so‘zlashga o‘rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o‘stirish metodikasi. T.: “O‘qituvchi”, 2008.
7. Mo‘minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalami savodga o‘rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

29-§: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH USULLARI

REJA:

1. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish.
2. Media ta'limning asosiy mazmuni.
3. Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish metodlari.

Tayanch tushunchalar: texnologiya, multimedia, mediamadaniyat, Media ta'lim, progressiv pedagogik texnologiya, nutq, kreativ fikrlash, kognitiv qobiliyat, mediapedagog, operatsion zal, animatsiya effekti, videotasvirlar, grafikli tasvirlar, ma'lumot grafiklari, mikrofon, kompakt disk, matn, grafika, tovush, multimedia mahsuloti, multimediali kompyuter, multimedia dasturi, aisteyr rejasi, mativatsiya, Innovatsiya, modeli tajriba-sinov, badiiy-imitatsiya.

1. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Multimedia atamasining lug'vaiy ma'nosi (multim-mediur yoki multi-media) ikkita so'z yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, multi-ko'p, media-muhit ma'nosini anglatadi. Atama ilmiy va o'quv adabiyotlarida «ko'p vositalilik», «multimediya muhiti» «ko'p qatlamli muhit», «ma'lumot tashuvchi vosita» kabi talqin qilinib kelinmoqda.

Hozirgi davrda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli hil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi; multimedia mahsuloti; multimediali kompyuter; multimedia dasturi va boshqalar shular jumlasidandir.

«Multimedia» tushunchasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta ta'rifini keltiramiz: «**Multimedia - deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi**», «Multimedia - bir vaqtning o'zida turli ko'rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining kontseptsiyasi», «Multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir».

Multimedia bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir. Multimedia – tasvirli ma'lumot bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. Odatda, multimedia deganda, turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Multimedia – kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Multimedia mazmunidan kelib chiqqan holda multimedia tushunchasining quyidagi ta'rifini keltirish mumkin:

Multimedia – bir nechta axborot turlarning kompyuterda ishlov berish natijasida hosil qilingan va bita diskka jamlangan axborot yig'indisidir. Multimedyaning shakllanish bosqichlari uning asosiy texnik ta'minoti bo'lgan kompyuterning rivojlanishi bilan bog'liq. Multimediani tashkil etuvchi va ularning rivojlanish bosqichlari quyidagilardir:

Matn shaklidagi tashkil etuvchisi. Dastlab odamlar yozuvlarni toshga o'yib yozgandar, qog'oz ixtiro qilingach parranda pati, qalam va ruchkalardan foydalanib yozuv ishlarini amalga oshirganlar. Keyinchalik yozuv mashinasi ixtiro etilgach, uzoq yillar mobaynida ulardan foydalanib kelindi. Nihoyat, kompyuterlarda «Matn muharriri» dasturi o'rnatilgach, yozuv ishlari kompyuterda bajariladigan bo'ldi

1980 yildan boshlab esa kompakt disklarga yozish va undan foydalanish yo'lga qo'yildi, jumladan, 1982 yilda Polygram kompaniyasi Audio CD ni ishlab chiqdi, SONY kompaniyasi esa, o'sha yili standart yozuvlarni CD disklarga yozishni tavsiya etdi. Natijada, SD disklarda yozish texnologiyasi rivojlanib ketdi. Ayni bir paytda mikrofon yordamida nutq va musiqa yozish ham shakllandi.

Video shaklidagi tashkil etuvchilarga videotasvirlar, grafikli tasvirlar, ma'lumot grafiklari va hokazolar kiradi. Videotasvirlar dastlab magnet lentalarida yozilib, videomagnitofonlarda namoyish etila boshlandi, so'ngra videotasvirlarni yozish kompakt disklarda amalga oshirildi.

Multimedyaning animatsiya samarasi. Multimediani tashkil etuchi axborot turlaridan biri - axborotlaga animatsiya samarasini berishdir. Bu multiplikatsion filmlarda rassomning chizgan qator chizmalari va

rasmlarini tez (bir daqiqada 24 kadr tezlikda) namoyish etilishi asosida sodir bo'ladi. hozirgi kunda multiplikatsion filmlar kompyuterda 3D. Flash dasturi asosida yaratilmoqda. Multimediyada esa maxsus dasturlar (Power Point, Makromedia Flash, Swish, Adobe Prmiere, Media Player, CD Player) orqali amalga oshiriladi.

Multimedia texnologiyasi. Dastlab ma'lum bir sohadagi texnologik jarayon mazmunini ko'rib chiqamiz. Texnologik jarayon deganda biror bir hom-ashyo, material yoki axborotni ma'lum bir asbob-uskuna, vosita, qurilmalardan foydalanib, ularga ishlov berish, hossalarni o'zgatirish va qayta ishlash natijasida yangi, sifatli mahsulot olish jarayoni tushuniladi.

Multimedia texnologiyasining bir nechta ta'riflari mavjud. Jumladan, multimedia texnologiyasi – informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya samarali asosida o'quv materiallarni tarbiyalanuvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan ko'rinishidagi texnologiyasidir. to'la multimedia – matn, audio, video, tasvir, grafika, jadvallar va boshqa turlarning yig'indisidan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, multimediali axborot shakllantirilishi uchun uning kamida uchta elementi qatnashishi shart. (nutq, tasvir va animatsiya). Masalan, radio eshittirishida beriladigan axborot yoki teleko'rsatuvlarda ko'rsatiladigan ovozsiz tasvirlar yoki tarbiyachi tomonidan an'anaviy metod (izohli-ko'rgazmali, bo'r-doska usuli) dan foydalanib o'rganiladigan materiallarning bayon etilishi multimedia texnologiyasidan foydalanish bo'la olmaydi.

Hozirgi davrda multimedia texnologiyasidan ko'p sohalarda. jumladan, moliya, iqtisodiyot, fan, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy sohalar, maishiy sohalar, reklama, kompyuter o'yinlaridan foydalanilmoqda. Ayniqsa, banklarning operatsion zallarida, ko'rgazma va yarmarka zallarida, avtosalon, sayohat byurosi, aeroport va temir yo'l vokzallarining zallarida reklama axborotlari to'g'risida keng qo'lamda ma'lumot beriladi. Shuningdek, ishlab chiqarishda, turli muasasalarda, xizmat ko'rsatish shoxobchalarida, arxivlashtirishda va boshqa joylarda qo'llaniladi. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, media mashg'ulotlarni tayyorlash, samarali o'tkazish tarbiyachilardan turli professional layoqat va shaxsiy sifatlarni talab etadi: yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lish; zamonaviy metodik tayyorgarlikka ega bo'lish; bola bilan muloqotga kirishish, malakali psixologik, pedagogik bilimlarga ega bo'lish; yuksak

ma'naviy, ma'rifiy madaniyatga ega bo'lish; zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirib olish va internetdan foydalanish, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni joriy qilish orqali tashkil etish.

Hozirgi kunda barcha ta'lim tashkilotlari, shu jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlanmoqda. Bunda tarbiyachi pedagoglarning o'z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvni, mashg'ulot o'tish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularni tushunarli va qiziqarli shaklda tashkil etishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishlari zaruriyati paydo bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida yangi kompyuter va axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositalarining joriy etilishi, pedagog-tarbiyachilarning axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning mashg'ulotni tashkil etish jarayonidagi maqsadi, vazifalari va tutgan o'rnini o'zgartiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish murakkab masala hisoblanib, ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Lekin shunga karamay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib rivojlanishida kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o'qish, rasmlarni ko'rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o'yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo'ljallangan kompyuterli o'yin dasturlarining barchasi ham ta'lim jarayonida o'z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o'yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondashuv va e'tibor kerak bo'ladi.

Kompyuterli o'yin dasturlari shunday yaratilgan bo'lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O'yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olishi, uni qanday bajarish kerakligini o'ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning axborot texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich savodxonligini ham oshirish zarur, ya'ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to'g'risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu ishlar tarbiyalanuvchilarning kompyuter o'yinlaridan foydalanā olish bo'yicha malaka va ko'nikmalari shakllanishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuterli o'yin dasturlaridan foydalanish tarbiyalanuvchilarda bir qator ijobiy sifatlarning shakllanishi va mustahkamlanishiga imkoniyat yaratadi:

- o'z qobiliyati va iqtidorini namoyish qilish imkonini beradi;
- mustaqil harakat qilishga zamin yaratadi;
- muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi;
- o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantiradi;
- tarbiyalanuvchilarda obrazli tasavvur va obrazli fikrlash rivojlanadi;
- nutq, kreativ fikrlash va kognitiv qobiliyatlar rivojlanadi.

Kompyuterli o'yin dasturlaridan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun kompyuterli nashrlar, shu jumladan ijodiy ishlanmalar, hayoliy sayohatlar va boshqa elektron axborot resurslari yaratilmoqdaki, ulardan foydalanish bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarishda ham axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanilmokda. Buning uchun esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida elektron axborot resurslaridan samarali foydalangan holda elektron hujjat almashuvi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

Bu faoliyatning samaradorligi tarbiyachi-pedagoglarning ta'lim-tarbiya jarayoniga shu texnologiyalarni qo'llashga doir bilim, ko'nikma va malakalari darajasi va amaliy ish tajribalariga ham bog'liq bo'ladi. boshqacha aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida axborot -

kommunikatsion texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e'tibor, eng avvalo, talab qilinadigan sharoitni yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy elektron axborot va uslubiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilishi lozim. Bugun mamlakatimiz istiqbol sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va xayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi». Eng muhimi, bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Buning natijasida shahs o'z «men»ini anglay boshlaydi va boyitadi, tashqi dunyo bilan bo'lgan aloqasida esa o'zining ijtimoiy rolini topa oladi, yaratuvchilik qobiliyati shakllanadi. Zero, o'z-o'zini rivojlantirish ustida doimo ish oli boradigan, yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridandir.

Multimediali kompyuter texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida bolalarning kompyuter savodxonligi shakllanishiga ham olib keladi. Animatsiyali ma'lumotlarning insonga ta'siri katta bo'lib, undan. MTMlari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalar diqqatini ko'proq jalb qilish xususiyatiga ega. Multimediali ta'lim bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olish uchun samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon isbotlangan. MTM tarbiyalanuvchilari monitor ekranida namoyish etiladigan materiallarni o'rgana borsalar va kompyuterdan foydalanish bo'yicha yetarlicha ko'nikma hosil qilsalar, maktabda boshlang'ich sinfda informatika fanini o'rganishga, kelajakda esa akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtida kompyuterdan foydalana olish malakasiga to'liq ega bo'ladilar. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga havaslari va ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari shakllanadi. Kompyuterli didaktik o'yinlarning pedagogik jihatlaridan biri ularning ta'limiyligidir. Tarbiyalanuvchi o'yin davomida bir vaqtning o'zida ham o'yinda ishtirok

etadi, ham ma'lum bir darajada ta'lim oladi. Ayrim o'yinlarda bilimlar mashqlar orqali namoyish qilinadi.

Masalan: shakllarni ustma-ust qo'yish o'yinida, birinchidan, o'yin vazifasi bo'yicha bola shakllarni ustma-ust qo'yish natijasida qanday shakl hosil bo'lishini topsa, ikkinchidan, tarbiyachining topshirig'i bo'yicha shakllar sonini sanab berishni, shakllar qanday ko'rinishda ekanligini va ularning nomlarini aytishni, ranglarni ajratib berish vazifalarini bajaradi (ta'limiy jihati). Bundan tashqari, tarbiyalanuvchi «sichqoncha»dan foydalanib kompyuterda ishlash malakasini hosil qiladi va kompyuter savodxonligini oshiradi.

Multimedia-gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

Axborotning xilma-xil turlari: ananaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofil'mlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompakt-disklar, televizor, videomagnitofon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

Muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ(tezkor) va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

Multimedia vositalari asosida ta'lim-tarbiya berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, mant, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini maktabgacha yoshdagi bolalarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia vositalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish quyidagi afzalliklarga ega:

A) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

B) ta'lim-tarbiya olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

V) ta'lim-tarbiya olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

G) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Demak, kompyuterli didaktik o'yinlar ta'lim bilan bevosita bogliq bo'lib, ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam qiladi. Kompyuter va uning xotirasidagi ta'limiy o'yinlar birgalikda, multimedia texnologiyasi (kompyuterli ta'lim)ning o'yinlar bo'yicha asosiy didaktik vositasi hisoblanadi. Kompyuter xotirasidagi o'yinlardan tashqari, qo'shimcha didaktik o'yinlar tayyorlash mumkin.

2. Media ta'limning asosiy mazmuni. Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Bu yerda nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni yetishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjudki, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan joylarini o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi? - degan mulohazalar ham kam emas. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati, aynan mana shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l ilojisizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki:

- ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi:

- an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «Axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati

birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi :

- fan-textika taraqqiyotining o'rta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi:

- kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi:

- yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa majmuaviy yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Keyingi 10 yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar ko'p uchrab turgani bilan, ularning o'zbek tilidagi maromiga yetgan ta'rifi hali tuzilmagan.

Darhaqiqat, XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayoni nazariy (g'oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarni yangicha mazmun kasb etishini ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatish sohasining paydo bo'lishi, yangicha turmush tarzi kishilarni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarining yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularni qisqa muddat va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatning yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

Media ta'lim nima?

Media ta'lim interfaol, bolaga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Media ta'lim bolani mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi.

O'quv xonalariga matbuot, televidenie, radio, kino, video va internet olib kirmokda. Bularning barchasi media ta'lim nomi bilan ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam bermoqda.

Media ta'limning asosiy mazmuni mediamadaniyat (kino san'ati, badiiy televidenie va badiiy media) tilini, uning tarixini bilish, tushunishdir.

Uning pedagogik strategiyasi mediamatnlarni badiiy tahlil qila olish, uni talqin qilish asosida baho berishdan iboratdir. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, media qanday shakllanadi, u haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmuni nimalardan iborat va bolalar uni qanday qabul qiladilar - bu savollar hozirgacha turli munozaralarni tug'dirmoqda.

Lekin shuni yodda tutish kerakki, media ta'limning markazida bola shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish, istaklarini hisobga olish, olingan axborot asosida tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak.

Turli davlatlar olimlarining fikrlariga ko'ra, media ta'lim tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, bolalarni o'quv-bilish jarayonida kreativ fikrlashga o'rgatadi.

Mediata'limning eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodni tobora jadallashib borayotgan axborot oqimida, har xil axborotni olish, tushunib yetish, uning inson psixikasiga ta'sirini bilish va undan to'g'ri, maqsadli foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Mediata'lim olingan axborotni integratsiya qilish, shu asosida shaxsiy fikrni bildirish va qayta olishga chorlaydi. O'z fikrini erkin bildirish, shaxsiy rivojlanish, turli axborot xurujlariga qarshi fikr bildirish orqali o'quvchining ijtimoiy faolligi oshadi, media axborotdan faol va to'g'ri foydalanish madaniyati shakllanadi. Shu orqali berilayotgan axborot haqida fikr yurita boshlaydi.

Shuning uchun ham mediamashg'ulotlar:

- «Badiiy-imitatsiyali» - kichik senariylar, mediamatnlar tuzish, uni interfaol usulda namoyish etish;
- Teatrlashgan vaziyat hosil qilish (mediamatn asosida ayrim epizodlarni sahnalashtirish, mediamatn jarayonini namoyish etish);
- Tasviriy-imitatsiya tayyorlash (afishalar yaratish, fotoko'rgazma, ma'lum mavzudagi asarlar rasmlarini namoyish etish) kabilarni tushunish, qo'llay olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Yuqoridagi didaktik materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tahlil asosida xulosa qilish, emotsional qabul qilish orqali nafis san'atni tushunishga olib keladi. Bu holat bolaning umumintellektual rivojlanishida, bilim olishi, tarbiya topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi¹¹.

Mediamashg'ulotlar berilayotgan axborotni qabul qilish, o'zlashtirish jarayonida ikkita yangi komponent ishtirokini ta'minlaydi.

1. Mediamashg'ulotlarda kompyuterlar universal holda qo'llanishi bilan xarakterlanadi.

2. An'anaviy texnologiyalar vositalari yoniga dasturli vositalar to'ldiruvchi bo'lib kiradi. Dasturiy ta'minot ayrim mavzularni o'qitish va o'zlashtirish uchun Mediata'lim qulay muhit yaratadi. Unda ta'lim mazmuni aniq, ravon shakllantirilgan bo'ladi, chizmalar, rasmlar, jadvallar, videofragmentlar, ovozi, animatsion ta'minot kreativ bilan namoyish etiladi.

Mediamashg'ulotlarning afzal jihati shundaki, ta'lim jarayonida bolalarning mustaqil ijod qila olish qobiliyatlarini rivojlantiradi, Shu munosabat bilan mediamashg'ulotlar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina o'quv fani mazmuni nuqta nazaridan yondashmasdan, balki uning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi tomonlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Mediamashg'ulot axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, ya'ni kerakli axborotni olish, uni yangi texnik vositalar yordamida qayta ishlash, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi talab etiladi.

Media mashg'ulotlar kompyuterlashtirilgan o'quv xonalarida, multimedia proyektor yordamida o'tkaziladi. Bu mashg'ulotni tashkil etishning o'ziga yarasha sanitariya-gigiena me'yorlari. bolalarning uzluksiz ishlash me'yorlari mavjud:

Tarbiyalanuvchilar bilan ishlashni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- * videofragmentlarni frontal ko'rish;
- * topshiriq, mashqlarni individual bajarish;
- * umumiy o'quv loyihalari, modeli tajriba-sinovni amalga oshirishda kichik guruhlarda ishlash;

¹¹ Maktabgacha ta'lim muassasalari mudiralari uchun o'quv modullari 3-modul:2012 y.

* media mashg'ulotlarni tashkil etishda ham o'quv jarayonining hamma komponentlari o'z aksini topishi va kompyuterdagi va kompyutersiz faoliyat almashib turishi mumkin;

* faollashtirish (o'quv materialini takrorlash, materialni birdaniga o'zlashtirish, kompyuterda yoki kompyutersiz);

* bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, o'quv axboroti blokining mohiyatini bilib, tushunib olish va uni mustahkamlash (kompyuterda yoki uning ishtirokisiz);

* o'quv materiallarini amalda qo'llay olishini nazorat qilish (kompyuter va kompyutersiz).

Kompyuterlashgan o'quv xonalarida o'quv faoliyatining samarali kechishi uchun u yerda qo'shimcha joylashtirilgan o'quv stollaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu holat sanitariya me'yorlariga rioya etish, bolaning o'quv faoliyatini boshqa joyda tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Bunday almashinuvlar bolani charchashdan saqlaydi. Agar tarbiyachi ko'rgazmali tasvirlardangina foydalansa, ularni kompyuter ekranida namoyish etish bilan cheklanadi.

3. Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish metodlari. Maktabgacha ta'lim o'quv tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini, o'quv tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uni yechishni to'g'ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarni to'g'ri yechimini topishga yo'naltiradi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya masalalari eng muhim asosiy pedagogik munosabatlar sabablarini aniqlaydi, uni pedagogik jarayonda o'rganadi.

Ta'lim-tarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umumbashariy qadriyatlariga bog'langan holda maktabgacha yoshdan boshlab o'zligini anglash, erkin fikrlash, g'urur tuyg'ularini shakllantirishga qaratiladi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida nega o'qitamiz? nimani o'qitamiz? qanday o'qitamiz? degan savollarga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? degan savolga javob beradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni «O'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin» degan fikrga olib keladi. Bunday fikrning tug'ilishi

pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tarbiyalanuvchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Shuning uchun ham ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya

va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o'quvchilarning bilimli va yetuk malakaga egaligini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba yoki o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi¹².

Ananaviy o'qitish modeli		Interfaol o'qitish metodi	
Afzalliklari	Kamchiliklari	Afzalliklari	Kamchiliklari
O'qitishning tizimliliigi	Mashg'ulotlarning bir qolipliligi, bir xilligi	O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi	Ko'p vaqt talab etilishi
O'quv materiallarini tartibli izchil berilishi	Mashg'ulot jarayonida faqat dastlabki yo'nalish beriladi, keyingi darajalar uy vazifasiga beriladi.	O'z vaqtida aloqalarning taminlanishi	Bolalarni har doim ham keraklacha nazorat qilish imkoniyatining pastligi
Ommaviy o'qitishda resurslarning oqilona harajati	Ishtirokchilarning susiligi va mustaqillikning yo'qligi	Tushunchalarni amaliyotga qo'llash uchun sharoit yaratish	Juda murakkab mazmundagi material o'rganilganda ham tarbiyachi rolining past bo'lishi
Tarbiyachi shaxsining doimiy emotsional tasiri	Ishtirokchilar o'zaro muloqotdan Ajratiladi, nutqiy faoliyat sust	O'qitish metodlarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi	
Tashkiliy puxtalik	Sust qayta bog'lanish	Mativatsiyaning yuqori darajada bo'lishi	
Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq tushunchalarni o'rgatishda foydalidir	O'rta me'yorda yondashuv	O'tilgan materialning esda yaxshi saqlab qolinishi	
Pedagog tomonidan o'qitish jarayoni va o'qitish muhitining yuqori	Bola sust ishtirokchi bo'lib qoladi	Muloqotga kirishish ko'nikmasi takomillashadi	

¹² Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun modullar T-2012 y ikkinchi nashr 126 b

darajada nazorat qilinishi			
Vaqtdan unumli foydalanish	Bolada mativatsiya vujudga kelmaydi	O'z-o'zini baholashning o'sishi	
Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi	Bola pedagog bilan o'zaro munosabatga kira olmaydi	Mustaqil fikrlaydigan bola shakllanadi	
	Eslab qolish darajasi hamma bolada bir xil bo'lmaganligi sababli guruh bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lishi mumkun	Mavzuning mazmunini o'zlashtiradi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi	
	Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoit yaratilmaydi	Muammoni yechish ko'nikmalarining shakllanishi	

Interfaol («inter»- bu o'zaro, «akt»- harakat qilmoq)- o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil qila bilishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol mashg'ulotlarda tarbiyachining o'rni qisman tinglovchilarning faoliyatini dars maqsadlariga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va tinglovchilar birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- pedagoglarning jarayonga bo'lgan qiziqishlarining doimiyligini ta'minlashi;

- mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda yangi interfaol va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini tadqiqotchilar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilayotgan ko'pgina pedagogik tajribalarning natijalari tasdiqlamoqda.

Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama yetuk, barkamol etib tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining mavzuidir. U maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilaning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlab, ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta'lim berishi ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta'lim tizimida uning ajralmas qismi bo'lib shakllandi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishning maqsadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog'lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatiga egaligiga asoslanadi.

Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. MTMlari ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTM tarbiyachilarining o'zlari tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturli va rolli multimedia vositalarini qo'llash mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalaniladigan multimediali ta'lim vositalarini ikki turga bo'lish mumkin:

1. Monitor ekranida to'g'ridan-to'g'ri bilim berishga mo'ljallangan vositalar.

2. Ko'rgazmali qurol.

Odamzod har daqiqqa sezgi a'zolari orqali axborot yig'ib fikr qilish va xayotiy muammolarni hal qilish choralarini o'ylab topib amalga oshirish bilan kun ko'radi. Insonlar qayerda bo'lmasinlar, bugungi kun zamon

talabiga mos ravishda malakasini oshirib, yangi ma'lumotlar bilan bilim bazasini yangilab borishi kerakligini taqozo etmoqda.

O'rganilayotgan muammoning ilmiy amaliy ahamiyati shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalarni mashg'ulotlar jarayoniga qiziqishlarini oshirish va mavzuni mustaqil o'zlashtirish samaradorligini va ahamiyatini shakllantirish.

Informatika fanini o'qitishda multimedia tizimi haqida tushincha berish, multimedia vositalaridan foydalanib bilim olishning ahamiyati, uning yaxshi taraflarini aytib o'tish lozim.

Multimediali o'rgatuvchi dasturlar matn, grafika, video, tovush va animatsiyalarni o'zida tutadi. ya'ni kompyuterga yozilgan maxsus dasturni ishga tushiradi. Bu dasturlar asosan fanning nazariy bo'limidan, amaliy mashg'ulotlari va nazoratlardan iborat bo'lishi mumkin. Bunday dasturlar orqali olingan bilim xotirada ko'p vaqt saqlanadi va kerak bo'lganda amalda qo'llanish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterli ta'limning asosiy maqsadlaridan birinchisi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Shuning uchun mashg'ulot shakli, mazmuni, o'tkazish metodikasi va baholash mezonini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, ba'zi MTMlarda kompyuterlar bilan ta'minlangan bo'lsa-da, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagan. Shuning uchun, MTM sharoitida kompyuterdan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, mashg'ulot mobaynida multimedia texnologiyasidan foydalanganda u yoki bu materialni o'rganishda vaqtni tejash hisobiga ta'lim mazmuni chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassalarida an'anaviy usulda ta'lim-tarbiya berishning shakli, mazmuni va metodi ko'pgina adabiyotlarda bayon etilgan. Jumladan, ushbu masalada P.Yusupovanning «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» da keng yoritib berilgan. P.Yusupova ta'lim shakli to'g'risida shunday yozadi: «Ta'lim shakli deganda, ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi».

Adabiyotlarda, MTM ta'lim metodlari bo'yicha ham qator fikrlar bildirilgan. Metod - ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning maqsadli

ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq faoliyatlarning izchil usullar tizimidir.

4. Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyalarini tatbiq etish. Maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish, asosan uch tomonlama amalga oshiriladi.

1. Kompyuter va uning dasturlari yordamida didaktik vositalar tayyorlanadi hamda Internet va masofali ta'lim ashyolaridan foydalaniladi.

2. Kompyuter ishtirokida bevosita dialog metodi asosida bolalarga yangi material o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 6-7 yoshli bola kattalar kabi kompyuterda ishlashga qodir emas. Shuning uchun, MTMLarda yangi materialni o'rganishda bevosita dialog metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu holda kompyuter didaktik vosita manbai rolini o'ynaydi.

3. Bilvosita dialog – virtual axborot muhitida kompyuter bilan dialog asosida multimedia texnologiyasi amalga oshiriladi. Bunda material bolalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, o'tilgan material mustaqil takrorlanadi, mashqlar mustaqil bajariladi, multimediali kompyuter o'yinlari mustaqil amalga oshiriladi va bola mashqlarni, kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, qo'yilgan mashg'ulot maqsadiga erisha oladi. Bu holda multimedia texnologiyasidan foydalanganda kompyuter ta'lim manbai rolini o'ynaydi. Maktabga tayyorlov guruhlarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanishning asosiy va yetakchi shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar «Bolajon» dasturi asosida, belgilangan rejalar asosida olib boriladi. Yangi mashg'ulotlarni o'rgatishga qaratilgan, tekshiruvchi - sinovchi, majmuaviy «sayohat» yoki «ekskursiya» va «kompyuterli o'yin» shakllariga bo'linadi.

Mashg'ulotning o'yin shakli.

Tarbiyachi-pedagog bolalarni kompyuter ro'parasiga joylashtiradi.

Kompyuter xotirasiga joylashtirilgan materiallarni monitor ekraniga chiqaradi. Bolalarning diqqati ekranga chiqqan materialga qaratiladi. Tarbiyachi va bolalar o'rtasida dialog (savol-javob) boshlanadi. Bolalar tarbiyachi (pedagog) bergan topshiriqni mustaqil bajaradi. O'rganilgan material mustahkamlanadi. Bolalarning mashg'ulot davomida olgan bilimi baholanadi. O'rganilgan material bo'yicha uyga topshiriq beriladi.

Mashg'ulot mazmuni. Multimedia texnologiyasidan foydalanib o'tkaziladigan mashg'ulotlar kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Shuning uchun, multimedia texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarni kompyuter mashg'uloti, deb ham atash mumkin. Kompyuterli mashg'ulotlarning aksariyati birlashgan mashg'ulotlar shaklida o'tkaziladi.

Ushbu oraliq bosqichida tarbiyalanuvchilarning toliqishini hisobga olib, kompyutersiz amalga oshiriladigan mashg'ulot o'tkaziladi. Kompyutersiz o'tkaziladigan ushbu oraliq mashg'ulotlarda, mavzuga tegishli og'zaki savol-javoblar, topishoqlar, turli mazmundagi o'yinlar, amaliy tadbirlar (masalan, qay'chi bilan harflar qirqish, qog'ozda yozishga o'rgatish) o'tkaziladi. Shuningdek, she'r, ashula aytiladi va jismoniy mashqlar bajariladi. Jumladan, ko'z toliqishini bartaraf etuvchi ko'z gimnastikasi - bir necha daqiqa davomida ko'zni ochib yumish, xonaning burchaklariga navbatma-navbat nazar tashlash kiradi. Oraliq bosqichdan so'ng yana 15 daqiqali asosiy mashg'ulot davom ettiriladi.

Yangi bilim berishda bevosita dialog metodidan foydalanishni maktabga tayyorlov guruhlar bolalarining yoshlari (6-7), ularning fikrlash darajalari va boshqa xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo etadi. Bevosita dialog metodidan foydalanilgan holda kompyuter didaktik vositalar manbai rolini o'ynaydi.

Virtual akxorot muhitida kompyuter bilan (bilvosita) dialog metodining algortmi:

1. Kompyuter bola (tarbiyalanuvchi)ga - topshiriq, savol, mashqni bajarish yoki o'yinni bajarishni buyuradi.

2. Bola (tarbiyalanuvchi) topshiriqni bajaradi.

3. Kompyuter topshiriq bajarilishining to'g'ri yoki noto'g'riligini bildiradi.

4. Noto'g'ri bo'lsa, takroriy bajartiradi.

5. Kompyuter bolaning bilimini baholaydi.

Kompyuterda ishlovchi bola mashqlarni va kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, maksadiga erisha oladi, chunki kompyuter - «bag'ri keng» va «toqatli, sabrlidir». Bola xato qilgan taqdirda ham xatoni o'zi tuzatgunga qadar hech kim unga tanbeh bermaydi. Ammo bolalar kompyuterda mustaqil ishlagan hollarda ham ularning harakatlari doimo tarbiyachi nazoratida bo'ladi.

Bevosita dialog asosida o'tkazilgan mashg'ulotda 15 daqiqa uzluksiz monitor ekraniga qaragan va bolalar kompyuterdan uzoqroq «sichqoncha» va klaviatura kabellarining uzunligi masofasida joylashgan holda bolalarning 95 foizi 15-20 daqiqadan so'ng toliqishlari yo'qolganini bildirdilar. Multimediali kompyuter texnologiyasining ta'lim-tarbiya berish metodikasini bayon qilishdan oldin uning quyidagi ikki jihatiga e'tibor berish kerak:

1) agar u yoki bu multimedia vositasi tarbiyalanuvchilarga bayon etib borilmasdan namoyish etilsa, u oddiy multfilm bo'lib qoladi.

2) agar tarbiyachi multimedia vositasini namoyish etish davomida uni tahlil etib (tushuntirib, bayon etib) borsa, ta'lim jarayonini aks ettirib, multimedia texnologiyasiga aylanadi.

Agar MTMdagi kompyuterlar soni 5-6 dan ortiq bo'lsa, mashg'ulot frontal ravishda, bitta bo'lsa, undan navbatma-navbat foydalanilgan holda o'tkaziladi. Bunday holda taklif etilgan birinchi tarbiyalanuvchi tarbiyachi tomonidan berilgan savolga to'g'ri javob bera olmasa, ikkinchisidan so'raladi. Agar MTMlarda proyektor va ekran (yoki elektron doska) bo'lsa, tarbiyachi mashg'ulotni «kompyuter-elektron doska» usulidan foydalanib olib boradi.

15-20 daqiqali ikkinchi bosqichdan so'ng, uchinchi bosqichda birinchi bosqichda kompyuterdan foydalanib, o'rganilgan materiallar savol-javob asosida mustahkamlanadi va tarbiyalanuvchilarning bilimlari baholanadi. Mashg'ulot oxirida uyga vazifa beriladi. Tarbiyalanuvchilarga uyga beriladigan topshiriqlar kundalik turmushda uchraydigan masalalardan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Mashg'ulotning texnologik xaritasi. Maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar garchi dars shaklida o'tkazilmasa-da, tarbiyachi u yoki bu mavzu materiali bo'yicha o'ziga mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzib olishi kerak. Xaritada mashg'ulot mavzusi, maqsadi va vazifalari, mashg'ulot mazmuni, mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi, kutiladigan natijalar, kelgusi ishlar, uyga vazifalar aks etishi kerak

Multimediya vositalarini MTMdagi mashg'ulotlarda qollash. Mutaxassislarning fikricha, insonning eshitish a'zolariga nisbatan ko'rish a'zolari yordamida qabul qilingan ma'lumotni besh marotaba ko'p eslab qolish mumkin. Sababi - eshitiş a'zolariga nisbatan ko'rish a'zolaridan olinayotgan ma'lumotlar qayta kodlashtirilmay to'gridan-to'g'ri xotiraga

o'tadi va saqlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida maktabga tayyorlov guruhi bolalarini savod chiqarishga tayyorlash, elementar matematik bilim berish va atrof-olamni o'rganish, ta'lim o'yinlari yo'nalishlari bo'yicha, quyidagilar qayd etilgan: nutq o'stirish bo'yicha nutq-tovush madaniyatini shakllantirish, ijodiy hikoya qilish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, lug'atni boyitishni jadallashtirish, matematika bo'yicha son-sanoq, miqdor, shakllar, fazoviy tasavvurlar, vaqt haqida tasavvur hosil qilish. Ta'limiy o'yinlar bo'yicha rangni top (ranglarni to'g'ri ajratish), shaklini top (doira kvadrat, uchburchak va boshqa shakllar), halqalarning shakli va ranglari bo'yicha o'yinlar, tabiat bilan tanishtirish bo'yicha gulzorga ekskürsiya, paxta dalasiga sayohat, kabutar singari qushlarni kuzatish, ularning hususiyatlari va farqi, havo va uning xossalari bilan tanishtrish, suv va uning hususiyatlari bilan tanishtirish kiradi.

Tarbiyalanuvchilarning bilimni baholash mezonini. Baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilgan darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining bilimlarini aniqlash, beshta: ya'ni o'quv maqsadlariga asoslanganlik, haqiqiylik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulaylik kabi tamoyillariga asoslanadi. MTM tarbiyachisi bolalarning bilimni baholash jarayonida baholash tamoyillarini hisobga olishi shart. Multmedialli kompterli ta'limda bolalarning yoshi, rivojlanish darajasi va psixologiyasini hisobga olib, o'tilgan materiallarni baholashda uchta test savoli qo'yiladi. Bu yoshdagi bolalarga beshta savol qiyin bo'lishi mumkin. Buni hisobga olgan holda testga uchta savol quyib, uch balli tizimda baholanadi.

Tarbiyalanuvchilar bilim darajalarini aniqlash mezonini quyidagicha: o'rganiladigan material turiga qarab 3 tadan 5 tagacha turli variantdagi dasturli o'yin, taqdimot, slayd, yozuv, rasm, sxema, mashqlar va chizmalar savol tariqasida kompyuter xotirasiga kiritiladi. Tarbiyalanuvchilarga to'g'ri javobni aniqlash topshiriladi va ularning bilim darajalari test sinovi yoki kompyuter xotirasiga kiritilgan mashg'ulot mavzusiga oid amaliy topshiriqlarni bajarish orqali aniqlanadi.

Agar tarbiyalanuvchi kompyuterda berilgan variantdagi uchta topshiriqdan barchasini to'g'ri bajarsa, u holda unga «a'lo» bahoni

ifodalaydigan 3 ball qo'yiladi. Agar berilgan variantdagi ikkita topshiriqni to'g'ri bajarsa, u holda «yaxshi» bahoni ifodalaydigan 2 ball qo'yiladi. Agar berilgan variantdan bitta topshiriqni to'g'ri bajarsa, u holda tarbiyalanuvchiga «qoniqarli» bahoni ifodalaydigan 1 ball qo'yiladi. Agar variantdagi topshiriqni to'g'ri bajara olmasa u holda hech qanday balla qo'yilmaydi. Bunday hollarda tarbiyachi tarbiyalanuvchi bilan qo'shimcha shug'ullanib, uning bilim darajasini aniqlash uchun qayta testga qo'yish kerak.

Mashg'ulotlarda bolalar bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan, ishtirok etishga mo'ljallangan quyidagi interfaol usullardan foydalanilgan:

- Suhbat
- Ko'rgazmalilik
- Tushuntirish
- Ko'rsatish
- Kichik guruhlarda ishlash (3-4 bola bilan)
- Savol-javob
- Rag'batlantirish
- Amaliy ish
- Bilimlarni mustahkamlash uchun o'yin

Bu usullar mashg'ulotlarda almashinib kelgan holda qo'llanilgan.

Metodik qo'llanmadan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, ota-onalar, pedagogika institutlari va kollej talabalari ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi materiallar tayyorlandi:

1. Pedagogik jarayonni kuzatish sxemasi.
2. Tarbiyalanuvchilar uchun ko'rgazmali qurollar .

Multimediali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun, tarbiyachi (pedagog) ushbu muammoga aloxida e'tibor qaratishi lozim. Kompyuterning tuzilishi va undan foydalanish ko'pgina adabiyotlarda bayon etilgan. MTMlari tarbiyalanuvchilariga kompyuterning tuzilishini va undan foydalanishni juda sodda shaklda bayon etish maqsadga muvofikdir.

Xuddi shuningdek, hozirgi zamon alifbo darsliklarida ham harflarni o'rgatishda rasmlardan foydalanish tavsiya etilgan. An'anaviy usulda, darslikdan tashqari, pedagog-tarbiyachi harflarni o'rgatishda vosita sifatida «bo'r-doska» usulidan va plakatlardan foydalanib kelmokdalar.

- guruhleri bolalarining yoshlarini hisobga olib, yangi bilim beruvchi mashg'ulotlarda kompyuterlardan bevosita dialog metodi asosida foydalanish;

- maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanilgan holda mashg'ulotni amalga oshirish;

- mashg'ulotlarni amalga oshirishda yangi interfaol va noan'anaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarining yoshiga va ta'lim dasturiga mosligi e'tiborga olingan holda, multimedia texnologiyasi asosida tashkil etish va Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhleri o'quv rejasi asosida olib borish maqsadga muvoffiqdir.

Hozirgi ta'minot xizmati tahlili.

Og'zaki tilni rivojlantiruvchi xizmatlar Irlandiyada nutq va til terapevtlari tomonidan boshqariladi va sog'liq xizmatlari ma'muriyatlari tomonidan ta'minlanadi. Nutq va til terapevtlari nutqshvf kamchiliklari bor bolalarga baho berishadi, diagnoz qo'yishadi va davolashadi.

Ma'lumot olish va undan foydalanish odatda ochiq va erkin hisoblanadi va bular ota-onalar, birinchi yordam guruhi a'zolari, o'qituvchilar, ishchilar va xususiy sog'liqni saqlash xizmati mutahassislari tomonidan amalga oshiriladi. Tashxis qo'yish va davolash odatda klinikalardab ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Har yili amaliyotchilar va o'qituvchilar o'zlarining har kungi ishlarida og'zaki til rivojlanishiga katta e'tabor qaratishadi.

Aisteyr rejasi, Kichik yoshdagi bolalar o'quv dasturi barcha yangi tug'ilgan bolalardan to 6 yoshgacha bo'lganlar uchun bo'lib, konsepsiyaga oid qilib o'qitadigan va yetti yoshdagi bolalar uchun bo'lgan keng hajmli modelni tashkil qiladi. Ingiliz boshlang'ich ta'lim maktabi ta'lim dasturida og'zaki tilga alohida urg'u beriladi. Shunga qaramasdan, bu dasturni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda va baholash tizimi va pedagoglar qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezilmoqda. (Edited by Mary

Rafferty «Brief review of approaches to oral language development» (USA 2014y.)

Shunday qilib, maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bolaning xotiraga olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bolaning xotiraga olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi haqida nimalarni bilasiz?

2. Kompyuterli o'yin dasturlaridan foydalanish tarbiyalanuvchilarda qanday sifatlarning shakllanishi va mustahkamlanishiga imkoniyat yaratadi?

3. Multimedianing asosiy belgilarini bilasizmi?

4. Multimedia vositalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning afzalliklarini bilasizmi?

5. Media ta'lim nima?

6. Media ta'limning asosiy mazmuni.

7. Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish metodlarini ayting?

8. Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyalarini tadbiq etish zarurati nimada?

9. Media ta'limning eng muhim vazifalarini bilasizmi?

10. Media mashg'ulotlarning afzal jihati nimada?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova R.M.Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2010.

2. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T., 2019

3. Jo'raev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o'stirish. – T.: "O'qituvchi", 1988.

4. Shodieva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -T.: "O'qituvchi", 1995.
5. R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashga o'rgatish. T.,1997.
6. Shodieva Q. Nutq o'stirish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 2008.
7. Mo'minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalami savodga o'rgatish dasturi. -T., 1996.
8. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. -T.: Ma'naviyat, 2003
9. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012.

30-MAVZU: MAKTABGACHATA`LIM TASHKILOTLARIDA O`TKAZILADIGAN PEDAGOGIK KENGASH VAZIFALARI

REJA:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik Kengash, uning maqsad va vazifalari.

2. Pedagogik Kengash tashkil etish tamoyillari.

3. Bolalar nutqini o`stirish bo`yicha o`tkazilgan markazlar faoliyatlarini pedagogik kengashda o`tkazish

Tayanch tushunchalar: pedagogik kengash; kengashning maqsadi; vazifalari; kengash a`zolari; kengash ish tartibi; kengash ish rejasi; kengashni o`tkazish qoidalari; rasmiylashtiris; bayonnoma; hisobot.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik Kengash, uning maqsad va vazifalari. Pedagogik kengash – bu metodik ishning doimiy faoliyat ko`rsatadigan jamoatchilik shaklidir. MTTlardagi pedagogik kengashlar malaka oshirishning o`ziga xos maktabi hisoblanadi, tarbiyachilarning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishda asosiy rol o`ynaydi.

O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 11 iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko`rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to`g`risida"gi 128-sonli buyrug`ining 1-ilovasida "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogic Kengashi to`g`risda"gi namunaviy Nizom tasdiqlandi. Nizomda pedagogik Kengashni tashkil etish va rasmiylashtirish yuzasidan barcha taklif va tavsiyalar belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi:

maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko`rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarining pedagogik yuklamasini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama etadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlar hisobotlarini eshitadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tarbiyalash, shakllantirish va o'qitishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari orasidan tuziladi¹³.

MTTda pedagogik kengashlarda:

1. Pedagogik kengash Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha ta'lim vazirligining maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, instruksiya, nizom, yo'riqnom va boshqa hujjatlari muhokama qilinadi.

2. MTTning yillik ish rejasini; bolalar sog'ligini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhlari bo'yicha "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablarining sifatli bajarilish jarayonini; tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning dolzarb masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va MTT faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

3. MTTdagi ta'lim-tarbiya ishlarining ahvoli, dasturning bajarilishi, bolalar sog'lig'ining ahvoli, ularning maktabda o'qishga tayyorgarliklari tahlil qilinadi, yalpi (frontal) va tematik tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, Davlat talablari va "Ilk qadam" o'quv dasturlarining bajarilishi haqidagi tarbiyachilarning hisobotlari muhokama qilinadi.

¹³ "Умумий типдаги давлат ва нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари тўғрисида" Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сонли "Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора тadbirlar тўғрисида"ги Қарорига 1-илова.

Barcha tarbiyachilar faoliyatining hamma turlari bo'yicha bir yillik, yarim yillik, hisobobtlarini birvarakayiga emas, balki bir necha tarbiyachining qisqa muddatli (masalan, bir chorak) va birorta bo'limni (tasviriy faoliyat, nutq o'stirish, tabiat bilan tanishtirish...) o'z ichiga oluvchi hisobotni tayyorlagan ma'qul.

Chunki bu tarbiyachilarga bo'limlarning turi bzyicha bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yuzasidan dasturning bajarilishini chuqurroq tahlil qilish, bolalar bilan ishlashning turli metod va usullarini baholash, ishdagi nuqson va kamchiliklarning sabablarini aniqlash va tarbiya jarayonini yaxshilashning konkret tadbirlarini belgilash imkonini beradi.

4. Boshqa MTTlarning (respublika, viloyat, tuman hududidagi) pedagogik o'qishlardagi ilg'or ish tajribalari tahlil qilinadi, mazur muassasadagi ish sharoitlarini hisobga olib, ularni amalga tatbiq etish yo'llari belgilanadi.

5. Mustaqil o'qishlar bo'yicha hisobotlar tinglanadi. SHuningdek, tarbiyachilar malaka oshirish kurslarida, metodik birlashmalar yig'ilishlarida qanday yangi va qiziqarli narsalarni bilib olganliklarini, bu ularga bolalar bilan bo'layotgan amaliy ishlarni takomillashtirishga qanday yordam berayotganligini gapirib beradilar.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan "Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi to'g'risida"gi Nizomi qabul qilingan. Nizom quyidagi bo'limlardan iborat:

- I. Umumiy qoidalar.
- II. Pedagogik kengashning asosiy vazifalari.
- III. Pedagogik kengashning ish mazmuni.
- IV. Hujjatlashtirish va hisobot.

Umumiy qoidalarda MTTlarida kollegial organ hisoblangan pedagogik Kengashlar tashkil etilib, u pedagogik xodimlar, ota-onalar, homiylarni birlashtirib, maktabgacha ta'lim Davlat talablari asosida muvofiqlashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi;

pedagogik Kengash MTTdagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosy masalalarni hal etuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan organ hisoblanishi;

pedagogik Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi", maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-me'yoriy hujjatlar, muassasa Ustavi va mazkur Nizom asosida olib borishi qayd etilgan.

MTTda pedagogik kengashning asosiy vazifalari Nizomda belgilab berilgan bo'lib, unda:

- tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ta'minlashda pedagogik jamoaning birlashuvini kuchaytirish, Davlat talablarining bajarilishini ta'minlash, tarbiyalanuvchilarga bilim berish sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;

- ta'lim jarayoniga bilim berishning ilg'or shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni va texnik-axborot qo'llanmalarni joriy qilish;

- tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy hislarni singdirish, bola shaxsini shakllantirish, uning Vatanga bo'lgan muhabbatini o'stirish;

- uzluksiz ravishda pedagogik kadrlarning nufuzini, mas'uliyatini va kasbiy mahoratini, ilmiy-metodik salohiyatini oshirish va ularning tashabbuskorligini rivojlantirish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish;

- bolalarni samarali ta'lim-tarbiya olishida psixologik-pedagogik yordamni ko'rsatish bo'yicha masalalarni ko'rib chiqish kabilar asosiy vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Pedagogik kengashning ish mazuniga doir masalalar bo'limida:

- Pedagogik kengash tarkibiga muassasa mudirasi, metodisti, pedagoglar, muassasa shifokori va tibbiy hamshira, kasaba uyushma raisi, ota-onalar qo'mitasi raisi, vasiylik kengashi raisi, mahalla fuqarolar yig'ini a'zolari kirishi mumkinligi;

- Pedagogik Kengashning raisi muassasa rahbari hisoblanishi;

- Pedagogik Kengash o'z tarkibidan bir o'quv yili muddatiga kotibani saylashi;

- Pedagogik Kengashda muassasaning ish rejasi, tarbiyachilarning metod birlashmalardagi ishlari, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha tekshiruv xulosalari, xodimlarning hisobotlari, tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirishi, muassasaning sanitar-gigienik ahvoli va tarbiyalanuvchilarning sog'lig'i va muassasa faoliyatining boshqa masalalari ko'rib chiqilishi;

- Pedagogik Kengashda muassasada qo'shimcha ta'lim xizmatlarini joriy etish, ko'rik-tanlovlar tashkil etish, ota-onalar, mahalla,

maktab bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qilishi;

- Pedagogik Kengash xalq ta'limi bo'limi tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida faoliyatini tashkil etadi.

- Pedagogik Kengash yig'ilishi ikki oyda bir marta (o'quv yili davomida 6 marta) o'tkaziladi. Zarur bo'lgan holatlarda, navbatdan tashqari kengashlar o'tkazilishi mumkin.

- Pedagogik Kengash qarori ishtirokchilarining uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, pedagogik kengash raisining qarori hal qiluvchi hisoblanadi.

- Pedagogik Kengashning qarori va tavsiyalarini nazorat qilish muassasa rahbari zimmasiga yuklatiladi.

- Pedagogik Kengash a'zolari yig'ilishda muassasa ishini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

- Pedagogik Kengash qarorlarini bajarish uning barcha a'zolari uchun majburiydir. Kengashning kun tartibi va o'tkazish vaqti xodimlarga ikki hafta avval ma'lum qilinadi.

"Hujjatlashtirish va hisobot" deb atalgan bo'limda, unda pedagogik kengash qaroridan norozi bo'lgan kengash a'zosi ushbu qarorni tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi muhokamasiga qo'yishi mumkinligi; pedagogik Kengashning moddiy-texnika ta'minotini muassasa rahbari ta'minlashi; muassasaning pedagogik tarkibi 3 nafardan kam bo'lgan taqdirda, Pedagogik Kengash tashkil etilmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, pedagogik Kengashni rasmiylashtirish uchun bayonnomalar kitobi yuritiladi, uni kotiba va rais imzolaydi. Bayonnomalar kitobi davlat MTTlari uchun tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan, nodavlat ta'lim muassasalari uchun ta'sischi tomonidan tikilgan, raqamlangan va muhrlangan bo'lishi shart. Bayonnoma har o'quv yili boshida yangidan raqamlanadi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- Pedagogik Kengash MTT faoliyatini rivojlantirish yo'nalishining istiqbol rejasini belgilaydi;

- MTTning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarish yo'llarini belgilab beradi va ijrosini ta'minlaydi;

- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda turli shakl va metodlarni ishlab chiqadi;

- o'z vakolati doirasida ishlab chiqilgan hujjatlarni muhokama qiladi va tegishli qaror qabul qiladi;

- pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi amalga oshiradigan vazifalari yuzasidan ishlab chiqilgan istiqbol ish rejalarini tasdiqlaydi va ularning ijrosi ta'minlanishini nazorat qiladi;

- MTT nizomiga muvofiq, pedagog xodimlarni rag'batlantirish va
- jazolash bo'yicha masalalarni hal qiladi.

Pedagogik kengash – jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarini kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ hisoblanadi.

MTT mudiri pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar:

- bolalar bilan olib boriladigan ishlar samaradorligini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash;

- muassasa amaliyotiga pedagogika fanining yutuqlar va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish;

- tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish masalalarini kiritadi.

2. Pedagogik kengash tashkil etish tamoyillari.

Pedagogika kengashi faoliyatini tashkil etish va uning ish mazmuni - Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari kengashning raisi hisoblanadi va uning faoliyatini boshqaradi. Pedagogika kengashi kotibi jamoa tomonidan bir yil muddatga saylanadi

- kengash yigilishlari o'quv yili avvalidan boshlanib, har choraqia bir marta o'tkaziladi. Zarurat bo'lgan hollarda navbatdan tashqari Pedagogika kengashi o'tkazilishi mumkin;

- kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashib, ulardan ko'pchiligi yoqiab ovoz bersa, qaror qabul qilingan hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lgan taqiirda, kengash raisining qarori hal qinuvchi hisoblanadi;

- navbatdan tashqari chaqrilgan yigilishda esa kengash a'zolarining kamida uchdan bir qismi ishtirok etishi kerak.

- kengash yigilishida muhokama etilayotgan masalalar yo'zasidan qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabulqilinadi;

- kengash tarkibiga muassasa shifokori, xhamshira, kasaba uyushma raisi, ota-onalar (vasiylik kengashi) kumitasi raisi, mahalla fuqarolar yigini a'zolari kirishi mumkin;

- kengashni o'tkazish vaqti, joyi va kun tartibi muassasada bir oy oldin e'lon qilinadi;

- kengashda muxokama etiladigan masalalar bo'yicha materiallar doimiy yoki vaqtinchalik tashkil qilingan gurudlar yoki muassasa ma'muriyati tayinlagan pedagoglar tomonidan tayyorlanadi;

- kengashda muassasaning ish rejasi, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha o'rganish xulosalari, xodimlarning hisobotlari, tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirishi, muassasaning sanitar-gigienik ahvoli va bolalarning sogligi va muassasa faoliyatiga doyr boshqa masalalar ko'rib chiqiladi;

- kengash pedagoglarning ilgor ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish, yosh pedagoglarga yordam uyushtirish ishlarini amalga oshirish yo'llarini belgilaydi;

- kengashda mashg'ulot ishlanmalari, tarbiya jarayonining shakl va metodlarini amalga oshirish yo'llari muxokama qinadi, ta'lim-tarbiyaning ilgor usullarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish, oliy ta'lim institutlari, jamoat va nodavlat tashkilotlari, maktab, mahalla bilan hamkorlik qilish yo'nalishlari belgilanadi;

- kengash ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, zarur shart-sharoitlar yaratishga oid yakuniy xulosa chiqaradi va tegishli qaror qabul qiyadi. Malaka oshirish kursidan qaytgan pedagoglarning xhisobotlarini tinglaydi;

- kengashda kun tartibidagi masalalarni ko'rishdan oldin avvalgi kengashda qabul qilingan qarorlarning ijrosi xaqidagi masala eshitiladi va ijrosi ta'minlangan har bir masala yo'zasidan qabul qiyadigan qarorlar nazoratdan olinadi;

- kengash kun tartibida muxokama etilayotgan har bir masala aniq ifodalangan bulishi, masalalar o'quv yilining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan xolda kiritilishi lozim. Kengashda qiladigan masalalar soni uchtadan oshmasligi zarur;

- kengashda qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat etish muassasa raxbari zimmasiga yuklatiladi.

Pedagogika kengashi xulosalari — Pedagogika kengashi maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishining

istiqbol

rejasini belgilaydi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotining o'z oldiga qSHgan maqsad va vazifalarni bajarish yo'llarini belgilab beradi va ijrosini ta'minlaydi;

- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda turli shakl va metodlarni ishlab chiqadi;

- o'z vakolati doirasida ishlab chiqipgan hujjatlarni muxokama qipadi va tegishli qarorlar qabul qipadi;

- pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi amalga oshiradigan vazifalari yo'zasidan ishlab chiqilgan istiqbol ish rejalarini tasdiqlaydi va ularning ijrosi ta'minlanishini nazorat qiladi;

- maktabgacha ta'lim muassasasi nizomiga muvofiq, pedagog xodimlarni ragbatlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal qiladi. Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi mavzular doirasining keng bo'lishiga e'tibor qaratishi, dolzarb mavzularni ta'minlay olishi zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ishchanlik muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi samarali kechadi.

Pedagogik kengash tarkibiga: tarbiyachi-metodist, tarbiyachilar, musiqa rahbari. MTTga xizmat ko'rsatuvchi vrach, katta hamshira, kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi, ota-onalar qo'mitasining raisi kiradi.

Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktab o'qituvchilari, MTT tarbiyalanuvchilarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

3. Bolalar nutqini o'stirish bo'yicha o'tkazilgan markazlar faoliyatlarini pedagogik kengashda o'tkazish

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari uchinchi katta sohasi "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» deb nomlangan bo'lib, quyidagi kichik sohalarni o'z ichiga oladi:

1. Nutq va til.

2. O'qish malakalari.

3. Qo'l barmoqlari mayda motorikasi Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishda rivojlantirish markazlaridan foydalanish masalasi asosiy masalalarning biriga aylandi. Bu esa barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida O'zbekiston

Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini amalda qo'llash bilan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi Davlat talablarining "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi mazmuni asosidagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari" asosida amalga oshiradi. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida berilgan yillik mavzuviy reja asosida oy mavzulari va hafta mavzulariga asoslanib, faollik markazlarida va kun davomidagi turli faoliyatlarda olib boriladi.

Hafta mavzulari bo'yicha quyidagi rivojlantirish markazlari ishi tashkil etiladi:

1. "Til va nutq" rivojlanish markazi.
2. "Qurish, konstruksiyalash va matematika" rivojlanish markazi
3. "San'at" rivojlanish markazi
4. "Fan va tabiat" rivojlanish markazi
5. "Syujetli - rolli o'yinlar va sahnalashtirish" rivojlanish markazi

"Til va nutq" rivojlanish markazida nutq o'stirish bo'yicha haftalik mavzular yuzasidan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar tashkil etiladi. Bunda tarbiyachi tomonidan avvaldan hafta mavzusiga mos bo'lgan rasmlar, o'yinlar, ko'rgazma va tarqatma materiallar tayyorlanadi.

Markazlarda ishlash uchun tarbiyachidan yangilikka intilish, o'z ustida ko'proq ishlash va bolalarning hohish istaklarini inobatga olish talab etiladi. SHuningdek, tarbiyachi boshqa markaz faoliyatlarida ham, kun tarkibining boshqa qismlarida ham bolalarning o'z fikrlarini izchil bayon qilish va xulosalar chiqarish, atrof-olam haqidagi o'z kuzatishlarini bayon qilishlarida ham bolalarning nutqlariga e'tibor beradi va uni rivojlantirishga harakat qiladi.

Markazda ishlash jarayonida bolalarda nutq, kattalar, tengdoshlari bilan, o'yinchoq va texnik vositalar bilan muloqot rivojlanadi. Ya'ni televizor orqali ko'rsatilayotgan roliklardagi savollarga javob beradi, do'sti bilan suhbat quradi, o'z fikrini o'tkazish orqali bolalarcha tortishuvlar kechadi. Hissiyot rivojlanadi. Bolaning fikrini qo'llovchilar bo'lsa, uning kayfiyati ko'tariladi. Kayfiyati tushgan bolaga nisbatan o'zaro yordam, uni ko'nglini ko'tarish jarayonlari ketadi. Bu holatlarni chetdan

kuzatayotgan inson ular bir –birlari bilan muloqot orqali nutqlari rivojlanayotganligi tushunadilar. “Til va nutq” rivojlanish markazida (kitoblarga mehr berish va eshitish hamda yozish uchun o‘quv qurollari mavjud bo‘ladi. Bu tinch burchak bo‘lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga rasmlar asosida o‘qib berishlari mumkin. SHuningdek, bu markazda harfli kubiklar (suratli alfavit; kirill, lotin), magnit doska, ko‘rgazmali va tarqatma qurollar (turli mavzudagi), uyro‘zg‘or buyumlarning to‘plami (kiyim, idish-tovoq, mebel, o‘yinchoqlar) . Ijodiy xikoya tuzish uchun plakatlar: “Mening shahrim”, “Bizning oila”, “Kuz”, “Yo‘l harakati qoidalari”, “Qish”, “Qishgi o‘yinlar”, “Uyimizga qorbobo keldi!”, “Guruhimizdagi jonli bu‘rchak”, “Men qushlarni ovqatlantirdim”, “Men qish bayramini qanday o‘tkazdim?”, “Bahor keldi”, “Onamlarning bayrami”, “Navro‘z bayramini qanday o‘tkazdim?”, “Koinot”, “Yoz fasli”, “Metroda”, “TSirkda”, “Dam olish kuni”, “Gulzordagi gullarni qanday parvarish qildik?”, “Yoqtirgan o‘yinchog‘im”, “Yoqtirgan o‘yinlarim”, “Eng yaqin o‘rtog‘im”, “Dadamlarga yordam berdim”, “Zo‘r mul‘tfilm ko‘rdim”, “Qo‘g‘irchoq teatriga bordik”, “Men onamga yordamchi”, “Men dadamga yordamchi”, kattalar mehnati, bayramlar, buyuk siymolar, qadimgi shaharlar: Samarqand, Buxoro, SHahrisabz, Xiva, O‘zbekiston hududidagi tarixiy obidalar, qadimiy yodgorliklar, zamonaviy inshootlarga taaluqli mazmunli plakatlar va shu bilan birga guruhdagi kichik kutubxona qoshidagi bolalar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar tartib bilan joylashtiriladi: O‘zbek bolalar adabiyoti; Jahon bolalar adabiyoti; Badiiy adabiyot; Mul‘tmediya jihozlari (televizor, kompyuter va noutbuk, ekran, proektor) bilgan holda o‘z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari soxasida kuydagi jixozlar bo‘lishi kerak.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Pedagogik Kengash tarkibi qanday belgilanadi?
2. Pedagogik Kengashning maqsad va vazifalarini izohlang.
3. “Maktabgacha ta‘lim tashkilotining pedagogik kengashi to‘g‘risida”gi Nizom va uning bo‘limlari mazmuni nimalardan iborat?
4. MTTda pedagogik Kengash qanday huquqlarga ega?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova N., A'zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: "Tafakkur". 2019 y. (153-180-betlar).
2. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. -T.: "Ma'naviyat", 2013 y. – 160 b.
3. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv-metodik qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya", 2008 y. -160 b.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: -"Fan va texnologiya", 2012 y. -268 b.
5. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. – T.,2019

Bolalar lug'atidagi mahalliy shevaga oid so'zlarni adabiy so'zlar bilan almashtirish – O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan nutqimizda ishlatiladigan so'zlarga e'tiboryanada kuchayadi. Mahalliy shevaga oid so'zlarning ko'p ishlatilishi kelgusida maktabda bolalar savodxonligini oshirishiga xalal beradi. Bola lug'atning shevaga oid so'zlar hisobiga boyib borishida oilada ota-onalarning, atrofdagi kishilarning, bolalar bog'chasida esa tarbiyachining, bog'cha xodimlarining ta'siri katta. Chunki bolalar atrofdagilardan eshitgan har qanday so'zlarni o'zlashtirib borishadi, natijada bu so'zlar bola lug'atining mahsuliga aylanadi.

Bolalar lug'atini faollashtirish – tarbiyachi bolalarning lug'atini boyittiribgina qolmasdan, balki lug'atdagi so'zlardan o'rinli foydalanishga ham o'rgatib borishi, nutq orqali bayon etiladigan fikrlarini aniqroq ifoda olish ko'nikmasini hosil qildiradi olishi kerak. Bolalar lug'atini faollashtirish – bu bolalar tomonidan ma'nosini qniq tushungan holda foydalaniladigan so'zlar miqdorining ortib borishidir. Bolalarning kattalar bilan nutqiy muloqti ular lug'atini faollashtirishda qimmatli vosita bo'lib hisoblanadi.

Bolalar lug'atini faollashtirish. Tarbiyachi bolalarning lug'atini boyittiribgina qolmasdan, balki lug'atdagi so'zlardan o'rinli foydalanishga ham o'rgatib borishi, nutq orqali bayon etiladigan fikrlarini aniqroq ifoda olish ko'nikmasini hosil qildiradi olishi kerak. Bolalar lug'atini faollashtirish – bu bolalar tomonidan ma'nosini qniq tushungan holda foydalaniladigan so'zlar miqdorining ortib borishidir. Bolalarning kattalar bilan nutqiy muloqti ular lug'atini faollashtirishda qimmatli vosita bo'lib hisoblanadi.

Bolalarning har xil faoliyat turlarida lug'at ishi - bolalarni tevarak-atrof va ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirish, ularning lug'atini kengaytirish ta'lim jarayonidagina amalgam oshirilmay, balki bolalarning boshqa faoliyati turlarida ham amalgam oshiriladi. Bolalarning lug'atini boyitish va faollashtirishga maishiy faoliyatning (ovqatlanish, kiyinish hokazolar)imkoniyatlari ko'p.

Bolalarning lug'atini aniqlash va mustahkamlash - bolalar lug'atidagi so'zlarni mustahkamlashga tarbiyachi alohida e'tibor berishi zarur. Bu vazifa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh individual xususiyatlarni hisobga olgan holda amalgam oshiriladi. Bog'cha

yoshidagi bola lug'atida so'zlarning mustahkam o'rnashishi uchun uni ko'p marta takrorlash zarur. Bola xotirasida qiyinlik bilan mustahkamlanadigan murakkab so'zlarga quyidagilar kiradi: 1) umulashtiruvchi so'zlar: uy hayvonlari (ot, sigir, qo'y, echki, eshak); mebel (stul, stol, divan, xontaxta, javon); oyoq kiyimlar (tufli, patinka, shippak, kavush, kalish), idish-tovoqlar (likopcha, kosa va hokazolar; 2) mavhum so'zlar (jimjitlik, sarg'ish, tozalik, go'zallik); 3) sifatlarni bildiruvchi so'zlar (g'adir-budur, tip-tiniq, nordon, shaxarlik, temirdek) va hokazolar.

Bolalarning lug'atini boyitish - bolalar lug'atini boyitish deganda, biz, ularni mustaqil o'zlashtirishlari uchun qiyin bo'lgan yangi so'zlar bilan muntazam tanishtirib borishni tushunamiz. Bolalar lug'atini boyitish ishi uch yo'nalishda olib borilishi mumkin: 1. Sekin-astalik bilan miqdori ortib boradigan buyumlar va hodisalar bilan tanishtirib boorish. 2. Tevarakatofimizni o'rab turgan peredmetlar va hodisalarning nomini, sifatini, xususiyatlarini, ulaning o'zaro munosabatlarini bildiruvchi so'zlarni kiritish. 3. Peredmetlarning belgilariga qarab farqlash va umulashtirish asosida boshlang'ich tushunchalarni bildiruvchi so'zlarni kiritish. Lug'atni boyitish ishining uch yonalishi bo'yicha olib boriladigan ish hamma guruhlar uchun taaluqli bo'lib, farq mazmun jihatdan farq qiladi. Bola lug'atiga muomaladan chiqarilgan mahalliy shevaga oid so'zlarni kiritish yaramaydi.

Davlat va jamiyat- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Didaktik tizim - (yunoncha «systema» - yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) - ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini bejgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin - o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Didaktika - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "o'rgatuvchi", "ta'lim beruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Pedagogikaning tarmog'i hisoblanib, ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi.

Diksiya - sof, aniq, ravshan nutqni, tovush talaffuzidir. Yaxshi diksiyani hosil qilish uchun artikulyatsiya apparati a'zolarining harakatlarini (takomillashtirish va mustahkamlash kerak (lablarni sust

hara- katlanishini, tilning kam harakatchanligini va hokazolarni bartaraf etish), to'g'ri nafas olish va chiqarishga ahamiyat berish lozim. Buning uchun pastki jag', til, lablar harakatini rivojlantiruvchi maxsus mashqlarni bajarish kcrak, "tarbiyachi bu mashqlarnii oyna oldida o'tirib bajaradi.

Diksiya – tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etish.

Diksiya-tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etish.

Dunyovarash - shaxsning tafakkur tarzi va yo'nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e'tiqod hamda fikr-o'ylar tizimi.

E'tiqod - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan subyektiv faoliyati.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Ekologik madaniyat - bolaning ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik ta'lim - bolaga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik tarbiya - bolalarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Estetik tarbiya - bolalarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Faol tinglash – diqqatni jamlashni, tushunishni, eslab qolishni, baholashni va javob berishni o'z ichiga oladi. Faol tinglash usulidan foydalanish samaraliroq ekanligi takror-takror aytilmoqda. Faol tinglash

usulidan tarbiyachining foydalanishi uning pedagog sifatidagi mavqeyini oshiradi. Sababi u vaziyatni, mashg'ulotdagi suhbatning mazmunini va muloqotdagi bolajonlarning hissiy holatini hisobga oladi. Xuddi shunday bolalarning ham faol tinglash usulidan foydalanishi uning kelajakda har qanday kasbni egallashida va qolaversa umuman hayoti davomida uni shaxs sifatidagi fazilatlarini yaxshilaydi. Eshitish- eshitish va ko'rish stimullarini yo'naltirilgan qabul qilish va ularga ma'no berish jarayoni.

Faoliyat - 1) ongli maqsadga ko'ra boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitni kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fikr - Biror narsa, hodisa yoki kimsa haqida o'y, xayol.

Fikrlash - bu haqiqatni aks ettirishning aqliy jarayoni, inson ijodining eng yuqori shakli. Fikrlash esa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Zanjir kabi bog'liqlikni tashkil qilgan bu davomiylikning keyingi bosqichi esa fikrlashni nutqqa ko'chirishni taqazo etadi. Endi fikrlagan odam uni nutqqa ko'chirish uchun muloqotga kirishishi kerak bo'ladi. Taassufki, muloqotga kirishish ham osonlik bilan sodir bo'lmaydi. Ko'rib chiqqanimizdek, avvalo tinglashni, tinglagan ma'lumotni ongda muhokama qilib fikrlashni, paydo bo'lgan fikrni yetkazib berish uchun esa muloqotga kirishishini maktabgacha bo'lgan vaqtdan boshlashimiz kerak.

Idrok - aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto - moslashish) - anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv - ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Individ (lotincha «individium» bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) - xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiy tarbiya - bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilalarning budjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud

moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Izohlash - tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Jamoa - (louncha «kollektivus» so'zining tajjmasi bo'lib, yig'ilma, ommah, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari - jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jismoniy tarbiya - bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha. Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ko'nikma - olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Ko'rgazmali metodlar —predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Korreksiya (yunoncha «correctio» - tuzatish) - pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizim yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - bolalarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ulaming ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mahorat - shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Maktabgacha ta'lim - bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ulami intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Malaka-ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Maqol - xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur ma'noli gaplar.

Maqsad - faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Maqtov - foydali ish qilgan shaxsni, jamoani og'zaki taqdirlash.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari - o'quv materialning mohiyatini ozg'aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'mzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) - ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur ang-latish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali

harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Metod - yunoncha tarjimai «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'no'larni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) - xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Monologik va dialogik nutq- dialogik va monologik nutqlar insonning muloqot shakllari hisoblanadi. Inson nutqi ko'rinishlari sifatida dialogic nutq ham, monologik nutq ham nutqning shakllanishidagi umumiy qoidalarga hamda insonlar o'rtasida amalda bo'lgan muomala etikasi va tamoyillariga bo'ysunadi. Ayni paytda, ularning har biri shakllanishdagi til xususiyati va tildan tashqarida bo'lgan omillarga munosabati bilan bir-biridan farqlanadi. Ikki kishi o'rtasidagi har qanday suhbatni diolog sifatida e'tirof etish mumkin. Ammo bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari ana shu ikki kishi o'rtasida yuzaga kelgan suhbat jarayonida ochiladi. Shunday ekan, yuqorida ta'kidlaganidek, bu yerda ham suhbatning maqsad mavzusi, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati, yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, jamiyatida egallagan o'rni va mavqei dialogik nutqning mazmunini belgilaydi.

Muammoli vaziyat - hayotdagi yoki o'quv jarayonidagi vaziyat bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muloqot - yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, so'zlashuv, shaxslararo suhbat va fikr olishuv, og'zaki nutq shakli ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'zlashuvi degan ma'noni anglatadi. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi aynan muloqot vaqtida amalga oshiriladi. O'z-o'zini anglash ongli ravishda o'zi haqidagi g'oyalar tizimini tushunishdir. O'z-o'zini anglash insonning o'zini hayotidan ajrata olish qobiliyatiga asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolada uning o'zi haqidagi g'oyalarining mazmuni uning xususiyatlari, fazilatlarini, qobiliyatlari aksini o'z ichiga oladi.

Munozara - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nutq madaniyati - ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning

har ikki shakli – yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. . Nutq madaniyatiga e‘tibor yolg‘iz o‘qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlaridan biridir. Uni egallash har bir o‘qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma‘naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimni tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me‘yordir.

Nutq-nutq o‘ziga xos faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy o‘rinni egallaydi. Tilni turli nuqtai-nazardan tavsiflovchi mazkur yondashuvlarni taqqoslash orqali nutqning ilmiy o‘rganish ob‘yektini sifatidagi umumiy xususiyatlarini ajratish mumkin. N u t q - bu tilni ishga solish jarayonidir (I.A.Zimnyaya, V.M.Solnsev). Sub'yektning nutqiy faoliyati ichki vosita va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o‘z ichiga oladi. N u t q - bu psixik hodisa, kishilarning shaxslararo o‘zaro muayyan hamkorligi sharoitida rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxs mulkidir. U tildan farqli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hodisasidir.

O‘zlashtirish - tushunish, o‘rganish orqali axborotning ma‘no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil bo‘lishi.

Odat - kishining ma‘lum e‘tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy me‘yorlardan kelib chiqib, amalga oshiradigan ongli faoliyati.

Pedagogik faoliyat - ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari - shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarni aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik jarayon - ta‘lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o‘zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo‘lib, u pedagogik jarayonning yo‘nalishini ko‘rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S.Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini ta'minlovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik mahorat - ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida bola tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik texnologiya - «ishlab chiqarish» natijasi «mahsuloti» - ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash uchun ilmiy asoslangan didaktik jarayonni amalga oshirish. ya'ni o'qitish jarayonini qo'yilgan maqsadga ko'ra izchil ketma-ketlikda turli vosita, metodlarni qo'llash orqali samarali ta'lim natijasiga erishishning ishonchligini ta'minlovchi, kafolatlovchi pedagogik faoliyat.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Qo'g'irchoq teatri - bu syujetli «rejissyorlik» o'yinning har xil turlaridir: bolalar bir vaqning o'zida oddiy o'yinchoqlar (o'yinchoqlar teatri), petrushkalar (qo'l barmoqqaariga kiyiladigan qo'g'irchoqlar, suratlar qirqimlari va h.k.)ni asar qahramonlari rolini o'ynashga majbur qilganliklari holda badiiy asar matnini rollar bo'yicha so'zlaydilar. Qo'g'irchoq teatri shakli quyidagilardir: o'yinchoqlar teatri, petrushkalar teatri, «barmoqlar» teatri, soya teatri, stol teatri, flanelegraf. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlari sahna lashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar; teatr-kitoblar; panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Ravon nutq-bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar

ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichkiindividual va umuminsoniy.

Rejalashtirish – maktabgacha ta'lim muassasasida olib boriladigan ta'lim – tarbiyaviy ishlarning asosi hisoblanadi. Bu ishni boshlashdan oldin aniq vazifa va maqsadni aniqlab olish kerak. Rejada bolalarning kundalik ishlaridan tashqari aniq ishlar: ko'ngilochar o'yinlar, kontsertlar, harakatli o'yinlar, aqliy faoliyat, ko'nikma hamda malakalarni egallashning aniq dasturi belgilanadi. Dastur talablariga ko'ra barcha ta'lim – tarbiyaviy ishlar bolalarning asosiy faoliyati turlari: hayoti, o'yini va mehnati mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsiy fazilat - shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ish- chanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'mini anglay olish xususiyati.

So'z - tilning narsahodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim strukturma'noviy birligi; o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, borlikdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutkda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Syujetli (bayoniy) hikoya - voqealarni biron-bir qahramon bilan birgalikda vaqg bo'yicha ketma-ketlikda aytishdir. Bolalarga uni odatdagi tuzilma asosida tuzishni o'rgatish zarur - dastlab qahramonning nomi aytiladi, ba'zan uning tashqi ko'rinishi tavsiflanadi, birinchi voqea bayon qilinadi, u qachon va qaerda yuz berganligi tushuntiriladi, so'ngra ikki-uch lavha keltiriladi va hikoya yakunlanadi.

Ta'lim - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy, qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim; 3) o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon. **Ta'lim** - bolalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim jarayoni - tarbiyachi va bolalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya. Ta'lim berishdan (olishdan) ko'zlangan muddao.

Ta'lim mazmuni - 1. o'qitish jarayonida egallash lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar ma'nosi, hajmi va xarakteri. 2. shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim mazmuni - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim metodlari - ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) - ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'lim shakli - ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Ta'lim tizimi - yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya tashkilotlari majmui.

Ta'lim va tarbiya mazmuni - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioprojektor, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokozolar) omillar.

Tafakkur - ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tamoyil (yunoncha «principium») - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya - 1. Bolani boqib, ta'lim berib katta qilish, voyaga yetkazish uchun qilinadigan mehnat va g'amxo'rlik. 2. Ish-hunar, odob-axloq o'rgatishga va umuman kishining g'oyaviy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi. 3. Parvarish, qarov: tarbiyalab katta qilmoq, voyaga yetkazmoq, o'stirmoq, ulg'aytirmoq; ilm-hunar bermoq, odob-axloq o'rgatmoq, tarbiyalab biror xislat-fazilatni singdirmoq; parvarish qilmoq.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» - yo'l) - tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tashxis - didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Tinglash - Eshitish bilan tinglash farqlanadi. Shunchaki eshitgan odam hech narsani tushunmasligi mumkin. Lekin tinglagan odam, albatta nimanidir bo'lsa-da tushunadi. Tushunish esa insonlarni his-tuyg'ularini ham his qila bilishdir. Insonlarni eshitish, ularni his-tuyg'ularini his qila bilish, sukut saqlab tinglash bizningcha, faol tinglash tushunchasi yuzaga keltiradi.

To'la ratsionalizm - odam faoliyat yuritishi uchun atroflicha axborotga ega va undan o'z faoliyatida foydalanib, maksimum darajada natijaga erishadi, deb qaraladigan yo'nalish.

Topshiriq - bolalarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuncha - atrof-muhitdagi hodisalar, predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.

Tushuntirish - o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

Umumiy pedagogika - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Uzluksiz ta'lim - malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

MAVZULAR YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Suhbat uchun asos nima?

- A) Savol- javob
- B) So'zlashuv
- C) Savol-javobni umumlashtirish
- D) So'z boyligini oshirish

2. Hikoyaning mazmuniga ko'ra turlari to'g'ri berilgan javobni toping?

- A) Faktik va ijodiy hikoya
- B) Xabar berish, monolog aytish
- C) Hikoya qilish, qayta hikoya qilish
- D) Ertaklar va hikoya

3. Hikoyaning shakliga ko'ra turlari berilgan javobni aniqlang?

- A) Tasviriy va mazmunli
- B) Aytib berish, so'zlab berish
- C) Tasvirlash, tushuntirish
- D) Savol berish, qayta hikoya qilish

4. Tasviriy hikoya turlari berilgan javobni aniqlang?

- A) O'yinchoq, narsa, buyum, rasm, voqea-hodisani tasvirlash
- B) So'z, gapni aytish va tasvirlash
- C) Hikoyani aytib berish, tasvirlash
- D) Qayta hikoya qilish va tasvirlash

5. Mazmunli hikoya turlari berilgan javobni toping?

- A) Narsa, buyum, o'yinchoq, rasm, kuzatishlari asosida
- B) Ertak asosida
- C) She'r asosida
- D) Multifilm asosida

6. Bog'lanishli nutq va uning turlari berilgan javobni aniqlang?

- A) Dialogik, monologik nutq
- B) Og'zaki suzlash
- C) Garmatikani o'rganish
- D) Suxbat

7. Suhbat turlari berilgan javobni aniqlang?

- A) Kirish suhbat, asosiy suhbat, yakuniy suhbat
- B) o'yinchoq haqida suhbat

C) meva-sabzavot xaqida suhbat

D) Suhbat, savol-javob

8. Nutq o'stirish metodlari berilgan javobni aniqlang?

A) Og'zaki, ko'rsatmalili, amaliy

B) Kuzatish, o'yin, noana'viy

C) Suhbat, ertak, hikoya

D) Doilogik, monolagik, so'zlashuv

9. Og'zaki metod turlari berilgan javobni aniqlang?

A) O'qib berish, hikoya qilish, yod aytish, suhbat

B) Yozma, yod olish, o'yin, o'qib berish

C) Rasm, o'yinchoq, ko'rsatmali amaliy, suhbat

D) Suhbat, o'yin, yod aytish, amaliy

7. Ko'rsatmalilik metodi turlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

A) Narsa, buyum o'yinchoq, rasm, illyustratsiya; diafil'm, mul'fil'm, kinofil'm

B) Meva, sabzavot, gullar, illyustratsiya; diafil'm, mul'fil'm, kinofil'm

C) Kitob, daftar, ruchka, diafil'm, mul'fil'm, kinofil'm

D) Suxbat, sayr, ekskursiya, daftar, ruchka, diafil'm, mul'fil'm, kinofil'm

8. Amaliy metod turlari ko'rsatilgan javobni toping?

A) Kuzatish, amaliy tajriba, mehnat mashqi

B) Didaktik, xarakterli, rolli o'yinlar, saxnalashtirish

C) Amaliy tajriba, buyumni kuzatish, o'yin -mashk

D) Rolli o'yin, saxnalashtirish suhbat

9. Mashg'ulot va uning turlari to'g'ri berilgan javobni toping?

A) O'qib berish, hikoya qilib berish, yod aytish, suhbat, an'anaviy va noan'anaviy

B) Namuna berish, ekskursiya, o'yin sayr, suhbat, an'anaviy va noan'anaviy

C) Harakatli o'yin, rasm ko'rish, dedaktik o'yin ekskursiya, o'yin sayr, suhbat, an'anaviy

D) Aytib berish, sahnalashtirish mashg'uloti, suhbat, an'anaviy va noan'anaviy

10. Nutq o'stirish metodikasining vazifasi to'g'ri ifodalangan javobni toping?

A) So'z boyligini oshirish, grammatik nutqni shakllantirish, nutqning tovush tomonini tarbiyalash; Boglanishli nutqni o'stinish, bolalarni maktabga tayyorlash, badiiy adabiyot bilan tanishtirish

B) Tovush ustida ishlash, o'qib berish hikoya qilib berish, yod aytish. So'z boyligini oshirish, grammatik nutqni shakllantirish, nutqning tovush tomonini tarbiyalash;

C) Narsa, buyum rasmini ko'rsatish, o'yinchoq diafil'm, kinofil'mni ko'rsatish, Boglanishli nutqni o'stinish, bolalarni maktabga tayyorlash, badiiy adabiyot bilan tanishtirish

D) Monologik nutq, og'zaki nutqni, so'z boyligini, yozma nutqni o'stirish, Narsa, buyum rasmini ko'rsatish, o'yinchoq diafil'm, kinofil'mni ko'rsatish

11. So'z boyligini oshirish metodlarini aniqlang?

A) Kuzatish, qiyoslash, umumlashtirish metodlari; So'z o'yin, didaktik o'yin

B) Monologik nutq, og'zaki nutqni, so'z boyligini, yozma nutqni o'stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish

C) Narsa, buyum rasmini ko'rsatish, o'yinchoq diafil'm, kinofil'mni ko'rsatish

D) Suhbat, kuzatish amaliy, og'zaki metodlar

12. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish metodlarini aniqlang?

A) Tarbiyachining namunali nutqi, o'yin-mashq, didaktik o'yin

B) Ko'rsatmalilik, hikoya qilish, o'yin

C) O'qib berish, hikoya qilib berish, yod aytish

D) Tovush ustida ishlash, o'qib berish hikoya qilib berish, yod aytish

13. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash vazifalari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

A) To'g'ri talaffuz, nutq tezligi, ovoz kuchi

B) Nutq a'zolarini xarakat qildirish;

C) Ertaklarni so'zlab berish

D) Tez aytishlar, She'rlarni yod olish

14. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash metodlarini belgilang?

A) Nutq a'zolarini xarakat qildirish; Didaktik o'yin, o'yin-mashq, namuna berish

B) To'g'ri talaffuz, nutq tezligi, ovoz kuchi, o'yin-mashq, namuna berish

C) Nutqni eshitish, tinglash, ovoz kuchi, o'yin-mashq, namuna berish

D) Didaktik o'yin, o'yin-mashq, namuna berish

18. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan minimal talablar to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

A) Jismoniy, nutq va tafakkur, ma'naviy-madaniy

B) Nutq va tafakkur, maktabga tayyorlash, so'z boyligi

C) Ertak, hikoya tinglash, mazmunini tushunish, hikoya qilish

D) Maktabga tayyorlash, tajriba-sinov o'tkazish, dastur bilan ishlash

19. Bolalarni maktabga tayyorlashdagi so'z boyligining minimal me'yori berilgan javobni aniqlang?

A) 3000 ta

B) 5000 ta

C) 6000 ta

D) 2000 ta

20. Nutqning fiziologik asoslari berilgan javobni aniqlang?

A) Bosh miyadagi nutq markazlari, sezgilar

B) Ko'z, eshitish a'zolari va gap, so'z

C) So'zlashish, gaplashish, o'zaro suhbat

D) Tevarak-atrofdagilar nutqi

22. «Nutqni eshituvchining asosiy vazifasi nutqni tushunish, fikrlash va uni chuqur egallashdan iboratdir» iborasining muallifini aniqlang?

A) Farobiy

B) A.Fitrat

C) Cho'lpon

D) Gaspirinskiy

24. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida qanday vazifalarni bajaradi?

A) Ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi

B) O'qitish, nutq o'stirish, tarbiyalash

C) Metodlarni ishlab chiqish, qo'llash va xillash

D) Nimani o'rgatish, qancha o'rgatish, qanday o'rgatish

25. Nutq o'stirish metodikasi fani nimani o'rgatadi?

A) Bolalar og'zaki nutqini o'stirish, tevarak-atrof kishilar bilan nutqiy muloqotini shakllantirish, maktab ta'limiga tayyorlash

B) Bog'lanishli nutkni o'stirish metodlarini o'rgatadi, tevarak-atrof kishilar bilan nutqiy muloqotini shakllantirish, maktab ta'limiga tayyorlash

C) Grammatik qoidalarni o'rgatadi va og'zaki nutqini o'stirish, tevarak-atrof kishilar bilan nutqiy muloqotini shakllantirish, maktab ta'limiga tayyorlash

D) O'qib berish, yod olish va hikoya qilib berishga o'rgatadi, tevarak-atrof kishilar bilan nutqiy muloqotini shakllantirish, maktab ta'limiga tayyorlash

29. Nutq o'stirish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

A) Nazariy metod, manba bilan ishlash; Tajriba- sinov va amaliy metod

B) Ko'rsatmalilik, hikoya qilish, o'yin; manba bilan ishlash;

C) Tajriba- sinov va amaliy metod;

D) Hikoya qilish, o'yin; manba bilan ishlash;

32. Maktabgacha ta'limda bolalar yosh guruhlari necha bosqichdan iborat?

A) 5 ta

B) 4 ta

C) 3 ta

D) 2 ta

33. Ilk yosh guruhda bolalarni nutqqa o'rgatish bosqichining asosiy metodlarini aniqlang?

A) Ovutmachiq – o'yin

B) Ko'rsatish, o'yin

C) Tushuntirish, suhbat

D) Suhbat, didaktik o'yin

34. Kichik guruhda nutq o'stirish bo'yicha dastur mazmuni necha qismdan iborat?

A) So'z boyligini o'stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Nutqning tovush tomonini o'rgatish, nutqning grammatik tomonini o'rgatish, tevarak-atrof bilan tanishtirish

B) Badiiy adabiyot bilan tanishtirish, She'rni yod Oldirish,tevarak-atrof bilan tanishtirish

C) Lug'atni boyitish, nutqning tovush tomoni, nutqning grammatik tomonini o'rgatish Nutqning tovush tomonini o'rgatish,nutqning grammatik tomonini o'rgatish , tevarak -atrof bilan tanishtirish

D) Nutqning tovush tomoni, o'yin, tasviriy hikoya badiiy adabiyot bilan tanishtirish,She'rni yod

35. O'rta guruhda nutq o'stirish bo'yicha dastur talabi va mazmuni to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

A) Lug'atni boyitish, nutqning tovush tomoni, nutqning grammatik tomonini o'rgatish. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish,She'rni yod oldirish,tevarak-atrof bilan tanishtirish

B) Bolalar lug'atini boyitish, ijodiy hikoya qilish, She'rni yodlash. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish,She'rni yod oldirish,tevarak-atrof bilan tanishtirish

C) Suz boyligini o'stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Nutqning grammatik tomonini o'rgatish , tevarak -atrof bilan tanishtirish

D) Nutqning tovush tomonini o'rgatish,nutqning grammatik tomonini o'rgatish , tevarak -atrof bilan tanishtirish Lug'atni boyitish, nutqning tovush tomoni, nutqning grammatik tomonini o'rgatish.

36. Katta guruhda badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'limlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

A) O'qib berish, hikoya qilib berish, She'rni yod olish

B) Ko'rsatmalilik, hikoya qilish, o'yin

C) O'qib berish, hikoya qilib berish, yod aytish

D) Tovush ustida ishlash, o'qib berish

37. "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim – tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari" qachon qabul qilingan?

A) 2000 yil

B) 1997 yil

C) 1999 yil

D) 1998 yil

44. Buyuk sarkardalar Amir Temur, Mirzo Bobur, Jaloliddin Manguberdilar bilan qaysi guruhda tanishtiriladi?

A) Tayyorlov

B) Katta

- C) O'rta
- D) Kichik guruh

47. Badiiy asarni o'rgatish metodlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- A) O'qib berish, hikoya qilib berish, yoddan aytish
- B) Badiiy adabiyot bilan tanishtirish
- C) Qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish
- D) Yoddan aytish, tez aytish, rasmni ko'rsatish

48. Badiiy asarni mashg'ulotdan tashqari paytda o'rgatishga doir ishlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A) Qayta o'qish, hikoya qilish, kitob burchagidagi ishlar; Rasm illyustratsiyalarni qurish, suxbat
- B) O'qib berish, aytib berish, o'yin
- C) kitob burchagidagi ishlar
- D) Rasm illyustratsiyalarni qurish, suxbat

50. Badiiy asarni sahnalashtirish turlari to'g'ri berilgan javobni toping?

- A) Stol usti teatri, shirma teatri, barmoq teatri; soya teatri, qo'g'irchoq teatri, saxna teatri, o'yin dramalashtirish
- B) Hikoya qilib berish, adabiy ertalik
- C) Ro'lli o'yinlar, didaktik o'yinlar harakatli o'yinlar
- D) Raqslarni sahnalashtirish, qo'shiq kuylash, ro'lli o'yinlar, didaktik o'yinlar harakatli o'yinlar

51. Nutq o'stirish metodlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- A) Og'zaki metod, ko'rsatmalilik metodi, amaliy metod, o'yin
- B) o'qib berish, yozma
- C) Yozma, hikoya qilish, suhbat, o'yin
- D) Rasm ko'rsatish, aytib berish, yod olish

52. Og'zaki metod turlari berilgan javobni aniqlang?

- A) Suhbat, hikoya qilib berish yod aytish
- B) Yozma, o'qib berish
- C) Rasm o'yinchoq ko'rsatmali
- D) Tarjiba buyumni kuzatish

53. Amaliy metod turlari ko'rsatilgan javobni toping?

- A) Tajriba, buyumni kuzatish, o'yin
- B) Didaktik, harakatli, rolli o'yinlar,

- C) sahnalashtirish, tajriba, rasm, suhbat
- D) Yoddan aytish, tez aytish, rasmni ko'rsatish

53. Nutq o'stirish usullari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A) Nutqiy namuna, takrorlash, tushuntirish, o'yin- mashq
- B) Namuna berish, harakatli o'yin, rasm
- C) Takrorlash, aytib turish, kuzatish
- D) Tushuntirish, tajriba, rolli o'yin

54. Maktabgacha ta'limda badiiy asarni o'rgatish vazifalarini aniqlang?

- A) Badiiy asarning mazmunini, obraz xususiyati, nutkini tushunishga, uni suzlab berishga o'rgatish; She'rni yod olishga o'rgatish
- B) She'rni yod olishga o'rgatish, nutkini tushunishga, uni suzlab berishga o'rgatish; She'rni yod olishga o'rgatish
- C) Badiiy asarning mazmunini, obraz xususiyati, nutkini tushunishga, uni suzlab berishga o'rgatish
- D) Badiiy asarni o'qishni o'rgatish, nutkini tushunishga, uni suzlab berishga o'rgatish

55. Bolada ichki nutq qachon paydo bo'ladi?

- A) 3 yoshda
- B) 3 yoshda
- C) 4 yoshda
- D) 10 yoshda

56. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasi nechta yo'nalishdan iborat

- A) 3 ta
- B) 5 ta
- C) 8 ta
- D) 9 ta

57. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasida minimal so'z boyligi qancha bo'ladi?

- A) 3000 ta
- B) 2000 ta
- C) 2000 ta
- D) 5000 ta

58. Bolalarni erkin muomalaga o'rgatish qanday faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi?

A) O'yinjarayonida, maishiyfaoliyatda, sayrvaqtida, mehnat jarayonida, tevarak atrof bilan tanishtirish va boshqa mashqlarda

B) Kino, multifilm ko'rganda

C) Atrof muhit bilan muloqotda

D) Sayr, ekskursiyalarda

59. Bolalarni diologik nutqini tarkib toptirishda qanday maxsus mashg'ulotlardan foydalaniladi?

A) Suxbatlar, suratlarini ko'rib chiqish, ta'limiyo'yin

B) Yakka tartibda

C) Taq'lim berish jarayonida

D) Ertaliklarda

60. Diologik nutqni shakllantirish bu

A) Boshqalarni nutqini tinglash, tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savol berish

B) Kino, multifilm ko'rganda

C) Atrof muhit bilan muloqotda

D) Sayr, ekskursiyalarda

61. Intonatsiya bu

A) Hamma ma'nodorlik vositalarini o'z ichiga qamrab olgan murakab jarayon

B) Unli va undosh tovushlarni talaffuz qilish

C) Qo'shiq kuylash qamrab olgan murakab jarayon

D) Ovoz ritmi ma'nodorlik vositalarini o'z ichiga qamrab olgan murakab jarayon

62. Kichik guruhda nutq o'stirish bo'yicha dastur mazmuni necha qismdan iborat?

A) Lug'atni boyitish, nutqning tovush tomoni, ravonnutq, badiiy adabiyot

B) Nutqning tovush tomoni, ravonnutq, badiiy adabiyot, dastur

C) Lug'atni boyitish, nutqning tovush tomoni, ravonnutq, tovush

D) Tovush tomoni, ravonnutq, badiiy adabiyot, aniqlovchi

63. Kichik guruhlarda surat ustida ishlash mashg'uloti necha qismdan iborat?

A) 3 qismdan iborat

B) 10 qismdan iborat

C) 2 qismdan iborat

D) 5 qismdan iborat

64. Lug'atni boyitishishlari necha yo'nalishda olibboriladi?

A) 3 yo'nalishda

B) 15 yo'nalishda

C) 2 yo'nalishda

D) 6 yo'nalishda

65. Diologik nutqo'stirishning asosiy metodi bu?

A) Suxbat metodi

B) O'yin metodi

C) Amaliy metodi

D) Ko'rsatmali metodi

66. Ohang bu

A) Nutqning ritmik ohangdorligi, nutq talaffuzidagi ovozning yuqori, past o'rtacha bo'lishidir.?

B) Ovoz tempi

C) Diktsiya

D) Intonatsiya

67. Monologik nutqqaysiguruhdan boshlabo'rgatiladi?

A) O'rta guruhdan

B) Kichik guruhdan

C) Katta guruhdan

D) Tayyorlovdan

68. Tayyorlov guruhida mashxur sarkardalardan kimlarni bilish kerak?

A) A.Temur, J.Mangubedi, Z.M.Bobur

B) CHinizxon, Mo'g'ulxon

C) Kuntug'mish

D) Z.M.Bobur

69. Juda to'g'ri talaffuz qilish qoidasi?

A) Orfoepiya

B) Nutq

C) Sur'at

D) Temp

70. Bolani o'z tajribasidan hikoya tuzish qaysi guruhda boshlanadi?

- A) O'rta
- B) Katta
- C) Kichik
- D) Tayyorlov

71. "Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo saodat, yo halokat masalasi" degan fikrni kim bildirgan?

- A) A.Avloniy
- B) Nabieva
- C) SH.Sodiqova
- D) U. SHodieva

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. –T. O'zbekiston. 2012.
2. O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi O’RQ 595-sonli qonuni 2019-yil, 16-dekabr
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni. –T.: O'zbekiston, 2020yil, 23 sentyabr.
4. Maktabgacha ta’lim tizimi boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3955-sonli Qarori. 2018-yil 30-sentyabr
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PF-5198-sonli Farmoni. 2017 yil 30 sentyabr.
6. “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil, 8 may.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini. 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi PQ-4312–son qarori
8. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22-dekabrdaagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to’g’risida” gi 802-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari 2018yil, 18 iyun.
10. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. Toshkent, 2018 yil.
11. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va va metodikasi. T.: “ISTIQLOL, 2006y. O’quv qo’llanma
12. D.R. Babaeva “Nutq o’stirish metodikasi” T.: Fan va texnologiyalar 2009y. O’quv qo’llanma
13. D.R. Babaeva “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” T.: “Barkamol avlod fayz” 2018 y. Darslik.
14. D.R. Babava “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” T.: TDPU 2017 y O’quv qo’llanma.
15. Q. S. SHodieva “O’rta guruh bolalari nutqini o’stirish” T.: “O’qituvchi” 1993 y. O’quv qo’llanma

16. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2017 y
17. D.R. Babaeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi xuzuridagi "Intellectual mulk agentligi".-T.: 2020 y (elektron darslik).
18. F.R. Qodirova «Nutq o'stirish metodikasi» O'UM T.; 2012 yil. (elektron).
19. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni ivojlantirishning ruhiy omillari. - Sariog'och. 1998 y.
20. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T.; 2001y.
21. Xrestomatiya po teorii i metodike razvitiya rechi detey doshkolnogo vozrasta. / Sost. M.M.Alekseeva, V.I.Yashina. – M., 1999 y.
22. Tixeeva E.I. Razvitae rechi detey. M., «Prosveadanie», 1981.
23. Usova A.P. Russkoe narodnoe tvorchestvo v detskom sadu.. M., 1972.
24. Flerina E.A. Esteticheskoe vospitanie doshkolnikov. M., 1961.
25. Leontev A.A. Slova v rechevoy deyatelnosti. M., 1965.
26. Axborot manbaalari ..
27. www.tdpu.uz -
28. www.pedagog.uz
29. www.ziyonet.Uz
30. www.edu.uz

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-§. Nutqni o`stirish metodikasi fanining ilmiy-nazariy asoslari.....	6
2-§. Bolalarni nutqini o`stirish fanining maqsad va vazifalari	23
3-§: Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish metod va vositalari.....	46
4-§. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida o`rta guruh yoshidagi bolalar nutqini o`stirishning vazifalari, metodlari va vositalari	58
5-§. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalar nutqini o`stirishning metodlari va vositalari	64
6-§: Ravon nutqni rivojlantirish.....	76
7-§: Bolaning iltimoij va shaxs sifatida shakllanishida diologik nutqning ahamiyati.....	87
8-§: Maktabgacha yoshdagi bolalarni monologik nutqga o`rgatish metodikasi	94
9-§: Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug`at ishini olib borishning nazariy asoslari.....	99
10-§: Bolalar lug`atini boyitishda ta`limiy o`yinlarning roli.....	110
11-§: Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida o`yinlar va ularning mazmuni.....	116
12-§: Tovushlarning to`g`ri talaffuzi yuzasidan olib boriladigan ishlar mazmuni.....	121
13-§: Tovush hosil qilishda ishtirok etadigan turli organlarning ahamiyati.....	132
14-§: Maktabgacha yoshdagi bola nutqning grammatik to`g`riligini shakllantirish metodikasi.....	151
15-§: Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida aqliy tarbiya berish metodikasi	176
16-§: Suhbat turlari va uning mazmuni.....	186
17-§: Suratlar bilan o`tkaziladigan suhbatlar	201
18-§: Hikoya qilib berish turlari va metodlari.....	211
19-§: O`yinchoq va predmetlarga qarab hikoya qilishga o`rgatish	220
20-§: Badiiy asarni sahnalashtirish turlari va uni qo`yib ko`rsatish metodlari	239

21-§: Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ nutqiy rivojlanishida teatr o'yinlarining ahamiyati.....	248
22-§: Bolalarni ertak kitoblari bilan tanishtirish texnologiyalari...	257
23-§: Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida nutqini rivojlantirish texnologiyasi	269
24-§: Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash metodikasi	279
25-§: Bolalarni savod o'rgatishda tovush va xarflardan foydalanish usullari.....	286
26-§: Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan pedagogik talablar	294
27-§: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilada nutq o'stirish bo'yicha metodik ishlar.....	306
28-§: Bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning o'rni.....	323
29-§: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedialardan foydalanish usullari	338
30-§: Maktabgachata'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan pedagogik kengash vazifalari.....	363
GLOSSARIY	374
Test topshiriqlari.....	387
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	398

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
§ 1. Научно-теоретические основы методологии развития речи	6
§ 2: Тсели и задачи науки о развитии детской речи	23
§ 3: Методы и средства развития речи детей младшего возраста в дошкольных образовательных организациях	46
§ 4: Методы и средства развития речи детей средней группы в дошкольных образовательных организациях	58
§ 5: Методы и средства развития речи больших-групп детей в дошкольных образовательных организациях	64
§ 6: Развитие беглой речи	76
§ 7: Значение диалогической речи в формировании ребенка как народа и как личности	87
§ 8: Методика обучения дошкольников монологической речи	94
§ 9: Теоретические принтсипы проведения лексической работы с дошкольниками	99
§ 10: Роль образовательных игр в обогащении словарного слова детей	110
§ 11: Игры и их содержание в дошкольных образовательных организациях	116
§ 12: Содержание произведения, связанное с правильным произношением звуков	121
§ 13: Значение различных органов, участвующих в производстве звука	132
§ 14: Методика формирования грамматической правильности речи дошкольника.....	151
§ 15: Технологии психического воспитания в дошкольных образовательных организациях.....	176
§ 16: Виды разговора и его содержание	186
§ 17: Интервью, проводимые с фотографиями	201
§ 18: Виды и способы создания истории	211
§19: Обучение рассказыванию на основе игрушек и предметов.....	220

§ 20: Виды постановки художественного произведения и способы его показа	239
§ 21: Роль театральных игр в коммуникативном речевом развитии дошкольников	248
§ 22: Методика ознакомления детей с сказками.....	257
§ 23: Методика развития речи детей в процессе знакомства с окружающей средой	269
§24: Методика подготовки детей к обучению грамотности....	279
§ 25: Способы использования звуков и букв в обучении детей грамотности.....	286
§ 26: Педагогические требования к речи учителя	294
§ 27: Методические работы по дошкольным образовательным организациям и развитию речи в семье	306
§ 28: Роль родителей в подготовке детей к школе	323
§29: Методы использования мультимедиа в обучении грамотности детей.....	338
§30: Обязанности педагогического совета, проводимых в дошкольных образовательных организациях	363
ГЛОССАРИЙ	374
ТЕМАТИЧЕСКИЕ ПРОВЕРОЧНЫЕ ЗАДАНИЯ	387
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ	398

TOBLE OF CONTENTS

INTRODUCTION	3
TOPIC 1: Scientific and theoretical basis of speech development methodology	6
TOPIC 2: Goals and tasks of the science of developing children's speech	23
TOPIC 3: Methods and tools of speech development of young children in pre-school educational organizations	46
TOPIC 4: Methods and tools of speech development of middle group children in pre-school educational organizations	58
TOPIC 5: Methods and tools of speech development of large groups of children in preschool educational organizations	64
TOPIC 6: Development of fluent speech	76
TOPIC 7: The significance of dialogical speech in the formation of a child as a people and as a person	87
TOPIC 8: Methodology of teaching pre-school children to monological speech	94
TOPIC 9: Theoretical principles of doing vocabulary work with preschool children	99
TOPIC 10: The role of educational games in enriching children's vocabulary	110
TOPIC 11: Games and their content in pre-school educational organizations	116
TOPIC 12: The content of the works resulting from the correct pronunciation of sounds	121
TOPIC 13: The significance of the various organs participating in sound production	132
TOPIC 14: The methodology of forming the grammatical correctness of the preschool child's speech.....	151
TOPIC 15: Technologies of mental education in pre-school educational organizations	176
TOPIC 16: Types of conversation and its content	186
TOPIC 17: Interviews conducted with pictures.....	201
TOPIC 18: Types and methods of making a story	211
TOPIC 19: Teaching storytelling based on toys and objects	220

TOPIC 20: Types of staging an artistic work and methods of showing it.....	239
TOPIC 21: The role of theater games in the communicative speech development of pre-school children	248
TOPIC 22: Methodology of introducing children to fairy books.....	257
TOPIC 23: The methodology of children's speech development in the process of acquaintance with the environment.....	269
TOPIC 24: Methodology of preparing children to learn literacy	279
TOPIC 25: Methods of using sounds and letters in teaching children to literacy.....	286
TOPIC 26: Pedagogical requirements for teacher speech.	294
TOPIC 27: Methodological works on preschool educational organizations and speech development in the family	306
TOPIC 28: Role of parents in preparing children for school	326
TOPIC 29: Methods of using multimedia in teaching their children to literacy.....	338
TOPIC 30: Duties of pedagogical council held in pre-school educational organizations	363
GLOSSARY	374
SUBJECT TEST TASKS.....	387
LIST OF REFERENCES	398

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

N. J. Abdusamatova

NUTQ O‘STIRISH METODIKASI

Darslik

Muharrir: S. Abdunabiyeva
Badiiy muharrir: K. Boyxo‘jayev
Kompyuterda sahifalovchi: B. Muxtorov

Nashr. lits. AA № 0038.
Bosishga ruxsat etildi: 11.11.2023-yil.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi.
“New Times Roman” garniturası.
Shartli b/t 25,5. Nashr hisob t 25,5.
Adadi 100 dona. 97-buyurtma.

“O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” nashriyotida tayyorlandi.
100012, Toshkent sh. Sirg‘ali tum. 5-mavzey, Yangi Qo‘yliq, 24.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq 4 mavze, 46.

